

QOZOQBOY YO‘LDOSHEV, VALIJON QODIROV,
JALOLBEK YO‘LDOSHBEKOV

ADABIYOT

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
9- sinfi uchun darslik sifatida tavsiya etgan

I QISM

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3- nashri

“Yangiyo‘l poligraf servis”
Toshkent — 2014

83.3(50⁴)

Y 69 Y 69

Yoʻldoshev Qozoqboy.

Adabiyot: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 3- nashri. /Qozoqboy Yoʻldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yoʻldoshbekov; [Masʼul muharrirlar: V.Rahmonov, K.Usmanova]. —T.: Yangiyoʻl poligraf servis, 2014. — 200 b.

I. I,2 Muallifdosh.

BBK 83.3(50⁴) ya 721

Taqrizchilar: *H. Boltaboyev — OʻzMU professori, filologiya fanlari doktori;*
M. Qoʻchqorova — A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi;
M. Valiyeva — Toshkent shahridagi 274- maktab oʻqituvchisi;
Sh. Toshmirzayeva — XTV tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan maktab oʻqituvchisi;
M. Mirhabibova — Toshkent shahridagi 155- maktab oʻqituvchisi.

Masʼul muharrir: *Vahob Rahmonov — filologiya fanlari nomzodi, dotsent;*
Komila Usmanova — Respublika Taʼlim markazi bosh metodisti.

Badiiy adabiyot yoxud maʼlum bir asarning inson ruhiyati va tafakkuriga taʼsiri sababi haqida oʻylab koʻrganmisiz? Balki bu savolga badiiy asarlar bilan ilmiy risolalarni solishtirib koʻrish orqali javob izlarsiz. Ammo siz, aziz oʻquvchilar, mazkur darslikni diqqat bilan oʻqib-oʻrganib chiqsangiz, yuqoridagi savolga soʻz mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy, mutafakkir shoir Zahiriddin Muhammad Bobur yoki oʻzbek romanchiligiga asos solgan Abdulla Qodiriy, otashnafas shoir Choʻlpon va boshqa ijodkorlar asarlaridan toʻliq javob topasiz.

“Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan ijara uchun chop etildi”

ISBN 978-9943-361-53-9

© Yoʻldoshev Q. va boshq.
 © Yangiyoʻl poligraf servis, 2014- y.

RUHIY KAMOLOT VOSITASI

Badiiy adabiyotning asosiy ish quroli soʻzdir. Oʻzi koʻzga ham koʻrinmaydigan soʻz yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalar, balki boshdagi oʻylar, koʻngildagi sezimlargacha ifodalash mumkin. Shuning uchun ham sanʼat turlari orasida adabiyot alohida oʻrin tutadi. Insonning oʻy-xayollari, istag-u armonlari badiiy adabiyotda toʻlaroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda tasvirlangan hayot serqirra va taʼsirli boʻladi. Tasavvur qilaylik, siz “Alpomish” dostonini oʻqiyapsiz. Bilasizki, asardagi voqealar bundan minglarcha yillar oldin qayerdadir, kimlar bilandir roʻy bergan, ehtimol, hech qachon boʻlmagandir ham. Asar qahramonlari sizga qarindosh ham, yaqin ham emaslar. Lekin ularning taqdiri sizning taqdiringizga, tuygʻulari siznikiga qoʻshilib ketadi, oʻzingizni ulardan ayri tasavvur qilolmaysiz. Doston qahramonlari taqdirining, umuman, badiiy asarning tuygʻularingizga bunchalar qattiq taʼsir koʻrsatishi, sizning sezimlaringizni bezovta qilishi sababi haqida beixtiyor oʻylab qolasiz.

Badiiy adabiyot, umuman, sanʼat asarlarining inson ruhiyati va tafakkuriga taʼsiri sababi nimada ekan? Bu savolga beriladigan javob tushunarliroq boʻlishi uchun badiiy va ilmiy adabiyotlarni bir-biriga solishtirib koʻrish kerak. Siz “Tabiatshunoslik” va “Geografiya” fanlari orqali kecha-kunduzning eng goʻzal va soʻlim payti boʻlmish tong toʻgʻrisida, yer ga hayot baxsh etuvchi Quyosh haqida bir talay maʼlumotlarga egasiz. Quyosh boʻlmasa, yerda tiriklik boʻlishi mumkin emasligi va buning sababi ilmiy tushuntiriladi. Bu maʼlumotlar sizning bilimingizni oshirgan. Ular yordamida siz tongga xos belgilarning namoyon boʻlish tarzi haqida maʼlum tushunchaga ega boʻlgansiz. Bu xil bilimlar, shubhasiz, sizning tafakkuringizni oʻstirgan-u, ammo tuygʻularingizga deyarli taʼsir qilmagan.

Endi shoir Faxriyor tongning otishi tasvirini qanday badiiy manzara orqali berganiga eʼtibor qiling: **“Tong oʻrniga qaygʻular otar Kimni?”** Shoir oʻquvchini tong otishi hodisasidan tamoman uzoqqa olib ketganday boʻladi. Aslida-ku, tong qorongʻulikni “otadi” va yorugʻlikning yoyilishiga

sabab bo'lad. Shu bois, odatda, tong hamisha quvonch va shukronalik bilan birga tasavvur qilinadi. Keltirilgan satrlarda esa odatiy tasavvur buzilgani, ya'ni tong o'rniga qayg'ular otishi aytilishi shunchaki axborot bo'lmagani uchun odamdand darhol fikrlashni, munosabat bildirishni talab qiladi va oldiga qator savollar qo'yadi: Qayg'ular qanday, nega va kimni otadi? She'riy so'zning sehri, siri ayni shu yerda namoyon bo'lad. Kishining ruhi bezovtalanib, o'ylay boshlaydi.

Ijodkor yaratgan asl badiiy asarda doimo fikr bilan tuyg'u qorishib keladi. Yozuvchi hamisha yo nimanidir yoqlaydi yoki inkor qiladi. Ijodkorning betaraf bo'lishi mumkin emas. Chunki chinakam badiiy asar yaratiladigan holat inson tafakkuri va ruhiyatida betaraflik tugagandan so'ng paydo bo'lad. Adibning tuyg'ulari nechog'lik kuchli, ko'zi qanchalar o'tkir, tili qanchalik boy bo'lsa, o'quvchi uning asaridan shunchalik qattiq ta'sirlanadi.

Adabiyot atamasi **tor** va **keng** ma'nolarda qo'llaniladi. U *tor ma'noda* badiiy adabiyotni anglatadi, *keng ma'noda* esa inson tafakkurining mahsuli bo'lmish ijtimoiy ahamiyatga ega har qanday yozma asarni o'z ichiga oladi. Texnikaviy, siyosiy, ma'rifiy, publitsistik, memuar, tarixiy, ensiklopedik, lug'atshunoslik va boshqa son-sanoqsiz yo'nalishdagi adabiyotlar keng ma'nodagi adabiyot tushunchasiga kiradi. Buni ko'pincha ilmiy adabiyot tarzida ham umumlashtiradilar.

Badiiy adabiyot tushunchasi esa olamni obrazli ko'rish va timsollar asosida aks ettirish mahsuli bo'lmish badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Bu xil asarlar nimanidir o'rganish, bilib olish uchun emas, balki inson qalbining tovlanishlarini, tuyg'ularining ranginligini his etish, uning quvonch-u iztiroblarini tuyish uchun o'qiladi. Shu bois ***kishilarning faqat aqliga emas, balki tuyg'ulariga ham ta'sir qilib, ularning hissiyotini boyitish, ruhiyatini sog'lomlashtirishga xizmat qiladigan bitiklar badiiy adabiyot hisoblanadi*** va adabiyot atamasi asosan shu ma'noda qo'llaniladi.

Badiiy adabiyotning qachon paydo bo'lganligini aniq aytish qiyin. Chunki ilmiy adabiyot atamasi yozma mahsulotlarnigina qamrab olsa, badiiy adabiyot tushunchasi og'zaki ijodni ham o'z ichiga oladi. Xalq og'zaki ijodining qachon paydo bo'lganligini aniqlash deyarli mumkin emas. Har holda, odamzod paydo bo'lishi bilan uning badiiy ijodi ham dunyoga

kelgan bo'lishi kerak. Birinchi she'r Odamato tomonidan aytilgani rivoyat qilinadi.

Badiiy adabiyot san'atning muayyan shakl-shamoyilga ega hamda ushlasa bo'ladigan moddiy materialdan barpo etiladigan boshqa turlaridan imkoniyatining kengligi va aralash (sinkretik) ligi bilan ajralib turadi. Misol uchun haykaltarosh tosh yoki ganch bilan, rassom bo'yoq va mato bilan, musiqachi soz va uning torlari bilan ish ko'radi. Bu san'at asarlari qayerdan vujudga kelganligini ko'rish va ijrochini bevosita kuzatish mumkin.

Adabiyot ulardan jiddiy farq qilib, badiiy asar yaratiladigan maxsus materialga ega emas. Badiiy asar xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, so'z yordamida yaratiladi. Adabiyot shunday san'atki, unda odam hayotining hoziri qanday tasvirlansa, o'tmishi ham, kelajagi ham shunday aks ettirilishi mumkin. ***Yozuvchi insonning eng murakkab fikrlarini, yuksak tuyg'ularini ko'z bilan ko'rishning, quloq bilan eshitishning imkoni bo'lmagan sezimlarini ham so'z orqali ifoda etadi.***

Chunonchi, hazrati Navoiy g'azalidan olingan:

*Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,
Unda yo'q ibtido paydo, bunda yo'q intiho paydo*

baytida Allohning azalligi, abadligi hamda avvalining boshi bo'lmaganidek oxirining adog'i yo'qligi so'zlarning joylashtirilishi va muayyan tovushlarning takrori tufayli g'oyat jozibali, kishi e'tiborini tortadigan tarzda aks etgan. Shuningdek, bu misralar o'qiyotgan kishidan bir qadar aqliy zo'riqishni ham talab qiladi. Ehtimol, bu satrlarda ifodalangan fikrlar o'zga kishilar tomonidan ham aytilishi mumkin. Lekin hozircha boshqa biror ijodkor Navoiy singari hissiyotni qo'zg'aydigan yo'sinda ayta olmagan va ayni shu jihat misralarning ta'sirchanligini ta'min etgan.

Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli — **xalq og'zaki ijodi** (folklor) bo'lib, uning o'zi ham dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar singari qator janrlarga ajraladi. Og'zaki adabiyot, nomidan ham anglatib turganidek, og'zaki ravishda yaratilgan bo'ladi va uning kim tomonidan dunyoga keltirilganligini aniqlab bo'lmaydi. Og'zaki ijod har qanday yozma adabiyotga tayanch vazifasini bajargan. Ma'lumki, badiiy asarlar qanday maqsadda yaratilishiga (***kuylash*** uchunmi, sahnada ***ko'rsatish*** yoki ***o'qish*** uchunmi) va

nimani ifoda etishiga (**tuyg'uni**, tuyg'uning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan **voqeani** yoki obrazlarning bevosita **harakatlarini**) qarab **lirik**, **epik**, **dramatik** kabi turlarga bo'linadi. Bu adabiy turlarning har biri ham, o'z navbatida, bir qancha janrlarga bo'linib ketadi.

Har bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki **milliy adabiyot — milliy ruhni aks ettiradi**. Milliy ruhni to'laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror-bir vosita badiiy adabiyotga teng kelolmaydi. Shuning uchun ham adabiyoti bo'lmagan millat unutilib ketadi.

Turli bosqinchilar uzoq yillar mobaynida turkiy millatlarini o'zlariga qo'shib, singdirib olish yo'li bilan yo'qotib yuborishga urindilar, hududlarni buzdilar, chegaralarni bosib o'tdilar. Lekin tilimizni yo'q qilolmadilar. Chunki turkiy ota tilimiz faqat o'zaro so'zlashuv vositasigina bo'lib qolmay, Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Fuzuliy, Maxtumquli, Ogahiy, Abay singari adiblarning asarlari yaratilgan til ham edi. Eng muhimi, turkiy tilda yaratilgan bu asarlarda turkiy xalqlarning yo'qolmas va bo'ysunmas ruhi ham aks etgandi.

Ma'lumki, ruh abadiydir. Milliy ruhi saqlab qolingan millat esa yashayveradi. Negaki millatning adiblari va ularning asarlari milliy ruhning yo'qolishiga yo'l qo'ymaydi, jonli obrazlar tasviri vositasida uni tiklab olaveradi. O'z ruhiyatiga ega millat hech qachon o'zligini boy bermaydi. Demakki, dunyo ayvonida o'zining munosib o'rniga ega bo'laveradi.



Savol va topshiriqlar

1. Badiiy adabiyotga xos bo'lgan xususiyatlarni ayting. Uni ilmiy adabiyotga qiyoslang.
2. Ilmiy adabiyotga xos belgilarga to'xtaling. **“Tong o'rniga qayg'ular otar...”** she'riy qatoridagi badiiy obrazlarni topib, tahlil eting.
3. Badiiy adabiyotning turlarga bo'linish asoslarini tushuntiring.
4. Adabiyotda inson hayoti, o'y-fikr va kechinmalari to'laroq aks etishi sababini ayting.
5. Og'zaki adabiyotga xos belgilarni ajratib ko'rsating.
6. Millatning ma'naviy hayotida badiiy adabiyot tutgan o'rinni izohlang.

XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN

Aziz o‘quvchi! Siz o‘zbek xalqining eng ulug‘ dostoni “Alpomish” bilan tanishasiz. Bu dostonni o‘zbekning buyuk baxshisi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan. “Alpomish” dostonining boshqa baxshilar tomonidan aytilgan qirqdan ortiq nusxasini olimlar yozib olishgan. Lekin ularning birortasi voqealarning qiziqarliligi, ifodaning ta’sirchanligi, tasvirning izchilligi, o‘zbek xalqiga xos belgilarni aks ettira olish qudrati bilan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan nusxaga teng kelolmaydi.

Fozil shoir 1872- yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumani Loyqa qishlog‘ida tug‘ilgan. Yetimlikda o‘sgan bo‘lajak shoir cho‘ponlik qilgan vaqtlarida do‘mbira jo‘rligida terma va dostonlar aytishga qiziqqan. Yigitlik chog‘larida davrining taniqli baxshisi Yo‘ldosh shoirdan doston aytish sirlarini o‘rgangan. Ulkan iste’dodi tufayli o‘zbek xalq dostonchiligini yangi bosqichga ko‘targan.

Fozil Yo‘ldosh qirqdan oshiq xalq dostonlarini to‘la yod bilgan va betakror iste’dodi bilan aytgan dostonlarining badiiy jihatdan boshqalarnikidan mukammal bo‘lishiga erishgan. “Alpomish” dostoni nafaqat uning ijodida, balki o‘zbek xalq dostonchiligida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu dostonda o‘zbek xalqiga xos eng ezgu sifatlar haqqoniy hamda ta’sirli aks ettirilgan.

“Alpomish” dostonida o‘zbek xalqining azal-azaldan imon-e’tiqod, or-nomus va yurt birligi yo‘lida o‘zini ayamasligi yorqin aks ettirilgan. Siz dostonni o‘qib, o‘ziga unash-tirilgan qizning qalmoqlar orasida talash, yurtdoshlarining begonalarga xor bo‘lmasligi uchun jonini tikkan Alpomish, Yaratganga imon keltirgani va mo‘minga do‘st tutingani uchun Hakimbekning yonida o‘zining insofsiz yaqinlari hamda qarindoshlariga qarshi kurashgan Qorajon, insoniy fazilatlarini bilan ko‘pchilik erkaklardan baland tura oladigan Oybarchin va Qaldirg‘och timsollari millatimizga xos yuksak insoniy sifatlarni aks ettirganligini ko‘rasiz.

“Alpomish” dostonida o‘zbek millatiga xos eng yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtda, ayrim millatdoshlarimizdagi cheklanganlik va ojizliklar buyuk bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar shunchaki bir doston

emas, balki xalqimizning ma'naviy olami va ruhiyat dunyosini ko'rsatuvchi ko'zgidir. Shuning uchun ham 1999- yilda ushbu doston yaratilganining ming yilligi mamlakatimizda keng bayram qilindi.

Aziz o'quvchi! Agar siz o'zbek degan xalqni yuksaltirgan, uni dunyoga tanitgan axloqiy xususiyatlar nimalar ekanligini tuymoqchi, bobolaringizni olamga mashhur etgan ma'naviy fazilatlarining ildizi qayerdanligini bilmoqchi, ajdodlarning or-nomus, so'zga egalik, bag'rikenglik va kechirimlilik singari jihatlaridan o'rnak olmoqchi bo'lsangiz, dostonni diqqat bilan o'qib chiqing va asarni tushunib yetishga harakat qiling. Bobolarimizning qahramonlik o'tmishiga qiladigan adabiy safaringiz xayrli bo'lsin!

“ALPOMISH” DOSTONI

Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakanining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari – ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri shoy edi. Bu ikkovi ham farzandsiz bo'ldi.

Ana endi o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida bir chupronto'y bo'ldi. Xaloyiqlarni, elativalarni¹ to'yga xabar qildi. Shu to'yga barcha xaloyiqlar yig'ildi. Biylar ham to'yga keldi. To'ydagi kattalar ilgariqiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: “Mazmuni, bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi”, — deb otini o'zlari bog'lab, ma'rakai majlisga kelib o'tira berdi.

Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi — suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko'rib, ilgari izzat ko'rib yurgan odamlar aytdi: “Bizlar o'n olti urug' qo'ng'iro'tning boyi ham shoyi bo'lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko'nglimizni xushlar edinglar, bu daf'a bizdan nima o'tdi, bizni bunday behurmat qildinglar?”

¹ Elatiya — chorva bilan shug'ullanadigan qavmlar.

Bu soʻzni eshitib, oʻn olti urugʻ Qoʻngʻirot elida paygabetdan¹ turib, bir chapanitob boyvachchasi aytdi: “Ey, Boyboʻri bilan Boysari! Bu toʻy oʻgʻillining oʻgʻlidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! Oʻzing oʻlsang, molingga har merosxoʻr chiqadi ogʻziga odam kirib ketadi”.

Biylar bulardan bu gapni eshitib, xafa boʻldi. Xafa boʻlib, sakson tillani chupronga tashlab, turib ketdi. Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uyga yetti. Ikkovi qildi maslahatti. Bu soʻz ikkoviga juda botib ketdi. Boyboʻri turib aytdi: “Boysari uka, qariganda bizning molimiz besohibga² chiqdi. Endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?” Boysari turib aytdi: “Tortib olib boʻlmasa, sotib olib boʻlmasa, xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!” Boyboʻri aytdi: “Shu yerdan Shohimardon pining ravzasi uch kunchalik yoʻl kelar ekan, har kim borib tunar ekan: davlat talab davlat tilar ekan, farzand talab farzand tilar ekan, oxirat talab imon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, nazr-u niyozimizni bersak, Shohimardon pining ravzasini tunlab, biz ham bir farzand tilab koʻrsak”.

Shunda bu gap boylarning ikkoviga ham maʼqul tushib, bir-biriga: “Rost aytasan”, — deb, nazr-u niyozni olib, biylar ikkovi Shohimardon pining ravzasiga³ qarab joʻnamoqchi boʻlib, mindi bedov otdi, uch kun tinmay yoʻl tortdi. Uch kun yoʻl yurib, Shohimardon pining ravzasiga yetdi. Olib borgan nazr-u niyozini shayxlarga berib, biylar ravzani tunab yotdi. Oradan bir kam qirq kun oʻtdi. Bir kam qirq kun deganda ravzadan ovoz keldi: “Ey, Boyboʻriman Boysari, sen bir kam qirq kundan beri tunab yotibsan. Xudoning yaratgan sheri men boʻlsam, bir kam qirq kundan beri bir oyogʻim bilan turib, sizlar uchun oraga tushib, Xudodan farzand tilayman. Yaratgan farzand bermayman dedi”. Biylar bu ovozni eshitib: “Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, xudoning yaratgan sheri siz boʻlsangiz. Bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolgʻon, xudoga sherligingiz yolgʻon. Bor unday boʻlsa, biz ham dunyoning bahridan oʻtdik”, — deb, tappa tushib, ravzada, turbatning ostida yotdi. Qirq kun oʻrtadan aniq oʻtdi,

¹ Paygabet — boʻsagʻa, poygak tomon. ² Besohib — egasiz. ³ Ravza — bogʻ, jannat, avliyolar qabri.

boz ravzadan ovoz keldi: “Boybo‘ri, senga xudoyim bir o‘g‘il, bir qiz berdi. Yolg‘iz emas, egiz berdi. Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi. Egiz emas, yolg‘iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko‘rsang, xaloyiqlarni yig‘sang, to‘y-tomoshalar bersang, to‘yda qalandar bo‘lib borib, bolalaringning otini o‘zim qo‘yib kelaman”.

...Oydan oy, kundan kun o‘tib, to‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat oradan o‘tib qoldi. Boybichalarning oy-kuni yaqin yetdi. Biylar ikkovi aytdi: “Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo‘lga chiqib, bizlardan tilla tanga in‘om olsa”, — deb bu o‘ylarni o‘ylab, biylar ovga jo‘nab ketdi.

Boybichalarga shunda to‘lg‘oq vaqti yaqin yetdi. Ne kampirlar kelib, tulkini inlatgan toziday bo‘lib, boybichalarni angrib, o‘rtaga olib turibdi. Biylar shu vaqtda ovdan qaytdi. Bu yoqdan farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi. Biylar ziyoda vaqti xush bo‘lib, mazgiliga kelib, joy olib, vaqti xushligidan har tarafga xabar yuborib, to‘y-tomoshalar qilmoqchi bo‘lib, chog‘lanib, sozlanib, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarni yig‘dirib, “to‘y qilamiz”, deb maslahat qildi. O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elining odamlari, eshitgan xaloyiqlar gurros-gurros bo‘lib kelaverdi. Shunda katta-kichiklar kelib, biylar og‘zidan “to‘y qilamiz”, deganini eshitib, to‘yning asboblarini tuzab, qancha so‘qim mollarni so‘yib, osh-palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to‘yib, shul alpozda o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irotning bor odami to‘yni qilib, hammalari jam bo‘lib, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib yotdi. ...To‘y tarqaydigan kun bo‘ldi. Bir vaqt, shunda biylar qarasa, uzoqdan bir qalandar ko‘rinib kelaverdi. Xaloyiqlar ham ko‘rdi: tarzi gul yuzli, shirin so‘zli, bir siyosatli kishi qalandar bo‘lib kelayotir. O‘zga kishilarga u qalandarning holi-ahvoli ma‘lum emas. Ravzadagi so‘zlagan ovozni eshitgani sababli: “Shohimardon pirim shul kishi bo‘lmasa”, — deb, biylar o‘rnidan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab olib keldi. Shunda farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon purning etagiga soldi. Shohimardon pir Boybo‘rining o‘g‘lini otini Hakimbek qo‘ydi. O‘ng kiftiga besh qo‘lini urdi. Besh

qo‘lini o‘rni dog‘ bo‘lib, besh panjaning o‘rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg‘ochoyim qo‘ydi. Boysarining qizini otini Oybarchin qo‘ydi. Ana shunda Shohimardon pir Hakimbekka Oybarchinni unashtirib, beshikkerti qilib: “Bu ikkovi er-xotin bo‘lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo‘lolmasin. Omin, Ollohu akbar”, — deb, fotihani betiga tortdi. Shohimardon pir turib, jo‘nab ketdi, odamlarning ko‘zidan g‘oyib bo‘lib ketdi. Ana shuytib, biylarning to‘ylari ham tarqab ketdi.

Shunda bolalar kundan kun o‘tib, oydan oy o‘tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchchovini ham maktabga qo‘ydi. Ular maktabda o‘qib yurib, yetti yoshga kirdi. Burro savodi chiqib, xat o‘qib, yozadigan mulla bo‘ldi. Shunda Boybo‘ribiy: “Endi o‘g‘lim savodi chiqib, mulla bo‘ldi. O‘g‘limga endi shohlik, sipohlik ilmini o‘rgatayin”, — deb mulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo‘riga taassub qildi. Bul ham Oybarchin qizini maktabdan chiqarib oldi. “Chiqarib olib, qizimga Ko‘kqamish ko‘lida qo‘y sog‘dirib, chorvadorlik ilmini o‘rgatayin, qo‘y sog‘moqqa usta bo‘lsin”, — dedi.

Shunda Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinchdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ning katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozasi olamga ketdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig‘ilib kelib aytdi: “Dunyodan bir kam to‘qson alp o‘tdi. Alplarning boshlig‘i Rustami Doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo‘lsin. To‘qson alpning biri bo‘lib, sanaga o‘tdi”, — dedi. Oxiri Alpomishbek alp bo‘lib, to‘qson alpning biri bo‘lib, sanaga o‘tib, alplik otini ko‘tardi, yetti yoshida Alpomish ot qo‘yildi.

Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o‘qib o‘tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo‘ribiy shunda o‘g‘li Alpomishdan: “Kishi nimadan baxil bo‘ladi, nimadan saxiy bo‘ladi?” — deb so‘radi. Shunda o‘g‘li turib aytdi: “Vaqtibevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo‘lsa, ko‘nglini xushlab jo‘natsa, bul ham saxiy; agar joy bor turib,

joy yo‘q, deb qo‘ndirmay jo‘natsa, bul odam baxil. Vaqti-bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o‘tsa, chap oyog‘ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqqiga duo o‘qib o‘tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o‘tganda, chap oyog‘ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqqiga duo qilmay o‘tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan”.

Bul so‘zni Boybo‘riy Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: “Men o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elining ham boyi bo‘lsam, ham shoyi bo‘lsam, men kinga zakot beraman. Mening davlatimda yolg‘iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin”, — deb, o‘z ko‘nglida: “Boysaribiy ukam menga zakot berishi kerak ekan”, — deb o‘yladi. O‘ylab: “Boysariga boringlar, Boysari o‘z rozichiligi bilan bir chichqoq uloqni zakot deb menga bersin. Zakot o‘rniga o‘tar-da, Boysari baxil bo‘lib, baxillikka chiqib ketmasin”, — deb o‘n to‘rt mahramni buyurdi.

Boysaribiy o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borib, Ko‘kqamish ko‘lida eliboylik qilib, mollarini semirtirib, yaylovda joylab yotib edi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, shag‘al mast bo‘lib, o‘z kayf-safosi bilan o‘tirib edi. Ana shunda otining bo‘yniga tilla qo‘tos taqilgan o‘n to‘rt mahram Boybo‘ridan Boysarini so‘rab borib qoldi. Shundagi boyvachchalar bularning kelganini bilib, eshikka chiqib, mahramlarning otini ushlab qoldi. Mahramlarni ichkariga olib kirdi. Boysari bulardan yo‘l bo‘lsin, qilib savol so‘radi. Mahramlar savolga javob berib aytdi: “Biz akangdan kelgan zakotchi bo‘lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. “Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar”, — deb yuborgan”, — dedi.

Bu so‘zlarni mahramlardan eshitib, Boysari ko‘ngliga og‘ir olib, aytdi: “Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo‘lmagan, endi akamiz o‘g‘illi kishi bo‘lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo‘libdi-da”. Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldidagi o‘zining odamlariga buyurdi: “Ushla, bachchag‘arlarni!” — dedi. Boyvachchalar mahramlarni bitta-bitta ushlab qoldi. U yettovining quloq-burnini kesib, o‘zlariga yegizib, otiga chappa mingizib, otning

ustiga tortib boylab, “Mana buni zakot deb aytadi”, — deb Qo‘ng‘irot tarafiga haydab yubordi.

Shunchalik ishni qilsa ham, Boysaribiyga zakot degan gap nihoyatda o‘tib ketgan ekan: “Endi biz o‘z yurtimizda sig‘indi bo‘lib, o‘z akamizga zakot berib yuradigan bo‘lsak, bu elda bizning turgiligimiz qolmadi”, — deb, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eliga qarab: “Endigi maslahat nima bo‘ldi?” — deb turgan ekan:

Oh urganda oqar ko‘zdan selob yosh,
 Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh,
 Qo‘ng‘irot eldan molga zakot kelibdi,
 Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh!
 Qursin, Hakimbegi mulla bo‘libdi,
 Bezakot mollarni harom bilibdi,
 Qo‘ng‘irot eldan molga zakot kelibdi,
 Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh.
 Dardli qul dardimni kimga yoraman,
 Ayriliq o‘tiga bag‘ri poraman,
 Mina elda sig‘indi bo‘p turaman,
 O‘z akama qanday zakot beraman?!
 Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh!
 Mina elda men ham bekman, to‘raman,
 O‘z akama qanday zakot beraman?!
 O‘z akama o‘zim zakot berguncha,
 Qalmoq borib juz‘ya¹ berib yuraman...

Ana shunda Boysaribiy bu so‘zlarni aytdi. Shu turgan xaloyiqlardan hech bir sazo chiqmadi. Shu majlisda bir Yortiboy oqsoqol degan bor edi. Majlisli kun bo‘lsa, to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida kovishga joy bermay, kovish bilan aralashib, it yiqilish bo‘lib, paygabetda yotar edi. To‘rda o‘tirgan kattaman deb yurganlarning hech qaysisidan gap, sazo chiqmagandan keyin poygabetdan Yortiboy o‘rnidan turib, maslahat shul-da, — deb Boysarining so‘ziga javob berib, Boysariga qarab, bir so‘z deb turibdi:

Maslahat bermaymiz Boysariboyga,
 Osilmaymiz Boybo‘rining doriga,

¹ Juz‘ya — g‘ayridinlarga solinadigan soliq.

Biring — aka, biring — uka, Boysari,
 Maslahatni, shohim, o‘zing bilasan.
 ...Biz bilmaymiz Boybo‘rining ishini,
 Maslahatga yig‘ib shuncha kishini,
 Kim maslahat bersa, kesar boshini.
 Maslahat bermaymiz Boysaribiyga,
 Osilmaymiz Boybo‘rining doriga.

Boysaribiy Yortiboydan bu so‘zni eshitib, tag‘i o‘zi bu turgan odamlarga qarab, bir so‘z dedi:

Quloq soling Boysarining tiliga,
 Ko‘chib ketay menam Kashal eliga.
 Davlat qo‘nsa bir chibinning boshiga,
 Semurg‘ qushlar salom berar qoshiga,
 Quloq soling Boysari nolishiga,
 Qalmoq borib qo‘nsam Chilbir dashiga.
 Kalma shahodat musulmonning tiliga,
 Azamat bosh berar dinning yo‘liga,
 Turarim yo‘q Boysun-Qo‘ng‘irot eliga.
 O‘z elim deb yana bunda turganacha,
 O‘z akama o‘zim zakot berganacha,
 O‘z akamdan bunday xo‘rlik ko‘rganacha,
 Qalmoq borib juz‘ya bersam bo‘lmaymi?
 Zakot degan gapni akam chiqarib,
 Mening toza ulsizligim bildirdi.

Boysaridan bu so‘zni Yortiboy eshitib, Yortiboy ham Boysaribiyga qarab bir so‘z dedi:

Dam shu damdir o‘zga damni dam dema,
 Boshing eson, davlatingni kam dema,
 Sen ketar bo‘lsang Qalmoq yurtiga,
 Bul elatni qolar deb ham g‘am yema.
 Qayga ko‘chsang, bizlar birga boramiz,
 Bolalarni jahongashta qilamiz...

Yortiboy oqsoqolning aytgan gapi o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli katta-kichigining bariga ma‘qul tushdi. Hammasi: “Boysari ko‘chsa, bizlar ham ko‘chib ketayik, Boysari o‘lik yerda — o‘lik, tirik bo‘lsa — tirik; endi Boysin-Qo‘ng‘irot yurtini Boybo‘riga bo‘shatib berayik, Boysin-Qo‘ng‘irot yurtini bir o‘zi joylab olsin”, — dedi.

O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elidan o‘n ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan eliboilar ayrilib, Boysariga qo‘shildi. Bular hammasi boy — qo‘yli, tuyali. Molining soni yo‘q edi. Bularning ichidan moli yo‘q degan kambag‘alining qirq ming tuyasi bor, qo‘yining sonini, adadini o‘zlari ham bilmas edi. Bir qo‘ra, ikki qo‘ra, o‘n qo‘ra deb, sanagani shul edi. Yilqi, mollarini bir uyur falon to‘qayda yuribdi, ikki uyur falon to‘qayda yuribdi, der edi. Sonini sanamoqni hech qaysisi bilmas edi. Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol boylik qilar edi. Shuning bilan ovqatlarini o‘tkazar edi. Boysariboyning yilqisining soni shul edi: to‘qson to‘qay yilqisi bor edi. To‘qson to‘qay degani — yilqisi har yerlarda: to‘qaylarda, tog‘larning darasida, to‘qayli yerlarda yoyilib yurar edi. To‘qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysariboyning to‘qson to‘qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining, molining sonini hech bilmas edi.

...O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot taloto‘p bo‘lib Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, “Ha!” — deb, ko‘cha berdi. Hammasi birdan ko‘chib, o‘n ming uyli el Boybo‘ridan araz urib, ...Boysari bilan birga ko‘chib jo‘nay berdi. Ayollarga ham yaxshi otlarni olib kelib tortdi. Bu ayollar ham otlarni minib, chog‘lanib, jo‘namoqchi bo‘lib, Barchinoyga, enasiga qarab turdi.

Ana shunda enasi Barchinoyni ham jo‘natmoqchi bo‘lib, Barchinoy uchun to‘riq yo‘rg‘a otni tabladan¹ olib kelib, ustiga mayin, toza, muloyim baxmal parquvlardan solib, tilla yuganlarni boshiga solib, juda choqlab, otning jilovidan ushlab olib keldi. Ana shunda enasining bul otni yetaklab olib kelganini ko‘rib, Barchinoy shunday qarasa, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining hammasi ko‘chib taloto‘p bo‘lib, shovqin qilib borayotibdi.

...O‘n ming uyli Boysin-Qo‘ng‘irot elining jo‘nashini Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘li shunday tasvirleydi:

Chechanlar eplaydi gapning epini,
Shul zamonda oltmish norni cho‘ktirib,
Orta berdi Barchin suluv sepini.
Qo‘ng‘irot elning shundaychaqa ko‘pi bor,

¹ Tabla — ot boylanadigan joy.

Boysarining ikki jildam to'pi bor,
 Har ko'chkanda to'p bo'shatib jo'nadi.
 Qatorga tirkalgan lo'k¹ bilan norcha²,
 Ustiga yuklangan qirmizi parcha.
 Kamlikni ko'rmagan satta boybachcha,
 Yo'l-yo'lakay uloq chopib boradi.
 Oshiqning fahmidir qorong'u kecha,
 Yig'lasam, holima yig'lar bir necha,
 Xafa bo'lib borar Barchin oyimcha,
 Jafo tortib borayotir bir necha.
 G'am bilan sarg'ayib guldayin diydor,
 Ko'rgani yo'q qanday edi qalmoqlar,
 Orasida to'qson dovon tog'i bor,
 Bellardan³ oshadi ul zamon boylar.
 Qaba⁴ falak boshga soldi zulm deb,
 Eliboylar⁵ bundan ko'chib boradi,
 Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.
 Ayрилиq o'tiga bag'rini dog'lab,
 Borayotir qalmoq elni so'roqlab...



Savol va topshiriqlar

1. Aka-uka biylarning to'yda izza qilinishi sababini izohlang.
2. Izza bo'lgan biylar qanday holatga tushdilar? Izohlang.
3. Zakot voqeasi tasviri asosida Boybo'ri va Boysari munosabatlarini baholang. Bu aka-ukalarning xarakteri va ichki dunyosini qanday baholaysiz?
4. Boysarining zakotni noto'g'ri tushunishi sababini izohlang.
5. Yortiboy obrazi tasviriga e'tibor bering. U sizda qanday taassurot qoldirdi?
6. Doston tasviriga tayanib, eliboy qo'ng'irotlarning boyligi haqidagi tasavvuringizni aniqlashtirib oling.
7. O'z yurtidan Qalmoqqa ko'chib borayotgan Barchin, umuman, eliboylarning kayfiyati, kechinmalariga diqqat qiling.
8. Bolalarga ot qo'yilayotgan vaqtda ularning taqdirleri belgilangani, keyinchalik kattalarning bu taqdirni o'zgartmoqchi bo'lganligi va buning oqibati haqida doston matni asosida so'zlang.

¹ Lo'k — yuk tashiydigan tuya. ² Nor — erkak tuya. ³ Bellar — dovonlar. ⁴ Qaba — tartibsiz. ⁵ Eliboylar — chorvadorlar.

* * *

...Toychi viloyatinda Qalmoq muzofotinda bir Surxayl degan kampir bor edi. Juda haddili zo‘r kampir edi, bu kampirning yetti o‘g‘li bor edi. Yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini Ko‘kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko‘kaman der edi, Ko‘kqashqa der edi, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘sh-quloq, kenjatoyini Qorajon der edi. Shu yettoviga tirlashgani qalmoqshoh har mamlakatdan alplarni olib kelib, Kashal g‘oridan joy berib, bularni To‘qayistonda boqib yotar edi. Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp. Har qaysisi to‘qson botmon temirdan sovut kiygan, har kuniga to‘qson shirbozning etini tatil qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so‘m moyana olgan xo‘p birlamchi zo‘r polvonlar. Boysarining qizi Barchinni bular ko‘rgani yo‘q. Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo‘yi yetgan, har yag‘rini o‘n besh qarich keladi. Bu ham alp. Orqavaron eshitib, shu musofir boylarda bir qiz bor emish deb, bular ham o‘zavonda maslahat qiladi. Goh biri olmoqchi bo‘ladi, goh bari olmoqchi bo‘ladi, goh hammasi o‘rtada xotinli bo‘lib qolmoqchi bo‘ladi. Necha vaqtlar ko‘rmasi shu maslahatni qilib yurdi.

Ko‘kaldosh alp turib aytdi: “Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo‘lmas. Yuringlar, to‘qsonimiz ham boraylik. O‘zbekning qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik. O‘rtada javlik¹ xotinli bo‘lib qolaylik deb, javlik otlandi. Otini minib, Kashal g‘oridan jo‘nab, To‘qayistonni oralab, Chilbir cho‘liga chiqib, ko‘p elga qarab, Boysarinikini so‘rab, alplar borib qoldi. Hammasi Boysari uyining tevaragida jam bo‘ldi. Alplar to‘planib turdi. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh: “Kelganboy!” — deb chaqirdi. Boysari uyda o‘tirib edi: “Labbay”, — deb uyidan chiqdi. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh turib aytdi: “Kelganboy, sening bir qizing bor ekan. Qani, birimizga berasanmi, barimizga berasanmi? Birimiz olaylikmi yo barimiz olaylikmi? Shu so‘zga nima javob aytasan?”

Bu so‘zni eshitib, Boysari nima javob aytarini bilmay, xayoli qochib, nash‘asi uchib, o‘ylanib: “Hoy alplar, ertan choshkagachayin muhlat beringizlar. Ertan choshkada aylanib kelinglar. Yo biringizga berayik, yo baringizga berayik, biz bir o‘ylashib ko‘rayik”, — dedi.

¹ Javlik — hamma, yoppa.

Ertan choshkagachayin muhlat berib, alplar qaytdi. ...Endi Boysari semiz qo‘ylarni so‘yib, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining odamman deganini jiyib¹, sho‘rvasiga to‘yib, go‘shhini korsonga sop, oldiga opkep qo‘yib: “Burungi kunimiz ham tuzuk ekan, ishimiz sop zo‘rga tushdi. Ertan choshka alplar kelsa, nima javob beramiz”, — deb, qarindoshlariga qarab, Boysari maslahat so‘rab turgan ekan:

Oh tortganda ko‘zdan oqar selob yosh,
Barchinoyim bo‘y yetgandir qalamqosh.
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh,
Alplar kelsa nima javob beraman,
Tong otganча muhlat olib turaman,
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!
Yuragim to‘lgandir diydai g‘amda
Barchinoyini o‘z tengiga qo‘shmasam,
Mahshar kuni Barchin qo‘li yoqamda.

Bu so‘zni eshitib, turgan xaloyiqlardan hech sado chiqmadi. Bir Yortiboy oqsoqol degani bor edi. Boysariga qarab, Yortiboy bir so‘z deb turgan ekan:

Xon Boysari, eshit aytgan so‘zimdi,
Bu ellarga boshlab kelgan o‘zingdi.
Tortinmay beraber endi qizingdi,
Hazil bilma, mening aytgan so‘zimdi.
Bu alplarni kuyov qilib olamiz,
Mina elga toza erkin bo‘lamiz.
Bolalarni tog‘a-jivan qilamiz.
Mina elda bizlar davron suramiz,
Maslahatni senga shunday beramiz...

Bu so‘zni Yortiboydan eshitib, Boysarining ko‘ngli buzilib, bu ham bir so‘z deb turgan ekan:

...Yuragimda ko‘pdir alamli dardlar,
Mening qizim — sening singling, nomardlar.
Qizing ber, deb mening ko‘nglim bo‘lasan,
Suyagimni yongan o‘tga solasan...

Bu so‘zni Boysari aytdi. Shu qarindoshlardan nima maslahat chiqar ekan deb, Barchin kelib, tinglab turib edi. Qarindoshlarning so‘zlarini eshitib, otasining ko‘ngli buzilganini bilib, Barchin ham bir so‘z deb turgan ekan:

¹ Jiyib — yig‘ib, to‘plab.

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,
 Maslahat berdi-ku qavmi-qardoshing,
 Ko'p yig'lama, jonim otam, darvishim,
 Eshitmagin qarindoshlar so'zini,
 Qarindoshlar bera qolsin qizini!
 Sen yig'lading, ota, ko'nglim buzildi,
 Diyda giryon bo'lib bag'rim ezildi.
 Xafa qilma, ota, menday qizingdi,
 Qo'ya ber alplarga mening o'zimdi.

Bul so'zni Barchindan eshitib, o'n ming uyli Qo'ng'irotdan hazar qildi: — Bu ham o'zboshimcha juvormak, alplarga baland-past gapirar, buning kasofatiga hammamizni oyoqosti qip bosib ketar. Javob bergich bo'sa, bizning ichimizdan chiqib, xolis yerda turib javob bersin”, — dedi. O'n ming uyli Qo'ng'irotdan chiqarib, Barchinning o'tovini ko'tarib, ho', anaday ovloq tepaning boshiga tikib qo'ydi. Bul o'tovda qirquin kanizlari bilan Barchin o'tirdi. Kunning burni bilan ...to'qson alp yig'ilib kep turibdi: “Qani, Kelganboy, maslahatni qayerga qo'yding? Birimizga bermoqchi bo'ldingmi, barimizga bermoqchi bo'ldingmi?” Boysari turib aytdi: “Biz maslahat qip, yil ag'darib ko'rdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi o'n to'rtga chiqqan ekan. Bizning o'zbekning rasmi shunday bo'ladi: qiz o'n to'rtga chiqqan so'ng o'z ixtiyori o'zida qoladi. Bizning aytganimizga ko'nmay, tepaning boshiga o'tovini tikib o'tiribdi. O'ziga boringizlar, o'zidan so'rangizlar”. Shunda qalmoqlar do'g'ilib¹, Barchinning ustiga qarab bora berdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh: “Yo birimizga teg, yo barimizga teg. Bir javob ayt”, — dedi. Barchin bir so'z deb turgan ekan:

Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimnan,
 Meni olar kelmas sening qo'lingnan.
 Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo'lingnan,
 Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar.
 Mening to'ram bilsang, Boysinning xoni,
 Unga qurbon menday oyimning joni,
 Oti Hakimbekdir elda davroni,
 Ko'p aylanma bunda, qalmoq, bema'ni.

¹ Do'g'ilib — yig'ib, to'plab.

Xabar yetsa, alp Alpomish kelmaymi,
 Qalmoqlarga qiyomat kun bo'lmaymi,
 Armon bilan senday alplar o'lmaymi,
 Holing bilib, to'g'ri yursang bo'lmaymi?!..

Bu soʻzni eshitib, Koʻkaldosh alp turib aytdi: “Bu oʻzbekning qizining dami baland ekan. Koʻkaman! Tushib sudrab chiq bu yoqqa!” Koʻkaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, uyning ichkarisiga kirgan. Barchinning kanizlari qoʻrqib, uyning toʻrida toʻplanib turgan. Barchin ibo qilib, teskari qarab turib edi, Koʻkaman alp Barchinning burumidan¹ ushlab, poygaga torta boshladi. Barchin oʻzini oʻngʻarib qoʻlini uzatdi. Bir qoʻli Koʻkamanning yoqasiga yetdi, bir qoʻli bilan belbogʻidan tutdi. “Yo, Shohimardon pirim!” — deb koʻtarib, chalqaramon qilib yerga qoʻydi. Chap tizzasini koʻkragiga qoʻydi. Ogʻzi-burnidan dirak-dirak qon ketdi.

Koʻkaldosh alp turib aytdi: Koʻkamanga qaranglar, bu koʻrinmay, bu yoqqa chiqmadi. Oʻzbekning qizi bilan aylanishib qoldimi? Shunday kelib birovi ot ustidan qarab, Koʻkamanni koʻrib: “Ey, oʻzbekning qizi Koʻkamanni bosib oʻldirib qoʻyibdi”, — dedi. Bu soʻzni eshitib, bir kam toʻqson alp otdan tashlay berdi. Barchin alplarning achchiq bilan otdan tushganini bilib, qarab koʻrdi. Alplarning zoʻri Koʻkaldosh ekanini bildi: zoʻrlik nomiga boshida tilla jigʻasi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yoʻrgʻasi bor. Boshidagi sarjigʻani koʻrib, alplarning zoʻri ekanini bilib, undan olti oyga muhlat soʻrab, bir soʻz deb turgan ekan:

Saman otli, sarjigʻali bek yigit,
 Bir oltoyga sizdan muhlat soʻrayin.
 Qoʻngʻirot elga arza berib koʻrayin,
 Oltoygacha men yoʻliga qarayin,
 Kelsa kelar Qoʻngʻirot eldan Alpomish,
 Kelmasa, men taqdirimdan koʻrayin.
 ...Olmadayin soʻlgan gulday tarzim bor,
 Mushtiparman sizga aytar arzim bor.
 ...Muhlat soʻrab turgan menday gajakdor,
 Oltoy muhlat bergin, davlatli shunqor.
 Bu gap endi Koʻkaldoshga xush kelar...

¹ Burumidan — soch tutami.

“Bizda ko‘ngli bor ekan”, — deb Ko‘kaldosh alp vaqti xush bo‘lib: “Alplarning ichida meni xohlaganday bo‘ldi, balki mening zo‘rligimni ham bildi, bizga ko‘ngil qildi, — deb. — Bor, olti oy muhlat!” — deb yubordi.

...Barchin o‘n ming uyli qo‘ng‘irotning yigitidan o‘n yigitni saylab oldi. Otasining to‘qson to‘qay yilqisidan o‘n otni saylab oldi. Otlarni sovutib, tayyor qildi. Shunday arza yozdi Barchin: “Oltoychilik yo‘lga keldim, qalmoqning eliga keldim. Zo‘r yovning qo‘lida qoldim. Olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa, javobimni bersin”. Arzani o‘n boybachchaga topshirdi. Otlarni egarlab, choqlab, yaxshi bor deb, duo qilib, bir so‘z aytib turgan ekan:

Kechani munavvar qilgan to‘lgan oy,
Savashli kun tortiladi parli yoy.
Bandam desin, rahm aylasin bir xudoy,
Kashalda talashda qoldi Barchinoy.
Borsang, salom o‘ynab-o‘sgan ellara,
Ko‘kqamishday mazgil joyim, cho‘llara.
Qalmoqlar yig‘latdi menday sanamdi,
Yuragimga to‘lgan dog‘-u alamdi.
Albatta, so‘ranglar maktab jo‘ramdi.
Mug‘oyib so‘z aytar menday mushtipar,
Kecha-kun shabgir torting¹, xizmatkor,
Jilovdoring bo‘lsin imom, chiltanlar.
...So‘z aytar sizlarga mendayin sanam,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,
Qalmoqning zulmidan yig‘ladi enam.
Sen borib ko‘rarsan Qo‘ng‘irot elimdi,
Boshimdan ko‘tarsin qayg‘u zulmdi...

...Otlar qorsoqday qotgan, to‘qson kecha-kunduz yo‘l tortgan, balki choparlar bilan bila bitgan. Qo‘ng‘irot eliga Boybo‘rining davlatxonasiga yetgan. Ot ustida turib, salom berdi. Bularni ko‘rib, Boybo‘ri aytdi: “Bular qanday odam ekan, beadablik bilan salom berdi menga?” Choparlar bog‘onog‘i arzani chiqarib berdi. Arzani o‘qib ko‘rib, bildi: kelgan Barchinning chopari ekan. O‘n mahramni buyurdi. Choparlarni bitta-bitta otdan ko‘tarib oldi. Choparlarga xizmat

¹ Shabgir tortish — tinmaslik, dam olmaslik.

qildi. Bul arzani hech kimga bildirmay, olib borib sandiqqa solib tashladi. Choparlar yigirma kun yotdi, xo‘p izzat-ikrom qilib, qildi ziyofatti, ko‘p qildi xizmati. Bergan arzasidan hech shobir¹ bo‘madi.

...Boybo‘rining Qultoy degan yilqichi quli bor edi. Alpomishga enchi biyasi bor edi. Bir yarg‘oq qulun tug‘di, bul tulpor deb, Boybo‘riga op kep bergan edi. Necha yildan beri tablada boquvli turgan edi. Choparlar kelib ketgandan keyin tabladagi ot sag‘risi toshib, yoli qulog‘idan oshib, yulduzni ko‘zlab, taraqqos boylab o‘ynay berdi. Boybo‘ri: “Shu yomonlagurning o‘ynagani ham yaxshilik emas”, — deb sag‘risiga uch-to‘rt tayoq tushirib, tabladan chiqarib, Qultoyning qoshiga yilqilarga opporib, qo‘shib yubordi.

Alpomishning Qaldirg‘och degan singlisi bor edi. Qirquin kanizlari bilan bir sandiqni ochib ko‘rayotib edi, bir xat chiqdi. Bul xatni o‘qib ko‘rdi: Barchin chechasining xati.

— Tunovgi o‘n chopar bul xatni olib kelgan ekan, buni bildirmay otam sandiqqa solib qo‘ygan ekan. Yuringlar, bek akama borayik, Bu xatni berayik. Qancha g‘ayrati bor ekan sinayik, — deb Hakimbekning qoshiga keldi. Bu xatni shunday berdi. Shu vaqtlarda Hakimbek o‘n to‘rt yoshga kirgan, mast bo‘lgan norday ko‘pik sochib o‘tirgan, necha mahramlar xizmatida turgan. Bu xatni o‘qib ko‘rdi. Xatda aytibdi: “Oltoychilik yo‘lga keldim. To‘qson alpda toy-talashda qoldim. Olti oyga muhlat oldim. Mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa, javobimni bersin”, — degan xat ekan. Bu xatni o‘qib ko‘rib: “Oltoychilik yo‘l bo‘lsa, qalmoqning elida bo‘lsa, zo‘r yovning qo‘lida bo‘lsa, bir xotin olamiz deb, sandirab o‘lamizma”, — deb, xatni tizzasining ostiga bosib o‘tirdi. Qaldirg‘ochoyim akasiga qarab bir so‘z aytib turgan ekan:

...Aka, senga aytadigan arzim bor,
 Talash bo‘pti biyning qizi — zulfakdor.
 ...Mard yigitning yori talash bo‘lami,
 Er yigitning yorin qalmoq olami?
 ...Umid tortib senga arza qilibdi,
 Xat ko‘tarib o‘n boybachcha kelibdi.
 Anglamay otama xatni beribdi,

¹ Shobir — shov-shuv, ovoza.

Otam xatni bul sandiqqa solibdi.
 Endi bilib, singling olib kelibdi,
 Qalmoqlardan checham jabr ko'ribdi.
 Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,
 Narmoda¹ ishini bunda qilmagin...

Bu so'zlarni eshitib, Hakimbek narmoda so'zini ko'ngliga og'ir olib: “Narmoda degan gapning ma'nisi nima?” — deb turgan ekan:

...Narmoda deb menga so'zlading so'zlar,
 Narmoda ma'nisin aytgin, sen qizlar.
 Narmoda deganga xafa bo'libman,
 Nima gap ekanini bilmay turibman.
 ...Narmoda deganing ko'nglima keldi,
 Ko'p qizlardan akang uyalib qoldi,
 Emikdoshim, sening gaping ne bo'ldi?
 Mendayin akangni xafa qilasan,
 Narmoda deb meni silkib solasan,
 Juda ham akangni nomard bilasan.

Bu so'zni akasidan eshitib, Qaldirg'ochoyim bir so'z aytib turgan ekan:

Har kim o'z elida bekmi, to'rami,
 Narmodalar sendan kamroq bo'lami,
 Mardning yori toy-talashda qolami?
 Mard bo'lib maydonli kunda yurmagan,
 Yilqichidan bedov saylab minmagan,
 Olmos po'lat belga qayrab cholmagan,
 Ot asbobin shaylab qalmoq bormagan,
 Qalmoqlarga qattiq kunlar solmagan,
 Toy-talashda qolgan yorin olmagan,
 O'z elida bir xil gapni bilmagan,
 Narmodalar sendan ortiq bo'lami?
 Jo'na, aka, Boysun-Qo'ng'iro't elidan.
 O'lis deb qaytmagin bunday yo'lidan,
 Nimish² kelsin mungluq checham qo'lidan?
 ...Aka, sendan bormoq lozim bo'libdi.

Bu so'zni eshitib: “Yayov boramizmi esa?” — dedi.
 Qaldirg'ochoyim: “To'qson to'qay yilqing bor. Yayov borib,

¹ Narmoda — erkak tuya, xunasa, gey. ² Nimish — nima ish, qanday iloj.

mingani oyoq-ulov topmay yotibsanni? Egar-abzalingni olsang, Qultoyning qoshiga borsang, ko'nglingga yoqqanini xohlab minib keta bersang", — dedi. Bu so'zni eshitib: "Xayr esa", — dedi. Qaldirg'ochoyim egar-abzalni, sovut-qalqonni, yov-yaroq, asbobni ayil-pushtanga solib, o'xshatib bo'g'ib, ko'tartirib yubordi.

Boybo'ri o'g'li Alpomishning Qalmoq yurtiga borishini istamaydi. O'g'lini niyatidan qaytarish uchun unga ot bermaslikka urinadi va yilqichi Qultoyga Alpomishga ot bermaslikni tayinlaydi.

Qultoyga turib aytdi: "Alpomish kelyapti, Kashaldan kelgan xabarni biron bildiribdi. Bul ish yomon bo'пти, lekin o'zi zo'r-ku, zo'r bo'lsa ham juda qo'rqqoq, sal do'qdan ham qo'rqadi o'zi. Urub-so'kib, yilqi bermay, do'qlab qaytarib yuborgin". ...Bul gapdan bexabar orqalanib Alpomish boryapti. Qultoyga yaqin yetdi. Qultoy Alpomishni ko'rib, ko'nglini xushlab, yilqi boqadigan qayqi tayog'ini qo'lga ushlab, juda shamiyon qaytarib¹, do'qlab, bu so'zni aytib, Alpomishga qarab aytib turgan so'zi:

Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi,
Oblo sening aql-u hushing oldimi,
Boybo'ri o'lib, moli senga qoldimi?

Alpomish bu so'zni eshitib, Qultoyga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Bobo, sir-u holim ma'lum qilayin,
Sendan endi bir bedovni so'rayin,
...Sen eshitgin menday o'g'ling so'zini,
Ajratib kelayin biyning qizini.
Men sachratib borsam minib bir tulpor,
O'zima yor, bobo, senga xizmatkor...

Bu so'zni eshitib, Qultoy ham bir so'z deb turgan ekan:

...Tur yo'qol, enag'ar, tayin o'lasan,
Bu yerda serrayib, nima qilasan?
...Bu so'zdi aytip mardning aqlin oladi,
Uch-to'rt tayoq qayqaytirib soladi.
Yegan tayoqlaring yilqi bo'ladi!

¹ Shamiyon qaytarib — gerdayib, vahima qilib.

Hakimbekning ko‘zi alanglab qoladi,
 Shunday do‘qlab Qultoy qildi siyosat,
 Tayoq yegan bekda qolmadi toqat,
 O‘ldirar qaytmasam dedi vallamat.
 ...Bul bobosi ko‘p siyosat qiladi,
 Juda aylantirib, ancha uradi,
 Bobom urdi dedi, qaytib jo‘nadi,
 Ko‘tarinib qaytib ketdi yo‘liga...

Alpomish Qultoyning qoshidan qaytdi, ko‘tarinib bora-yotib edi. “Bulay-shulay deb, Qultoy do‘qlasa, akam qaytip kep qo‘yardan ham toymas, o‘z ko‘zimiz bilan jo‘natib yuboraylik”, — deb qirquin kanizlari bilan Qaldirg‘ochoyim kelayotib edi, oldidan chiqib qoldi. Alpomish yerga qarab borayotib edi. Shunday boshini ko‘tarib qaradi: qarshi manglayiga kanizlari bilan singlisi kep qopti. Qizlarni ko‘rib, uyalgan kishi bo‘lib, egar-abzalni tashlab yuborib, yo‘l ustida yonboshlab yotdi. Qaldirg‘ochoyim ustiga borib, bu so‘zni aytib turibdi:

Aytgan so‘zning poyimini¹ bilsang-chi,
 Ko‘z kuyugi, ey narmoda, o‘lsang-chi.
 Kecha-kunduz haqqa fig‘on yetmagan,
 O‘z moliga o‘zin vaji o‘tmagan.
 ...Qultoyning do‘qidan qaytib kelasan,
 ...Sen ham odamman deb qanday yurasan?..
 Bilsang, Qultoy — yilqiboqar xizmatkor,
 Ko‘p do‘qlabdi ahvolidan bexabar.
 Sen so‘rasang, ular senga javobgar,
 Bu yurishing, bek aka, qanday bo‘lar?
 Odam ko‘rsa, yurishingga kuladi,
 Bu yurishing elga gap bo‘p qoladi...
 Bu so‘zlarni aytdi shunday mushtipar,
 O‘rnidan turgandir davlatli shunqor.
 Egar-abzalini yig‘ib ushladi,
 Shul zamon egniga qoqib tashladi,
 Qultoyqulga tag‘in yo‘lni boshladi.
 Yo‘lga tushib, Qultoyqulga qaradi,

¹ Poyim — fahm, ma‘no.

Urgan yerda hali Qultoy turadi.
 Qaytay desa, bul singlisi keladi,
 Tag'i urarmikin deb, ketib boradi.
 Bu qizlar bilmaydi Hakimbek o'yin,
 Hakimbek ilgari singlisi keyin...

Qultoyning qoshiga yaqinlashib bordi. Singlisi kanizlari bilan ancha keyin qoldi. Qultoy ham Alpomishni ko'rdi. Bog'onog'i¹ urgan yerda Qultoy zinkiyib² turdi. Yaqinlab bordi. Qultoy tag'i do'qlab, bu so'zni aytib kela berdi:

Bobongning so'zini hazil bilasan,
 Sen g'arbachcha, nega aynalib kelasan.
 Sen enag'ar, bildim tayin o'lasan,
 Nimishing bor, tag'i nega kelasan?
 Yana birov yo'lda ko'ngling bo'ldimi,
 Tag'i sening tayoq yeging keldimi?
 Siyosat qip Qultoy yaqin keladi.
 ...Uzalib, Qultoyning belidan tutdi.
 Chalqaramon qilib, yerga qo'yibdi,
 Tizzasini ko'krakka qo'yib turibdi.

“Bobo, qani ushlab bergin!” “Qo'ya ber, o'g'lim, ushlab berayin”, — dedi. “Yo'q, yotgan yeringda ushlab berasan!” — dedi. “Turmasam, qaytib ushlab beraman”, — dedi. “Esa meni nimaga buncha urasan?” Qultoy ham zahar chol edi. Yotgan yerida bir “qur-hayt” tortdi: to'qson to'qaydagi yilqi yig'ilib qoshiga yetdi. Hamma yilqilar jam bo'lib, jam bo'lib turibdi. Dobonbiy bobosidan qolgan qo'riqni Hakimbekning qo'liga berdi. Hakimbek qo'riqni qo'liga oldi. Bu qo'riqni yilqilarga solmoqchi bo'ldi. “Saman soriga tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush”, — deb qo'riqni soldi. Yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo'yniga tushdi. Ko'nglidagi bo'lmay, otdan ko'ngli to'lmay: “Ko'p nozik uchradi”, — deb, bu otni qo'yib yubordi. Yana qo'riqni soldi — tag'i shuning bo'yniga tushdi.

“Taqdirdagi shul ekan-da”, — deb belbog'ini otning bo'yniga solib, egar-abzalining qoshiga yetaklab kela berdi. Egar-abzalining qoshiga borib, uyoq-buyog'ini ko'ra berdi. ...Qaldirg'ochoyim ham kanizlari bilan kela berdi. Akasining

¹ Bog'onog'i — boyagi. ² Zinkiyib — qaqqayib.

tarziga qaradi. Akasining ...otdan ko'ngli to'lmay, xafa bo'lib turganini bildi. Otning tizginini akasining qo'lidan olib, sag'risini silab, uyoq-buyog'iga qarab: "Xafa bo'lma, bu oting, balki tulpor chiqar, yomon dema. Bul oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko'p yerlarni ko'radi, maqsadini haqdan topib qoladi", — deb akasining ko'nglini ko'tarib, "Qullu bo'lsin" qilib, bir so'z aytib turgan ekan:

O'zi shunday kelgan ekan chovkar ko'k,
 Quyruq'idan berisinda kiri yo'q,
 Minganlarga bo'ladakan ko'ngil to'q,
 Buni minsang, aka, senga dushman yo'q.
 ...Chibar ot o'ynatib bundan borasan,
 Buni minsang aka, yo'lli bo'lasan.

...Shunday qilib, kiyintirib, keskir qilichlarni beliga boylab, Arpali ko'lidan otlana berdi. Alpomishning Alpin-biy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. "Mabodo, dushmanning yurtida yoy tortishadigan kun bo'larmi, odam bilmaydi, kerak bo'p qolarmi", — deb yoyni egarning qoshiga solib oldi. Qaldirg'och akasini otlantirib, ot-anjomini choqlab, yaxshi bor deb, bul so'zni aytib turdi:

Qayda borsang, Shohimardon yor bo'lsin,
 O'nikimom¹, chilton² jilovdor bo'lsin.
 Dushmanlaring ko'rsa, seni xor bo'lsin,
 Sog' borib, salomat kelgin, bek og'a.
 Eshitgin, quloq sop aytgan nidoga,
 Ishingni solganman qodir xudoga,
 Sog' borib, salomat kelgin, bek og'a.
 Xudoyim saqlagay bandani omon,
 G'arib qulga egam bo'lgay mehribon.
 Qolsanilla duo qildim bul zamon,
 Sog' borib, salomat kelgin, Alpinjon.
 El ko'chirib, Olatovdan oshirdim,
 Ulug'lanib, ostonaga bosh urdim,
 Borgin, emikdoshim, Haqqa topshirdim...

¹ O'nikimom — o'n ikki imom, islom dinining asoslarini ishlab chiqqan imomlar. ² Chilton — qirq avliyo.



Savol va topshiriqlar

1. Qalmoq alplarining Barchinga xaridor bo‘lib Boysari xonadoniga borishlari, o‘zlarini tutishlari va muomalalarida ularning qanday xususiyatlari namoyon bo‘ladi?
2. **“Tong otgancha muhlat olib turaman, Qalmoqlarga qizim qanday beraman?! Yuragim to‘lgandir diydai g‘amda Barchinoyini o‘z tengiga qo‘shmasam, Mahshar kuni Barchin qo‘li yoqamda”** degan ota holati qanday ifoda topgan?
3. Otaning: **“Mening qizim — sening singling, nomardlar”** so‘zlarini aytgandagi holatini izohlang.
4. Yortiboyning maslahatiga munosabat bildiring va uning asar boshidagi maslahatlari bilan solishtiring.
5. **“Juda ham gangidi, boy ota, boshing, Maslahat berdi-ku qavmi-qardoshing, Ko‘p yig‘lama, jonim otam, darvishim, Eshitmagin qarindoshlar so‘zini, Qarindoshlar bera qolsin qizini!”** so‘zlari Barchinoy tabiatining qaysi jihatlarini bildiradi?
6. Barchinoyning oqilaligi, tadbirkorligi namoyon bo‘lgan o‘rinlarni topib, izohlang.
7. Otasining ra‘yiga zid bo‘lsa-da, akasini xatarli safarga undayotgan Qaldirg‘och xatti-harakatlariga baho bering.
8. Barchin bilan Qaldirg‘och obrazlarini solishtiring. Ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rsating.

* * *

Yaqinlari bilan xo‘shlashib, yurtidan chiqqan Alpomishga Shohimardon pir va qirq chiltonlar hamisha homiylik qiladi. Chiltonlar qalmoqqa borishning birinchi kechasida charchab uxlab yotgan Alpomish ruhini Barchinniki bilan uchrashtiradilar. Alpomish, Qorajon va Barchinga tushlari vositasida kelajak taqdirleri bildiriladi.

...Alpomish cho‘ponlarning qo‘shxonasida uxlab yotdi. Kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi. Sahar vaqti cho‘ponlarning qo‘shxonasida yotib bir tush ko‘rdi. Izlab borayotgan Barchin yori ham baxmal o‘tovda yotib, subhi sodiq tuqqan vaqtda bir tush ko‘rdi. Kashal g‘orida, to‘qson qalmoqning ichida Qorajon alp ham bir tush ko‘rdi. Uchovining tushi oldin-keyin, do‘g‘ilish ko‘rdi. Avval Alpomishning tushi:

...Mast uyquda yotib edi bu shunqor,
 Ko'ziga ko'rindi rasul payg'ambar.
 Bu so'zlarni rasul payg'ambar aytdi:
 "Adashgan ummatim, shafqatdoringman,
 Tanib qolgin: rasul payg'ambaringman,
 Ummatlarni mudom yo'lga solurman".
 ..."G'am yema, ummatim, — dedi payg'ambar,
 — Ostida dulduli, belda zulfiqor,
 Jilovida Bobo Qambar jilovdor,
 G'amingda otlandi Shohimardon pirlar.
 G'ayratingdan bo'zlab ketar qalmoqlar,
 Hech kim bo'lmas, sening bilan barobar,
 Senga taqdir qildi Barchin zulfaktor"...

Bu so'zni yotgan yerida ma'lum qilib ketdi. Erta-mertan tong otdi. Barchin ham ko'rgan tushini Suqsuroy kaniziga aytib turibdi:

Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda,
 Ziyon yotib, rahmat toshar bo'lganda,
 Rahmat daryo ayni toshib kelganda,
 Tush ko'ribman fayzi sahar bo'lganda.
 Qibla betdan bir oy tug'ib keladi,
 Oyning girdin to'rtta yulduz oladi,
 Tushimning ta'biri qanday bo'ladi?
 Bu tushni ko'rgandir menday mushtipar,
 Yer yuzini tutib ketdi aydahar...

Bul so'zni Barchindan eshitib, Suqsuroy kanizi tushining tabgirini aytib turibdi:

Qibla betdan bir oy tug'ib kelsalar,
 Oy emasdir, ul ham rasul payg'ambar.
 Oy girdida to'rtta yorug' yulduz bor,
 Yulduz emas, to'rt choriyor muqarrar.
 Yer yuzini tutib ketsa aydahar,
 Mag'ribdan Mashriqqa kulli eranlar...

Bog'onog'i tush ko'rgan Qorajon qalmoq nomoz vaqti o'rnidan kalima aytib turdi. Qorajonning kalima aytib turganini bir kam to'qson alp ko'rib: "Oshpichoq, qalampir, Qorajon tentak bo'p qopti", — deb, bir kam to'qson alp: "Ot tort", — dedi. Ko'lga qarab ovga chiqib ketdi. Bul Alpomish tarafga qarab boryapti.

Qorajon Murodtepaning ostiga kelib qoldi. Shunday tepaning boshiga qaradi. Tepaning boshida Yusuf tal’atli, Rustam sifatli, chovkar otli birov yonboshlab yotibdi. “Bu bizning Qalmoq viloyatining odami emas, bunday yigitlar ...bo’lsa, beklikda, podsholikda bo’lar edi. Ilgaridan ham bir-da-yarim ko’zim tushar edi. Magar qirq chiltan bilan rasul payg’ambar meni musulmon qilib, qavm-qarindoshini tushimda ruhima ko’rsatib, meni do’st qilgan, Qo’ng’irotdan kelayotgan Alpomish degan komilbachcha shul bo’lmasa”, — deb Alpomishga qarab, bir so’z deb turgan ekan:

Ostingda bedoving halloslar qushday,
Achchig’ing chillali muzlagan qishday.
Norkalla kelgansan, chuydang¹ qo’shmushday.
Norkalla polvonim, qaydin bo’lasan?
Tepaning boshida senga qarayman,
Borar joying menam sendan so’rayman.
...Yangi bunda ko’rdim senday mardimni,
Qorajon deydilar mening otimni,
Baland bildim sening siyosatingni,
Xabar ber, bekbachcha, qayda borasan?

Qorajondan bu so’zlarni eshitib, Alpomish ham Qorajonga qarab bir so’z deb turgan ekan:

...Yoz bo’lsa, yaylovim Amu yoqasi,
Meni bilsang, Qo’ng’irot elning to’rasi.
Ko’kqamish ko’lidan suqsur² uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo’laman.
Boyligidan bedov otni boylagan,
Tangqa taylab³, Olatovni jaylagan,
Kambag’ali qirq ming gala⁴ haydagan.
Shul galada bizning bir moya⁵ kelgan,
Moyaning yo’qchisi — nori bo’laman.
...Asli Boysin deydi mening yurtimdi,
Laqabim — Alpomish, otim — Hakimdi...
Qorajon deb xabar berding otingdi...

...Qorajon aytdi: “Men seni ko’rganim yo’q. Sening bilan hamsuhbat bo’lganim yo’q. Men ham xotiningga tala-

¹ Chuyda — bo’yin sirtidagi yo’g’on tomir. ² Suqsur — urg’ochi g’oz. ³ Tangqa taylab — mollarni yoyib. ⁴ Gala — suruv. ⁵ Moya — urg’ochi tuya.

shib yotgan to‘qson alpning biri bo‘laman. Qulfi dilimni xudo ochdi — musulmon bo‘ldim. Qirq chiltan bilan rasul payg‘ambar qavm-u qarindoshingni tushimda ko‘rsatib, sen bilan meni do‘st qildi. Ul sababdan bilaman”. “Do‘st bo‘gan bo‘sang, yaqin bo‘p qolgan ekansan, tepaning ustiga chiqqin, ko‘rishaylik”. Qorajon aytdi: “Bu tepaning ustiga chiqadigan kamolga yetishganim yo‘q. Sen tepadan tushgin, men ko‘rishayin”. Alpomish otini yetaklab tushib kela berdi. Qorajon mahramlariga amr qildi: “Do‘stim bilan ko‘rishgin”, — deb. Mahram xalqi nozik keladi, qo‘l uchida ko‘rishayotir. “Qalaysan?” — deb, siqinqirab yubordi, mahramlarning panjasi bir-biriga yopishib, qapishib, yanchilib ketdi-yu. Qorajon bilan Alpomish yoydi qulochdi, ikkovi xulqi muhabbat bilan ko‘rishdi. “Qalaysan, do‘stim, omansanmi?” — deb siqinqirab yubordi. Qorajonning yetti qobirg‘asi sindi, ishi tindi, tappa tushib yotib qoldi. Alpomish aytdi: “Nima qildi, do‘stim?” Qorajon sir bermagan kishi bo‘lib: “Bola kunda¹ tutadigan quyonchiq² kasalim bor edi. Shul vaqt tutib qoldi”, — dedi. Alpomish aytdi: “Belgili kasal bo‘lsa, tuzalib ol esa”. Qorajon aytdi: “Rostingni aytgin, shul ko‘rishganingmi yo urishganingmi?” Alpomish aytdi: “Nima qildilaring — urishaman. Ko‘rishganim edi”. “Ko‘rishganing shul bo‘lsa, urishganing qanday ekan?”...

Qorajon bilan tanishib, do‘stlashgan Alpomish unikida mehmon bo‘ladi va do‘stini Oybarchin huzuriga xabarchi hamda sovchi qilib jo‘natadi.

Qorajon turib aytdi: “Qani, Barchin, Alpomish bo‘lsa — keldi, alplarning muhlati bo‘lsa — bitib qoldi. Sen nima javob aytasan?” Barchin aytdi: “Alpomish kelsa, kepti-da. Alpomish kepti deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bul alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi, otini o‘zdirgan odam oladi. Har kimning o‘z ko‘ngli o‘zida qoladi. Mening to‘rt shartim bor. Shul to‘rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlarning biri qilib olsin. Shul so‘zimni xon to‘ramga aytib bor”, — deb bir so‘z aytib turgan ekan:

Ot chopsa, gumburlar tog‘ning darasi,
Botirni ingratar nayza yarasi.

¹ Bola kunda — bolalikda. ² Quyonchiq — tutqanoq.

Kelgan bo'lsa Qo'ng'iro't elning to'rasi,
 Qirq kunlik yo'l Boboxonning orasi.
 Boboxon tog'idan poyga qilaman,
 Ko'zdan yoshni munchoq-munchoq tizdirsa,
 Qo'shqanotning quyrug'ini so'zdirsa,
 Boboxondan poyga qilib o'zdirsa,
 Oti ildam boybachchaga tegaman.
 Mendayin oyimning holin bilganga,
 Osha yurtdan¹ mehnat tortib kelganga,
 Dushmanlarga qora kunni solganga,
 Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,
 Men tegaman shul yoyandoz polvonga.
 G'anim ko'rsa, qiyomat kun solganga,
 Osha yurtdan izlab halak bo'lganga,
 Ming qadamdan tanga pulni urganga,
 Men tegaman shul qirag'ay merganga.
 Sabash bo'lsa, bul shibanib² chiqqanga,
 Kurash qilib to'qson alpni yiqqanga,
 Men tegaman nor bilakli polvonga.
 Zog' ham bo'lsa, qo'na bersin gulshanga.
 Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga,
 Men tegaman to'rt shartimni qilganga.

Bu so'zlarni Barchindan eshitib... Qorajon o'tlanib borayotib edi. Bir kam to'qson alp kelayotib edi, Qorajonning oldidan chiqib qoldi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh turib aytdi: "O'zbekning qizining muhlati bitdi. Uchradingmi, nima javob aytdi?" "O'zbekning qiziga uchrab kelayotirman. O'zbekning qizining aytgan so'zi shul bo'ldi: "Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman. Kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman. Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman. Ming qadamdan tanga pulni urganga tegaman", — dedi.

Bul so'zni eshitib, Ko'kaldosh aytdi: "O'zbekning qizining ko'ngli menda. Poyga bo'lsa, o'zib kelmoq Ko'kdo'nanning tani. Kurash bo'lsa, to'qson alpning barini qo'ymasdan yiqmoq faqirning tani. Yoy tortishganda ham mening yoyim sinmay qoladi. Ming qadamdan tanga pulni ursin depti, besh yuz qadamdan tanga pulni uraman. Ming qadamga borgan so'ng,

¹ Osha yurtdan — uzoq yurt. ²Shibanib — shaylanib, tayyorlanib.

chog‘lab qo‘yib yuboraman, bu yog‘ini mujmaltob qilib olaman. Sen bu ostingdagi olachani qayoqdan olding?” — dedi.

— Qo‘ng‘irotdan Alpomish do‘stimiz kelgan ekan, bul shuning oti.

— Shul yurtdan shul otni minib, xotin olib ketaman deb, ahmoq bo‘lib yuribdimi?

Ko‘sa sinchi degan sinchisi bor edi, sinchisiga aytdi: “Tushib, o‘zbekning otini ko‘r qani”. Tushib, Boychiborni ko‘rdi, qarichlab ko‘rdi: sag‘risining ustidan qulog‘ining o‘rtasigachayin to‘qson olti qarich chiqdi, ayil tortuvi oltmish uch qarich chiqdi. Sag‘risini silab, burnidan naycha qo‘yib, durbin bilan qarab ko‘rdikim, qo‘ltig‘ida to‘rt yarim gaz qanoti taklam-buklam bo‘lib yotir.

— Qanday ekan o‘zbekning oti? — dedi.

— O‘zbekning oti anday¹ ekan. O‘zbekning qiziga burilmay qo‘yag‘o‘y”, — dedi.

Bu so‘zni eshitib, Ko‘kaldosh alpning achchig‘i kelib: “Mendan biror vaqtda sen jodirim² bo‘lib, o‘zbekni ilgariidan ham ko‘rib, o‘zbekka yo‘liqib, siyosatga otimni ta‘rif qil deb, senga uch-to‘rt tanga bergan ekan-da, choqdan biron narsa olib ta‘rif qilding”, — deb achchig‘i kelib, sinchining ikki ko‘zini o‘yib olib qo‘ydi. “Hamma vaqt o‘zbekning oti mening otimdan o‘zganda, ko‘zingning xunini beraman. Yuringlar, Alpomishning ustiga boramiz”, — dedi.

Alpomish chodirda o‘tirib edi, shunday qaradi: har qalmoqlar kelayapti kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab otning ostiga aymashib ketgan. Alpomish o‘tirgan yerida siyosat bilan qaradi. Bir kam to‘qson alp otdan tappa-tappa tashlab, qo‘l qovushtirib, ta‘zim qildi. Aqli shoshib, dabgiridan adashib³ qoldi. ...Qalmoqning yurtidan Barchinning poygasiga to‘rt yuz to‘qson to‘qqiz ot bo‘ldi. Boychibor bilan to‘ppa-to‘g‘ri besh yuz bo‘ldi. Poygachilar har kuniga ot sovutib, yolg‘on poyga qo‘yib keladi. Boychibor otlarning changini ham ko‘rmay qoladi. “O‘yinda o‘zgan, chinda o‘zadi”, — degan gap bor. Hazil poygada otning changini ko‘rmay qoladi. Chin poyga bo‘lgandan so‘ng qanday keladi?” — deb qalmoqlar bog‘onog‘i ko‘r bo‘lgan sinchiga izza beradi.

¹ Anday — juda zo‘r. ² Jodirim — jabr ko‘rgan. ³ Dabgiridan adashish — aqlidan adashish, esini yo‘qotish.

...Hamma poygachilar jam bo'lib, Alpomishning tanidan
Qorajon poygaga bormoqchi bo'ldi. ...Poygachilar yo'l yurdi.

...Zil tog'ida bir aydahar boridi,
Aydaharga alp Qorajon doridi.
Bunda yotgan aydaharni ko'radi,
Ot tizginin munda tortib turadi.
Aydahar ham Qorajonni ko'radi,
Qorajonga aydahar salom beradi.
(Shoir so'zi shunday yolg'on bo'lammi?
Aydahar odamga salom berami?)
Ostida mingani Boychibor edi,
Minganlarga qutbi zamon¹ yor edi,
Jilovida chiltan, pirlar bor edi,
Pirga salom bergan aydahar edi...
...Ostidagi Chibor otin o'ynatib,
Qorajon chiqdi Zil tog'ining ustiga.
...Qalmoqdan ilgari ketib boradi.
Ko'rinmaydi qalmoqlarning qorasi,
Yaqin qoldi Boboxonning orasi.

Boboxon toqqa yetib, Qorajon otga dam berib yotdi.
...Qalmoqlarning oldi hafta-o'n kun deganda Boboxon tog'iga
yetdi. Keyini chuvalib, hali ham kelayapti...

***Ko'kaldosh boshliq qalmoqlar Boychiborning ildamligi va
poygada yutishi aniqligini bilib, nomardlik yo'liga kiradilar.
Kimsasiz tog'da Qorajonni bog'lab tashlab, Boychiborning tuyo-
g'iga mix qoqishadi.***

...Bari qalmoq bu o'rtaga oladi,
Qorajon yolg'iz-da nima qiladi?
Bu qalmoqlar ko'plik qilib turadi,
Qalmoq bari xasta ko'nglin xushladi,
Qorajonning bilagidan ushladi.
O'ldirmoqqa ko'zi qiymay turadi.
Necha so'zni bu qalmoqlar o'yladi,
Qorajonni kulaband² qip boyladi.
Harchand chirpinib ko'rdi Qorajon nomdor,

¹ Qutbi zamon — zamonasining avliyosi. ² Kulaband — yechilmaydigan qilib, mahkam bog'lash.

Qalmoq ko‘p-da, bo‘loldi barobar.
 Xazon bo‘lsa, bog‘da gullar so‘lar deb,
 Ajal yetsa, paymonasi to‘lar deb,
 Bo‘shalsa, bir kuni o‘zi borar deb,
 Shumg‘ut¹ bo‘ldi bu juvarmak o‘lar deb, —
 Bosh bo‘lib Ko‘kaldosh boylab tashladi.
 ...Boylarli qolgandir Qorajon nomdor,
 Boychiborni o‘rtaga oldi qalmoqlar.
 Har tarafdin unga arqon soladi,
 Boychiborni endi yiqib oladi.
 Boychiborni shunday tortib boyladi,
 Oyog‘idan o‘rab, kerib tayladi.
 Ahmoq qalmoq otga zulm qiladi,
 Tuyog‘iga gulmixlarni uradi,
 Urgan gulmix yalpoq tizga keladi.
 Chinqirib kishnaydi boylarli Chibor,
 Siyosatman zarb ko‘rsatdi qalmoqlar.

Qorajon bilan Boychiborni shunday qilib boylab tashladi:
 “...bo‘shalsa, bir kunlari borag‘oyar, ajali yetsa, o‘lag‘oyar, ish-
 qip, bizdan keyin qolsa bo‘pti”, — deb, poygachilar jam bo‘lib,
 qator turib, poygani qo‘yib, jo‘nab ketdi. Boboxon tog‘ida
 yolg‘iz qolib, Boychibor bilan Qorajon ikkovi boylarli yotib,
 avliyolarni shafe keltirib, bu so‘zni aytib yotir:

...Oblo, sendan boshqa yo‘qdir murabbiy.
 ...Karimsan, samadsan, rasuling barhaq,
 Rahm aylab yor bo‘lgin nochor qullara.
 ...Bu so‘zlarni aytib yig‘lar Qorajon
 Boychiborman munda qolib, bul zamon.
 Armonman boylangan Boychibor edi,
 Bek Alpomish o‘z yurtida qo‘l bergan
 Rajabxo‘ja degan piri bor edi.
 Falak titrar Qorajon nolishiga,
 Banda ko‘nar Tangri qilgan ishiga.
 Boboxonda yig‘lab edi Qorajon,
 Rajabxo‘ja piri yetdi qoshiga.
 Karomatman kelib xabar oladi,
 Qorajonning qo‘lin chechib qo‘yadi...

¹ Shumg‘ut — shum, buzuqi.

Qorajon turib, otning oyog'ini yechdi. Ot o'rnidan turdi. Eshonning ruhunati otning sag'risini siladi, qalmoqlarning solgan sovuni jiyirilib yerga tushdi. ...Qorajon otning ustiga mindi. Ot oyog'ini bosolmay turdi. ...Eshonning ruhunati Qorajonga ko'rinmaydi, otning to'shida turib, Qorajonga bir so'zni aytdi:

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
 Boshing eson davlatingni kam dema,
 Jabr qilgin menday hayvon joniga,
 Qamchi urg'in go'sht ko'targan soniga,
 Yetkizarman Boysun-Qo'ng'iro't xoniga,
 Qoldim deb, Qorajon, sira g'am ema.
 Qorajonbek, eshit aytgan so'zimdi,
 Egargoshdan ushlab yumgin ko'zingdi,
 Endi bilsang, mendan xizmat lozimdi...
 ...Haqning yashiniday Chibor boradi,
 Qalmoqlardan to'sat-to'sat qoladi,
 Besh yuz otning biri bo'lib boradi.
 O'zgan otni sanar Qorajon nomdor,
 Qo'qib-burkib borayotir qalmoqlar.
 ...Necha otdan Chibor o'tib boradi,
 O'tgan otni sanab ketib boradi,
 Otlarning hisobin Qorajon oladi.
 Alp Qorajon otga qamchi uradi,
 Bir kecha-bir kunduz chopib boradi.
 Shunday bo'lib borayotir Boychibor,
 To'rt yuz oltmish otdan o'zdi jonivor.
 ...Jonni sotib Chibor ketib boradi,
 Qorajonbek shunday bo'ylab qaradi,
 Mildiragan bir qorani ko'radi,
 O'lis yo'ldan otni qichab boradi.
 Taqimida besh yuz botmon kaltagi,
 Qayqayib boradi badbaxt Ko'kaldosh.
 Alp Ko'kaldosh shunday burilib qaradi,
 "Chul!" — deydi Do'nanga qamchi uradi,
 Yashinday bo'p oqib ketib boradi.
 "Qani endi yetib ol!" — deb boradi.
 Shopirib¹ irg'iydi nazari Chibor,

¹ Shopirib — katta qadam tashlab.

“Chu!” — deb qamchi urdi Qorajon qaysar,
 Quvib u Do'nanga yetdi Boychibor.
 Shamolday g'uvullab yetib boradi,
 Ko'kdo'nanning sag'risidan oladi,
 Keyin qarab siltab otib yubordi.
 Ancha yo'lga borib tushdi Ko'kdo'nan,
 Qirq ming qadam o'tib ketdi Boychibor.
 Yana ham o'zini o'ng'ardi Do'nan,
 Chiborning keynidan yetdi ul zamon.
 Qarsillatib dumg'azadan oladi,
 Ustida Qorajon bilmay qoladi.
 Keyin qarab siltab otib yubordi,
 Ancha yo'lga borib tushdi Boychibor,
 O'n ming qadam o'tib ketdi bu tulpor.
 O'zini o'ng'arib Chibor keladi,
 Ko'kaldosh ilgari ketib boradi.
 ...Ikkovi barobar yo'lda boradi,
 Bir-birini musht tashlashib uradi.
 Biri-biroviga mushti tekkanda,
 Tog' cho'qqisi qulaganday bo'ladi.
 Qorajon qaytmaydi, navbat oladi.
 Goh yerlarda qamchilashib, savashib,
 Ko'p xarxasha qilar aqili shoshib.
 Bedov otlar borar yo'lda talashib,
 Borayotir bir-biriman tishlashib...



Savol va topshiriqlar

1. “*Ostida dulduli, belda zulfiqor, Jilovida Bobo Qambar jilovdor, G'amingda otlandi Shohimardon pirlar*”, — so'zlari kim tomonidan kimga aytilganligini aniqlang.
2. Alpomish nutqidagi “*suqsur*”, “*moya*”, “*lochin*”, “*nor*” timsollari qanday ma'nolarni ifodalaydi deb o'ylaysiz?
3. Oybachinning Alpomishdan sovg'isi va xabarchi bo'lib kelgan Qorajonga bergan javobidan uning qanday fazilatlarini namoyon qilayotgani to'g'risida fikr yuriting.
4. Barchinoyning: “*Shul so'zimni aytib borgin to'ramga, Zog' ham bo'lsa, qo'na bersin gulshanga. Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga*”, — degan so'zlari zamiridagi ma'noni aniqlashga urining.

* * *

“Bularning kelar muddatidan o‘tdi”, — deb Alpomish bir baland tepaning ustiga chiqib, durbinini olib, shunday yo‘lga qaradi. Ko‘rdi ikki ot yo‘lda yo‘l talashib kelyapti. Birini durbinini bilan tanidi: Ko‘kdo‘nan. Boychibor to‘riqday bo‘p ko‘rindi. Tuyog‘idagi mixlar ozor bergan, oppoq ko‘pikka botgan, tuyog‘idan chiqqan to‘zon bilan to‘riqday bo‘p qotgan. Boychiborni tanimay: “Ham otimdan, ham yurtimdan ayrildim”, — deb behush bo‘lib yiqildi. Barchin kelib, Alpomishning holini ko‘rib, yiqilganini ko‘rib, boshini tizzasiga olib... Barchin ham durbin olib qarab, kelayotgan otlarga qarab, bir so‘z aytib turgan ekan:

Qurruyo-qur hayt-a, to‘ramning oti,
 Oq to‘shim — yayloving, sochim shibirtki.
 Kuyganimdan gapni gapga ulayin,
 To o‘lgancha sayising bo‘p yurayin.
 Egam rahm aylasin qonli yoshima,
 Sabab bo‘lib qo‘shgin teng-u to‘shima.
 Qurru yo-qur hayt-a, to‘ramning oti!
 “Qur hayt!” — degan Barchinoyning dovushi
 Boychiborning qulog‘iga boradi.
 Suvluq tishlab o‘zin otdi Boychibor,
 Kalta qantarib tashlagandi qalmoqlar,
 Tizgini uzilib ketdi muqarrar,
 Ustidagi alp Qorajon bexabar,
 Ko‘kdo‘nandan o‘tdi endi jonivor.
 ...Alp Ko‘kaldosh otga qamchi uradi:
 “Bul o‘zbekning oti o‘zib boradi,
 Bul Qorajon bir baloni qiladi,
 Ukam menga dushman bo‘lib boradi”.

Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shashti bilan kelib, baxmal o‘tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to‘xtatdi. Barchinning kanizlari yig‘ilib yetdi. Qorajonni otning ustidan olib, gilamning ustiga solib, bardor-bardor qilib ko‘tarib, baxmal uyga kirgizib ketdi. Qizlar otni yelpib sovutib turibdi, opkep yakka mixga boyladi, teri qotdi. Barchin kep otni ko‘rdi, ko‘zlarini ipak ro‘mol bilan surtdi, changi, terini ushatdi. Oyog‘idagi mixlar ozor berib, xonning Chibor oti tappa tushib yotdi. Tuyog‘idagi mixlarni ko‘rib, Barchin bir so‘z deb turibdi:

Mening uchun hayvon azob ko‘ribdi,
 Shu mix bilan Boboxondan kelibdi,
 Po‘latni eritar qizlarning dami.
 Barchinoyim ko‘rib, o‘ylab turadi,
 Urgan mixi yalpoq tizga boradi.
 Chorsisini tuyoqqa yozib soladi,
 Gulmixlarni tishlab sug‘urib oladi...

Bu so‘zni aytib, otga mehribonliklar qilib, banot to‘rva-ga yemni ilib, ko‘chib borgan qo‘ng‘irotlar jam bo‘lib, yig‘ilib, poyga ketgan qalmoqlar ham kelib, bir kam to‘qson alp gurullashib turib, “Alplar bilan o‘zbekning polvoni yoy tortishar emish”, — deb ovoza bo‘lib, hamma tomoshamonlar¹ yig‘ilib, shunda Oyna ko‘liga, Chilbir cho‘liga tomoshamon to‘lib, yoyandozlik qilmoqchi bo‘lib, bu yoy tortishmoqdagi so‘zi:

...Olis yo‘lga nishonani quradi,
 Nishonani urgan odam oladi.
 Qalmoq alplar bari qator bo‘ladi,
 Men urarman deydi, ko‘ngil qiladi,
 Shiqirlatib endi yoini tortadi.
 Yoyning o‘qi bul g‘uvullab ketadi,
 Biri pastdan, biri baland ketadi...
 Ko‘kaldoshga endi navbat yetadi.
 Yoyiga Ko‘kaldosh o‘qni soladi,
 Nishonaga qarab to‘g‘ri qiladi.
 “Bor urdim”,— deb, endi yoini tortadi,
 Qo‘lda yoyi cho‘rtta sinib ketadi.
 Endi navbat Alpomishga yetadi.
 Parli yoini shunday qo‘lga oladi,
 Ko‘rgan qalmoq bari hayron qoladi.
 “Rabbim!” — deydi, endi yoini tortadi,
 Nishonaga o‘qi to‘g‘ri ketadi.
 Ming qadam yerni qadamlab ko‘radi,
 Tanga puldan bul nishona qiladi,
 Yoini qo‘yib, miltiq otmoq bo‘ladi.
 Ko‘p deb qalmoqlarga navbat beradi.
 Qalmoqlar nechovi miltiq otadi,
 Saksonman to‘qsonga o‘qi yetadi,
 Qaysi otsa, yo‘lda qolib ketadi.

¹ Tomoshamon — tomoshabin.

Alp Ko'kaldosh shunday ko'zlab ko'radi,
 Besh yuz qadam yerga o'qi boradi.
 Ko'kaldoshning ko'nglidagi bo'lmadi.
 Alpomishga tag'in navbat keladi.
 Bek Alpomish xasta ko'nglin xushladi,
 Anjom, miltig'ini qo'lga ushladi,
 Qarab nishonani otib tashladi.
 Ko'rib, bul qalmoqlar hayron qoladi...

Uch shart o'tdi. Kurash taraddisini qip yotibdi. O'n ming uyli Qo'ng'iro't odami, qancha qalmoqning odami yig'ilib, Chilbir cho'liga, Oyna ko'liga tomoshamon to'lib, qo'r tortib o'tirdi. ...Ko'kaldosh bosh bir kam to'qson alp bir tarafdan qator bo'lib o'tirdi. Alpomish bilan Qorajon bir tarafdan o'tirdi. Qalmoqlar aytdi: "O'zimizdan chiqib, Qorajon ham balo bo'ldi. Mudom o'zbekning yonini oldi". Bu yoqdan Qo'shquloq degan alp maydonga kirdi.

...Qorajonning bir akasi bo'ladi,
 Taraf bo'p Qo'shquloq polvon jo'nadi.
 Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan,
 Ichida chichqonlar bolalab yotgan.
 Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan,
 Munday qalmoq qo'lin bulg'ab keladi.
 Qorajonbek xasta ko'nglin xushladi,
 Juppay qilib yoqasidan ushladi,
 Dustaman¹ qip uni qoqib tashladi.
 Qo'shquloqning endi aqili shoshdi,
 Qumni qopib, endi yerga yopishdi.
 Yana ham bir qalmoq kirdi maydonga:
 Odam tushmas² buning aytgan tiliga,
 Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.
 Bul qalmoqdir qalmoqlarning ravishi,
 Oh ursa, olamni buzar dovushi.
 To'qson molning terisidan kavushi,
 Siyosatman kelib maydonga turdi.
 Qorajon tavakkal Tangriga qildi,
 Bu qalmoqqa endi yaqinlab qoldi.
 Kurashmoq hadisini shunday biladi,
 Alp Qorajon yotibotar qiladi.

¹ Dustaman — yuztuban. ² Tushmas — tushunmas.

Ang¹ edi ul, shoʻrli bilmay qoladi,
 Boshidan oshirib yerga uradi.
 Tushib yerga pora-pora boʻladi.
 Achchigʻlanib, tagʻi qalmoq keladi,
 Qorajonning ishin bari koʻradi.
 Qorajonga pirlar quvvat beradi,
 “Xudo!”— deydi, bul maydonda turadi.
 ...Gʻurullashib, qolgani koʻtarilishdi,
 Qorajonbek yolgʻiz qiladi ishdi.
 Ikkam toʻqson alpni nobud qiladi,
 Bul alplardan bir Koʻkaldosh qoladi.
 Alp Koʻkaldosh yolgʻiz oʻzi qolibdi,
 Qorajon bariga gʻolib kelibdi,
 Kun nomozgar, endi kech boʻp qolibdi,
 Kurashga ul zamon javob boʻlibdi.

Shunda ketgan tomoshamon bari yigʻilib: “Kechagidan ham bugun qiziq boʻlar, alplarning zoʻri olishar”, — deb turdi. Kecha qanday boʻlsa, bugun ham shunday boʻp oʻtirdi. Qorajonga Alpomish turib aytdi: “Bugun tushmaysanmi maydonga, bugun talab qilmay turibsan?” “Bugun ham tush desang, tushaman. Tushgan bilan bundan omon topmayman, lekin bu haddili zoʻr. Bunga tushsam, ikki boshdan oʻlaman”, — deb turibdi. Alpomish chechinib: “Xayr, unday boʻlsa”, — deb maydonga talab qila berdi. Koʻkaldosh alp turib aytdi: “Oʻzbek! Sen bunday boʻyni yoʻgʻonlik qilma, gʻaribi goʻriston boʻlib oʻlma. Hali ham qoʻygin. Halak boʻp kelgan yoʻlingdan qolma...” Bu soʻzni eshitib, Alpomish Koʻkaldoshga qarab bir soʻz deb turgan ekan:

Har kim oʻz eliga bekmi, toʻrami,
 Oʻzi oʻlmay, kishi yorin berami?
 Buncha soʻzni lof urmagin, sen qalmoq,
 Kel endi, maydonda turgin, ey ahmoq.
 ...Bogʻbon boʻlsam, qizil gulni terayin,
 Har na qismat yozilganin koʻrayin.
 Kelgin, qalmoq, birga maydon qilayin,
 Nasib etsa, sening doding berayin...
 Bu soʻzni Alpomish aytib turadi,

¹ Ang — sodda, boʻsh.

Achchiqlanib, bul Ko'kaldosh turadi.
 Chechinib, shu zamon belini buvip,
 Minorday bo'p bul maydonga kiradi.
 ...Ikkovi kep belma-bel bo'p oladi,
 Belma-bel olishsa, ayrit¹ bo'ladi,
 Zo'r deganing ma'lum bo'lib qoladi.

O'n ming uyli qo'ng'irotning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Hakimbekka qarab bir so'z deb turgan ekan:

Qizlar sizni narmoda deb aytadi,
 Qizlarning aytgani menga botadi.
 Mardlar olishmaydi siltab otadi,
 Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi,
 Bo'sh odamning ishi keyin ketadi.
 Bu so'zlarni aytdi gul yuzli dilbar.
 Ikki polvon bo'lib turdi barobar.
 Ko'p so'zlarni Barchin suluv aytadi,
 So'zi Alpomishga botib ketadi.
 O'tdayin tutashib shunqor ketadi,
 G'ayrati g'ayratga bekning yetadi.
 Yor so'ziman sherdil bo'lib ketadi,
 Chirpab Ko'kaldoshni ko'kka otadi,
 Ancha yer havoga chiqib ketadi.
 Xaloyiqlar ko'kka boqib qaradi,
 Olchi-chikka bo'lib, shunday aylanib,
 Alp Ko'kaldosh bul osmondan keladi,
 Kallasiman kelib yerga uradi,
 Shunday qilib Ko'kaldosh ham o'ladi.

...Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar "kampir o'ldi" bo'lib, o'lganiga bir nima olib, "it irillar" degan rasmini qilib, bunda ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqqa o'tirib, oldiga dasturxon solib, ...kuyov navkarlarga to'ppi, ro'mol, sarpoylar berib, kuyov navkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning... qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, "chach siypatar", "qo'l ushlatar"ini qilib, bir necha yangalar har qaysisi o'z mazgiliga ketdi.

¹ Ayrit — ajrim, ora ochiq.

...Shunday bo'p bul orada qirq kun o'tdi. Qirq kungacha maslahat qip yotdi. Qirq kundan keyin maslahatni bir yerga qo'yib, Boysari qoldi. O'n ming uyli Qo'ng'iro't Barchin bilan ketmoqchi bo'ldi. ...o'n ming uyli Qo'ng'iro't bari ko'chib, yo'lga kirib, Boysari qaytib uyiga kelib, yolg'iz qolib, kallasi g'uvullab, musofirligi asar qilib qoldi...



Savol va topshiriqlar

1. Otlar va odamlar tasviridagi o'xshashlik va farqlarga e'tibor qiling. Qaysi tasvirda baxshilar ko'proq mahorat ko'rsatishgan?
2. **“Egam rahm aylasin qonli yoshima, Sabab bo'lib qo'shgin teng-u to'shima. Qurruyo-qur hayt-a, to'ramning oti!”** tarzida nola qilayotgan Oybachin holatini anglating.
3. Qalmoqlarning mubolag'ali tasvirlari berilgan o'rinlarni qayta o'qing va hayotiylik hamda badiiylik jihatidan izohlang.
4. Ko'kaldoshni yiqitilmayotgan Alpomish holati va uning ahvolidan iztirobga tushgan Oybachin tuyg'ulari ifodasi haqida fikrlang.
5. Barchinoyning Alpomishga qarata aytgan achchiq so'zlari alpga bu qadar qattiq ta'sir qilganligi sababini izohlang.
6. Sizningcha, “Alpomish” dostoni muhabbat haqidami, yurtsevarlik to'g'risidami, oshiqlik sha'ni haqidami yoki yigit ori to'g'risidami?

Nazariy ma'lumot

XALQ DOSTONLARI VA ULARNING TURLARI

Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimgi shaklidir. Negaki, odamlar badiiy asarlarni dastlab og'zaki shaklda yaratishgan va ular og'izdan-og'izga ko'chib yurgan. Bu asarlar ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lganliklari uchun ham xalqning badiiy xotirasi tufayli bizlargacha yetib kelgan.

O'zbek folklorida xalq dostonlari alohida o'rin tutadi. Olimlar XIX asr oxiridan XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o'zbek baxshilari tomonidan kuylangan yuz ellikka yaqin doston borligini aniqlashgan va variantlari bilan qo'shib

hisoblaganda, ulardan to‘rt yuztacha asar yozib olingan. Folklorchi olimlarning aytishlaricha, birgina “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar yuzdan oshadi, yolg‘iz “Alpomish”ning qirqdan ortiq yozib olingan varianti bor.

“Doston” forscha so‘z bo‘lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta‘rif ma‘nolarini bildiradi. *Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o‘tgan qaltis voqealar she‘r va nasriy yo‘lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma‘lum epik asarlar xalq dostonlari deyiladi.*

Xalq dostonlari olimlar tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan: 1. Qahramonlik dostonlari. 2. Jangnoma dostonlar. 3. Romantik dostonlar. 4. Tarixiy dostonlar. 5. Kitobiy dostonlar.

Yozma dostonlar aniq muallif tomonidan she‘riy yo‘lda yozilib, biror personaj kechirgan hodisalar shoirning his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Bu xil asarlar adabiyotshunoslikda “poema” deb ham yuritiladi.

She‘r bilan nasrning aralash kelishi xalq dostonlarining muhim belgisidir. Dostonlardagi she‘rlar, asosan, o‘n bir bo‘g‘inli bo‘lib, barmoq vaznida aytilgan bo‘ladi. Qahramonlarning o‘y-mulohazalari, nisbatan tinch ruhiy holati tasviri, o‘zaro so‘zlashuvlari o‘n bir bo‘g‘inli she‘r bilan ifodalanadi. Ba‘zan dostonlarda tasvir talabiga ko‘ra yetti, sakkiz bo‘g‘inli she‘riy ifodalar ham uchraydi. Otlar chopishi, jang manzaralari, personajlarning tezkor va shiddatli harakatlari aks etgan o‘rinlar yetti-sakkiz bo‘g‘inli she‘rlar bilan ifodalanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Xalq dostonlarining yozma dostonlardan farq qiladigan jihatlarini ko‘rsating.
2. Xalq dostonlarining turlarini ayting.
3. Dostondagi she‘rlarda bo‘g‘inlar sonining oz-ko‘pligi sababini tushuntiring.

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

NOSIRUDDIN BURHONIDDIN RABG‘UZIY

Adibning hayoti va ijodi haqida bizgacha yetib kelgan ma’lumot juda kam. XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Xorazmning Roboti o’g’uz degan joyida yashab ijod etgan. Bizga uning “Qisasi Rabg’uziy”dan boshqa asari ma’lum emas. Mazkur kitobda u o’zi haqida musulmonlarga xos kamtarinlik bilan “...bu kitobni tuzgan, toat yo’lida tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqliq, ko’p yozuqliq Roboti o’g’uz qozisi Burhon o’g’li Nosiruddin...” deb yozadi. Ko’rinadiki, allomaning oti Nosiruddin bo’lib, otasi Burhoniddin Roboti o’g’uzning qozisi bo’lgan. Rabg’uziy taxallusi ham u yashagan joy nomi bilan bog’liq. Yetuk ulamo va din arbobining oilasida tarbiyalangan Nosiruddinning o’z zamonasida taniqli tarixchi, yetuk shoir va iste’dodli tarjimon sifatida tan olinganligidan dalolat beruvchi bir talay yordamchi manbalar mavjud.

Rabg’uziyning qissalari ma’nosini anglatuvchi “Qisasi Rabg’uziy” asari *olam* va *odamning* yaratilishi, insonning yo’ldan ozishi va komillik sari mashaqqatli hamda uzoq yo’l bosib borayotganligi haqida g’oyat mantiqli va qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Ushbu asar musulmon dinini qabul qilgan e’tiborli mo’g’ul beklaridan Nosiruddin To’qbug’aning iltimosiga ko’ra, hijriy 709 (milodiy 1309—1310) yilda yozilgan.

Asosan payg’ambarlar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o’ziga xos yaratilish tarixi bor. Musulmon Sharqida bu mavzuda “Qisas ul-anbiyo” (Payg’ambarlar qissasi) nomi bilan mashhur ko’plab asarlar yaratilgan. Lekin, asarda yozilishicha, ularning “ba’zisi mustaqim (to’g’ri, haqiqiy) bor, ba’zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (puxta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor”. Shuning uchun ham bek To’qbug’a adibdan “o’qimoqg’a keraklik, o’granmakka yarog’liq” payg’ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishini so’ragan edi. Mazkur vazifani ulkan salohiyat, katta mahorat bilan uddalagan adibning bu asari “Qisasi Rabg’uziy”, “Qisas ul-anbiyoi turkiy” nomi bilan shuhrat topdi va yaratilgandan to bugungi kungacha sevilib o’qib

kelinmoqda. Rabg‘uziyning bu ijod mahsuli mazkur mavzu an‘anasidagi o‘ziga xos bosqich bo‘ldi. Birinchidan, adib o‘zigacha yaratilgan payg‘ambarlar haqidagi qissalarni puxta o‘rgandi, ularning yutuqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. Uchinchidan, oldingi nabiyalar qissalari arab va fors tillarida yozilgan bo‘lsa, Rabg‘uziy qissalari turkiy (o‘zbek) tilida bitilib, turkiyzabon xalqlarning bebaho ma‘naviy mulkiga aylandi.

Qissalar syujeti, bosh qahramonlari turlicha bo‘lsa-da, ularni bir zot — Muhammad alayhissalom siymosi o‘zaro birlashtirib turadi. Dunyoning yaratilishi haqidagi birinchi qissada aytilganidek, Alloh taolo farishtalariga qarata “... man bilurmankim, Muhammad Mustafo alayhissalom Odam o‘g‘lonlaridan bo‘lg‘usi, bul jahonni, ul jahonni, oyni, kunni, qamug‘ narsalarni aning sevukligi uchun yaratdim”, deb marhamat qiladi. Shuningdek, asarning oxirgi qissasi Muhammad alayhissalom va u zotning ahli bayti — oilasi, avlodlari haqidadir. Ko‘rinadiki, insoniyatning uzoq tarixi, payg‘ambarlar, avliyolar va boshqa ulug‘ zotlarning haq va haqiqat yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, izlanishlarining samarasi, umuman, odam zotining tom komillashuvi Muhammad alayhissalomning dunyo sahnasiga chiqishi bilan zuhur topdi.

Asrlar davomida insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan, buyuk Alloh irodasining ifodasi bo‘lmish din ham Muhammad alayhissalomga berilgan Islom shariatida o‘zining mukammal shakli va mohiyatiga ega bo‘ldi. Ming yillar davomida yuz bergan jarayonlar, inqirozlar, rivojlanishlar ana shu zot (Muhammad a.s.)ning dunyoga kelishi, ana shu mafkura (Islom)ning qaror topishi uchun tayyorlangan zamin edi. Asardagi qissalarni birlashtirib turadigan bosh g‘oya ham, ulardan kelib chiqadigan xulosa ham mana shundan iborat.

Aytish mumkinki, “Qisasi Rabg‘uziy” buyuk ibrat va insonga taskin, umid bag‘ishlovchi mo‘tabar manbadir. Asarda payg‘ambarlar hayoti, tarixda bo‘lgan voqealar shunchaki bayon qilinmaydi. Uni o‘qir ekansiz, bu dunyoda hech narsa tasodifiy va g‘alat, mantiqsiz yoki adolatsiz emasligiga amin bo‘lasiz. Barcha voqeliklarda Parvardigorning hikmati, adolati, eng asosiysi, ibratga to‘la irodasi zuhur qiladi. Mana ularning ayrimlari:

Oллоҳ Odamoto va Momohavoni yaratib, avvalda jannatga kiritdi. Chunki Odam (a.s.) avlodlari hayotlik davrida intilishlari, dunyoda yashab nom qozonishlari va unga loyiq bo'lishlari lozim bo'lgan ma'voni avvalida ko'rishlari kerak edi. Odamoto va Momohavoning bug'doy majorosi bilan jannatdan quvishi ham bejiz emas edi. Oллоҳ “Odam yaratmazda ashnu (ya'ni yaratishdan oldin) yer yuzida xalifa yaraturman (deb iroda qilgan edi). Bug'doydin yedi tesalar (jannatdan yer yuziga) chiqmoqqa sabab bo'lg'usi uchun”. Yoki Yusuf alayhissalomning qul qilinishini olaylik. Taqdirida bo'lgani uchun, bir vaqtlar qul bo'lgan bo'lg'usi payg'ambar Misr hukmdori bo'ldi. Qahatchilik, ocharchilik tufayli butun Misr xalqi Yusufga qul bo'lib qoladi. Shunda Tangri taolo o'z rasuliga qarata shunday xitob qiladi: “Ey Yusuf, biz seni qulliqqa solmasaq erdi bu kun qullar qadrin qayda bilgay erding”.

Iblis o'zini ulug' sanab, kibrga botdi, Oллоҳga osiy bo'ldi va uning huzuridan la'natlanib quvildi. Demak, kibr halokatga sabab bo'luvchi osiylikdir. Yusufni ko'rolmay unga zulm qilgan akalari qismatidan ko'rinadiki, hasad insonning ichini yondiruvchi, uni tubanlikka boshlovchi va oxir-oqibat yuzini qora qiluvchi o't ekan. Quyidagi so'zlar esa har kuni har kimga eslatma bo'lishi kerak: “Ma'siyat (gunoh)dan yig'iling, xalq orasida ko'ni (to'g'ri) hukm qiling, kuch qilmang, zino qilmang, qon to'kmang, xiyonat qilmang”.

Shuningdek, “Qisasi Rabg'uziy” o'ziga xos etnografik xarakterdagi chizgilarga ega asardir. Unda turkiy va boshqa xalqlarning ayrim rasm-rusum, urf-odatlar ham muallif nazaridan chetda qolmagan: “Rum viloyatining odati bor, teva (tuya)lari chaliqliq (beboshlik qilib) burunduqlatmasalar, yangi tushgan kelinlarni keltirub, un tuzub (musiqa chaldirib) yirlayturlar (kuylatishadi). Tevalar ularning ovozlari xushlanib o'zlaridan kecharlar (o'zlarini unutadilar) — ilikka ilinurlar (qo'lga tushadilar)”. Yoki: “Xalq orasida rasm bor, do'st do'stga safar qilib yonar (qaytar) bo'lsa, bir hadya ola borurlar”.

Tibbiyotga oid mo'jazzina ma'lumotlar ham uchraydi: “Savol: O'luk tirgizmak mo'jizasi bo'lg'ay, ammo ko'rni taqi (yana) pesni o'tachilar o'nglaturlar (tabiblar tuzatadilar) dori birla. Iso duosi birla ne mo'jizasi mo'jiza bo'lur?”

Javob ul turur: Modarizod (onadan tug'ma) ko'zsuzni Iso

duo birla o'nglatur erdi. Yana pes ikki turluk bo'lur, biriga davo yarar, biriga yaramas. Davo yarag'an pes ul bo'lurkim, igna sanchsa qon chiqar. Davo yaramasg'a igna sanchsa qon chiqmas. Iso alayhissalom andog' pesni yaxshi qilur erdi".

Yodgorlikning sodda, shirali tili o'quvchini maftun etadi. Unda o'quvchiga og'ir keladigan murakkab, balandparvoz ifodalar qo'llanmagan, ayniqsa, imkon qadar sof turkiy so'zlarning ishlatilganligi tahsinga sazovordir.

Asar badiiyati ham o'ziga xos. Bir qator qissalar boshlanishida yoki ichida berilgan o'zbekcha hamda arabcha she'rlar Rabg'uziyning nozikta'b zullisonayn shoir bo'lganligidan darak beradi. Bu she'rlar asar mazmunini to'ldiradi, g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, juda ko'p o'rinlarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida tashbeh, tanosub, tazod, tajnis, takrir, jonlantirish kabi tasvir vositalaridan unumli foydalangan.

Hurmatli o'quvchi! E'tiboringizga "Qisasi Rabg'uziy"-dan ba'zi qissalardan parchalarni hozirgi tilga tabdil qilmay, asliyatda qanday bo'lsa, o'sha holatda havola qilmoqdamiz. O'ylaymizki, berilgan lug'at yordamida ularni hech qiynalmay o'qiysiz, uqasiz hamda zavqlanasiz. Ko'p o'rinlarda muallif fikrni dalillash uchun Qur'on oyatlari, payg'ambar hadislari va boshqa mo'tabar manbalardagi ma'lumotlarni arab tilida keltirgan. Biz bu arabcha jummalarning hozirgi o'zbek tiliga o'girilgan holatdagi mazmunini berdik. Ular matnda alohida ajratib ko'rsatilgan.



Savol va topshiriqlar:

1. Quyi sinflarda Rabg'uziy asaridagi qaysi qissalardan parcha o'rgangan edingiz? Ulardan olgan taassurotlaringizni eslang.
2. Qanday diniy xarakterdagi asarlarni o'qigansiz? Darsdan so'ng o'qituvchingiz bilan ular to'g'risida suhbatlashing.
3. "Qisasi Rabg'uziy" asarining tuzilishida, syujet voqealari bayonida qanday o'ziga xoslik kuzatiladi?
4. 72 mustaqil qissadan iborat asarni birlashtirib turuvchi markaziy obraz va g'oya to'g'risidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashing.

RASUL ALAYHISSALOM VAFOTI SO‘ZLARI

Xabarda kelur, kunlarda bir kun Rasul alayhissalom tong namozini o‘tab minbarg‘a og‘ib sahobalarqa va‘z va nasihat qildi. Anda kezin aydi: “Ey mo‘minlar, kim ersaning manim uza hech da‘vosi va xusumati bormu?” Kim ersa javob aymadi. Ikinch so‘rdi, kim ersa javob aymadi. Uchunchida Ukosha otlig‘ sahoba qo‘pti¹, aydi: “Yo Rasululloh, manim bir da‘vom bor”. “Aytg‘il”, tedi. Aydi: “Bir kun siz safardin kelurda siz teva²ga minub, teva urur bo‘lub, ul qish qamchi³ birla ucham⁴qa urdingiz, yavloq⁵ og‘ridi. Yo Rasulalloh, uch qurla aymasangiz manma aymas erdim”, tedi. Rasul alayhissalom hujraga kishi izti⁶, qamchi tilagali keldi. Qamchi tiladi. Xotunlar: “Na bo‘ldi, na yerga borur?” teb qazg‘ur⁷dilar. Aydi: “Safarg‘a bormas, yerga borur?” teb qazg‘urdilar. Aydi: “Safarg‘a bormas, ammo Ukosha qisos⁸ tilayur”, tedi. Xotunlar yig‘lashtilar. Qamchini kelturdi. Rasul ilkinga oldi. Ukoshag‘a berdi. “Man netak urdum ersa san taqi andag‘ urg‘il”, tedi. Ukosha qamchi olib andag‘ tedi: “Bu qasos rost kelmas. Ul kun siz teva munub borur erdingiz, man yerda andog‘ erdim. Ustundin ingan berga birla bu rost kelurmu?” Rasul alayhissalom minbardin indi, Ukoshani minbarg‘a og‘dur⁹di. “Urg‘il”, tedi. Sahobalar yig‘lashtilar. Ukosha aydi: “Yo Rasululloh, ul kun maning engim yoling¹⁰ erdi, yavloq og‘ridi. To‘nungni chiqargil, qisos rost kel-sun”, tedi. Yig‘i, cho‘g‘i¹¹ sahobalardin zohir bo‘ldi. Rasul alayhissalom to‘nun chiqardi, egnini yoling qildi. Sahobalar faryod qo‘pordilar, Abu Bakr aydi: “Ey Ukosha, ul qamchini maning yuzumga, ko‘zumga urg‘il. Rasul alayhissalomning qutlug‘ taninga tegmasun”. Umar va Usmon va Ali raziyallohu anhum ajma‘in mundag‘-o‘q yig‘lashib: “Meni urg‘il”, tedilar. Rasul alayhissalom aydi: “Ey yoronlarim, siz kendu¹² shafqat qilursiz. Ammo qisos manga yarig‘u¹³ bo‘lsa sizlardin ravo bo‘lmag‘ay”, tedi. Anda kezin Ukosha egnini yoling ko‘rdi ersa, aydi: “Yo Rasululloh, manim maqsudim qisos ermas erdi, egningdagi muhri nubuvvatni ko‘rsam. Emdi dastur bergil, ul muhr uza qubla ber¹⁴ayin, sandin avf qildim”, tedi.

¹Qo‘pti – qo‘zg‘aldi, o‘rnidan turdi. ²Teva – tuya. ³Qish qamchi – egilgan qamchi. ⁴Ucha – orqa, kurak. ⁵Yavloq – yomon. ⁶Izti – yubordi. ⁷Qazg‘urmoq – qayg‘urmoq. ⁸Qisos – qasos. ⁹Og‘urmoq – chiqarmoq. ¹⁰Yoling – yalang‘och. ¹¹Cho‘g‘i – faryod. ¹²Kendu – o‘zi(ngiz)cha. ¹³Yarig‘u – atalgan. ¹⁴Ber – o‘pmoq.

Rasul alayhissalom dastur berdi. Ukosha qubla qildi. Sahobalar qamug‘ sevunchluk bo‘ldilar, Ukoshaga ofarin o‘qidilar. Aymishlar, qach kunda kezin vido‘ hajji bo‘ldi. Tevaga minub tururda Rasul alayhissalomda vahy og‘rig‘ining asari bilgurdi. Muhojir va ansor tegrasinda turub vahy tinglayur erdilar. Rasul alayhissalom bu oyatni o‘qiyur erdi: Bugun diningizni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim sizlarga ne‘matimni va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadigan din bo‘lsin uchun islomni sizga ravo ko‘rdim.

Ba‘zi sahobalar muni eshitib sevunur erdilar. Siddiq aydi: “Sizga sevungu kun turur. Man bildugumni siz bilsa erdingiz, sevunmagan erdingiz. Bilmish bo‘lung, Mustafo‘ni bizing oramizdin chiqargudek tururlar. Bizni aning firoqi birla muftalo qilg‘utek tururlar”. Abdulloh ibn Mas‘ud aytur: Hijratning so‘nggi yili erdikim, Rasul alayhissalom og‘rig‘ bo‘ldi. Jamoat namozig‘a boru bilmadi. Abu Bakrga ijozat berdi: “Borg‘il, sahobalarg‘a imomatlig‘ qilg‘il”, teb. Bilol raziyalloha anhu azon qildi, sahobalar yig‘lashti. Rasul alayhissalomning og‘rig‘i anchada andoq bo‘ldi. Fazl ibn Abbosqa aydi: “Mani masjidga elting”. Bir qo‘lini Fazl tutti, bir qo‘lini Ali tutti. Masjidga eltdilar. Siddiq raziyallohu anhu Rasulni qo‘rdi, yong‘uga o‘g‘radi². Rasul aydi: “Chiqmag‘il, imomatlig‘ qilg‘il”.

Rasul alayhissalom Abu Bakrga iqtido qil³di, namoz o‘tadi, hujraqa yon⁴di. Kun kelu og‘rig‘i ziyoda bo‘ldi. Qizil mengizi sarg‘ardi, chechaktek englari so‘ldi. Jabroil xoja mengizlik bo‘lub ustun turur. Azroil bir badaviy arabtek bo‘lub kirib keldi. Tizin cho‘kub⁵ o‘lturdi. Ozin-ozin⁶ Rasulqa yaqinroq keldi, quloqinga so‘zladi. Yana eva chiqti. Rasul alayhissalom holi aynadi. Telim oh qildi, yig‘ladi. Sahobalar qamug‘ yig‘lashtilar. Aydilar: “Yo Rasululloh, bu arab kim erdi, sizga ne tedi? Holingiz aznadi”. Aydi: “Ey yoronlarim, aziz do‘stlarim, ul kelgan Malak ul-mavt — qarindoshim Azroil erdi. O‘sh⁷ qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so‘zlayur: ummatingga salom tegurgil, bo‘g‘uz uchun imonni ilik⁸din chiqarmasunlar teb. Shaytonni, nafs-u havoni

¹Mustafo–Muhammad (a. s.). ² O‘g‘radi–shaylandi, yo‘l oldi. ³ Iqtido qilmoq–ergashib namoz o‘qimoq. ⁴ Yonmoq–ortga qaytmoq. ⁵ Tizin cho‘kib–tizzalab. ⁶ Ozin-ozin – sekin-sekin. ⁷ O‘sh - shu. ⁸ Ilik – qo‘l. Jumlaning ma‘nosi: Bo‘g‘iz (nafs-havo) uchun imonini qo‘ldan boy bermasinar.

izarma¹sunlar, shak va sharika insun²lar. Ko'ni imong'a berk yapushsunlar³, o'lumni unutmashunlar. Hiqd⁴ va hasaddin iroq tursunlar, shari'at ahkomini berk tutsunlar. Dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar. O'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar — dini islom otasi bo'lsunlar. Yovuz esh qo'ldoshdin yig'ilsunlar. Besh namozni azoqin tutsunlar. Qul, kungni ezgu tutsunlar⁵, darvishlarga rahm qilsunlar. O'gsuz⁶larga shafqat qilsunlar, qazg'ulug'⁷ munglug'larqa bo'lushsunlar. O'lumga anuq⁸ tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur", tedi. Sahobalar qattig' yig'lashtilar.

Rasul alayhissalom aydi: “Ey sahobalar man sizga yalavoch erdim”. Aydilar: “Ey olamlug'larning chirog'i, san bizga otanadin mushfiqroq erding. Xaloyiqni shari'atqa da'vat qilding, ummatqa sunnat va farz o'gratting. O'gsuzlarga otaliq qilding, za'iflarqa ektula⁹ding. Muhojir va ansorlarqa tarbiat qilding. Odamiy va parini hazrat¹⁰qa undading. Yo'lsuzlarqa yo'l ko'rguzdung, bo'ynag'u¹¹larni ko'ndurdung. Ko'nilar uza shari'at gavharin isor¹² qilding, shirk va fitna tug'ini yerga chal¹³ding. Olamni ilm bila yorutding, Shaytonni adl birla surdung. Mo'jizalar ko'rguzdung: oyni ernak¹⁴ birla yording; so'klnmish o'g'loqni tarkida so'zlatting¹⁵; ilkingdagilarni tilga kelturding; qurug' yig'ochni yoshartting; yemishsiz yig'och¹⁶ni duo birla ne'matlig' qilding; ushoq toshni tasbihga kelturdung; tamug'¹⁷g'a boru turg'anlarni yondurub ujmoq yo'linga boshlading”, teyu ingrayu boshladilar. Uch kunda kezin Malak ul-mavt¹⁸ yana keldi. Rasul alayhissalom Oyishag'a tizin yastanub yotur erdi. Fotima, Hasan va Husan katinda o'lturur erdilar. Qabiz al-arvoh qapug'qa keldi, hurmat birla aydi: ***“Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey payg'ambarlik va elchilik uyining ahllari, Ollohning salomi bo'lsin sizlarga, ey odamlar muhtoj bo'ladigan va ulug'lik uyining ahllari, Ollohning salomi***

1 Izarmoq — o'z qoliga qo'yimoq. 2 Shak va sharika insunlar — shubha va shirkdan qaytsinlar. 3 Ko'ni imonga berk yopushsinlar — to'g'ri (pok) imonga mahkam yopishsinlar. 4 Hiqd — gina, nafrat. 5 Qul, kungni ezgu tutsinlar—qul va xizmatkor (joriya)larga yaxshi muomalada bo'lsinlar. 6 O'gsuz—yetim. 7Qazg'ulug'—qayg'uga botgan. 8Anuq — tayyor. 9 Ektulamoq — boqmoq. 10 Hazrat — Olloh. 11 Bo'ynag'u — mag'rur, nomdor. 12 Isor—in'om, sochish. 13Yerga chalmoq—yiqitmoq. 14 Ernak—barmaq. 15 So'klnmish o'g'loqni tarkida so'zlatting — qovurilgan baliqni darrov tilga keltirding. 16 Yemishsiz yig'och — mevasiz daraxt. 17 Tamug' — do'zax. 18 Malak ul-mavt — Azroil.

bo'lsin sizlarga, ey insoniylik va saxovat uyining ahllari, Oллоhning salomi bo'lsin sizlarga, ey azizlik va sayyidlik uyining ahllari, Oллоhning salomi bo'lsin sizlarga, ey marhamat va baxt saodat uyining ahllari. Dastur¹ bormu, kirsamiz?" Oyisha raziyallohu anho aydi: "Bu a'robiiyqa ayding, kirgu vaqt ermas. Rasul alayhissalom emgan²ib turur". Rasul alayhissalom Azroil unin tanudi, aydi: "Ey Oyisha, so'z birla yonar³ kishi ermas, ish biturmadin ketmas, a'robiiy ermas, Azroil turur, kirsun", tedi. Kirib salom qildi. Rasul alayhissalom so'rди: "Na ishga kelding?" Azroil aydi: "Hazratdin yorlig' andog' tururkim, Muhammadga borg'il, dastur bersa jonin olg'il. Dastur bermasa ravon yong'il teb. Emdi dastur bersang jon olurman, bermasang yonarman", tedi. Rasul alayhissalom aydi: "Yo Azroil, jon bu kun olmasang kech qolsa oqibat olurmusan?" "Olurman", tedi. "Andog' ersa ishga turg'il", tedi. Azroil jon olmoqqg'a o'g'radi. Rasul alayhissalom sog'din so'lga⁴, so'ldin sog'g'a to'lg'anub boshladi. Muborak a'zosi kuchuz bo'ldi. Ul qutlug' ko'ngli mungluk bo'ldi. Mengizi sarg'ardi, shakkartek tili so'zlamas bo'ldi. Ko'rkluk yangoqlaridin qatra-qatra yosh toma boshladi. Aqiru-aqiru⁵ tilin tebratib: "Iziyo, mani dunyodin ko'nilik uza chiqarg'il, to'proqqa ko'nilik uza kigur-gil, qiyomat kuni tuproqdin kunilik uza qo'porg'il", teyur erdi. Qamug'lari tegrasida yig'lashurlar. Hasan va Husayn raziyallohu anhumo yoling bosh bo'lub ingrashurlar. Fotima raziyallohu anho yig'lab aytur:" Ey yumshoq to'shakda yotmag'an, ey tovar to'n kizmagan, ey arpa etmagin to'q yemagan", teb yig'layur erdi. Ev mungushi⁶din un keldi: **Voh, qandoq chidab bo'lur Rasulullohning firoqiga.** Rasul alayhissalom tekma bir soatda ilkin suvqa tegurub ko'ksunga qo'zur. "Iziyo, jon bermakni Muhammadga oson qilu bergil", teyur erdi. Qachon jon ko'ksinga yetti ersa aydi: "Ey Azroil, bir soat tavaqquf qilg'il, jon bermakni oson qilu bergil", teyur erdi.

"Ey Azroil, bu kundin qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak qattiqliqi bor ersa ul qattiqliqlarni manga yuklagil. Ul qattig'liqlar manga bo'lsun, ummatlarimqa

¹ Dastur — ruxsat. ² Emganmoq — qiynalmoq. ³ Yonar — qaytar. ⁴ Sog'din so'lga — o'ngdan chapga. ⁵ Aqiru-aqiru — past ovozda. ⁶ Ev mungushi — uy ichkarisidan.

bo‘lmasun”. Azroil aydi: “Yo Rasululloh, man saning yastuqingda o‘lturgandin boru izi azza va jalladin yetmish yo‘li farmon yetildi. Do‘stum Muhammad birla rifq¹ mador qilg‘il. Jonin yuvoshliq birla olg‘il, azin²lardin olmishtek olmag‘il”, teb. Onchada Oyishai Siddiqa raziyallohu anho yig‘layu Rasul alayhissalomqa yapushti. “Necha ular birla so‘zlashursen, bir zamon manim birla so‘zlashgil. Yetti yasharda sanga ulashdim, taqi yoshim yigirmaga yetmas erkan muborak jamolingdin azrilurman. Ey aziz jonim, sening firoqing achig‘i qamug‘ olam uza necha ersa, yolg‘uz man za‘if uza andin ortuqroq turur. Azinlarning etagi kuyar, manim tanim, jonim kuyar”. Ul holda Fotima raziyallohu anho Rasul alayhissalomning yuzunga boqib: “Ey odamlar quvanchi, ey muhiblar sevunchi, ey mushtoqlar umanchi, ey ummatlar inonchi, ey osiylar tayanchi, ey odamiylar davlati, ey olamluqlar rahmati, ey haqning muslihi, ey xalqning shafi‘i, man sansiz mehrob va minbarni netak ko‘rayin”, teb yig‘layurda Ali raziyallohu anhu Fotimani tiz³ar erdi. Rasul alayhissalom aydi: “Yo Ali, Fotimani tizmagil. Mantek otaning firoqinda yig‘lasunlar. Qizlar yig‘isi otalar yastuqi yavloq kuynukluk bo‘lur”. Ul holda qamug‘ sahobalardin yig‘i va faryod va zorliq qo‘pti. Rasul alayhissalomning joni bo‘g‘zinga keldi ersa ko‘zin ochib aydi: “Ey Azroil, bir zamon sabr qilg‘il, qarishdoshim Jabroil kelsun. Yana bir qurla so‘ng diydorin ko‘rayin”, teb tavaqquf qildi ersa Jabroil keldi. Yetmish ming muqarrab farishtalar birla yig‘layu kirdi. Rasul alayhissalom aydi: “Qaydasen, ey qarindoshim Jabroil, qarindoshlar bu kun kerak bo‘lur”, Jabroil alayhissalom aydi: “Ey olam faxri, yetti ko‘k farishtalari sanga ta‘ziyat tutub turular erdi, anda mashg‘ul bo‘ldum”. Rasul alayhissalom aydi: “Ey Jabroil, bu soat na futuh kelturdung?” Aydi: “Ko‘klar qapug‘i, ujmohlar qapug‘i ochildi. Hurlar yuksakka og‘ib, niqob yuzlarindin ko‘turub, iliklarinda nurdin tabaqlar olib, saning qutlug‘ joningga nazzora qilaling teb kuyub tururlar”. Rasul alayhissalom aydi: “Ey qarindosh, muni so‘rmasman. Manda kezin Mavlo taolo manim za‘if yozuqluq⁴ ummatlarim birla na muomala qilg‘ay, ani so‘rarman”.

¹ Rifq — muloyimlik, mehribonlik. ² Azin — boshqa. ³ Tizmak — to‘xtatmoq, ushlab qolmoq. ⁴ Yozug‘lug‘ — gunohkor.

Jabroil yana yondi, bir soatda kezin yana keldi ersa aydi: “Ey sayyidi Molik al-muluk, haq taolo va ta’zim yorliqlar: “Ey manim do’stum, ko’nglungni ummatdin forig’ tut’g’il. Saning ummatlaringni erin² tebratgani birla ul amal qilg’aymankim, Muso tayoqi Fir’avn sahara³si birla qildi. Bir aso otmoqi birla qamug’ kufr va sehr va tug’yon yo’q bo’zun bo’ldi. Bu kun san bir erin tebratgan birla qamug’ osiy ummatlaringning daftarlarin g’ufro⁴n suvi birla yub yo’q bo’zun qilg’ayman. Ul kun Muso onasiqa ayduq: “Bu kun o’g’lungni tengizga kemish⁵gil, qo’rqmag’il, qazg’urmag’il. Bu kun yosh o’g’lonni bizga bergil, yoshlig’ yalavoch⁶ qilib sanga beraling”, teduk. Senma bu kun masiyatlig’ bir ovuch bulg’anuq⁷ ummatingni bizga isborla⁸g’il, yorin qamug’ini yorliqab, arig’lab sanga beraling teb. Oyisha raziyallohu anho aytur: “Rasul alayhissalom azin so’zlamas bo’ldi. Boqtim, og’zinda tili tebranur. Quloq tuttum, tingladim, aytur: Namozni qo’zmang, qul kungni ezgu tutung. Oxir vasiyati bu erdi, dunyodin bordi. Qirq yoshinda vahy keldi, oltmish uch yoshinda rabi’ ul-avval oyining o’n uchinda dushanba kun vafoti bo’ldi. Panjshanba kun tuproqqa kirdi. **Biz hammamiz Oллоhnikimiz va albatta Oллоhning qoshiga qaytib borajakmiz.**

Maqsud ul turur. Bu yer nechuk kechar dunyoda ul yergakim, Mavlo taolo olamni, odamni aning do’stluqida yarattikim, **Agar Siz bo’lmaganingizda falaklarni yaratmagan bo’lardim⁹**, olamluqlar rahmati erdikim, **Biz Sizni olamlar uchun faqat rahmat bo’lsin deb yuborganmiz¹⁰.**



Savol va topshiriqlar:

1. Umri poyoniga yetganini bilgan rasulullohning “Kim ersaning manim uza hech da’vosi bormu?” deb so’rashinging sababini tushuntiring.
2. Sahoba Ukoshaning maqsadi va tadbirini qanday tushundingiz?

¹ Forig’ tutmoq – xotirjam bo’lmoq. ² Erin – lab. ³ Sahara – sehrgar, afsungar. ⁴ G’ufro – kechirishlik. ⁵ Kemishmoq – tashlamoq, otmoq. ⁶ Yalavoch – payg’ambar. ⁷ Bir ovuch bulg’anuq – bir hovuch gunoh bilan bulg’angan. ⁸ Isborlamoq – topshirmoq, havola qilmoq. ⁹ Qur’ondagi Muhammad alayhissalomga qarata aytilgan xitob-oyat. ¹⁰ Qur’ondagi Muhammad alayhissalomga qarata aytilgan xitob-oyat.

3. Qur’ondagi **“Bugun diningizni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim sizlarga ne’matimni va to’g’ri yo’l ko’rsatadigan din bo’lsin uchun islomni sizga ravo ko’rdim”** oyatini eshitgan Abu Bakr Siddiq nima uchun yig’lagandi?
4. Matndan sahobalarning Muhammad alayhissalomga uning o’zi oldida bergan ta’rif va tavsiflarini topib, izohlang.
5. Rasulullohning jon berish paytidagi ruhiy holatlari, yaqinlari hamda sahobalarining iztiroblari asarda qay tarzda berilgan? Bu lavhalar sizda qanday taassurot qoldirdi?
6. **“Ey Azroil, bu kundin qiyomatga tegi maning ummatlarimga jon bermak qattiqliqi bor ersa ul qattiqliqlarni manga yuklagil. Ul qattig’liqlar manga bo’lsun, ummatlarimqa bo’lmasun”** so’zlari orqali Rasulullohning o’z ummatiga bo’lgan mehribonligini mushohada qiling.
7. Oллоh taolo Muhammad alayhissalom hurmatidan uning ummatiga qanday marhamat ko’rsatdi? Bu marhamatni qaysi hodisot bilan asoslaganligiga diqqat qiling.
8. “Muhammad alayhissalom — inson komilligining timsoli” mavzusida uy inshosini yozing.

“Qisasi Rabg’uziy”dan olingan parcha haqida

O’quvchilar, “Qisasi Rabg’uziy”dan olingan lavhalar orqali Siz insoniyatning yaralishiga sabab bo’lgan zot, olamlarga rahmat bo’lib kelgan, bashariyatga qiyomatgacha namuna, ibrat va komillik timsoli bo’lmish Muhammad alayhissalom siymosi bilan tanishdingiz. Matndagi lavhalar, payg’ambar (a.s.)ning ta’rif, tavsiflari, ibratli pand-nasihatlar bu ulug’ zotning shaxsiyatiga doir chizgilarni oz bo’lsa-da, tasavvur qilishga yordam beradi.

Ushbu parcha payg’ambar (a.s.)ning sahobalarga qarata: “Ey mo’minlar, kim ersaning manim uza hech da’vosi va xusumati bormu?” — deya uch bor so’roviga sahoba Ukoshaning bildirgan da’vosiga bog’liq lavha bilan boshlangan. U zot Ukoshaga nogahon tegib ketgan o’sha qamchisini uyidan oldirib kelib, da’vogarning qo’liga berdi va “Men qanday urgan bo’lsam, shunday ur” — deb buyurdi. Talabi qondirilib, rasulullohning egnini yalang ko’rganda, asl maqsadi qasos emas, balki payg’ambarning orqa kuraklari orasidagi Oллоh tomonidan qo’yilgan muhri nubuvvat (payg’ambarlik muhrini) ko’rish

va undan bo'sa olish niyatida ekanini bildirib, izn so'raydi va bu sharafta noil bo'ladi.

Mazkur voqeani keltirish orqali muallif payg'ambar (a.s.) amal qilgan, uning oddiy kundalik hayot tarziga aylanib ketgan hayotiy tamoyillarini ochib beradi. Ular quyidagilar: *birinchidan*, insonning boshqa bir odam oldida na moddiy, na ma'naviy va na jismoniy haqi qolmasligi kerak. Har qanday holatda kishi da'vogarning (agar u haq bo'lsa) haqini ado etishi lozim. Bu **adolat**dan bo'ladi. *Ikkinchidan*, Muhammad (a.s.) ham payg'ambar, ham hukmdor edi. Shunday bo'lsada, da'voni qondirishdan bo'yin tovlamadi. Demak, hatto payg'ambar o'z ummati, hukmdor o'z fuqarosining qilgan da'vosidan forig' bo'lolmas ekan, qolgan insonlar bir-birlarini rozi qilib yashashlari shart. Bu **tenglik** ramzi edi. *Uchinchidan*, da'vo qilinguvchining o'zi turganda (agar da'vogar rozi bo'lmasa) boshqalarning u uchun omonatni ado etishlari (ya'ni da'voni qondirishlari) mumkin bo'lmas ekan. Bu hukmdagi ijroning **haqiqat** tamoyiliga asoslanganligidir.

Endi vahiy orqali tushirilgan oyat bilan bog'liq lavhaga e'tibor qarataylik. "Rasul alayhissalom bu oyatni o'qiyur erdi: Bugun ditingizni sizlarga mukammal qilib berdim va tamom qilib berdim sizlarga ne'matimni va to'g'ri yo'l ko'rsatadigan din bo'lsin uchun islomni sizga ravo ko'rdim". Bu oyatni eshitib ko'p sahobalar xursand bo'lishadi, Abubakr Siddiq chuqur qayg'uga tushadi. Rabg'uziy qarshilantirish usuli orqali holatga alohida urg'u beradi: bir tomondan, dinning mukammal bo'lishi Yaratganning butun insoniyatga ne'mati, ehsoni edi — bundan quvonmay bo'lmaydi. Ikkinchidan, Muhammad alayhissalomning insonlar orasidan chiqariladigan kun yaqinlashib qolgan — ummat uchun bundan katta fojea yo'q edi. Avvalgi lavhada hazrat Abubakrga xos bo'lgan siddiqlik (tengsiz sadoqat) kabi xarakter belgisiga ishora qilingan bo'lsa, bu yerda uning ulkan farosat sohibi bo'lganligi ochib berilgan.

O'sha qayg'uli kun ham kelganini tasvirlar ekan, avvaliga muallif tashbeh — o'xshatish san'atidan unumli foydalanaadi. "*Kun kelu og'rig'i ziyoda bo'ldi. Qizil mengizi sarg'ardi, chechaktek englari so'ldi. Jabroil xoja mengizlik bo'lub ustun turur. Azroil bir badaviy arabtek bo'lub kirib keldi*". Jumladlarda "*chechaktek eng*", "*xoja mengizlik*". "*badaviy arabtek*" tashbehlari, shuningdek, "*qizil mengiz*" "*chechaktek eng*" sifatlash-

lari o'quvchi diqqatini tortadi. Badaviy arab suratidagi Azroil (a.s.) u zotga yaqin kelib, qulog'iga shivirladi, shunda rasul (a.s.) holi aynib, ohlar chekdi va yig'ladi. Buning sababini so'rashganda, Payg'ambar (a.s.) shunda ummatlariga, umuman, butun insoniyatga vasiyat bo'lib qolgan nasihatlarini bayon etdi: "Ey yoronlarim, aziz do'stlarim, ul kelgan Malak ul-mavt — qarindoshim Azroil erdi. O'sh qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so'zlayur: ummatingga salom tegurgil, bo'g'uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar teb. Shaytonni, nafs-u havoni izarmasunlar, shak va sharika insunlar. Ko'ni imong'a berk yapushsunlar, o'lumni unutmashunlar. Hiqd va hasaddin iroq tursunlar, shari'at ahkomini berk tutsunlar. Dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar. O'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar — dini islom otasi bo'lsunlar. Yovuz esh qo'ldoshdin yig'ilsunlar. Besh namozni azoqin tutsunlar. Qul, kungni ezgu tutsunlar, darvishlarga rahm qilsunlar. O'gsuzlarga shafqat qilsunlar, qazg'ulug' munglug'larqa bo'lushsunlar. O'lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur", tedi".

Mumtoz adabiyotda ko'p shoirlar *tanosub* san'atini asarlarida unumli qo'llaganlar. Tanosub — fikrni bir-biriga aloqador, ma'no jihatdan yaqin, mazmuni uyg'un tushunchalar orqali ifodalash usulidir. Ikkinchi nasihatdagi *shayton*, *nafs-u havo*; o'n uchinchi nasihatdagi *qul*, *kung*, *darvish*, *o'gsuzlar*, *qazg'ulug'*, *munglug'lar*; o'n to'rtinchi nasihatdagi *o'lum*, *qiyomat* so'zlari o'zaro yaqin tushunchalarni ifodalab, tanosub uchun asos bo'lmoqda. Ayrim o'rinlarda inkor qilinayotgan, qaytarilayotgan tushunchalarning bir harf bilan boshlanishi ham kishi diqqatini tortadi. Masalan, uchinchi nasihatdagi *shak va sharika insunlar* ifodasida "sh", oltinchi nasihatdagi *hiqd va hasaddin iroq tursunlar* jumlasidagi "h" tovushlari ma'noga urg'u beradi va musiqiylikni yuzaga keltiradi. Bir qator so'z va so'z birikmalari ko'chma ma'noda qo'llangan. Masalan, *imonni ilikdin chiqarmasunlar*; *osh, etmak otasi bo'lmasunlar - dini islom otasi bo'lsunlar*; *besh namozni azoqin tutsunlar* kabi. Gaplardagi fe'l kesimlarning 3-shaxs ko'plikdagi buyruq-istak mayllarida berilishi ularga qat'iy hukm, javobi muqarrar chaqiriq ohangini baxsh etgan.

Keyingi dialogda tadrijning go'zal namunasini ko'ramiz. *Tadrij* adabiyotda fikr, holat yoki tushunchalarni darajalab,

muttasil ravishda kuchaytirib borishni nazarda tutadi. Rasul (a.s)ning “Ey sahobalar, man sizga yalavoch erdim” degan xitobiga javoban sahobalar payg‘ambar (a.s.)ning ummati uchun, butun insoniyat uchun qilgan xizmatlarini o‘n besh qismda tadrij asosida sanaydilar: “Ey olamlug‘larning chirog‘i, san bizga ota-onadin mushfiq (mehribon)roq erding(1). Xaloyiqni shari‘atqa da’vat qilding(2), ummatqa sunnat va farz o‘gratting(3). O‘gsuz(yetim)larga otaliq qilding(4), za’iflarqa qarading(5). Muhojir va ansorlar, sahobalarni tarbiya qilding(6). Odam va parilarni hazratqa (Allohga) undading(7). Yo‘lsuzlarqa yo‘l ko‘rguzdung(8), bo‘ynag‘u (mag‘rur)larni ko‘ndurdung(9). Ko‘ni(to‘g‘ri)lar uza shari‘at gavharin isor qilding (sochding) (10), shirk va fitna tug‘i (bayrog‘i)ni yerga chalding(11). Olamni ilm bila yorutding(12), Shaytonni adl birla surdung(quvding) (13). Mo‘jizalar ko‘rguzdung: oyni ernak (barmog‘ing) birla yording (bo‘lding); so‘klunmish o‘g‘loqni tarkida so‘zlatting (qovurilgan baliqni darrov tilga keltirding); ilkingdagilarni tilga kelturdung; qurug‘ yig‘ochni yoshartting; yemishsiz yig‘och (mevasiz daraxt)ni duo birla ne‘matlig‘ qilding; ushoq (mayda) toshni tasbihga kelturdung(14), tamug‘ (do‘zax)g‘a boru turg‘anlarni yondurub (qaytarib) ujmoh (jannat) yo‘linga boshlading” (15).

Qadrli yosh do‘stlar! Biz ajdodlari shu buyuk zot keltirgan ta’limotga ergashgan millat vakilimiz. Bu qalbimizga qanchalar faxr tuyg‘usini baxsh etsa, yelkamizga shunchalar mas’uliyat ham yuklaydi. Yuqoridagi tahlillar so‘ngida quyidagi oqil fikrni keltirish o‘rinli: “Din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir”¹.

¹ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008- yil.

ALISHER NAVOIY
(1441 — 1501)



Siz quyi sinflardan benazir inson, buyuk alloma, daho ijodkor Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan tanishib kelmoqdasiz. Millatimiz faxri bo‘lmish bu zotning asarlari, ularning mazmun-mohiyati to‘g‘risida tasavvurga egasiz. Ushbu sinfda Siz uning “Xamsa” asari bilan batafsilroq tanishasiz.

Sharqda xamsachilikning o‘ziga xos tarixi va an‘anasi mavjud. “Xamsa” yozishni ozarbayjonlik ulug‘ shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Lekin u bu asarini avvaldan niyat qilib, ma‘lum bir reja asosida yaratmagan. Nizomiy 1173—1179- yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag‘ishlab “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) nomli hamdnoma yozadi. 1180—1181- yillarda Iroq hukmdori To‘rg‘ul II ning iltimosiga ko‘ra “Xusrav va Shirin” dostonini yaratadi. 1188- yilda Shirvonshohlardan Axsatan I Nizomiya “Layli va Majnun” dostonini yozishni buyuradi. 1196- yilda hukmdor Alovuddin Ko‘rpa Arslonning topshirig‘i bilan Bahrom haqida “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) maydonga keldi. 1196—1201- yillarda “Iskandarnoma” yaratiladi. Shu tariqa 1173—1201- yillar oralig‘ida — 28 yil davomida muallifning besh dostoni dunyo yuzini ko‘rdi. Shundan so‘ng adibda turli yillarda bitilgan bu dostonlarni jamlab, yagona bir nom bilan atash fikri tug‘ilgan va “Panj ganj” (“Besh xazina”) nomi bilan mashhur bo‘lgan birinchi “Xamsa” vujudga kelgan.

Nizomiydan yuz yildan so‘ng asli shahrisabzlik turkiy qabilalar avlodidan bo‘lgan Xusrav Dehlaviy (1253—1325) o‘zining “Xamsa”sini 1299—1301- yillarda yozib tugalladi. U “Matla’ ul-anvor” (“Nurlarning boshlanmasi”), “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”), “Oyinayi Iskandariy” (“Iskandar oynasi”)

dostonlarini yaratib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotda xamsachilik anʼanasi paydo boʻldi.

Shunga koʻra asar “Xamsa” deb atalishi uchun: a) besh dostonidan tashkil topmogʻi; b) birinchi doston, albatta, pand-nasihath ruhidagi taʼlimiy-axloqiy, falsafiy boʻlmogʻi; d) ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bagʻishlanmogʻi; e) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmogʻi; f) toʻrtinchi doston shoh Bahrom va beshinchi doston Iskandar haqida yozilmogʻi shart edi.

Dehlaviydan qariyb 200 yil keyin ikki buyuk xamsanavis maydonga chiqdi. Bular Jomiy va Navoiy edilar. Jomiy avval quyidagi besh asarni yozdi: “Tuhfatul-ahror” (“Erkinlar tuhfasini”), “Sabhatul abror” (“Yaxshilar tasbihi”), “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”, “Xiradnomayi Iskandariy”. Bu besh asarni 1485- yili yozib tugalladi. Keyin “Silsilat uz-zahab”, “Salomon va Absol” asarlarini qoʻshib, “Xamsa”ni yetti dostonga yetkazdi va “Haft avrang” (“Yetti taxt”) deb atadi.

Alisher Navoiyning “Xamsa”si boshqalardan farqli ravishda muallifning ona tilisida — turkiy tilda yozildi. Buni oʻzbek kitobxonlarining ortib borayotgan ehtiyoji, oʻzbek adabiy tili va adabiyotining taraqqiysi hamda istiqboli talab qilardi. Bunday ulkan, katta jasorat talab qiladigan masʼuliyatli ishga daho ijodkor Navoiygina jurʼat qila olardi. Shuning uchun “Layli va Majnun” dostoni xotimasida Nizomiy va Dehlaviyni taʼriflar ekan, turkiy (oʻzbek) tilida “Xamsa” yozishning sababini shunday izohlaydi:

...Gar nukta'lari olamni tutti,
Gʻavgʻolari ins-u jonni tutti.
Chun forsiy erdi nukta shavqi,
Ozroq edi andi turk zavqi.
Ul til bila nazm boʻldi malfuz²,
Kim forsiy anglar oʻldi mahfuz³.
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasona⁴ni hikoyat.
Kim shuhrati jahonga toʻlgʻay,
Turk eliga dogʻi⁵ bahra boʻlgʻay

¹ Nukta — soʻz, bu yerda ijod, asarlari maʼnosida qoʻllangan. ² Misraning maʼnosi: Bu (forsiy) til bilan nazm (asar) yaratilsa. ³ Misra maʼnosi: forslargagina tushunarli edi. ⁴ Fasona — afsona, bu yerda doston maʼnosida qoʻllangan. ⁵ Dogʻi — shuningdek, yana.

Navoiy o'z salaflarining yuksak san'atkorligini sharaflaydi, ularning adabiy tajribalaridan ta'lim olganligini e'tirof qiladi. Dostonlarning muqaddima qismida ustozlariga bag'ishlab maxsus boblar yozib, ularni ulug'laydi. Mas'uliyatli bu ishda ularga ruhan suyanadi va:

Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lim,
Qo'ldasa Xisrav bila Jomiy qo'lim, -

deb madad tilaydi. Biroq Navoiy oldingi xamsanavislarni takrorlamaydi yoki ularga ko'r-ko'rona taqlid qilmaydi. O'z oldiga yangi, o'ziga xos "Xamsa" yaratish vazifasini qo'yadi. Buni muallif "Xamsa"ning bir necha o'rnida ochiq-oydin ta'kidlaydi. Jumladan, u "Farhod va Shirin" dostoni muqaddimasida shunday yozadi:

Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq?

Bu misralari orqali Navoiy "Xamsa" yozishdagi belgilab olgan o'z yo'riqlarini bayon etadi: Shunday asar (nazm) — doston yozginki, o'ziga xos (tarhi toza) bo'lsin, o'qigan odamlarga (ulusqa) yangi, boshqa asarlarga o'xshamas (beandoza)ligi sezilib tursin. Aks holda (yo'q ersa) asari o'zgaralar (xaloyiq) yozgandek bo'lsa, bunday takrorlash (mukarrar) senga loyiq emas. Yaxshisi, bunday asar yozmagan ma'qul.

Lekin bu oson ish emas. Buning uchun Yaqin va O'rta Sharq o'lkalarida qalami mislsizligi e'tirof etilgan Nizomiy va Dehlaviy bilan ijodiy bahsga kirishishi lozim bo'ladi. Bu juda katta bilim va yuksak adabiy didni, iste'dod hamda mashaqqatli mehnatni talab etar edi. Bu haqida "Farhod va Shirin"da yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.
Kerak sher ollida ham sheri jangi,
Agar sher o'lmasa, bore palangi.

Haqiqatan ham Nizomiydek nazm she'ri bo'lgan maydonda turmoq oson emas. U bilan bahslashish (panjasiga panja urmoq) uchun sher yoki hech bo'lmasa yo'lbars (palang)

bo‘lmog‘i darkor. Navoiy sher bilan tenglashadigan sher bo‘ldi. U og‘ir va mas’uliyatli vazifani muvaffaqiyat bilan ado etdi. Nihoyat qisqa bir muddat — ikki yil (1483—1485) davomida 51 ming misradan ortiq besh dostonni yozib tugalladi. U 1483-yilda “Haytar ul-abror” falsafiy-ta’limiy dostonini, 1484-yilda uch asarni: “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” ishq qissalarini, “Sab’ai sayyor” ishqiy-sarguzasht dostonini, 1485-yili esa “Saddi Iskandariy” qahramonlik dostonini yaratdi. Dostonlar, butun Sharq mumtoz adabiyotida bo‘lganidek, an’anaviy muqaddima — hamd va na’t qismlari bilan boshlanadi. Hamd — Yaratuvchimiz Allohni ulug‘lash, unga shukronalik, na’t esa payg‘ambarimiz Muhammad (a.s.) alqovidir.

Navoiy “Xamsa”si yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Besh doston bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog‘langandir. Masalan, “Hayrat ul-abror”da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo‘yadi, keyingi dostonlarda muayyan taqdirilar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi. Shu nazar bilan “Hayrat ul-abror” tuzilishi va mavzulariga diqqat qilaylik.

Doston o‘ziga xos qurilishga ega. U falsafiy-ta’limiy doston bo‘lganligi uchun mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritiladi. Shuningdek, maqolatlar shu dostongagina xos bo‘lib, adibning boshqa asarlarida uchramaydi. Har bir maqolatda insonning kundalik hayoti bilan bog‘liq diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy biror mavzu bayon etiladi, uning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Maqolat so‘ngida mavzuni dalillash, uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya yoki masal keltiriladi. Mazkur hikoya va masallarning bosh qahramoni asosan tarixiy shaxslar, mashhur din va davlat arboblardir. Ularda shoir islomiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib Olam va Odam to‘g‘risidagi o‘z mulohazalarini yuksak badiiy shaklda ifoda etadi.

Kimki jahon ahlida inson erur,

Balki nishoni anga iymon erur.

Ya’ni, kim bu dunyoda inson deb atalibdi, insonligining belgisi iymondir. Iymonsizni odam deb atab bo‘lmaydi. Inson bilan hayvon orasidagi farqni nutqda — odamning so‘zlay bilish

qobiliyatidagina deb bilish xatodir. Chunki odamda nutq ham, boshqa maxluq — hayvonlarda boʻlgan bir qator jihatlar ham bor. Shuning uchun asosiy mezon iymondir, deydi Navoiy.

Hukmdorlarga bagʻishlangan “Salotin bobida” nomli uchinchi maqolat adibning adolat haqidagi qarashlarini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega. Maqolatda shoirning tenglik, ozodlik, adolatli jamiyat borasidagi qarashlari oʻz ifodasini topgan. Uning fikricha, mamlakatda juda koʻp narsa davlat boshligʻiga bogʻliq. Shoh odil, oqil, orif va el-yurtga gʻamxoʻr boʻlishi kerak. Shuning uchun shoir shohga qarata: raiyat (xalq) poda boʻlsa, sen choʻponsan, u mevali daraxt boʻlsa, sen — bogʻbon, agar choʻpon qoʻylarini asramasa, ular och boʻrilarga yem boʻladi. Podani boʻrilardan asra, bogʻni suv berib yashnatgin, deydi. Hukmdor kim boʻlmasin, mamlakat va xalqning taqdiri uning faoliyati, xatti-harakatiga bogʻliq:

Shohki ish adl ila bunyod etar,

Adl buzuq mulkni obod etar.

Kofiri odil ani obod etib,

Moʻmini zolim ani barbod etib.

Keyingi maqolatda odob masalalari yoritilgan. Adib unda kishilar bilan munosabat va muomala madaniyati, oʻzini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar toʻgʻrisida oʻz mulohazalarini bildiradi. Odob, tavozeni alqaydi, oʻzini tuta bilmaslik, oʻrinsiz kulgi kabi salbiy xislatlarni qattiq qoralaydi. Inson munosabatlarda har bir kishining ahvoliga yarasha muomala qilishi, kattalarga xizmat, kichiklarga shafqat etishi lozim deb uqtirgan shoir: **“Har kishining tavrigʻa loyiq kerak, Surati holigʻa muvofiq kerak. Kimki ulugʻroq anga xizmat kerak, Ulki kichikroq, anga shafqat kerak”**, deb taʼlim beradi. Tanosub sanʼati asosiga qurilgan quyidagi satrlarni esa har bir farzand oʻziga dasturi amal deb bilishi kerak:

Boshni fido ayla ato boshigʻa,

Jismni qil sadqa ano qoshigʻa.

Tun-kuningga aylagali nur fosh

Birisin oy angla, birisin quyosh.

Maqolatlardan birini Navoiy elga manfaat yetkazish masalalariga bagʻishlaydi. Insonning hayoti jamiyatda, odamlar orasida kechadi. Shuning uchun haqiqiy inson yurt tashvishi bilan, el gʻami bilan yashaydi:

Odami ersang, demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidan g‘ami.

Navoiy har bir tushunchaga mukammal ta‘rif va tavsif berar ekan, fikrni go‘zal va nafis badiiyat libosiga o‘rab, o‘quvchiga taqdim qiladi. Uni o‘qir ekansiz, ifoda go‘zalligi Sizni maftun qiladi, so‘zlar jilosidan adibga tahsinlar o‘qiydiz. Birinchi dostonida tilga olingan mazkur mavzular, masalalar keyingi qissalarda (dostonlarda) o‘ziga xos tarzda va talqinlarda bir-biridan go‘zal va teran qissalar orqali kitobxon ongi va shuuriga yetkiziladi.

“Xamsa” — Navoiy dahosining mahsuli, ayni paytda millatimiz tafakkur ko‘lami hamda ma‘naviy qudratining timsoli. Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimiz g‘ururi, sha‘n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa”¹. Chunki Navoiyni bilish o‘zlikni bilish, Navoiyni sevish millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.



Savol va topshiriqlar:

1. Quyi sinflarda o‘rganganlaringiz, matbuotda o‘qigan, eshitganlaringiz bo‘yicha Navoiyning hayot yo‘li to‘g‘risida o‘rtoqlaringiz bilan fikr almashing.
2. Navoiydan bizga qanday asarlar meros bo‘lib qolgan? Ularni lirik, epik, liro-epik, ilmiy hamda biografik asarlar tarzida tasniflab, sanab bering.
3. Xamsachilik an‘anasi, xamsanavislar to‘g‘risida qanday tasavvurga ega bo‘ldingiz?
4. XV asrda turkiy tilda “Xamsa” yozish o‘ziga xos ijodiy jasorat bo‘lganligini asoslashga urining.
5. “Xamsa” yozishda Navoiy qanday ijodiy tamoyillarga asoslanganligini gapirib bering.

¹ Islom Karimov. “Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch”. Toshkent.: “Ma‘naviyat”, 2008, 47- bet.

“FARHOD VA SHIRIN”

(dostondan parchalar)

“Xamsa”ning bu ikkinchi dostoni ishqiy-sarguzasht xarakteridadir. Hajmi 5782 bayt. Aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Muallif bu asarni “shavq dostoni” deb ataydi. Sababi unda ishq kuylanadi, ishq talqin qilinadi, ishq ulugʻlanadi. Bu shunday ishqki, u insonni poklaydi, ezgulik sari yetaklaydi, unga oʻzligini tanitadi, bir soʻz bilan aytganda, komillik sifatlarini tarbiyalaydi. Chunki u odamga, olamga, butun borliqqa mehr bilan, muhabbat bilan yoʻgʻrilgan va oxir borib Yaratganning oʻziga ulashib ketadigan ishqdir. Binobarin, dostonda Navoiyning komil inson haqidagi orzu-oʻylari ifoda etilgan.

Ijodda oʻziga xoslikka intilgan adib oʻzigacha boʻlgan bu doston anʼanasiga ijodiy yondashadi. Doston Navoiygacha “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Ularda markaziy obraz shoh Xusrav edi. Lekin u komillikdan yiroq, ishqda beqaror, muhabbatdan toj-taxtni ustun bilguvchi xudbin shaxs. Shuning uchun Navoiy uni Shirinning muhabbatiga ham, yozilajak dostonidagi bosh obraz darajasiga ham loyiq koʻrmaydi. U Farhodni bosh obraz qilib oldi va bu bilan dostonning qurilishini, mazmunini tamomila oʻzgartirdi. Mazkur oʻzgarish xamsachilikka shoir kiritgan eng katta yangilik edi.

Yozib jon musʼhafidan ikki oyat,
Debon Farhod-u Shirindan hikoyat, —

degan shoir oʻz dostoniga “Farhod va Shirin” nomini beradi.

Dostonning asosiy voqealari ovozasi olamni tutgan, qudrat-u shavkatda, davlat-u shuhratda yagona Chin xoqonining farzandsizligi va bundan uning soʻngsiz iztiroblarga tushganligi tasviri bilan boshlanadi. Birdan-bir orzusi oʻgʻillik boʻlish edi. Maqsadiga yetish uchun koʻp nazrlar qildi, talay dirhamlar sochdi, oʻgʻilsizlarning koʻnglini oldi, otasizlarga otalik qildi. Xayriyatlari zoye ketmadi. Olloh iltijolarini ijobat qilib, unga oʻgʻil ato etdi.

Shabistonida¹ tug‘di² bir yangi oy³,
Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy⁴.

Ochildi bog‘ida bir otashin vard⁵,
Demaykim vard, balkim shu‘layi dard.

Kiyurdi ilgiga davron nigine⁶,
Nigin o‘rnida la‘li otashine,

Yuzinda ishq asrori⁷ yozilg‘an,
Ichinda dard ta‘vizi⁸ qozilg‘an.

Niginu la‘l yo‘q, duri shabafro‘z⁹,
Dema dur, gavhare, lekin jahonso‘z¹⁰

Eshilgan rishtasi¹¹ tobi vafodin,
Teshilgan bag‘ri hakkoki qazodin¹².

Ko‘zida ashk¹³ selidin asarlar,
Damida¹⁴ oh dudidin xabarlar.

Muhabbat nuri ollinda huvaydo¹⁵,
Jamolida vafo tug‘rosi¹⁶ paydo.

Falak deb dard elining shohi oni,
Malak¹⁷ deb dard o‘ti ogohi oni.

Tushub ishq ahli ichra har taraf jo‘sh,,
Chu tug‘di o‘tda sayr aylar Siyovush¹⁸.

Vafo haylida g‘avg‘o shodlig‘din,
Biri birga muborakbodlig‘din.

Xoqon esa xursandchiligidan:

Xaloyiq harne qilsa tergamak yo‘q,
Ne qilg‘anni yamon qilding demak yo‘q.

¹ Shab—kecha, shabiston—kechasi degan ma’noga to‘g‘ri keladi. ² Tug‘di—tug‘ildi. ³ Yangi oy—istoraviy yo‘l bilan Farhodni bildiradi, uning tug‘ilishi qorong‘u kechada yangi oyning paydo bo‘lishiga qiyoslangan. ⁴ Mehri olamoroy — olamni yorituvchi quyosh. ⁵ Vard — atirgul. ⁶ Nigin—uzuk, uzukning ko‘zi, muhr. ⁷ Asror—sirlar. ⁸ Ta‘viz—tumor, duo yozilgan varaqa. ⁹ Shabafro‘z—kechasini yorituvchi. ¹⁰ Jahonso‘z—jahonni kuydiruvchi. ¹¹ Rishta—ip. ¹² Hakkoki qazo—oldindan yozilgan, taqdirda bitilgan. ¹³ Ashk — ko‘z yoshi. ¹⁴ Dam — nafas. ¹⁵ Huvaydo—ayon, ravshan. ¹⁶ Tug‘ro — davlat ramzi, (gerb) nishona. ¹⁷ Malak — farishta. ¹⁸ Siyovush — Eron podshohlaridan bo‘lgan Kaykovusning o‘g‘li.

... Olib kishvar elining ehtiyojin,
Bag'ishlab elga uch yillik xirojin.

Farhod onadan ishq bilan tug'ildi. Uning ismi ham, Qur'oni Karimda: "Al-asmo-u tanzil-u min-as-samo", ya'ni "Ismlar osmondan tushadi", deyilganidek, ishq osmonidan tushgan. Unga nom qo'yish mana bunday qalamga olinadi:

Jamolidin ko'rungach farri shohiy¹.
Bu fardin yorudi mah to ba mohi².

Qo'yib yuz himmat-u iqbolu davlat,
Hamul far soyasidin topdi ziynat³.

Bu javharlarg'a⁴ chun isnod topdi⁵,
Murakkab aylagach⁶, "Farhod" topdi.

Bu farni hodiyi⁷ baxt yetgach irshod⁸,
Ravon shahzoda otin qo'ydi "Farhod".

Harir-u⁹ hulla¹⁰ ichra bog'labon chust¹¹,
Murassa¹² mahd¹³ ichinda tongdilar¹⁴ rust¹⁵.

Bu nav' ermas, ato qo'ymodi otin
Ki, ko'rgach ishq aning pokiza zotin,

Anga farzona¹⁶ Farhod ism qo'ydi,
Hurufi¹⁷ ma'xazin¹⁸ besh qism qo'ydi:

Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard¹⁹.

¹ Farri shohiy — shodlik nuri. ² Mah to ba mohi — oydan baliqqacha. Bu yerda "osmondan yergacha" degan ma'noda qo'llangan. ³ "Himmat"dan "h", "iqbol"dan "alif" (uni "i" deb ham, "o" deb ham, "a" deb ham ishlatish mumkin), "davlat"dan "d"ni olib, qo'shsak, "— hod" paydo bo'ladi, buni "far"ning "soyasi", ya'ni keyiniga olsak, "Farhod" so'zi hosil bo'ladi. ⁴Javhar — gavhar. ⁵ Isnod topmoq — taalluqli bo'lmoq, tegishli bo'lmoq. ⁶ Murakkab aylamak — qo'shish, birlashtirish. ⁷Hodi — to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchi, yetakchi. ⁸ Irshod — to'g'ri yo'l ko'rsatish. ⁹ Harir — yupqa va nozik mato. ¹⁰Hulla — bezakli, nozik va nafis (yupqa) kiyim. ¹¹Chust — mahkam. ¹²Murassa'—qimmat baho toshlar bog'langan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. ¹³ Mahd — beshik, kajava. ¹⁴Tongmoq—belamoq, bog'lamoq. ¹⁵ Rust — mahkam, qattiq. ¹⁶ Farzona—oqil, dono. ¹⁷ Huruf — harflar. ¹⁸ Ma'xaz—biror narsaning olingan joyi, manba'. ¹⁹Fard—yakka, yolg'iz, ajralgan, alohida.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o'ldi murattab¹.

Tangri taolo tug'ilishidan ruhiga payvasta etgan ishq Farhodga favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi. Buning natijasi o'laroq ta'limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur'oni karimni yod oldi. Navoiy Farhodning bolalik va o'spirinlikdagi fazilatlarini shunday ta'rif etadi:

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.

Ne so'znikim, o'qub ko'ngliga yozib,
Dema ko'ngliki, jon lavhiga² qozib.

O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori.

Ko'rub chun ishq-u oshiqlik maqolin,
Topib oshufta mahzun ko'ngli holin

Aning sharhini takror aylabon ko'p,
O'qurda nolayi zor aylabon ko'p.

Bo'lub oshiq g'ami sharhida g'amnok,
Yaqo chokin o'qub, aylab yaqo chok.

Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,
Qilib ul dard anga ko'p-ko'p siroyat³.

Kishi ko'nglin bilib, afgor yig'lab,
Ne ko'zda ashk ko'rgach, zor yig'lab.

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini⁴ kasb etmagan ilm.

Bo'lub o'n yoshida umrining mururi⁵
Yigirmi yoshcha qadd-u jism-u zo'ri.

¹ Murattab— tartib berilgan, tartiblangan, tuzilgan. ² Lavh — yoyiq narsa, taxta; yozuv taxtasi. So'z bu yerda istiora bo'lib, ko'chma ma'noda kelgan. ³ Siroyat — ta'sir, ichiga o'tish, yuqish. ⁴ Tahqiq — biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish, haqiqat qilish. ⁵ Murur — o'tish, yurish.

Ulum¹ avroqi² chun bir-bir yopildi,
Dilovarliq silohi³ mayli qildi.

... Hamul ilmi balandovoza birla,
Bu yanglig‘ zo‘ri beandoza⁴ birla.

O‘zin abjad⁵ o‘qur eldin tutib kam,
Dema donishki⁶, zo‘ri dast⁷ ila ham,

Bo‘lub shahlar eshigining gadoyi,
Va lekin ul gadolar xokipoyi.

Anga teng podsholig‘ yo gadolig‘,
Gadoliqqa teng etmay podsholig‘.

Demonkim ko‘ngli pok-u, ham ko‘zi pok,
Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok.

Munungdak tiynati pokiga loyiq.
Duosin aytibon poki haloyiq.

Aning sori sovug‘ yel essa nogoh,
Chekib Chin mulkining xalqi sovug‘ oh.

Qilib el xonumon oning fidosi.
Ne xonumonki, jon oning fidosi.

Ato yuzlanmasun deb dard-u ranje,
Etib har kun boshig‘a sadqa ganje.

Vale bir zarra dard o‘lg‘ach padidor,
Bo‘lub ul ganjlar birla xaridor.

Asiri dard ichi-yu toshi oning
Ki, to o‘n to‘rt bo‘ldi yoshi oning.

¹ Ulum – ilmlar. ² Avroq – varaqlar. ³ Siloh – qurol-yarog‘. ⁴ Beandoza – cheksiz, chegarasiz. ⁵ Abjad – qadimgi arab alifbosida birdan o‘ngacha bo‘lgan birlik, o‘ndan yuzgacha bo‘lgan o‘nlik va yuzdan minggacha bo‘lgan yuzlik raqamlar tartibini bildiradigan harflar majmu‘ini bildiradigan sakkiz yasama so‘zning birinchi hamda ana shu hisob tizimining umumiy nomi. “Abjad o‘qur el” deganda esa endi maktabga borganlar ko‘zda tutilgan, chunki boshlang‘ich maktabning birinchi yilida harf tanish uchun dastlab abjad o‘rgatilgan. ⁶ Donish – bilish, bilim. ⁷ Dast – qo‘l.



Savol va topshiriqlar:

1. Navoiy nima uchun “Farhod va Shirin”ni “shavq dostoni” deb ataydi? Unda ulug‘langan ishq qanday mohiyatga ega edi?
2. Navoiyning mazkur asari qaysi jihatlar bilan xamsachilikdagi yangilik hisoblanar ekan?
3. **“Shabistonida tug‘di bir yangi oy, Yangi oy yo‘qqi, mehri olamoroy”** baytini izohlang. Undagi “shabiston”, “yangi oy”, “mehri olamoroy” so‘z va iboralarning istioraviy ma‘nosini tushuntiring.
4. **“Yuzinda ishq asrori yozilg‘an, Ichinda dard ta‘vizi qozilg‘an”** baytida Farhodga xos bo‘lgan qaysi jihatlar ifoda etilgan?
5. **“Muhabbat nuri ollinda huvaydo, Jamolida vafo tug‘rosi paydo”** misralarini sharhlang. Ularda chaqaloq siyomosida qanday fazilatlar namoyon bo‘layotganligini aniqlang.
6. **“Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard, Biror harf ibtidodin aylabon fard”** baytidagi “Farhod” ismiga asos bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va ismning qanday hosil bo‘lishini tushuntiring.
7. Farhodning tahsil olish jarayonini kuzating. Uning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi qaysi baytlarda ifoda etilgan?
8. Qaysi baytda Farhodning jismoniy barkamolligi tasvirlangan?
9. Keltirilgan parchadan Farhodning ma‘naviy sifatlari bayon etilgan o‘rinlarni topib, izohlang.
10. **“Demonkim ko‘ngli pok-u, ham ko‘zi pok, Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok”** baytidan kelib chiqib, bosh qahramonga xos fazilatlarini sanang.
12. Qaysi o‘rinlarda xalqning Farhodga munosabati aks etgan?

Farhod yigit yoshiga yetdi. Lekin tug‘ma ishq ta‘sirida doimo g‘amgin, alam va dardlar bilan ko‘milgan edi. Buning sababini o‘zi ham tushuntirib berolmas edi. Otasi uning g‘amlarini aritmoq uchun turli tomoshalar, bazmlar, ziyofatlar uyushtirdi. Foydasi bo‘lmadi. Shunda hoqon Farhodning ko‘nglini olish uchun yilning to‘rt fasliga moslab to‘rt oliy qasr qurdirish fikriga keldi. Farhodning atobegi, ya‘ni tarbiyachi-ustoz Mulkoro bu ishga ma‘mur etib tayinlandi. Xitoyning mashhur me‘mori Boniy, naqqoshi Moniy hamda tosh yo‘nuvchi Qoran qurilishga jalb etildilar. Farhod qurilish bo‘layotgan yerga kelib ustalarning ishlarini ko‘rdi. O‘z

hunarlarini mislsiz san'at darajasiga yetkizgan, toshni ham saryog'dek kesayotgan uch ustod ishidan hayratga tushdi. U shunchaki kuzatuvchi, tomoshabin bo'lib qolmasdan ularning hunarlarini o'rganishga kirishdi. Oxiri borib yetdiki, bu kasblarni ustozlari darajasida o'zlashtirdi, hatto ba'zidan o'zib ham ketdi.

Nihoyat bahor, yoz, kuz va qish fasliga moslab qurilgan shohona qasrlar bitdi. Hoqon ularda bir yillik bazm tadorigini ko'rishni buyurdi. Maqsad — o'g'lidagi g'amginlikni ketkazish. Farhodda esa o'zgarish yo'q — o'sha-o'sha purdard edi:

Biravkim zor yig'lab — yig'lab ul zor,
Topib ko'ngli el ozoridin ozor.

Chiqorib so'zlig' so'z¹ boshidin dud,
Sovug' oh aylab, ohin otasholud².

Bo'lub el anduhidin ko'ngli g'amnok.
Yaqo chokin ko'rib, ko'ksin qilib chok.

Biravkim ishqdin qilsa rivoyat,
So'rub hardam mukarrar³ ul hikoyat.

Tafahhus aylab⁴ andin ko'p nishone,
Nishonin ko'nglida asrab nihoniy.

Visol ichra zamirin⁵ shod topib,
Alamdin xotirin ozod topib.

Yetishgach hajr sharhi zor yig'lab,
Iki ko'z aylabon xunbor⁶ yig'lab.

Xoqon farzandidagi qayg'uni ketkizmak bo'lib hamda uning har tomonlama kamolotga yetishganidan o'zidan shohlikni qabul qilib, taxtga o'tirishini so'raydi. Farhod esa bu taklifni odob bilan, asosli uzrlar keltirib, davlatni boshqarish ishlarini o'rganish uchun muhlat so'raydi. O'g'lining oqilona javobidan behad xursand bo'lgan shoh unga mamlakat

¹ “So'zlig' so'z” birikmasini ham “yoniq so'z”, ham “so'zli yonish” ma'nosida tushunish mumkin, chunki o'zbekcha “so'z” “kalima” ma'nosini bersa, tojikcha “so'z” “kuyish” ma'nosida keladi. ² Otasholud — yoniq, dardli, otashin. ³ Mukarrar — takror. ⁴ Tafahhus aylamak — tekshirmoq, surishtirmoq, teran o'rganmoq. ⁵ Zamir — ko'ngil. ⁶ Xunbor — qon yig'lovchi.

xazinasini ko'rsatadi. Xazinadagi g'aroyib bir sandiq uning diqqatini jalb etadi. Xoqon bu sandiqni ochishlarini istamaydi. Lekin Farhod qattiq turib oldi:

Eshitgach shoh uzrin shohzoda,
Havas savdosini qildi ziyoda:

Dedi: — “Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

Ulum ichra manga to bo'ldi madhal¹
Topilmas mushkile men qilmag'an hal.

Munung ham bilmaguncha asl-u budin²,
Muayyan qilmag'uncha tor-u pudin³,

Ne imkonim qaror o'lg'ay ko'ngulga,
Tasalli oshkor o'lg'ay ko'ngulga”.

Noiloj qolgan xoqon kalitni keltirib, sandiqni ochishni buyuradi. Uning ichidan bir vaqtlar Iskandari Rumiylar har biri Aflotundek to'rt yuz olimga yasattirgan sirli ko'zgu chiqdi. Oynaning orqasida yozilishicha, ko'zgu tilsimini ochmoqchi bo'lgan odam xatarli safarga o'tlanib, Yunonistondagi bir toqqa borishi kerak. Ungacha uch manzil bo'lib, birinchisida ajdahoni, ikkinchisida Axriman devni, uchinchi manzilda ikkalisidan ham mushkulroq tilsimni yengishi kerak. To'rtinchi manzil — o'sha tog'dagi g'or ichidan donishmand Suqrot topiladi. Farhod bu to'siqlarni mardona yengib, Jamshid jomini, Sulaymon uzugini, Iskandar boyligini qo'lga kiritadi. Suqrot uning, otasi va atobegi Mulkoroning taqdiri haqida bashoratlar beradi, ularga nasihatlar qiladi va jon taslim etadi.

Yunonistondan qaytishgach, ko'zgu tilsimidan voqif bo'lgan Farhod xazinadagi sandiqni ochadi. Oynada qandaydir bir yurt, tog' kesish bilan mashg'ul odamlar, o'zining ham ariq qazayotganini hamda Shirinni ko'radi. Qizni ko'radi-yu, hushdan ketadi.

Sevgilisini izlab yo'lga chiqqan Farhod uning Arman yurtidan ekanligini safarda topgan do'sti Shopurdan eshitadi. U yerga borishgach, metindek toshlardan iborat tog'ni kesish mashaqqatiga mahkum odamlarni ko'rishadi. Ular tog'ni

¹ Madhal—kirish. ²Bud—mavjudlik. Bu yerda: *nimaligini* ma'nosida kelgan.

³ Tor-u pud — o'rish — arqoq. Bu yerda: *sir-u sinoatini* degan ma'noda kelgan.

kesib, uning narigi yog‘idan suv olib o‘tishlari kerak edi. Afsuski, uch yil zahmat cheksalar-da, ishda siljish bo‘lmagan. Bu topshiriqni elning ardoqli malikasi Mehinbonu va jiyani Shirinning orzusini ro‘yobga chiqarish uchun sidqidildan bajarayotgan edilar. Navoiy ularning tilidan Shirinning vasfini quyidagicha bayon etadi:

Harimi iffat ichra shoh ul ermish,
Sipehri ismat¹ uzra moh ul ermish.

Ani ham vasf etardin bahramiz yo‘q,
Otin dog‘i tutarg‘a zahramiz² yo‘q.

Yuzin ko‘rmaydur oning odamizod,
Magar bir necha gulrux sarvi ozod³

Kim, oni ko‘rsa gasht-u sayr ko‘rmas,
Ani ko‘rgan kishini g‘ayr ko‘rmas.

Yuzi gul, kiprigi derlar tikandur,
Ne bor andoqqi hargiz bor ekandur.

Mehinbonu ko‘p aylab ehtiromin,
Yasabdur jon uyi ichra maqomin.

Yuzi birla qilur bazmini gulshan,
Aning birla ko‘rar olamni ravshan.

Bu tog‘ekim aning vasfidadur tul⁴
Ki, bordurbiz ani qozmoqqa mashg‘ul.

Kelubdur bir boshi sharqi shamoyil⁵
Yana bir boshi g‘arbi sori moyil.

Oqar sharqisida bir chashma holi⁶,
Suyi ul nav‘kim hayvon⁷ ziloli.

Debon “Ayn ul-hayot”⁸ ul chashmani xayl,
Ki, o‘lgan ichsa aylar jon sari mayl.

Gahi ul hur bu sori qo‘yar gom,
Pari sarchashmada tutqondek orom.

¹ Sipehr ismat – tiniq osmon. ² Zahra – mayl, havas. ³ Misraning ma‘nosi: *Bir necha sarvdek tik qomatli, gul yuzli qizlardan boshqa.* ⁴ Tul – uzun, cho‘zilgan. ⁵ Shamoyil – ko‘rinish, tuzilish ⁶ Holi – tez. ⁷ Hayvon – tiriklik, hayot. ⁸ “Ayn ul-hayot” – hayot bulog‘i, hayot suvi.

Parilar birla aylab azmi ishrat,
Tuzarlar anda gohi bazmi ishrat.

Erur g'arbida ul mahvash makoni
Ki, xolo Armaniya derlar oni.

Yeridur nazhat ichra jannatoso,
Aning yonida tog'i charxfarso¹.

Erur bu nav' ul mahvash xayoli,
Ki, ul manzilda solg'ay qasri oliy.

Muhayyo borcha rang-u bo'yi oning,
Vale ustida yo'qtur suyi oning.

Muhandislar nechukkim charxi sayyor,
Yugurtub chashma so'yisori tayyor.

Topibkim bir arig' qozilsa diljo',
Yetar ul hur qasri olig'a su(v).

Vale ul chashma to bu qasri ofat,
Topibdur o'n yig'och² chog'liq masofat.

Bu jalvalkim, chekibdurlar aroda,
Ariq qozmoq qilibdurlar iroda

Bu xoro³ tesha birla bo'lmas afgor,
Nechukkim tesha, metin aylamas kor.

Erur uch yilki jon tortib hamesha,
Usholmay qolmadi metinu tesha.

Mamlakatdin yigitni el qari der
Ki, qozilmish iki-uch yuz qari yer.

Bu yanglig' birla umri Nuh topsak,
Badanda ko'prak ondin ruh topsak,

Chu mehnatning had-u poyoni yo'qdur,
Tuganmaklik bu ish imkoni yo'qdur.

Shunda Farhod ularga:

¹ Charxfarso – ko'kka ulangan, juda yuksak. ² Yig'och – taxminan 1200 metrga yaqin masofa. ³ Xoro – qattiq tosh.

Dedi: Bu necha mazlumi sitamkash,
Falak bedodidin bo‘lg‘an alamkash

Ki, vayronalig‘ qarida yuz xalaldur,
Agar qilsam madad voqe‘ mahaldur.

Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir

so‘zlarini aytib, maqsadlariga yetishtiradi. Bu yerda u yurt-
ni adolat bilan boshqarayotgan malika Mehinbonu mehrini,
uning jiyani Shirinning muhabbatini qozonadi. Oshiq va
ma’shuqaning ilk uchrashuvlari va suhbatini muallif shunday
tasvirlaydi:

Ki: “Ey nodir yigit ofoq ichinda,
Yagona charxi nili toq ichinda!

Ayon holingda ko‘p, ko‘p bul’ajabliq.
Ajabdin ham ajab ranj-u taabliq¹.

Ne sen o‘xshab jahonda bir kishiga,
Ne qilg‘an ishing o‘xshar el ishiga.

Bu ishkim, biz demay bunyod etibsen,
Bag‘oyat ko‘nglimizni shod etibsen.

Bo‘lur erdur husuli ichra ojiz,
Hunar ermas ko‘nglung ko‘rguzdi mo‘jiz.

Agar yuz qarn² uzrorin bo‘loli,
Netib bir kunchilik uzring qo‘loli.

Ishing uzrida yuz bizdek o‘tangay,
Ne bizdin, tengridin oldingg‘a yong‘ay”.

Shirinning bu so‘zlarini eshitgan Farhod hayajon aro
shunday dedi:

Dedi: “Jonparvar anfosingdin³ o‘ldum,
Uningdin, umr ranjiddin qutuldim.

¹ Taabliq – qiyinchilik, mashaqqat. ² Qarn – 30 yilni bildiradigan yil hisobi. Ba‘zan keng ma’noda “asr” ma’nosini ham bildiradi. ³ Anfos – nafaslar.

Ne aylaykim, qayu mahro¹ ekansen,
Ichim qon aylagan senmu ekansen?!

Meni g'urbat aro bechora etkan,
Diyor-u mulkdin ovora etkan,

Chiqib jonim unungdin bo'lg'ach ogoh,
Yuzungni ko'rmay o'ldum oh, yuz oh!"

Aningdek oh to'fonin chiqordi
Ki, mahvashning niqobi yelga bordi.

Ko'rungach ul jamoli olamoro,
Aning matlubi bo'ldi oshkoro.

Hamul erdiki, maftun bo'lmish erdi,
Ko'rib ko'zguda majnun bo'lmish erdi.

Birovkim aks ko'rgach hushi ketsa,
O'zin ko'rgach, netong, jon tarkin etsa.

Birovkim bo'lsa mayning zikridin mast,
Netong, ichkanda bo'lsa yer uza past.

Chu Farhod ul pari erkanni bildi,
Chekib o'tluq fig'on andoq yiqildi.



Savol va topshiriqlar:

1. Farhoddagi g'amginlikning sababini Siz qanday izohlaysiz?
2. Shahzoda Farhodning ustalar ishidan hayratlanishida, ularning kasblariga ko'ngil berib o'rganishida uning qanday ma'naviy fazilatlarini namoyon bo'lmoqda?
3. Bosh qahramonning elparvarligi, oddiy xalqqa mushfiqligi qaysi satrlarda o'z ifodasini topgan?
4. **“Dedi: Har ishki qilmish odamizod, Tafakkur birla bil-mish odamizod”** so'zlari orqali adibning inson tafakkuriga munosabatini sharhlang.
5. Farhodning noma'lum ko'zgu tilsimini bilish uchun hayotini xavf-xatarga solib bo'lsa ham safarga chiqqanligini qanday baholaysiz? Sizningcha, u to'g'ri ish tutdimi?
6. Shirinning go'zalligi vasf etilgan o'rinlarni qayta o'qing.

¹ Mahro' — oy yuzli.

Shoir uni qanday tasvirlaganini o‘z so‘zlaringiz bilan bayon eting.

7. “**Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tufroqqamu ketgumdir oxir**” bayti orqali inson o‘zi egallagan hunarga qanday munosabatda bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida fikr yuriting.

8. Shirinning Farhodga murojaatini o‘qing. Qizning sinchkovligi, insonni qalb bilan taniy bilishi uning qaysi so‘zlarida ko‘rinadi?

Shu paytlarda Ajam bilan Arabda hukm surayotgan Xusrav Parviz degan shoh bor edi. Uning bir o‘g‘li bo‘lsa-da, shohlikka yaraydigan emas edi. Shoh shuning uchun ham yana bir tag-tugli qizga uylanib, o‘g‘il ko‘rish orzusida edi. Shirinning go‘zalligi-yu Farhodning unga oshiqi beqaror bo‘lgani ovozasini Xusravgacha yetib bordi. Xusravning Buzurg Ummid degan vaziri maslahati bilan Mehinbonuga Shirinni so‘ratib sovchi yuborildi. Mehinbonu davlatni o‘ylasa-yu, rozi bo‘lsa ham, Shirin ko‘narmikan? Farhodning holi ne kechadi unda? Mehinbonu sovchilar fikrini Shiringa aytganda, u shunday dedi:

Ki: “Ey na‘layning¹ o‘rni qiblagohim!
Harimi nazhating² g‘amdin panohim!

Necha yetgay sendan mendin malohat,
Necha kelgay manga ondin xijolat.

Boshimg‘a tig‘i g‘am sursang ne bo‘lg‘ay,
Bu so‘z deguncha o‘ltursang ne bo‘lg‘ay!?

Meni hindudek otashgahga boshla,
Uzorim xolidek o‘t ichra tashla.

Ki, jismim bo‘lsa ul o‘t ichra nobud,
Sochimdek chiqqay ondin chirmanib dud.

Malolimdin bari olam qutilsin,
Tanim yuz ming balodin ham qutulsin.

Manga Farhod ishqi tuhmati bas
Ki, chehra ko‘rmayin ul zor-u bekas.

¹ Na‘layn – bir juft kovush. ² Nazhat – ko‘ngil ochish, huzur qilish.

Yiqilmoqdur shiori oh tortib,
 Ko'nguldin nolayi jonkoh tortib,
 Qulog'i mustami' bo'lmay¹ so'zumga,
 Ko'zi oylar o'tib tushmay yuzumga.
 Tog' ichra sel yanglig' oqizib yosh,
 Urub tosh uzra hardam seldek bosh.
 Xayolim birla ko'nglin qone' aylab,
 Firoqim ichra umrim zoye' aylab.
 Yuzimdin didayi giryon² mahrum,
 Visolim balokash joni mahrum.
 Qolib men ham yiroq ul notavondin,
 Nechukkim mendin – ul, men dog'i – ondin.
 Bu bizga holi yuz nav' elda shuhurat,
 Ne yuz shuhratki, yuz ming nav' tuhmat.
 Manga ne yor-u ne oshiq xavasdur,
 Agar men odam o'lsam, ushbu basdur!
 Agar Bonu iloje bilsa, qilsun,
 O'zimni o'tururmen yo'qsa, bilsun!"

Mehinbonu sovchilarni yaxshi ziyofat qilib, sovg'a-salomlar berib, podshohga duoyi salomlar yo'llab, bir bahona to'qidi. Aytdiki, Shirinning fe'li o'g'il bolalarnikidek, o'q otib, ov qilib yuradi. Unga turmush qurish haqida gapirishning hech iloji yo'q, bu haqda gap boshlaguday bo'lsangiz, o'zini o'zi nobud qilishi ham ehtimoldan xoli emas. Xusrav sovchi keltirgan bu gaplarga ishonmadi, avvalgidan ham bir tundroq sovchi yuborsa, u ham shu javob bilan qaytdi. Bu bir necha bor takrorlandi. Xusrav g'azab otiga mindi. Dostonda bu holat mana bunday tasvirlanadi:

Dedi: "Xodim mening ul yerga yetti
 Ki, bu nav' el so'zumdin nafrat yetti.

Yaqindurkim, bu bama'ni fasona,
 Erur boshtin-ayog' makr-u bahona.

¹ Mustami' bo'lmoq – quloq solmoq, eshitmoq. ² Didayi giryon – yig'loqi ko'z, yoshlangan ko'z.

Manga bas ermas erdi bu qadar nang¹
Ki, qilg‘aymen alarg‘a o‘zni hamsang².

Eshitmaklik kerak bu mojaro ham
Ki, qilg‘aylar alar so‘zdin ibo ham.

Erur o‘z baxtig‘a bermak nigunluq³,
Zabunlarg‘a ayon qilmoq zabunluq.

Nega xud chiqmasun sung‘ur⁴ jahondin,
Ko‘rub shavkat sadosi mokiyondin?

G‘azanfar⁵ xud netar changol-u yolin,
Chekar bo‘lsa tishi uyning⁶ maholin.

Agar umr o‘lsa ul ayyoralarg‘a,
Demay ayyorakim, makkoralarg‘a.

Sitamdin yetkuray andoq sazoye,
Solay kishvalari ichra baloye

Ki, qayda bor esa bir hiyla payvand,
Qiyomatg‘a dekin bo‘lg‘ay anga pand”.

Bu so‘zlarni debon azm ayladi bot,
Sipahlar⁷ tortibon hayhot-hayhot!

Kerak ishq ahli qul bo‘lmoq bu so‘zga:
“Ki, shahliq o‘zgadur, oshiqlik o‘zga”.

Xusrav Arman yurtiga lashkar tortdi. Lekin Farhodning bir o‘zi uning lashkariga bas kelib, dushmanning bir askarini bo‘lsa-da, shahar qal‘asiga yaqinlashtirmadi. Uzoqdan Xusravga tanbeh ham berdi:

Bu bo‘lg‘ay dard-u ishq oyini, vah-vah?!
Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah?!

Kishi ishqida zor o‘lmoq bu bo‘lg‘ay?!
G‘amidan beqaror o‘lmoq bu bo‘lg‘ay?!

Ma‘nosi: kishida dard-u ishq (oshiqlik) taomili, odati (oyini) shundaymi, ya‘ni yorning yurtiga lashkar tortib

¹ Nang – or, uyat, nomus. ² Hamsang – og‘irlikda barobar. ³ Nigunluq – egilishlik, egiklik. ⁴ Sung‘ur – lochin, shunqor (qush). ⁵ G‘azanfar – sher, arslon. ⁶ Uy – xo‘kiz. ⁷ Sipahlar – askar, qo‘shin.

keladimi? Yo Oллоh, vafo, mehr sharti shumi? Ma’shuqa (kishi) ishqida zor, g’amida beqaror bo’lish, seningcha, shunday bo’ladimi?

Bu savollarga javoban g’addor shoh hech narsa deyolmaydi. Raqibini kuch bilan yengolmagan Xusrav uni hiyla bilan qo’lga tushiradi. U o’z qarorgohida Farhod bilan mubohasaga kirishadi:

Dedi: - “Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!¹”

Dedi: - “Majnun vatandin qayda ogah?”

Dedi: - “Nedur sanga olam pesha?”²

Dedi: - “Ishq ichra majnunluq hamesha”.

Dedi: - “Bu ishdin o’lmas kasb ro’zi!”³

Dedi: - “Kasb o’lsa basdur ishq so’zi”.

Dedikim: - “Ishq o’tidin ne fasona!”

Dedi: - “Kuymay kishi topmas nishona”.

Dedikim: - “Kuymagingni ayla ma’lum!”

Dedi: - “Andin erur joh ahli⁴ mahrum”

Dedikim: - “Qay chog’din o’ldung ishq aro mast?”

Dedi: - “Ruh ermas erdi tang’a payvast”⁵

Dedi: - “Bu ishqdin inkor qilg’il!”⁶

Dedi: - “Bu so’zdin istig’for qilg’il”⁷

Dedi: - “Oshiqqa ne ish ko’p qilur zo’r?”

Dedi: - “Furqat⁸ kuni ishq balosho’r”⁹

Dedi: - “Ishq ahlining nedur hayoti?”

Dedi: - “Vasl ichra jonon iltifoti”.

Dedikim: - “Dilbaringning de sifotin!”

Dedi: - “Til g’ayratidin tutmon otin!”¹⁰

¹ Majnuni gumrah—yo’lini yo’qotgan jinni. ² Pesha—kasb, hunar. ³ Misra-ning ma’nosi: *Bu ish bilan kasb-kor qilib, tirikchilik o’tkazib bo’lmaydi-ku!* ⁴ Joh ahli—mansab ahli, podsholar. ⁵ Bu misrada Farhod ishqning unda tug’ilmasidan burun, ya’ni ruh jonga bog’lanmagan paytdayoq paydo bo’lganini aytyapti. ⁶ Inkor qilmoq — qaytmoq. ⁷ Istig’for qilmoq — tavba qilmoq. ⁸ Furqat—firoq, ayriliq, judolik, yordan yiroqlik. ⁹ Balosho’r — balo keltiruvchi. ¹⁰ Misra’ning ma’nosi: *Tildan rashk qilib, (yorimning) otin tutmayman.*

Dedikim: - “Ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur?”

Dedi: - “Ko‘nglumda jondek yoshurundur!”

Dedi: - “Vaslig‘a borsen orzumand?”

Dedi: - “Bormen xayoli birla xursand”.

Dedi: - “No‘shi labidin¹ topqay el bahr?”

Dedi: - “Ul no‘shdin el qismidur zahr”²

Dedi: - “Joningni olsa la‘li³ yodi?”

Dedikim: - “Ushbudir jonim murodi”.

Dedi: - “Ko‘ksungni gar chok etsa bebok?”⁴

Dedi: - “Ko‘nglum tutay ham ayla deb chok!”

Dedi: - “Ko‘nglung fido qilsa jafosi?”

Dedi: - “Jonimni ham aylay fidosi”.

Dedikim: - “Ishqdin yo‘q juz ziyon bud”.⁵

Dedi: - “Bu keldi savdo ahlig‘a⁶ sud”.⁷

Dedi: - “Bu ishq tarki yaxshiroqdur!”

Dedi: - “Bu sheva⁸ oshiqdin yiroqdur!”

Dedi: - “Ol ganj-u, qo‘y mehrin nihoniy!”

Dedi: - “Tufroqqa berman kimyoni!”

Dedi: - “Joningg‘a xijron kinakashdur”.⁹

Dedi: - “Chun bor vasl ummidi x (v) ashdur”.

Dedikim: - “Shahg‘a bo‘lma shirkatandesh”!¹⁰

Dedi: - “Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!”

Dedi: - “Joningg‘a bu ishdin alam bor”.

Dedi: - “Ishq ichra jondin kimga g‘am bor?!”

Dedi: - “Kishvar¹¹ beray, kech bu havasdin”.

Dedi: - “Bechora, kech bu multamasdin!”¹²

¹ No‘shi lab – lab shirinligi. ² Misraning ma‘nosi: *U shirinlikdan elga faqat zahargina tegadi.* ³ La‘li – qip-qizil tosh. Bu yerda so‘z istiora tarzida yorning labini anglatib kelgan. ⁴ Bebok – beparvo. ⁵ Bud – borlik, mavjudlik. ⁶ Savdo ahli – ishq ahli. ⁷ Sud – foyda. ⁸ Sheva – odat, ravish, tarz. ⁹ Kinakash – kek saqlovchi, dushmanlik qiluvchi, o‘ch oluvchi. ¹⁰ Shirkatandesh – sheriklik qiluvchi, sheriklikni fikr qiluvchi. ¹¹ Kishvar – mamlakat, viloyat, yurt. ¹² Multamas – iltimos.

Dedi: - “Ishq ichra qatling hukm etgum!”

Dedi: - “Ishqida maqsudumg‘a yetgum!”

Dedi: - “Bu ishda yo‘q sendin yiroq qatl”.

Dedi: - “Bu so‘zlaringdin yaxshiroq qatl”.



Savol va topshiriqlar:

1. Sovchilar munosabati bilan Shirinning Mehinbonuga aytgan rad javobini qayta o‘qing. Undagi asl ayollarga xos nazokat, madaniyat va ayni paytda qat‘iyatga diqqat qiling.
2. Qizning qaysi so‘zlarida ayriliqdagi Farhodning ruhiy holati bayon etilgan? Uning o‘z yori kechinmalarini bunchalik yaqin his etishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
3. “**Menga ne yor-u ne oshiq havasdir, Agar men odam o‘lsam, ushbu basdir**” baytida ifoda etilgan yuksak ma‘naviy dunyoqarashni izohlang.
4. Xusravning monologidan uning shaxsiyatiga xos bo‘lgan qaysi jihatlarni angladingiz?
5. Farhodning Xusravga bergan tanbehiga qo‘shilasizmi?
6. “**Dedi – qay chog‘din**” tarzida boshlanadigan baytdan kelib chiqib, Farhodning oshiqliqi qachondan boshlanganligi haqida fikr yuriting.
7. Farhod javobidan so‘ng Xusravning “**Bu ishq tarki yaxshiroqdir**” degan xulosaga kelganligi sababini tushuntiring.
8. Xusrav va Farhod dialogini yod oling.

O‘zini Farhoddan ishqda zabun, kuchda ojiz va ma‘naviyatda tuban ekanligini anglagan Xusrav uni yuzma-yuz olishuvda hech jihatdan yengolmagach, makr-hiyla bilan mahv etmoqchi bo‘ladi. Bir hiylagar kampirni yollab, Farhodning oldiga yuboradi. U yigitning ishonchini qozongach, shunday yolg‘on xabarni yetkazadi: “Mehinbonu bilan Xusrav yarashdi. Xusrav uylanish haqida og‘iz ochgan edi, Mehinbonu jiyanini unga berishga rozi bo‘ldi. Lekin Shirin bundan norozi bo‘lib, o‘zini-o‘zi o‘ldirdi. Chunki Farhod degan yigitni sevar ekan. Oxirida ham “Farhod! Farhod!” deya jon berdi”.

Bu xunuk xabar Farhodning bag‘riga go‘yo o‘tkir pichoq urdi. Fig‘on tortib, o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi, lekin holsizlanib yiqildi. Toshlar uzra talpinmoqqa — emaklashga tushdi, badanidagi suyaklar qisirlab, sinmoqqa tushdi, boshlarini

toshlarga urib, yig‘ladi. Uning holiga hatto tog‘ bilan vodiy ham majnunvor yig‘ladi.

Shundan keyin Farhod bu o‘tkinchi dunyoning o‘zi bilan bog‘liq barcha jihatlari — sahro, vodiy, tog‘, osmon, metin, tesha atrofidagi darrandalar-u parrandalar bilan vidolashdi, ulardan bergan azoblari uchun uzr so‘radi, hamdardlik, hamnafaslik qilganlari uchun ularga minnatdorchilik bildirdi. Umri tugab borayotganini fahm etib, yurtini, ota-onasi-yu yaqinlarini yod etdi:

Tugangan fahm etib umri baqosin,
Sovug‘ oh urdi yod aylab atosin.

Anosi ham ko‘zi oldig‘a keldi,
Ko‘zidin ikki qonlig‘ rud¹ ochildi.

Falak boshig‘a urdi bir katora²
Ki, to ko‘ksiga — bo‘ldi ikki pora.

Dedi: - “Ne hol erur, hayhot-hayhot,
Netar jonimni olsang, ey ajal, bot?!”

O‘lardin burna³ yuz o‘lmak nedur bu?!
Boshim yuz tig‘ ila bo‘lmak nedur bu?!

Kuyuk tang‘a yolin⁴ urmoq ne erdi?!
Momug‘⁵ uzra choqin urmoq ne erdi?!

Bular fikri ichimdin urmayin bosh,
Boshim tufroq aro kirgay edi, kosh.

Buzug‘luq, ey falak, ko‘rguzdung oxir!
Buzulg‘an xotirimni buzdung oxir!

Bu ne insof edi, ey soqiyyi dahr,
O‘lar chog‘da qadah tutmoq to‘la zahr?!

O‘luk boshig‘a tig‘ urmoq ne ya‘ni,
Bir-o‘q bas, bedarig‘, urmoq ne ya‘ni?!

Chu bu sho‘robag‘a yetti nihoyat,
Dedi achchig‘-achchig‘ yig‘lab bag‘oyat.

¹ Rud — ariq, soy. ² Katora — o‘tkir qilich; xanjar. ³ Burna — burun, ilgari.
⁴ Yolin — yolqin, alanga. ⁵ Momuq — chigitsiz paxta, chigiti olingan paxta.

Ki: “Ey bodi sabo¹, tengri uchun qo‘p,
Yetib Chin-u Xito mulkiga yer o‘p!

Deman, xoqon qoshida bu o‘g‘ildin
Ki, g‘urbat ichra o‘lgan xasta quldin.

Quyundek sadqa qil avval o‘zungni,
Chu bo‘lding sadqa, mundoq de so‘zungni

Kim, ul ovorayi bexonumoning,
Bag‘ir xunobidin bir qatra qoning,

Itib, olamda xirmon² birla o‘ldi,
Yuzungni ko‘rmay armon birla o‘ldi.

Ne qonlar yuqti bag‘ridin yoshig‘a,
Ne ishlar tushdi gardundin boshig‘a.

Bo‘lub afsun-u makr-u hiylatangez,
Anga ne zulmlarkim qildi Parvez.

Agar tuzluk birla topsa hisobin,
Berur erdi ming andoqning javobin.

Va lekin egrilikni aylab oyin,
Yasab yuz nav’ yolg‘on, o‘ylakim chin.

Birovkim xilqatin qildi qazo rost,
Qilur bovar³, necha so‘z bo‘lsa norost.

Manga, ne deyki, ul kofir ne qildi,
Qazodin erdi qildi har ne qildi.

Budur komimki, Bahromi dilovar
Ki, bor erdi manga ul yor-u yovar⁴,

Cheriklar jam’ aylab bemurodo⁵,
Bu yon qilsa azimat oshkoro.

Qilichi to‘yg‘arib Xusravni jondin,
Tilasa begunah qonimni oldin!

Eshitgach shoh bu o‘tlug‘ fasona,
Agar boshidin ursa o‘t zabona,

¹Bodi sabo—tong shamoli. ²Xirmon—mahrumlik bebahralik. ³Bovar qilmoq—ishonmoq. ⁴Yovar—yordamchi. ⁵Bemurodo—murosasiz, kelishmasdan.

Yamon ahvolima aylab yaqo chok,
 O'zin tufrog'larg'a ursa bebok,
 Qo'shub yig'losa bu ovarasini,
 Qayu ovora, bag'ri porasini,
 “Bo'tam!” – deb goh bo'zlab, goh o'kursa,
 Jafo toshin sinuq ko'ksiga ursa,
 Yer uzra tojini urmoqqa qo'yma,
 Tepib taxtini sindurmoqqa qo'yma!
 Degil mendinki: – Ey shohi jahongir,
 Topilmas tengri taqdirig'a tadbir.
 Mening ishq ermish avvaldin sirishtim¹,
 Yana g'urbatda o'lmak sarnavishtim²,
 Ne haq yozganni ko'rmay chora bormu?!
 Davoyi bo'lmayin ovora bormu?!
 Bu ish gar olinga hukmi qazo ber,
 Ne ish haqdin qazo bo'lmish, rizo ber!
 Meni gar umrdin charx etti navmid,
 Jahon mukida bo'lsun shoh jovid.
 Yiqilsa hujra – bo'lsun qasr obod,
 Qurusa sabza – bo'lsun sarv ozod.
 Anomg'a bu xabardin tushsa oshub,
 G'amimdin xora uzra bo'lsa sarko'b³,
 Jahong'a o't solib g'avg'osi har yon,
 Yetardek bo'lsa vovaylosi har yon,
 Bu vahshiyg'a xitob etsa: “Ko'zum” – deb,
 Bu bekasni sog'unsa: “Yolg'uzum” – deb.
 Aningdek bo'lsa sho'r-u iztirobi
 Ki, bo'lsa bartaraf burqa⁴ hijobi
 Qilibon yod g'amparvardasidin,
 Yugursa – chiqsa to'qquz pardasidin,

¹ Sirisht–yaratilish, tabiat, xulq. ²Sarnavisht – taqdir, peshonaga yozilgan.
³ Sarko'b–bosh yanchuvchi, uruvchi. ⁴ Burqa'–yuzga tutiladigan parda, niqob.

Debon: — Ey rishtayi jonimg‘a payvand!
Uzoring aylasa parkand-parkand.

Sochidin bo‘lsa yulmoq birla mahjur¹
Ki, Chinda bo‘lsa mushk o‘rnida kofur.

Damimdin dud olib ketgaysen oxir,
Xaloyiqqa hijob etgaysen oxir!

Degaysen: — Ey yuzung ruhum g‘izosi²,
Izing gardi ko‘zumning to‘tiyosi!

Manga bas erdi bu dardi g‘amandud,
Ki, to tengri vujudim qildi mavjud,

Bukim sen behad erding orzumand
Ki, bo‘lg‘ay munising bir turfa farzand.

G‘amimdin bo‘lmading bir lahza dilx (v)ash,
Hamisha bor eding zoru mushavvash³.

Gar atfol⁴ etsa mayli sabza-vu bog‘,
Kichikdin erdi qismim dard ila dog‘.

Mening dardimg‘a qolib jismi zoring,
Mening dog‘imdin o‘rtanmak shioring.

Tilab yoqut laxti xora⁵ topting,
Tilab xurshid, otash pora⁶ topting.

Ulug‘ bo‘lg‘an soyi bechora bo‘ldum,
Diyor-u mulkdin ovora bo‘ldum.

Manga ovoraliq‘ to charx berdi,
Firoqimdin ishing o‘rtanmak erdi.

Bas ermas erdi umre kuymaking bas,
Kuyub-kuyub, kul o‘ldung o‘ylakim xas.

Bu xusron⁷ baski, chun g‘am rudi tuzdum,
Sirishkim selidin ka‘bamni buzdum.

¹ Mahjur — xajrda qolgan, ayriliqda qolgan. ² G‘izo — ovqat, oziq, yegulik.
³ Mushavvash — tashvishli, besaramjon, ko‘ngli parishon. ⁴ Atfol — bolalar. ⁵
Laxti xora — qattiq tosh bo‘lagi. ⁶ Otash pora — olov parchasi. ⁷ Xusron — zarar,
ziyon.

Bukim men – men, manga o‘lmak dag‘i hayf,
Ulus ahvolima kulmak dag‘i hayf.

Sen ar¹ dardimdin o‘lsang ranjfarsoy,
Manga ul ranj-u g‘amdin voy-u yuz voy!

Meni rozilig‘ingdin qilma navmid,
Manga do‘zax o‘tini solma jovid”

Farhodning o‘limidan quvongan Xusravning xursandchiligi ham, umri ham uzoqqa bormadi. Uning noqobil o‘g‘li Sheruya nogohon Shirinni ko‘rib oshiq bo‘lib qoladi. Qizga yetishish uchun o‘z otasini o‘ldirdi. Navoiyning fikricha, Sheruya emas, davron Xusravdan Farhodning xunini talab qildi! Bu dunyoda hech narsa javobsiz qolmaydi. Shirin ham Farhodning ketidan bu dunyoni tark etdi. Mehinbonu bu musibatni ko‘tarolmay jon berdi. Bu muhabbat mojarolari Chinga ham borib yetgan edi. Farhodning ko‘kaldoshi (emikdoshi) Bahrom Armaniyaga keladi va adolat, tartib o‘rnatadi. Uning talabi bilan Sheruya otasi mamlakatga yetkazgan ziyonlar uchun xazinasidan tovon to‘lab, yurtiga qaytadi.



Savol va topshiriqlar:

1. Farhodning o‘limi oldidan butun borliq, tabiat bilan vidolashishi, ulardan uzr so‘rashi, minnatdorchiilik bildirishini qanday izohlash mumkin?
2. Farhodning ajalga, falakka, dunyo (dahr)ga murojaati berilgan baytlarga diqqat qarating, ularni tahlil qiling.
3. Qaysi misralarda vatanga bo‘lgan mehr, sog‘inch o‘z ifodasini topgan?
4. O‘lim oldidagi o‘g‘ilning bodi sabo orqali otasi bilan vidolashuvi Sizda qanday taassurot qoldirdi?
5. Farhod o‘zidan ayrilgan onasining holatini qanday tasavvur qiladi? Xuddi otasiga bo‘lgani kabi onasiga ham xayolan taskin, dalda beradimi? Buning sababini izohlashga urining.
6. “**Meni rozilig‘ingdin qilma navmid, Manga do‘zax o‘tini solma jovid**” murojaati kimga qaratilgan? Bu o‘tinchning ma’nosini tushuntiring.

¹ Ar – “agar” so‘zining qisqartirilgan shakli.

7. Farhod o'ziga yetgan qazoga ko'ndimi? Taqdiridan rozi bo'ldimi?
8. "Men ishqni qanday angladim?" mavzusida uy inshosini yozing.

“Farhod va Shirin” dostoni haqida

Aziz o'quvchi! Mana, Siz Navoiy dahosining mahsuli bo'lmish “Xamsa”ning ikkinchi dostoni – “Farhod va Shirin”dan keltirilgan parchalar bilan tanishdingiz. Agar dostonning voqealar tizimi, ya'ni syujeti bilan tanishibgina qolinsa, ishqiy mavzuda yozilgan ertakmonand hikoya o'zlashtiriladi, xolos. Aslida bu syujet ortida asosan ramziy, shuningdek, majoziy ma'nodagi irfoniy (so'fiyona) haqiqatlar yashiringan. Har bir obraz, lavha ortidagi ana shu haqiqatlarni anglabgina dostonning asl ma'nosiga yo'l topish mumkin. Lekin biz oldiniga mazkur mohiyatni yoritishdagi shoirning poetik mahoratiga e'tibor qaratamiz. Chunki doston, avvalo, badiiy adabiyot namunasidir.

Navoiy dostonidagi mazmuni, har bir fikrni go'zal badiiyat qobig'ida berishga intiladi. Siz o'rgangan parchadagi dastlabki baytlarga diqqat qilyaylik.

Shabistonida tug'di bir yangi oy,
Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy.

Tushunilishi qiyin, izohtalab so'z va birikmalar ma'nosini aniqlab olamiz: shabiston – kechasi, tug'di – tug'ildi, yangi oy – Farhod nazarda tutilmoqda, mehri olamoroy – olamni yorituvchi quyosh. Ularga tayangan holda quyidagi mazmuni uqish mumkin: *Kechasi yangi oy tug'ildi, uni yangi oy demaki, olamni yorituvchi quyosh edi.* Lekin bu o'rinda “shabiston” va “yangi oy” so'zlari yanada izohlanishi darkor. Bu ikkisida istiora san'ati qo'llangan. Istiora shunday she'riy san'atki, misralarda o'xshayotgan narsa ishtirok etib, o'xshatilayotgani tushib qoladi. Misolimizdagi baytning birinchi misrasi to'liq holda quyidagi fikrni nazarda tutadi: *Shabiston (tun)dek xoqonning hayotida yangi oy kabi Farhod tug'ildi.* Xoqonning hayoti (o'xshatilayotgan narsa) Farhod tug'ilgunga qadar farzandsizlik tufayli qorong'u kechadek qayg'uli bo'lganligi shabistonga

o‘xshaydi. Ana shu o‘xshatilayotgan narsa tushib qolib, uning ma‘nosi o‘xshayotgan (shabiston)ga, misra davomida *Farhod* so‘zi tushib qolib, uning ma‘nosi *yangi oyga* yuklangan va istiora orqali go‘zal badiiy ifoda yuzaga kelgan.

Ochildi bog‘ida bir otashin vard,
Demaykim vard, balkim shu‘layi dard.

Vard – atirgul. Qolgan so‘zlar sizga tushunarli. Baytning mazmunini uqishga harakat qilamiz. Zohirda ko‘rinib turgan ma‘nosi quyidagicha: Bog‘ida bir otashin atirgul ochildi, atirgul demaki, u bir dard shu‘lasi edi. Atirgul deyilganda Farhod nazarda tutilar ekan, “bog‘ida” deyilganda xoqonning oilasi nazarda tutilayotganini, “ochildi” esa tug‘ildi so‘zining matndagi ma‘nodoshi ekanligini anglagan bo‘lsangiz kerak. Yuqoridagi kabi bu baytda ham istiora qo‘llangan. Shu yerda savol tug‘ilishi mumkin: nega Farhod ikkinchi misrada “shu‘layi dard” deb ta‘riflanyapti? Buni yaxshisi keyingi bayt sharhlangandan so‘ng izohlash to‘g‘ri bo‘ladi.

Kiyurdi ilgiga davron nigine,
Nigin o‘rnida la‘li otashine.

Davron uning ilgi (qo‘li)ga uzuk (nigin), yo‘q, uzuk o‘rniga otash la‘l taqdi. Bu ramziy ifodani anglash biroz qiyin kechadi. Yuqorida biz muallif bu asarni “shavq dostoni” deb ataganini, buning sababi unda ishq kuylanganligini, ishq talqin qilinganligini, ishq ulug‘langanligini aytgan edik. Demak, dostondagi asosiy tushuncha – bu ishq. Ishq esa otashga, olovga o‘xshatiladi. La‘l qimmatbaho toshdir. Demakki, bu ishq tuyg‘usi bebaholigining ifodasi. Ko‘rinadiki, davron Farhodning qo‘liga taqib qo‘ygan uzuk bu ishq tuyg‘usi ekan. Uzuk esa nikoh ramzi. Aytilganlarni umumlashtirsak, baytdan shunday ma‘no chiqadi: Farhod tug‘ilishidan otashdek insonning butun borlig‘ini yondiradigan ishqqa badal qilingan, ya‘ni ishqqa nikohlangan. Oldingi baytdagi “shu‘lai dard” ana shu ishq olovining asari ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Shuning uchun chaqaloqning

Yuzinda ishq asrori yozilgan,
Ichinda dard ta‘vizi qozilgan.

Navoiy chaqaloqqa nega “Farhod” ismi qo‘yilganligini ikki yo‘l bilan kitobat san‘ati orqali izohlaydi. Kitobat — arab alifbosi harflari, yozuvi asosida o‘ziga xos tashbeh (o‘xshatish) yaratishni yoki aytilayotgan fikrni ifodalashni ko‘zlaydigan she‘riy san‘at. Adibning birinchi izohi shunday:

Qo‘yib yuz himmat-u iqbol-u davlat,
Hamul far soyasidin topdi ziynat.

“Himmat”dan “h”, “iqbol”dan “alif” (uni “i” deb ham, “o” deb ham, “a” deb ham ishlatish mumkin), “davlat”dan “d”ni olib, qo‘shsak, “ — hod” paydo bo‘ladi, buni “far”ning “soyasi”, ya‘ni keyiniga olsak, “Farhod” so‘zi hosil bo‘ladi.

Farhod ismining ikkinchi izohi:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,
Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi:

Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

“Firoq” so‘zidan “f”, “rashk” so‘zidan “r”, “hajr” so‘zidan “h”, “oh”dan “o”, “dard” so‘zidan “d” harflarini jamlab, donolar chaqaloqqa “Farhod” ism berdilar. Qo‘yilgan ismda Farhodning ma‘naviy va jismoniy fazilatlari aks ettirilgan.

Farhodning ta‘rifiga bag‘ishlangan yana bir shohbayt:

Demonkim, ko‘ngli pok-u, ham ko‘zi pok,
Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok.

Mazmuni: Farhodni faqat ko‘ngli pok-u ko‘zi pok demayman, ayni paytda uning tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pokdir. Baytda takrir — bir so‘zni davomli qo‘llash orqali ma’noga, ya‘ni bosh qahramonning ham tashqi, ham ichki olami pok ekanligiga urg‘u beradi. Ayni paytda so‘z takrori satrlarga ajib bir musiqiylik ato etgan.

Shirin vasf qilingan baytlar ham o‘zgacha jozibaga ega. Mana bu baytda Shirinning yuksak ma‘naviy qiyofasi hamda beqiyos tashqi go‘zalligi tashbeh san‘ati vositasida tasvirlangan:

Harimi iffat ichra shoh ul ermish,
Sipehri ismat uzra moh ul ermish.

Muallif iffatni haramga o‘xshatar ekan, Shirinni shu

haramning shohiga mengzaydi. Ismat (bokiralik)ni sipehr (osmon)ga o'xshatib, Shirinni bu osmonning oyiga qiyos qiladi. Ayniqsa, unda turkiy qavm ayollariga xos eng baland ma'naviy fazilatlar kishini maftun etadi. Uning uchun martaba, boylik, xashamat kabi o'tkinchi dunyo matohlarining hech qadri yo'q, aksincha, muhabbat va pokiza inson shaxsiyati eng oliy qadriyat. Qizning

Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur!

so'zlari uning hayotdagi shiori edi.

Asarni o'qib, shu tarzda tahlil qila borsangiz, Navoiyning fikrni berish, so'z qo'llash, holatni ifodalash mahoratini kashf qila borasiz, undan zavq olasiz, hayratingiz ortadi.

Endi yuqorida biz tahlil qilgan go'zal badiiy shakl libosi ostidagi mazmunga va uning mohiyatiga to'xtalamiz.

Bilmoq kerakki, asardagi Farhod va Shirin shunchaki bir-biriga ko'ngil qo'ygan yigit va qiz timsollarigina emas. Doston-da Farhod — poklanish matlabi ila komillik sari intilayotgan solik ruh (mo'min, muslim banda)ning timsoli. Uning tasavvuf yo'li — tariqat orqali haqiqiy mahbub — o'z Yaratuvchisi tomon intilishi, bu yo'ldagi mashaqqatlari ramziy va majoziy shaklda tasvirlangan.

Mazkur bosh qahramonning yurti bo'lmish Chin mamlakati ham ramziy bir makon. Negaki o'tmishda Chin (Xitoy)-da musulmon dinida bo'lgan xoqon o'tganligi, yolg'iz o'g'il farzand ko'rib, uni Qur'on yod oldirgani haqida gapirish, badiiy asarda bo'lsa-da, tarixiy haqiqatga zid bo'lur edi. Unda daho adib nega bosh qahramon vatani deb aynan shu yurtni tanladiykin? Chin qadimdan ajdodlarimiz tomonidan donishlik, san'at, naqsh va nafosat o'lkasi sifatida qabul qilingan va e'tirof etilgan. Navoiy e'tiqodining asosi bo'lgan naqshbandiylik ta'limotiga ko'ra iymon va islom deya atalmish haqiqiy (ya'ni ko'ngilga solinadigan go'zal ma'naviy) naqsh, nafosat va donishlik inson qalbida bo'lmog'i darkor. Ko'rinadiki, ana shu fazilatlar bilan bezangan makongina haqiqiy Chin hisoblanadi. *Chin* сўзининг ona tilimizda asil, haqiqiy so'zlari bilan ma'nodoshligini ham Siz bilasiz. Navoiy bu bilan pokiza islomiy e'tiqod, iymon ustuvorligi, haqiqat va adolat hukmron bo'lgan yurt, jamiyat va insonning ko'ngil olami asl Chin

mamlakati (haqiqiy insoniy davlat) bo'ladi degan fikrni ilgari suradi. Aks holda u soxta, chirkin, tanazzuli muqarrar bir muvaqqatlikdan boshqa narsa emas.

Ayni paytda bosh qahramonlarning o'zlari ham ramziy ma'no kasb etadi. Shirin Farhod uchun jismda jon kabi asraladigan nihoyatda go'zal, o'ta nafis va nozik **iymon** ko'zgidir. Shunday ko'zguki, unda Yaratganning jamoli jilva qiladi. Farhodning Arman yurti (bu ham ramz) – Shirinning huzuriga cha bo'lgan yo'ldagi tortgan azoblari bir insonning komillik yo'lida chekadigan mashaqqatlarining timsollari edi.

Ha, aziz o'quvchi! Komillikka yetishish oson emas, nihoyatda qiyin, og'ir. Sizga qattiq ranj yetishiga sabab bo'lgan bir insonni tezda kechirib yuborish, ya'ni gina, nafratni yengish osonmi? Yoki nafidan zarari ko'p, zarari bo'lmasa-da, foydasi yo'q o'tkinchi xoy-u havas (u moda bo'ladimi, zamonaviylik niqobi ostidagi millatimizga yot kiyinish, yurish-turish shakllarimi va h.k.)lardan tiyilish-chi? Qiyinligini, albatta, e'tirof etasiz. Insonning iymoniga bolta uradigan ana shu gina-kudrat, nafrat tuyg'ulari, jaholatga, o'zlikni yo'qotishga sabab bo'ladigan havaslar dostonida Xusrav deb atalgan Shayton, nafs hukmronligining lashkarlari bo'ladi.

Hayotda komillikka erishgan har inson Farhoddir. U aslo xayoliy, romantik to'qimagina emas. Uning darajasi faqat kitoblarda bo'ladigan qo'l yetmas, ko'z ilg'amas maqom ham emas. Qaysi inson jism qal'asida (xuddi Farhod Arman yurti qal'asidagi kabi) Shirin yanglig' go'zal iymonining himoyasida bo'lsa, u shu maqomga ko'tarila oladi. Va, aksincha, qaysi kimsa gina, nafrat domiga cho'mgan bo'lsa, amal, boylik, shuhrat kabi dunyo matolari orqasidan o'zligini yo'qotsa (ya'ni shularni deb o'zgalarning haqiga xiyonat qilsa, kimningdir dili og'rishiga, uning og'rinishiga sabab bo'ladigan biror ish qilsa, Yaratganning amriga xilof amallar qilsa) shayton tiyatidagi Xusravga yoki uning lashkarlaridan biriga aylanadi. Endi anglagan bo'lsangiz, dostonidagi Farhodning Shirin istiqomat qiladigan qal'ani, yurti himoya qilishi tasviri aslida komil iymonli shaxsning qalb qal'asi ichidagi dunyodagi eng bebaho, go'zal ne'mat — Yaratganning iymon tuhfasini asrashi, unga tajovuz qilayotgan shayton lashkarlaridan, nafs qutqularidan himoya qilishining ifodasidir.

Demak, inson har bir xatti-harakati, aytayotgan so'zi,

muomalasi va amali bilan o‘zaro ikki qarama-qarshi kuchlardan biri — yo iymon, yo shayton tomonida bo‘ladi. Navoiy saboqlaridan xulosa shuki, har birimiz uchun Farhod yo‘li — ishq, iymon yo‘li mashaqqatli, ammo oxiri xayrli, sharaflı, aks holda, Xusrav va Sheruya timsollarining topgan qismlatlari bizga bir ibratdir.

Nazariy ma‘lumot

KOMIL INSON

Tasavvuf — musulmon olamida (mamlakatlarida) keng tarqalgan, butun dunyoda mashhur bo‘lgan islom diniga asoslanuvchi buyuk ta‘limot. Tasavvuf orqali insoniyat Islom dinining ichki va tashqi go‘zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma‘naviy jihatdan poklash, ya‘ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma‘naviyatli, aqlan va jismonan barkamol shaxs **komil inson**dir. Aksariyat adabiyotlarda komil inson ruhiy poklangan inson tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Demak, ruhni poklash zarur. Poklanishning yo‘li esa bitta, u — nafsni yengishdir.

Nafs deganda yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari yana johillik, ilmsizlik, manmanlik, kibr-u-havo, dunyoparastlik, zulm, o‘g‘rilik, tanballik, tama, ko‘rolmaslik, baxillik, mansabparastlik, shahvat, ko‘ngli torlik, g‘azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg‘aydigan, uni Olohndan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig‘indisi tushuniladi.

Qur‘oni karimning bir qator oyatlarida ochiq yoki ishora bilan nafsni jilovlash, yengish lozimligi mazmunida hukmlar bor. Shuningdek, payg‘ambar Muhammad alayhissalomning hadislarida ham bu borada ko‘rsatmalar talaygina. Misol tariqasida Hazrati Aliga aytgan ushbu nasihati (hadisi) ni keltirish mumkin: “Yo Ali, valoyat (avliyolik) maqomiga yetishgan zotlar ko‘p-ko‘p ibodat qilganlaridan emas, o‘z nafs-larini yengganliklaridan bunday ulug‘ darajaga erishganlar”. Nafs insonning juda qudratli, xavfli dushmani. Unga tobe inson ma‘naviy va jismoniy tubanlikka, halokatga mahkum.

Shuning uchun Navoiy “Nafs itin qilsang zabun olamda yo‘q sendek shujo” deb yozsa, “Qisas ar-Rabg‘uziy”da bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi deb ta‘kidlanadi.

“Farhod va Shirin”ga qaytaylik. Dostondagi Farhod olishib yenggan ajdaho, Axriman dev, temir odam shunchaki xayoliy, afsonaviy obrazlar emas, balki har bir inson (masalan, Farhod) ning botini (ichki olami)dagi nafsoniy istak, shaytoniy intilishlarning ramziy timsollaridir. Farhodning oshiqligi uni bu nafs lashkari bilan kurashga otlantirdi, ishq unga kuch, sabot va iroda ato etdi. Ko‘rinadiki, nafsni yengish quroli – bu ISHQ ekan.

Tasavvufda ishq deganda faqat mehr, sevgi kabi tuyg‘ulargina emas, ulardan tashqari yana iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g‘ayrat, kamtarinlik, adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shirinso‘zlik, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Ollohga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar, pokliklar yig‘indisi tushuniladi. Ishqning o‘rni ko‘ngilda bo‘ladi. Ko‘ngil ishq tufayli poklanadi. Ko‘ngil poklansa, ishq yana-da o‘tli, nurli bo‘ladi, ilohiy mohiyat kasb etadi. Tasavvufga ko‘ra ko‘ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o‘rganiladi. Farhodning ustozlaridan kasb o‘rganishini eslang. Ular shunchaki hunarmand ustalar obrazi emasdi.

Boniy — ko‘ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o‘rgatgan piri komil. Moniy — Olloh ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz. Qoran — ko‘ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan murshid. Shular kabi yana Suhaylo, Suqrotdek ulug‘lardan ishq sirlarini, poklanish ilmini o‘zlashtirgan insongina hayotlik davrida o‘z botinida dev, ajdaho, arslondek bo‘lgan nafsoniy illatlarni yenga biladi, kundalik hayotda duch keladigan o‘z nafsiga qul Xusrav, Sheruya kabi odam qiyofasidagi shaytonlarga bas kela oladi. Bir so‘z bilan aytganda, u insoniy o‘zligini yo‘qotmay, poklanish yo‘lida davom etadi. Poklanishga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma’noda Farhod o‘zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483–1530)



Bobur dunyoni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimondir.

Hayot yo'li. Bobur 1483- yili Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ilgan. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx Mirzo Amir Temurga to'rtinchi avlod – evara edi. Onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi Yunusxon esa o'n ikki avlod bilan Chingizxonga ulanardi. Ko'rinadiki, Bobur insoniyat tarixidagi ikki buyuk sulola tutashgan nuqtada dunyoga kelgan jahonning eng mashhur shaxslaridan biridir. Murakkab va ziddiyatli hayoti o'spirinlikdan to umri-ning oxirigacha jang-u jadallar, sarson-sargashtalik, zafar va mag'lubiyat, ijod-u bunyodkorlik og'ushida kechdi.

1494- yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning o'z akasi – Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo hamda qaynog'asi Toshkent hokimi Mahmudxon o'zaro til biriktirgan holda qo'shin tortib, Farg'onaga yurish qiladilar. Nihoyatda qaltis vaziyat vujudga keladi. Buning ustiga kutilmagan falokat yuz beradi: Andijonning g'arb tomonidagi jar yoqasida bino bo'lgan Aysi qo'rg'onida turgan Umarshayx Mirzo kabutarxonasi bilan jarga qulab, halok bo'ladi. Umarshayxdan uch o'g'il va besh qiz qolgandi. O'g'illarining kattasi – 12 yoshga qadam qo'yan Bobur taomil bo'yicha taxtga o'tiradi. Yaratganning ko'magi bilan u taxtni saqlab qoladi. O'ratepa, Xo'jand va Marg'ilonni qo'lga olib Quvaga kirgan Sulton Ahmad qo'shini shaharni kesib o'tuvchi Qorasuv ko'prigida toshqinga uchrab, tuya va otlari botqoq suvga cho'kib, ko'pi nobud bo'ladi. Ustiga-ustak o'lat tarqaladi. Qo'shin vahimaga tushadi. Sulton Ahmad sulh

tuzib ortga qaytadi va yoʻlda vafot etadi. Sulton Mahmud ham Axsini bir muddat qamal qilib olmay, ketishga majbur boʻladi. Sharoitdan foydalanib qolmoqchi boʻlgan Koshgʻar va Xoʻtan hokimi Abobakr Doʻgʻlatning ham Oʻzgand yaqinidagi harakatlariga chek qoʻyiladi. “Boburnoma”ning aynan shu voqealarga ishora qilib “Tengri taoloning inoyati...” soʻzlari bilan boshlanishi bejiz emasdi. Bobur 1497- yili 15 yoshida sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan Samarqand shahrini egallaydi. Lekin moddiy tanqislik, qaltis siyosiy vaziyat tufayli bu shahri azimni tashlab chiqishga majbur boʻladi. Andijonda xiyonat yuz bergandi. Bobur ishongan beklar taxtga ukasi Jahongir mirzoni oʻtqizmoqchi boʻladilar. Ikki yil sargardonlikdan soʻng katta mashaqqatlar bilan Andijon qaytarib olinadi.

1500- yilda Bobur Samarqandni jangsiz osonlik bilan qoʻlga kiritadi. Lekin Shayboniyxon yaqinlashib kelayotganligi uchun kuch toʻplash maqsadida Shahrisabzga joʻnaydi. Shunda Shayboniyxon Sulton Ali mirzoning onasi Zuhrebegimni unga uylanish vaʼdasi bilan aldab, shaharni egallaydi. 1501- yili Bobur 240 nafar navkari bilan yetti mingga yaqin qoʻshini boʻlgan tajribali shoh Shayboniydan Samarqandni tortib olishga muvaffaq boʻladi. Koʻp oʻtmay Shayboniyxon shaharni qamal qildi va u uzoq davom etdi. U yana Samarqandni tashlab ketishga, nafaqat Samarqandni, jondan aziz Vatanini ham butunlay tark etishga majbur boʻldi. Ikki yilga yaqin sarson-sargardonlikdan soʻng 1503- yilda Kobulga yoʻl oladi. Kobul va Gʻaznani jangsiz egallaydi va oʻzini shoh deb eʼlon qiladi.

1507- yildan Hindistonni zabt etish harakatiga tushgan Bobur 1526- yili oʻz maqsadiga yetadi. Shu yilning 21-aprelida Panipat jangida Boburning 12 minglik qoʻshini hind sultoni Ibrohim Loʻdiyning 100 ming kishilik askari bilan toʻqnashadi. Ajdodlaridan meros jang sirlari, yillar davomida toʻplagan tajribasi hamda taqdirning bergan achchiq saboqlari qoʻl keldi. Bobur hind yerida Ovrupada keyinchalik “Buyuk moʻgʻul imperiyasi” deb atalgan ulkan saltanatga asos soldi. Bobur va boburiylarning hukmdorligi Hindiston tarixida juda katta ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Bobur Hindistondagi din-mazhab janjallarining oldini olishga, mamlakatda osoyishtalik qaror toptirishga urindi. Adolatli qonunlar chiqardi, gʻayridinlik soligʻi (juzʻya)ni bekor

qildi, o'lgan erning tirik xotinini murda bilan birga yoqishni taqiqladi. Mamlakatda obodonchilik ishlarini yo'lga qo'ydi. Kanallar qazdirdi, binolar qurdirdi. Atrofiga olim-u fozillarni to'pladi. Shuningdek, Hind yerida hali hech bo'lmagan bog'lar bino qildi.

Begona bir yurtni zabt etish hech qachon oson kechmagan. 1526- yilning 21- dekabrda Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayli omon qoladi. Bu ahvol yigirma besh-yigirma olti kun davom etadi. Bobur 1530- yilning 26- dekabrda Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi.

Ijodiy merosi. Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk, g'oyat iste'dodli farzandi edi. U o'ta notinch, sargardonlikda kechgan umrini zo'r salohiyati tufayli jozibali qila oldi. Uning hayoti faqat janglar bilangina emas, ilhomiy onlar bilan ham to'la edi. U yigirma yoshida yangi bir yozuv – “Xatti Boburiy”ni kashf qildi. Umr bo'yi ajoyib she'rlar yozdi, devon tartib qildi. Musiqa bilan shug'ullanib, “Chorgoh” maqomiga “savt”lar bitdi. 1521- yilda she'riy yo'lda soliq ishlarini tartibga soluvchi “Mubayyin al-zakot” (“Zakot bayoni”) asarini yozdi. 1523—1525- yillarda aruz vazni haqida “Muxtasar” nomli risola bitdi. Boburning “Harb ishi”, “Musiqa ilmi” nomli asarlari hozirgacha topilgan emas. U tarjima bilan shug'ullandi. Xo'ja Ahrorning “Volidiya” asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga o'giradi.

Muallifning “Boburnoma” asari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotining nodir namunasi sanaladi. Bu memuar (esdalik) asarida Bobur o'n ikki yoshida taxtga chiqishidan boshlab umrining oxirigacha boshidan o'tkazganlarini, ko'rgan-kechirganlari, guvohi bo'lgan voqealarni siyosatchi, davlat arbobi, olim, sayyoh va shoir nigohi bilan tahlil etadi. Shuning uchun bu asar tarix, etnografiya, geografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqa fanlar uchun birday manba bo'la oladi. “Boburnoma”ning o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir.

Bobur she'riyati. Bobur o'zbek va fors tillarida ijod etgan zullisonayn shoirdir. U ona tilida yozgan she'rlarini to'plab, 1519- yilda Kobulda, 1528—1529- yillarda Hindistonda devonlar tuzgan. Bu ikki to'plam o'sha joylar nomi bilan “Kobul devoni”, “Hind devoni” deb ataladi. Kobul devoni topilgan

emas. Mutaxassislarning fikricha, saqlanib qolgan she'rlarining soni to'rt yuzdan ortiq. Shundan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy. Shuningdek, shoir devonidan tuyuq, fard, masnaviy, qit'a, muammo kabi janrlar ham joy olgan.

Bobur devonining katta qismi g'azallardan iborat. G'azallarining ma'lum guruhi hasbi hol xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan lavhasi bilan bog'lanadi. Mana, uning "topmadim" radifli g'azalini olaylik. Bu she'rning yozilish tarixi "Boburnoma"da ham keltirilgan. Shoirning umrbayonida aytilganidek, 1500—1501- yillarda Bobur Samarqandni ikki bor olib, yana boy beradi. Bir muddat sarsonliklardan so'ng biror viloyat berar degan umidda Toshkentga xon bobosi Yunusxon huzuriga boradi. Bobosi O'ratepani unga berishini aytadi, ammo bu gaplar va'daligicha qolib ketadi. Sargardonlik, xiyonatlar, yaqinlaridan judo bo'lish, qarindoshlar hamiyatsizligi, Shayboniyxonning tinimsiz ta'qibi shoirning ko'nglini cho'ktiradi. Buning ustiga Boburning ashaddiy dushmani Ahmad Tanbal bilan to'qnashgan Yunusxon u bilan murosaga keladi va buni nishonlab ov hamda ziyofat uyushtiradilar. Bu hol Boburni qattiq qiynaydi. Ko'nglidagi iztiroblarni: ***"Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim, Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim"*** matla'si bilan boshlanuvchi g'azalda ifoda etadi. "Yod etmas emish kishini mehnatta kishi" misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi ham shu kunlardagi ruhiy ezilishlar natijasi o'laroq yozilgandi. Ba'zan bunday biografik chizgilar oshiqona kayfiyatdagi satrlar bilan almashinib keladi va nafis badiiyat libosida ko'rsatiladi. Quyidagi g'azalga diqqat qilaylik:

Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek
g'amgusorim bor.

"Jahondin menga g'am bo'lsa..." Bolalikdanoq hokimiyatning og'ir yuki gardaniga ortilgan, hayotining ko'p qismi qirg'in urushlar qa'rida kechgan, do'st-u yori necha bor sotgan, alamlardan diydasida ko'z yoshlari qotgan Boburning hasrati bu.

"Ulusdin gar alam bo'lsa..." Saltanat ishtiyoqida ne yurtlarni kezgan, dushman bo'lsa-da kimlarningdir dilbandi

bo‘lgan yot navkarni tig‘ bilan kesgan, umr bo‘yi janglarda qonlar kechgan va bu bilan ne-ne odamlar — ulus qayg‘usiga sabab bo‘lgan Boburning iqrori bu.

Hasrat va iqrorlardan so‘ng u yorga qarata: “Bu g‘am va alamlardan yuz barobar bo‘lsa ham, mening g‘amim yo‘q, chunki sen borsan” deya uning g‘amgusorligini istaydi. Bu kabi she‘rlarni shoir devonidan ko‘plab topish mumkin.

Bobur she‘riyatini o‘qib bir narsaga amin bo‘lasiz: u hayotni sevadi, umrning har daqiqasini g‘animat biladi. Shuning uchun har qanday og‘ir kunlarda ham yashashga intildi, izlanishdan to‘xtamadi, ijodda davom etdi. Shoirning hayotsevarligi, ayniqsa, “Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatlari”, “Sendek menga bir yori vafodor topilmas” kabi g‘azallarida yaqqol aks etgan. Bobur ijodida mana shunday hayotga qaynoq mehr aks etgan jo‘shqin g‘azallar ham, afsusnadamat to‘la she‘rlar ham bor. Ularni umumiy bir jihat birlashtirib turadi: she‘rlarining hammasi benihoya samimiy tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan.



Savol va topshiriqlar

1. Bobur hayoti to‘g‘risida yaratilgan badiiy, ilmiy, hujjatli asarlar, filmlardan qaysi birlarini bilasiz?
2. Adibning sarson-sargardon hayoti va u yaratgan asarlar ko‘lamiga diqqat qiling. Boburning ijodiy salohiyati va iste‘dodiga baho bering.
3. Sinfda to‘rt guruhga bo‘lining. Birinchi guruh Boburning shoirligi, ikkinchi guruh olimligi, uchinchi guruh shohligi, to‘rtinchi guruh sarkardaligi borasidagi ma‘lumotlarni umumlashtirib, o‘zlashtiring.

LIRIK ASARLARI

G‘AZALLAR

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur.

Agar ul qoshi yosiz bog‘ gashtini orzu qilsam,
Ko‘zimga o‘qdurur sarv-u ko‘ngulga g‘uncha paykondur¹.

Bahor-u bog‘ sayrin ne qilaykim, dilsitonimnin
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur².

Visoli lazzatidin zavq topmog‘liq erur dushvor³,
Firoqi shiddatinda yo‘qsa jon bermaklik osondur.

Boshidin evrulur⁴ armoni birla o‘ldum, ey Bobur,
Mening na‘shimni⁵ bori ul pari ko‘yidin⁶ aylondur⁷.



Savol va topshiriqlar

1. Birinchi baytda qo‘llangan she‘riy san‘atlarning ahamiyatini tushuntiring. Lirik qahramon ko‘nglining tah-batah qon bo‘lganligini qanday izohlaysiz?
2. Ma‘shuqasiz bog‘ gasht (sayr)ini orzu qilgan oshiq ko‘ziga sarvning o‘qdek sanchilishi, ko‘ngliga g‘unchaning paykondek botishi sababini izohlang.
3. Maqta‘ni tahlil qiling. “Boshidan evrulur” iborasi bugungi kunda ham qo‘llaniladimi?
4. Qaysi baytlarni shoirning taqdiri bilan bog‘liq holda tushu-nish va sharhlash mumkin?

Aziz o‘quvchim! Keling, ushbu g‘azalning dastlabki ikki baytini birgalashib tahlil qilamiz. Bu she‘rni o‘rganish asnosida unda muhabbat kechinmalarining vatan firoqiga uyg‘unlashib ketganligini kuzatish mumkin.

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur.

Mumtoz she‘rlar ko‘pincha ikki xil – zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) ma‘no qatlamlarida tahlil qilinadi. Zohiriy ma‘no – she‘rning ko‘zga ko‘rinib turgan, bir qarashda ilg‘ab olinadigan, muallifi kimligidan qat‘iy nazar mavjud an‘analarga ko‘ra chiqariladigan mazmundir. Botiniy ma‘no esa she‘r (yoki umuman matn)dagi tagma‘no bo‘lib, shoirning

¹ Paykon – kamon uchidagi metall, boshoq. ² Xiromon – chiroyli yurish. ³ Dushvor – qiyin. ⁴ Evrulmoq – aylanmoq. ⁵ Na‘shimni – tobut. ⁶ Ko‘y – kocha, qishloq. ⁷ Aylondur – aylantir.

taqdiri yoki o'ziga xos dunyoqarashini aks ettirgan ichki mazmundir. Mazkur g'azalda lirik qahramon ko'nglining nega gul g'unchasidek tah-batah qon ekani matla'ning o'zidan anglashilmaydi. Zohiriy ma'noga ko'ra keyingi baytlar mazmunidan bu holat ma'shuqa tufayli ekanligi oydinlashadi: Ma'shuqa hajrida mening ko'nglim gul g'unchasidek qon bo'lgan. Misradagi "tah-batah" so'zi "qon"ning sifatlovchisi bo'lishi bilan birga ichki qiynoqlarni, ruhiy ezilishlarni kuchaytiruvchi vosita ham bo'lib kelmoqda. O'ylab ko'ring-a, nima uchun oshiq ko'ngli g'unchaga o'xshatiladi? Chunki gul bo'lib ochilmagan g'unchani bag'ri qon bo'ladi degan shoirona izoh bor bu yerda, qachon u ochilsa go'yo baxti ham ochiladi. Agar g'uncha bir bahor mavsumida gul bo'lib ochilsa, oshiq ko'nglining esa yuz ming bahor bo'lganda ham ochilmog'iga imkon yo'q. Chunki u ma'shuqasidan ayro tushgan.

Yodda tuting! Tahlilda, avvalo, *shoir bildirgan fikrni uqib olish* go'yat muhim. Busiz tahlilni amalga oshirib bo'lmaydi. Biz ham baytda nima deyilganini aniqlab olamiz: agar qoshi yoydek bo'lgan yorsiz bog'ni sayr qilishni orzu qilsam, bu sadoqatsizligim uchun u yerda menga jazo tayin: sarv ko'zimga o'qdek sanchiladi, ko'nglimga g'uncha paykon bo'lib botadi. Bular — oshiqona dil izhorlari. G'azalda nechta va qaysi obrazlar borligini payqadingiz — ikki obraz ishtirok etgan: oshiq va ma'shuqa. Zohiriy ma'noda ular insonlarni, aytaylik, oshiq — yigit va ma'shuqa — qizni gavalantiradi. Endi baytlarning botiniy ma'nosiga nazar tashlaylik. Bobur she'riyatida tagma'no uning taqdiridan kelib chiqadi. Binobarin, obrazlarning ma'nolari ham shu bilan bog'liq holda yangi ma'no kasb etadi. O'ylab ko'ring-chi, Boburning taqdiridan kelib chiqsak, botiniy ma'noga ko'ra Yor obrazi ushbu g'azalda kim yoki nima bo'lishi mumkin? Albatta, bu yerda botiniy ma'noga ko'ra Yor obrazi orqali Vatan nazarda tutilgan. Birinchi misrada Vatanidan ayrilgan shoir ko'ngli furqat tufayli qonga to'lgan. Ikkinchi misradagi "ochilmog'i ne imkondur" iborasi ilojsizlikni, yurtga qaytishning imkoni yo'qligini ifodalaydi. Nima uchun ilojsiz, nega imkon yo'qligini Siz 8-sinf "O'zbekiston tarixi" fanidan olgan bilimlaringiz asosida yaxshi tushunasiz. Demak, botinga ko'ra ikkinchi baytning ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin: Vatandan yiroqda bog'ni (yoki o'zga yurtlarni) sayr etar bo'lsam, ko'zimga sarv

o‘q bo‘lib, g‘uncha paykon bo‘lib qadaladi. Nima uchun degan savol tug‘iladi. Chunki bundagi sarv o‘z vatanidagi daraxtlarni yodga soladi, gul, g‘unchalar yurtida qolgan chamanzorni eslatadi va shoir yuragida og‘riqli sog‘inchni uyg‘otadi.

Ko‘rdingizmi, g‘azal tahlili u qadar qiyin ish emas. Ko‘ngil berib, aqlni ishga solib va tuyg‘ularni qo‘shib harakat qilinsa, bas — she‘r Sizga bag‘rini ochadi. Shu tariqa qolgan uch baytini o‘zingiz do‘stlaringiz bilan tahlil qiling.

Sizga omad!

* * *

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Bu shakl-u shamoyil bila xud hur-u parisen
Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.

Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu g‘amxor topilmas.

Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko‘zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas.

Bobur seni chun yor dedi, yorlig‘ etgil,
Olamda kishiga yo‘q esa, yor topilmas.

Bu g‘azal tahliliga e‘tibor qaratishimizning sababi bor. Unda Bobur lirikasiga xos jihat — oddiylik, soddalikdan yuksak san‘at yarata olish mahorati yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Shuningdek, butun Sharq she‘riyatiga xos asosiy xususiyatlar unda aks etgan. Tahlilni diqqat bilan o‘rganib, uni o‘zlashtirib olsangiz, murakkab tuyulgan mumtoz she‘riyatni tushunish, sharhlash malakangiz ham oshib boradi. Mazkur she‘r, uchinchi baytni hisobga olmaganda, oshiqning ma‘shuqaga murojaatidan iborat. Tahlilga kirishishdan oldin mumtoz lirikadagi ishqiy she‘rlarga xos bir jihatni qayd etmoq kerak: bosh obrazlar — ma‘shuqa, oshiq va ag‘yor doimo o‘zgarmas xarakter xususiyatlar bilan namoyon bo‘ladi. Ma‘shuqa oshiqqa beparvo, doimo unga sitam yetkazadi, hech bir she‘rda uning o‘z asiriga iltifot etgani kuzatilmaydi. Oshiq esa ko‘ngil qo‘yganidan qancha jafo ko‘rsa ham undan yuz o‘girmaydi, aksincha, sabrda, sadoqatda mumtoz bo‘lib, ishqda barqaror. Bu, umuman, butun sharq she‘riyatiga

xos qolipdir. Biz tahlilga tutinganimiz ushbu gʻazal ham ana shu qolipdagi munosabatlar ifodasi bilan boshlanadi.

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Oshiq maʼshuqaga qarata sendek menga jafo qiluvchi yor yoʻq va ayni paytda shuncha jafolaringga qaramay, senga men kabi vafodor zor oshiq ham topilmaydi, deydi. Bu oddiy ifodani yuksak sanʼat darajasiga koʻtarish uchun tarseʼ deb atalgan badiiy tasvir vositasidan foydalanilgan. Tarseʼ “ipga chizilgan marjon” maʼnosini anglatadi. Bunda baytda misralardagi ost-ust joylashgan soʻzlar vazndosh, ohangdosh va qofiyadosh boʻlib keladi. Ikki soʻz juftligi – “bir” va “topilmas” vazndosh va ohangdosh boʻlsa, qolgan toʻrt juftlik: ‘sendek – mendek, menga – senga, yori – zori, jafokor – vafodor ham vazndosh, ham ohangdosh va ham qofiyadoshdir. Bu toʻrt juftlikning dastlabki ikkitasida tashbih vositasida oshiq va maʼshuqaning oʻzaro qiyosi berilayotgani koʻrinib turibdi. Bu juftliklarda tardi aks sanʼati ham bor: birinchi misrada sen va men olmoshlari ikkinchi misrada aks tarzda, yaʼni oʻrni almashgan tarzda takrorlanmoqda. Qolgan ikkitasida bu ikki obrazning xarakteridagi nisbati aytiladi: oshiq maʼshuqani yor deb bilsa, u buni zor etadi; suygilisidan qancha jafokorlik koʻrsa ham, vafodorligini qoʻymaydi. Ost-ust joylashgan bu juftliklar ayni paytda tazod (qarshilantirish) sheʼriy sanʼati bilan bir-birining maʼnosini taʼkidlash, holat va xarakterni boʻrttirib koʻrsatishga xizmat qilmoqda.

Bu shakl-u shamoyil bila xud hur-u parisen
Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.

Sharq mumtoz sheʼriyatidagi yana bir tasvir qolipi maʼshuqani betakror husn sohibasi sifatida tavsiflanishidir. Maʼshuqa – ishqqa sabab boʻlib, oshiq koʻnglini rom qilgan, aqlini lol etgan suyukli yor. U nihoyatda goʻzal. Goʻzalligi unga nisbatan qoʻllanadigan tashbih (oʻxshatish)lar orqali taʼriflanadi: qaddi tik, adlki goʻyo sarv yoki sanavbar daraxtlariga oʻxshaydi, soch va koʻzi tunday qora, qoshi – hilol, yuzi oy yoki quyoshni eslatadi, lablari – gʻuncha yoki laʼl (qimmatbaho

qizil tosh), kipriklari bamisoli o‘q va hokazo. Bir so‘z bilan aytganda, husnda unga teng keladigani bu olamda yo‘q. Ikkinchi baytda shu qat‘iy an‘ana kuzatiladi: ma‘shuqa shakl-u shamoyil, ya‘ni ko‘rinish (go‘zallik)da xuddi hur va pariki, jinsi bashar (odamzot) ichra bu qadar husn egasi topilmaydi. Baytda ko‘zlangan mazmuni ochish uchun mubolag‘a san‘ati qo‘llangan.

Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu g‘amxor topilmas.

Ag‘yor – mumtoz she‘riyatdagi uchta asosiy obrazlardan biri. Ag‘yor – ma‘shuqaning vasliga da‘vogar bo‘lgan boshqa bir oshiq. Ag‘yorning portreti berilmaydi, uning kechinmalari, holati ham deyarli ifodalanmaydi. Oshiq rashk tufayli ba‘zan uni itga o‘xshatadi. Bu obraz, shuningdek, g‘ayr, raqib, o‘zga nomlari bilan ham yuritiladi.

Ushbu uchlikdagi ma‘shuqa va oshiq doimiy obrazlar bo‘lsa, raqib timsoli g‘azallarda hamma vaqt ham ishtirok etavermaydi. Baytda aytilishicha, ag‘yor oshiqning ko‘z oldida (ya‘ni u ko‘rinib turibdi), ammo yor ayon emas (ko‘rinmaydi), g‘am xori (g‘amning tikani) ko‘nglida, biroq g‘amxorlik qiladigan yo‘q. Birinchi misra avvalidagi ag‘yorning oshiq ko‘z oldida bo‘lishi ikkinchi misrada ifodalangan ko‘ngilga sanchilgan tikan kabi ozorga sabab deb ko‘rsatilsa, yorning ko‘rinmasligi (ya‘ni oshiq holidan xabar olmasligi) g‘amxor topilmasligi bilan ifodalanmoqda. Bu go‘zal ifodada tajnis san‘ati (g‘am xori – g‘amxor)ning alohida o‘rni bor.

Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko‘zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas.

Gul deyilganda ma‘shuqa nazarda tutilmoqda. Guldek go‘zal yor ifodasini bir gul so‘zi bilan berilishi istiora san‘atini yuzaga keltirgan. Oshiq ma‘shuqaga murojaat qilib aytadi: ey gul kabi go‘zal yor, meni husning chamanida zor qilavermaginki, gulzor yanglig‘ husning ham bu o‘tkinchi dunyoda boqiy emas – ko‘z ochib, yumguncha u ham o‘tadi, ya‘ni ko‘rkini yo‘qotadi. Bu baytda ham tajnis qo‘llangan, endi u fikrni asoslash vositasi sifatida qo‘llanmoqda: birinchi misrada so‘z oralab qo‘llangan

“gul” va “zor” soʻzlari ikkinchi misrada qofiyadosh soʻzlar sirasida kelgan “gulzor” bilan bu sheʼriy sanʼatni hosil qilmoqda. Gul qancha fusunkor boʻlmasin, bahor, yoz oʻtib, uning goʻzalligi zavol topadi. Shuning uchun gulzordek husniga magʻrur yorni ogohlantirib, oʻzini zor etmaslikka chaqiradi.

Bobur seni chun yor dedi, yorligʻ etgil,
Olamda kishiga yoʻq esa, yor topilmas.

Yaʼni, men seni yor deb tanladim, sen ham menga yorlik qilgin (meni yor deb bilgin), bu olamda kishining yor deb bilgani uni ham yor deb bilmas ekan, uning uchun ishonadigan, suyanadigan boshqa yor (doʻst, mahram, sirdosh) topilmaydi. “Yorligʻ” soʻzida istiora bor. Istiora — soʻzni takror ishlatmay, bir oʻrinda ikki maʼnoda qoʻllash. “Yorligʻ” yorlik (yor boʻlishlik) va xushxabar maʼnolarini beradi. Tahlilda bu ikki maʼnoni olib, alohida ikki maʼno chiqarish mumkin: 1) Bobur seni yor dedi, sen ham yorlik qil; 2) Bobur seni yor dedi, sen ham uni xushxabar bilan sevintir. Shuningdek, bu ikki maʼnoni ketma-ket bir sharhga jamlash mumkin: Bobur seni yor dedi, sen ham yorlik qilib, xushxabar bilan uni sevintir. Yor soʻzlarining ushbu baytdagi qoʻllanishidan tajnisni ilgʻagansiz, albatta.

Bilingki, bu tahlil bizning qarashimiz. Boshqalar undan boshqacha maʼnolar topishi mumkin. Siz ham gʻazalni bizdan boshqacharoq tushunsangiz, bu tabiiy hol. Chunki adabiyot, bilganingizdek, sanʼat turi sanaladi. Sanʼatni esa har bir qalb oʻzicha qabul qiladi, tushunadi va kashf etadi.



Savol va topshiriqlar

1. Ushbu tahlildan mumtoz adabiyotga xos qaysi jihatlarni bilib oldingiz?
2. Mumtoz sheʼriyatdagi asosiy obrazlarning har biriga tavsif bering, ularning oʻziga xos jihatlari toʻxtaling.
3. Mumtoz sheʼriyat zamonaviy sheʼriyatdan qaysi tomonlari bilan farqlanishi haqida oʻylab koʻring.

* * *

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,
Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldur.

Mizojing nozik-u sen tund, men bir beadab telba,
Senga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur.

Ne osig'¹ nola-u faryod xobolu² baxtimdin,
Bu unla³ birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur.

Manga osondurur bo'lsa, agar yuz ming tuman⁴
dushman,
Vale bo'lmak jahonda, ey ko'ngul, beyor mushkuldur.

Visolinkim tilarsen nozini xush tortqil, Bobur
Ki, olam bog'ida topmoq guli bexor⁵ mushkuldur.



Savol va topshiriqlar

1. Birinchi baytdagi ikkita: oshiqning o'ziga va oshiqma'shuqa munosabatlariga taalluqli ziddiyatlarni aniqlang.
2. Nima uchun oshiqqa o'z holini izhor qilish mushkul bo'lmoqda?
3. ***“Ne osig' nola-u faryod xob olud baxtimdin, Bu unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur”*** baytini tahlil qiling. Shoir nima uchun o'z baxtini uyquda deb biladi?
4. Shoirga nima uchun bu jahonda yashash yuz ming tuman dushmani yengishdan ham mushkulroq tuyuladi?

¹ Osig' – foyda. ² Xob olud – uyqudagi. ³ Un – ovoz. ⁴ Tuman – o'n ming.
⁵ Bexor – tikansiz.

“BOBURNOMA”**ANDIJON TASVIRI**

...Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur¹. Ma‘muranin² kanorasida³ voqe bo‘lubtur⁴. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi⁵ tog‘lar... Muxtasar⁶ viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbi tarafikim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin⁷ o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurur, sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar.

Yetti pora qasabasi⁸ bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki(si) shimol jonibida. Janubiy tarafidag‘i qasabalar(dan) biri Andijondurkim, vasatta⁹ voqe’ bo‘lubtur, Farg‘ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig‘i vofir¹⁰, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas. Movarounnahrda Samarqand va kesh qo‘rg‘onidin so‘ng mundin ulug‘roq qo‘rg‘on yo‘qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo‘lubtur. To‘qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal‘aning girdogirdi¹¹ tosh yoki sangrezalik¹² shohroh¹³ tushubtur. Qal‘aning girdogirdi tamom mahallotdur¹⁴. Bu mahalla bila qal‘ag‘a fosila¹⁵ ushbu xandaq yoqosidag‘i shohrohtur. Ovi qushi dog‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg‘ovulni uskunasini to‘rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur¹⁶. Ani uchunkim amir Alisher Navoiyning musannafoti¹⁷ bovujudkim¹⁸, Hirida¹⁹ nash‘u namo²⁰ topibtur, bu til biladur.

Elining orasida husn xayli²¹ bordur. Yusuf Xojakim musiqiyda mashhurur, Andijoniydur. Havosining ufunati²² bor. Kuzlar el bezgak ko‘p bo‘lur.

¹ Qadimda yer yuzi 7 iqlimga bo‘lingan. ² Ma‘mura—ekin bitadigan yer. ³ Kanora—qirg‘oq, chet. ⁴ Voqe bo‘lubtur — o‘rnashgan. ⁵ Sarhad—chegara. ⁶ Muxtasar—ixcham. ⁷ Jonibtin—tarafdan. ⁸ Qasaba—shaharcha. ⁹ Vasat—o‘rta. ¹⁰ Oshlig‘i vofir—g‘allasi ko‘p. ¹¹ Girdogirdi — aylanasi. ¹² Sangrezalik — shag‘alli. ¹³ Shohroh — katta yo‘l. ¹⁴ Mahallot—mahallalar. ¹⁵ Fosila —ajratuvchi. ¹⁶ Lafzi qalam bila rost — tili adabiy tilga muvofiq. ¹⁷ Musannafoti — asarlari. ¹⁸ Bovujudkim — qaysikim. ¹⁹ Hiri —Hiroat. ²⁰ Nash‘u namo — shuhrat. ²¹ Husn xayli — mahoratli kishilar, san‘atkorlar. ²² Ufunati — sassig‘i, dimligi.

SAMARQAND TASVIRI

Rub'i maskunda¹ Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindir. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba ila munga dast topmog'on uchun² "baldayi mahfuza³ " derlar. Samarqand amirul mo'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam Ibn Abbos anda borg'onidir. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo⁴ Mazori Shohg'a⁵ mashhurdir. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur. Qo'rg'onini fasilning ustidin, buyurdumkim, qadam urdilar, o'n ming olti yuz qadam chiqti.

Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri⁶ ...eldur. Hazrati risolat⁷ zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim⁸, Movarounnahrdin paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum ermaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay. Shayx Abumansurkim, aimmai kalomdindir⁹, Samarqandning Motrid¹⁰ otliq mahallasidindir. Aimmai kalom ikki firqadur: birni motridiya derlar, birni ash'ariya derlar. Motridiya shayx Abumansurga mansubdur. Yana sohibi "Sahihi Buxoriy" Xoja Ismoil Xartang ham Movarounnahrdindir. Yana sohibi "Hidoya"kim¹¹, imom Abu Hanifa mazhabida "Hidoya"dan mo'tabarroq kitobi fiqh kam bo'lg'oy, Farg'onaning Marg'inon otliq viloyatidindir, ul ham doxili Movarohaunnahrdur.

Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur. Sharqi Farg'ona va Koshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz. Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh¹² bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta¹³ tushubtur. Ko'hak derlar. Bu rud¹⁴ muning tubidin oqar uchun

¹ Rub'i maskunda – yer yuzining to'rt tarafida. ² Dast topmog'on uchun – qo'lga kiritilmagani uchun. ³ Baldayi mahfuza – muhofaza qilingan shahar. ⁴ Holo – hozir. ⁵ Mazori Shoh – Shohizinda. ⁶ Mutasharri' – shariatga bo'ysunuvchi. ⁷ Hazrati risolat – janobi Payg'ambar. ⁸ Aimmai islom – islom imomlari. ⁹ Aimmai kalom – huquqshunos, faqih. ¹⁰ Xoja Ismoil Xartang – al-Buxoriy ko'zda tutilgan. ¹¹ Sohibi "Hidoya" – "Hidoya" asari muallifi Burhoniddin Marg'inoniy (1123–1197) ko'zda tutilgan. ¹² Kuruh – to'rt ming gaz (0,71 metr)lik uzunlik o'lchovi. ¹³ Pushta – tepalik, kichik tog'cha, ya'ni Ko'hak hozirgi Cho'ponota tog'i. ¹⁴ Rud – ariq, daryo.

Ko‘hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug‘ rud ayiriburlar, balki daryochadur. Darg‘am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar‘iy¹ bo‘lg‘oy. Samarqandning bog‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti² bu suv bila ma‘murdir. Buxoro va Qorako‘lgachakim, o‘ttuz-qiriq yig‘och yo‘lg‘a yovuqlashur Ko‘hak suyi bila ma‘mur va mazru‘dur³. Mundoq ulug‘ daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to‘rt oy Buxoroga suv yetmas. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami mevasi xo‘b bo‘lur. Vale ikki meva Samarqanddin mashhurur: sebi⁴ Samarqand va sohibiyi⁵ Samarqand. Qishi mahkam sovuqtur, qori agarchi Kobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi havosi bor, agarchi Kobulcha yo‘qtur.

Temurbekning va Ulug‘bek mirzoning imoroti va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug‘ ko‘shk solibtur, to‘rt oshyonliq⁶, Ko‘ksaroyg‘a mavsum va mashhur⁷ va bisyor oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasig‘a yovuq qal‘aning ichida bir masjidni jum‘a solibtur, sangin⁸ aksar Hindistondin eltgan sangtaroshlar anda ish qiliburlar. Masjidning peshtoqi kitobasida⁹ bu oyatni “Va iz yarfau Ibrohimu al-qavoida... (ila oxirih)¹⁰” andoq ulug‘ xat bila bitibturlarkim, bir kuruh yovuq yerdin o‘qusa bo‘lur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bog‘ solibtur, birikim, yiroqroqtur, Bog‘i Bo‘ldudur, yovuqrog‘i Bog‘i Dilkushodur. Anda Feruza darvozasig‘acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig‘ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug‘ ko‘shk soldirubtur, ul ko‘shkta Temurbekning Hindiston urushini tasvir qiliburlar.

Yana pushtai Ko‘hakning domanasida¹¹ Konigilning Qorasuyining ustidakim, bu suvni Obirahmat derlar, bir bog‘ solibtur, Naqshijahonga mavsum. Men ko‘rgan mahalda bu bog‘ buzulub erdi, oti besh qolmaydur edi¹². Yana Samarqandning janubida Bog‘i Chanordur, qal‘aga yovuqtur. Yana Samarqandning quyi yonida Bog‘i Shamol va Bog‘i

¹ Bir shar‘iy — 5-6 km. ga teng masofa o‘lchovi. ² Tumonoti — tumanlari.

³ Mazru‘ — ziroat, ya‘ni ekin. ⁴ Seb — olma. ⁵ Sohibiy — uzum turi. ⁶ Oshyonliq — qavatlik. ⁷ Ko‘ksaroyg‘a mavsum va mashhur — Ko‘ksaroy oti bilan ma‘lum va mashhur. ⁸ Sangin — toshdan qurilgan. ⁹ Kitoba — devor, darvoza, eshik va qabrtoshlariga o‘yib yozish san‘ati. ¹⁰ “Baqara” surasining 126-oyati. “Va mana, Ibrohim uyning asosini ko‘tardi (oxiri bor)” ma‘nosida. ¹¹ Domanasida — etagida.

¹² Oti besh qolmaydur edi — oti ham qolmagandi.

Bihishttur. Temurbekning nabirasi, Jahongir mirzoning o‘g‘li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning toshqo‘rg‘onida — Chaqarda bir qo‘rg‘on solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandta podshohliq qilibtur, alarning qabri ul madrasadadir.

Ulug‘bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal‘asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug‘ gumbazdur, olamda oncha ulug‘ gumbaz yo‘q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohg‘a yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomig‘a mashhurdur. Har nav‘ toshlardin farshlar¹ qilibtur. Xuroson va Samarqandta oncha hammom ma‘lum emaskim, bo‘lg‘ay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, Masjidi Muqatta‘² derlar. Bu jihattin Muqatta‘ derlarkim, qit‘a-qit‘a³ yig‘ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoyi naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi⁴ ushbu yo‘sunluqtur. Bu masjidning qiblası bilan madrasa qiblasining orasida bisyor tafavuttur. ...Yana bir oliy imorati pushtayi Ko‘hak domanasida rasaddurkim, zij⁵ bitmakning olatidur. Uch oshyonlikdur. Ulug‘bek mirzo bu rasad bila ...”Ziji Ko‘ragoniy“ni bitibturkim, olamda holo bu zij musta‘maldur⁶. O‘zga zij bila kam amal qilurlar...

Yana pushtai Ko‘hakning domanasida g‘arb sori bog‘e solibtur Bog‘i Maydonga mansub. Bu bog‘ning o‘rtasida bir oliy imorat qilibtur Chilsutun derlar. Du oshyona, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to‘rt burchida to‘rt manordek burjlar⁷ qo‘poribturlarkim⁸, yuqorig‘a chiqar yo‘llar bu to‘rt burjdindur. O‘zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur. Ba‘zini morpech xiyora⁹ qilibturlar. Yuqorig‘i oshyonining to‘rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O‘rtasi chordara¹⁰ uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imorattin pushtai Ko‘hak sari domanada yana bir bog‘cha solibtur, anda bir ulug‘ ayvon imorat qilibtur. Ayvonning ichida bir ulug‘ tosh taxt qo‘yubtur, to‘li¹¹ taxminan o‘n to‘rt-o‘n besh qari¹² bo‘lg‘oy, arzi¹³ yetti-sekkiz qari, umqi¹⁴ bir qari. Mundoq ulug‘ toshni

¹ Farsh — qoplama. ² Masjidi Muqatta‘ — “Parcha-parcha machit” ma‘nosida. ³ Qit‘a-qit‘a — bo‘lak-bo‘lak. ⁴ Saqf — shift. ⁵ Zij — yulduzlarning holati va yil davomidagi harakati aks etgan jadval. ⁶ Musta‘maldur — amaldadir. ⁷ Burj — qal‘a va qo‘rg‘on burchaklariga quriladigan bino. ⁸ Qo‘pormoq — tiklamoq, solmoq. ⁹ Morpech xiyora — tosh ustunga o‘ralgan ilon tasviri. ¹⁰ Chordara — to‘rt eshikli. ¹¹ To‘li — bo‘yi, uzunligi. ¹² Qari — qarich. ¹³ Arzi — eni, kengligi. ¹⁴ Umqi — chuqurligi.

xeyli yiroq yerdin kelturubturlar. O'rtasida darz bo'lubtur. Derlarkim, ushbu yerda keltirgandin so'ng bu darz bo'lg'ondur. Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi¹ tamom chiniy². Chiniyxona derlar. Xitoydin kishi yiborib keltirubtur.

Samarqand qal'asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o'rtasida yerga tepsalar, tamom gunbazdin laq-laq un³ kelur, g'arib amredur⁴, hech kim muning sirrini bilmas.

Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shaharda bir xususiyate borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har hirfagarnin⁵ bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut⁶ emastur, tavr rasmedur⁷. Xub nonvoliqlari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddin chiqar. Juvozi kog'ozlar⁸ suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu qora suvni Obirahmat ham derlar.



Savol va topshiriqlar

1. Asarda Farg'ona viloyati tabiati qanday tasvirlanganini izohlang.
2. Andijonga xos xususiyatlar qanday aks ettirilganini ayting.
3. Asarning andijonliklar va hazrati Navoiy tili haqidagi o'rinlarini sharhlang.
4. Boburning Samarqandga munosabati qandayligini matnga tayanib anglating.
5. Samarqandliklar haqida Bobur bildirgan fikrlarni izohlang.

Nazariy ma'lumot

MEMUAR ASAR

“Memuar” fransuzcha “esdalik” ma'nosini anglatadi. Muallifning o'zi qatnashgan yoki ko'zi bilan ko'rgan real voqealar haqida hikoya qilingan asar memuar asar hisoblanadi. Oybekning “Bolalik”, A. Qahhorning “O'tmishdan ertaklar” asarlari memuarining namunalaridir.

¹ Izorasi — uyning yer bilan tokcha orasidagi qismi. ² Chiniy — chinnidan qilingan. ³ Un — tovush. ⁴ G'arib amredur — ajablanarli ish. ⁵ Hirfagar — kasb egasi, hunarmand. ⁶ Maxlut — xalaqit, aralash. ⁷ Tavr rasmedur — yaxshi odatdir. ⁸ Juvozi kog'oz — juvoz yordamida tayyorlangan qog'oz.

Memuar asarlar bayon qilish shakli, zamoniy izchilligi jihatidan kundaliklarga o'xshab ketsa, materialning tabiati, tasvirlanayotgan voqealarning haqqoniyligi, badiiy to'qimaning yo'qligiga ko'ra ilmiy asarlarga yaqin turadi. Dunyo adabiyoti tajribasida memuarlarning bir necha turi bor. O'zbek adabiyotida esa, bu xil asarlarning *tarixiy memuarlar* va *badiiy memuarlar* singari ikki turi ko'proq uchraydi. Ayni vaqtda, tarixiy memuarlarda badiiylik, badiiy memuarlarda esa tarixiylik xususiyatlari uchraydiki, bu ularning saviyasini ko'taradi.

Memuar asarlarga xos asosiy qirra shundaki, unda muallif ishtirokchi yoxud tanig' (guvoh) sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi. U tarixchi va adabiyotshunos olimdan farq qilib, real voqelikning o'zi bevosita qatnashgan yoinki ko'rgan qisminigina aks ettiradi. Bunda muallif o'z kuzatish va dunyoqarashigagina tayanadi. Shuning uchun ham memuar asarda yo hikoyachining o'zi yo bo'lmasa, uning nuqtayi nazari old o'rinda bo'ladi. Bu holni "Boburnoma" misolida yaqqol ko'rish mumkin.

"Boburnoma" avtobiografik ocherklarni eslatuvchi voqeyi hikoyalardan iborat. Ularda muallif Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston kabi mamlakatlarda o'zi qatnashgan, ko'rgan yoki eshitgan voqealarni hikoya qiladi. Asarda tarixiy davr va Bobur hayoti sahifalari haqqoniy ifoda etilgan.

Yozuvchining tasvirlash mahorati yuksakligi sabab u yoki bu shaxs haqidagi ma'lumotlar keltirilganda, ularning tabiatiga xos xususiyatlarni ham ko'rsatishga erishadi. Bobur asarining qiziqarli bo'lishiga diqqat qaratadi. Shuning uchun, hatto, jug'rofiy ma'lumotni ham kishi e'tiborini tortadigan yo'sinda berishga intiladi. Buni Andijonga to'qqiz ariq suvning kirishi va bittasining ham chiqib ketmasligi haqidagi tasvirlarda ko'rish mumkin.

Bobur Samarqandning tabiatini tasvirlar ekan, uning obodligiga ulkan hissa qo'shgan Amir Temur va Ulug'bek Mirzo singari hukmdorlar shaxsiyatiga xos yaratuvchilik qirralariga urg'u beradi. Muallif sodda va tushunarli yozadi. Oradan shuncha vaqt o'tganiga qaramay, astoydil qiziqqan kishi uning bitganlarini ortiqcha qiyinchiliksiz tushunadi.



BOBORAHIM MASHRAB

(1653–1711)

Hayot yo‘li afsonalarga qarishib ketgan, surati-yu siyrati rivoyatlarda bayon etilgan, xalq orasida halollik, to‘g‘rilik, Haqqa oshiqlikning timsoli bo‘lib gavalangan Mashrabdek shaxsi va ijodi mashhur zotni topish qiyin. Farhod va Qays seviklilari Shirin-u Layliga intilgani kabi Mashrab ham Yaratganning vasliga beqaror intilgan oshiqi analhaqdir. Kishi uning shaxsini bilgani sayin va ijodini o‘rganish mobaynida o‘zining ham tozarib borayotganini tuyadi, buyuk Tangriga yaqinlikni his qiladi. Shuning uchun ham uni o‘qimoq, uqmoq kerak.

Oldinlari Mashrab 1640- yoki 1647- yillarda tug‘ilgan deb hisoblanar va bu ma‘lumotlar qator ilmiy manbalarda ko‘rsatilgan ham edi. Keyingi ma‘lumotlarga ko‘ra, Boborahim Valibobo o‘g‘li Mashrab 1653- yilda Namanganda kosib oilasida tug‘ilgan. Yodingizdami, Navoiy “Xamsa”si qahramonlari Farhod va Qays tug‘ilmaslaridan ishq dardiga mubtalo bo‘lgan edilar. Xuddi shu holat Boborahimda ham yuz beradi.

Shoirning hayot yo‘li yoritilgan “Qissai Mashrab” asarida yozilishicha, u bolaligidan majnuntabiat, so‘fiysurat, odamovi va xomush qiyofada yuradi. Uning g‘ayritabiiy odatlari, gap-so‘zlari, yurgan yo‘lida aytadigan bayt-u g‘azallari ota-onasi va xaloyiqni hayron qoldiradi. Onasi ne orzu-havaslar bilan unga yangi liboslar kiygizsa, Mashrab duch kelgan ojiz-bechoralarga kiyimlarini yechib berar, o‘zi yalong‘och yurardi (xuddi “Bo‘lib el anduhidin ko‘ngli g‘amnok, Yaqo chokni ko‘rib, ko‘ksin qilib chok” qilgan Farhoddek). Ota-onasi iztirob bilan buning

sababini so‘raganlarida, u “Yaratganning huzuridan qanday kelgan bo‘lsam, shunday yuraveraman” qabilida javob beradi.

O‘spirinligida qayerda go‘riston bo‘lsa, ziyorat qilib, odamlarning suyaklarini ko‘rib: “Ey odamzod, oxir o‘lib boshingga tushadurgon ish bu”, — deb yig‘lab yurardi (Farhod va Qaysning g‘amginliklarini eslang). O‘g‘illaridagi bunday ilohiy ishq sirlarini tushunmagan ota-ona xavotir va tashvishga tushadilar (Qaysning ota-onasi ko‘rgan tadbirlarni yodga oling).

Mashrabni shu hududda katta ulamo, Haq yo‘liga boshlovchi tariqat rahnamosi sanalgan Mullo Bozor Oxundga uchrashtiradilar. Mashrab undan zo‘r ixlos bilan ta‘lim oladi, tarbiya ko‘radi. Xuddi bir muallim o‘zidagi bilimlarni berib bo‘lgach, shogirdini o‘zidan ilmliroq boshqa ustozga yo‘llaganidek, ma‘lum darajada ilohiy sirlardan Mashrabni voqif etgan mullo Bozor Oxund uni Koshg‘arga — Ofoq xoja huzuriga borishi kerakligini aytadi. Islom dunyosining ulug‘laridan biri bo‘lmish bu zot yangi muridi qalbidagi ilohiy muhabbat nurlarini ilg‘ab, unga Mashrab (ma‘nosi — ishq sharobini ichgan) nomini beradi. Mashrab Ofoq xoja huzurida yetti yil tahsilda, xizmatda, riyozatda bo‘ldi va Haqqa yaqin avliyo zot bo‘lib yetishdi. Farhodga Boniy, Moniy va Qoran o‘rgatganlaridek, Bozor Oxund va Ofoq xoja ta‘limidan Mashrab toshdan metin nafs tog‘ini yanchishni, ko‘ngilda ishq binosini qurishni va bu binoga Olloh ishqini naqshlashni o‘rgandi. “Xamsa” dostonlaridan Tangri oshiqklarining taqdiri qanday yakun topishi Sizga ma‘lum. Mashrab, ustози Ofoq xoja bashorat qilganidek, 1711- yilda Balx hokimi Mahmud Qatag‘on amri bilan Qunduz shahrida qatl etilgan.

Mashrab o‘z asarlarini jamlab, devon tuzgan emas. She‘rlari “Devoni Mashrab” qissalarida, turli bayozlar va to‘plamlar tarkibida tarqoq holda bizgacha yetib kelgan. 1958 — 1980-yillar oraliq‘ida uning she‘rlari to‘plam holidagi bir necha marta nashr qilingan. Mashrabning nisbatan mukammal to‘plami adabiyot jonkuyari Jaloliddin Yusupov tomonidan 1990- yilda “Mehribonim, qaydasan” nomi bilan nashrga tayyorlanib, chop etildi. To‘plam shoirning g‘azal, mustazod, murabba‘, muxammas, musaddas, musabba‘ janrlarida yozgan she‘rlaridan iborat. Shuningdek, mutaxassislargagina yaxshi tanish bo‘lgan “Mabdai nur”, “Kimyo” kabi badiiy-falsafiy, diniy-axloqiy asarlar ham Mashrab qalamiga mansub deb qaraladi.

Ma'lumki, aksar mumtoz adiblar ijodining mag'zida odamni, olamni, butun borliqni islomiy idrok etish markaziy o'rin tutadi. Lekin bu shunchaki islomga da'vat, uning yo'l-yo'riqlarini o'rgatish, nasihat emas, balki dunyo hodisotlari, voqealari ortida yashiringan Yaratganning xohish-irodasi, hikmatini, jamolini, qudratini bilishga, anglashga, ko'rishga yo'nalgan ilmdir. Bu ilmni tasavvuf deydilar. Mashrab ham tasavvuf adabiyotining mashhur vakilidir. Barcha so'fiy shoirlar kabi u ham nafsnı yengish orqali ko'ngilni yuksaltirish, ruhni poklash, o'tkinchi dunyo havaslaridan ustun bo'lishga urinadi, insonga uning moddiy mavqeidan emas, ma'naviy fazilatlaridan kelib chiqib yondashadi.

So'fiy shoirlarnı ilohiy ishq kuychilari deyishadi. Lekin ishqni kuylashda har bir shoirning o'z yo'li, ovozi, o'zgachaligi bor. Ahmad Yassaviy ishqı ilohiyini rasmiy shariat doirasidan uzoqlashmagan holda sharh etadi. Navoiy ishqni mushohada qiladi, har qanday yonish-kuyishlarda ham o'ychanlik, bosıqlik unga xos. Mashrab esa ko'nglidagi ishq olovi qanday bo'lsa, uni shundayligicha she'rga ag'daradi. Ollohga bo'lgan muhabbatini ochiq izhor etadi. Shuning uchun uning she'rlarini o'qigan kitobxon oshiq shoir ko'nglidagi jununni, betoqatlikni aniq his qilib turadi va bandaning Xudoga bo'lgan haqiqiy ishqı qanday bo'lishini anglaganday bo'ladi. Go'yo u bizga ishqı ilohiydan dars berayotganday. Shu bois Mashrab "yuzi qizil-oq, ostidagi tayloqi o'ynoqlab turgan", "asli qalmoq, zoti qirg'iz, lola paypoqli" sahroyi bo'tako'z qizlarnı madh etadi, ular chiroyida olam nafosati hamda ilohiy jamol jilvasini tuyadi. Shuningdek, uning vatan, onai zorini qo'msab yozgan she'rlari ham xokisor samimiyati-yu bolalarcha sodda tug'yoni bilan ajralib turadi. Ularnı o'qib g'oyat ta'sirlanasiz: dilbar va g'arib ishq kuychisining Namangandan kelgan do'st-u yoronlarini ko'rgandagi quvonchi, kekxa onasining bag'riga otilib zor-zor yig'lashlari qalbingizda titroq uyg'otadi.

Mashrabning shaxs va shoir sifatidagi o'ziga xosligi shunda ko'rinadiki, Uning Ollohga bo'lgan ishqı ham xuddı mana shunday samimiy va ehtirosli. U Xudoni o'zidan uzoq, mavhum deb bilmaydi. Uni mehribon onasi, "jola kiygan" mahubbasini sevganday sevadi, o'z yonida aniq ko'rib turadi, ko'nglidagi dardlarini, sirlarini unga so'zlaydi, u bilan qo'shilib-qorishib ketadi. Mashrab she'rlarini

o‘qishda, tushunishda bu holni, ta’limotni nazardan soqit qilib bo‘lmaydi: **“Arshning kungurasin ustiga qo‘ydum ayoqim, Lomakondin joy olibman, bu makonni na qilay?”**

Lomakon — makondan tashqari degani. Lomakonlik faqat Xudoga xos. Undan boshqa barcha narsalar ma’lum bir makonda qaror topadi. Ilohiy Arsh kungurasiga oyoq qo‘ydim, lomakondan joy oldim deyish shariat nuqtayi nazaridan shirk va kufr. Lekin shoir bu gapni tuproqdan bo‘lgan jism harakati va holati sifatida sharh qilmayapti. Bu — shoir ruhining ishqdagi holati. U Yaratganga shunchalik muhabbat qo‘yganki, Undan boshqa hech narsani mushohada qilmaydi. Bu muhabbat va mushohada natijasida u makonni, ya’ni olamni, hatto, o‘zini unutadi, U bilan birlikni hosil qiladi. Ishqning ilohiy qudrati bilan makonni, o‘zlikni unutgan kishi lomakonga daxldordir. Bunday odamning oyog‘i ilohiy Arshda turibdimi, yerda turibdimi — farqi yo‘q. Tasavvuf ta’limotini, undagi vahdat ul-vujud holatini tushungandagina shoirning: **“Onqadar nurga to‘libman osmonga sig‘madim, Toqi arsh-u kursi-yu lavh-u jinong‘a sig‘madim”** yoki **“Ofoqni bir lahza kezdim, na ajabdur, Mino tog‘idin akkasifat hakkalab o‘ttum”** kabi baytlari ma’nosini to‘g‘ri anglash mumkin bo‘ladi.

Har qanday so‘fiy biror tariqatga amal qiladi. Tariqat arabcha so‘z bo‘lib, **yo‘l** ma’nosini anglatadi. Bizning hududlarda qadimdan qodiriylik, yassaviylik, kubroviylik, naqshbandiylik tariqatlari mashhur. Bu tariqatlar bir-birini inkor etmaydi, chunki maqsadlari bir — Bir-u bor zot vasliga vosil bo‘lish. Shuning uchun ular o‘zaro ulug‘ hurmat, ehtirom munosabatida bo‘ladilar. Bir-biridan Ollohga yaqinlashish, yetishish, uning rizoligi va muhabbatini qozonish yo‘llari hamda usullari bilan farqlanadilar. Mashrab naqshbandiylik shaxobchasi bo‘lmish qalandarlik maslagini tutgan va uni ijodida targ‘ib etadi:

Murodingga yetay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.

Bu maslakning shiori esa — **“Havas bozorini dur aylagil zinhor boshingdin, Qo‘lungni ikki dunyodin uzib, dilni qalandar tut”**dir. Boshingdan dunyo, nafs havaslarini chiqar, ikki dunyodan ham o‘zingga manfaat izlamay, dilingni qalandar

tut, deb ko'rsatma beradi Mashrab. Dilni qalandar tutish esa doimo haqiqiy Yor zikri bilan mashg'ul bo'lish va U buyurgan ezgu amallarni o'z hayotining mazmuniga aylantirishdir. Qalandalarning hayot tarzlari ham o'ziga xos. Ular har qanday dunyoviy iskanjadan ozod bo'lish uchun muqim uy-joy, makon tutmaganlar. Shoir ta'biri bilan aytganda, "ko'h ba ko'h, sahro ba sahro kezmoq" bilan, ya'ni qishloq, shaharlarni, dasht-u sahrolarni kezib, odamlarni iymonga, ezgulikka da'vat qilganlar, ishq ilohiyini sharh etganlar:

Riyozatsiz bo'lay desang, tanim ozod yuray desang,
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Bu taqvodin kechay desang, xonaqohdin qochay desang,
Haqiqatni ochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Mashrab ham o'z umri davomida yurtlar kezib, Haqni va haqiqatni tanish, pok e'tiqod, haqiqiy muhabbat targ'iboti bilan mashg'ul bo'ldi. Endilikda bu ishni uylar, qishloqlar, shaharlar, yurtlar kezib, uning ijodi davom ettirmoqda. Demakki, shoir oramizda, u biz bilan.



Savol va topshiriqlar

1. Mashrab qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Xalqimizda qanday hollarga tug'ilajak farzandga "Mashrab" ismi berilishini bilasizmi? Eshitmagan bo'lsangiz, kattalardan bilib oling.
3. "Mabdai nur", "Kimyo" kabi badiiy-falsafiy, diniy-axloqiy asarlarning muallifi kim?
4. Mashrabning tasavvuf ta'limotiga, qalandarlik maslagiga munosabati haqida gapiring.

MASHRAB SHE'RIYATIDAN**G'AZALLAR**

Ishq vodisidin bir kecha men hay-haylab o'ttum,
Monandi nayiston¹ guliga o't qalab o'ttum.

Ofoqni² bir lahzada kezdim na ajabdur,
Mino tog'idin akkasifat hakkalab o'ttum.

Ottim fash-u dastorini³ devonalig' aylab,
Parvonasifat jonimi o'tqa qalab o'ttum.

Bildimki, vafosi yo'q ekan ushbu jahonni,
Mardona bo'lub, balki, etak siltalab o'ttum.

Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,
“Borg'il nariga!”— deb ketig'a shattalab o'ttum.

Bildimki, oni dushmani makkorai ayyor,
“Lo!⁴— tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum.

Mardoni Xudo dediki: “Dunyo mayi achchig'“,
Achchig'lig'ini bilmak uchun bir yalab o'ttum.

Nafs kofiri birla tun-u kun qildim urushni,
Tanho qilichi birla urub, qiymalab o'ttum.

Xomush pichog'in har dam oning bo'g'zig'a qo'ydim,
Cho'g' nayzasi birla ko'zini nayzalab o'ttum.

Devonai Mashrab, bu so'zung dardga davodur,
Oshiq elining ko'nglig'a bir o't qalab o'ttum.

¹ Nayiston — qamishzor. ² Ofoq — dunyo. ³ Fash-u dastor — salla va pechi.
⁴ Lo — yo'q.

“O‘ttum” radifli g‘azali tahlili

G‘azal so‘fiy shoirning ishqdagi holati, tariqat — poklanish yo‘lidagi a‘moli tasviri va tavsifiga bag‘ishlangan. She‘rning birinchi baytida Yaratgan bilan yaqinlik hosil qilgan va buning natijasida o‘zining jismoniy o‘zligidan kechib borayotgan oshiq timsolini ko‘ramiz:

Ishq vodiisidin bir kecha men hay-haylab o‘ttum,
Monandi nayiston guliga o‘t qalab o‘ttum.

Baytda ishq bir vodiya o‘xshatilmoqda. Bu vodiy jism bilan — oyoqda yurib o‘tilmaydi, balki qalb bilan, qalbdagi yonish bilan behud bo‘lib (o‘zlikni yo‘qotib) hay-haylab o‘tiladi. Ikkinchi misradagi nayiston qamishzor ma‘nosini beradi. Chunki nay qamishdan yasaladi. Bularni bilganimizdan so‘ng baytning ma‘nosi bir qadar oydinlashganday bo‘ladi: bir kecha ishq vodiysidan bexud bo‘lib, hay-haylab o‘tdim va shu o‘tishda xuddi qamishzor guliga o‘t qalaganday bo‘ldim.

Qamishzor guliga o‘t qalashning ma‘nosi nima? Tasavvuf istilohi (atamasi)ga ko‘ra nay ilohiy ishq bilan to‘lgan qalbnig ramzi, shundan kelib chiqsak, nayiston oshiqlar — ishq ahlidir. Demak, oshiqning o‘zini bilmas darajadagi o‘rtanib kuyishlari ishq ahliga ham ta‘sir etib, barchasining ommaviy yonishiga sabab bo‘ladi. Qamishzor guli bu yerda bejiz keltirilmagan. Qamish guli qurigandan keyin butunlay ochilib ketadi-da, arzimagan kichik uchqundan ham o‘t olib, gurullab yonadi. Qamishday o‘rtangan oshiqlar qalbida ishq guli ochilsa, bu gul boshqalarning salgina bo‘lsa-da kuyishidan alanganib ketadi. Ishqni vodiya, qalbdagi ohi bilan oshiqlar qalbini yondirishini qamishzorga o‘t qalashga o‘xshatib, *tashbeh* she‘riy san‘atini qo‘llagan.

Ofoqni bir lahzada kezdin na ajabdur,
Mino tog‘idin akkasifat hakkalab o‘ttum.

Ofoq “ufq”ning ko‘pligi, bu yerda butun olam, koinot ma’nosida kelgan. Mino – haj marosimi davomida zulhijja oyining 10- kuni (qurbon hayiti)dan boshlab 3–4 kun shaytonga tosh otiladigan va jonliq so‘yib qurbonliq qilinadigan tepalik. Yaratganga bo‘lgan ishq shunday bir qudratki, u orqali botinini (ichki olamini) poklagan oshiq olamlarni bir lahzada kezib chiqsa, ajablanarli emas. Hakkaning bir sakraganichalik vaqt oralig‘ida hojilarning butun haj davomida qiladigan amallarini bajarib, shaytonni zabun holiga keltirib qo‘yadi. Ushbu holatni shoir *mubolag‘a* (bo‘rttirib, oshirib tasvirlash) hamda *tashbeh* (hakkaga o‘xshatish) orqali ifodalaydi. Keyingi baytda ham *tashbeh* bor, ya’ni oshiq parvonaga o‘xshatiladi:

Ottim fash-u dastorini devonalig‘ aylab,
Parvonasifat jonimi o‘tqa qalab o‘ttum.

Fash – sallaning pechi, dastor – salla. Parvona olov atrofida aylanib, kuyishdan tiyilmaydi. Oshiq ham parvona kabi o‘zini ishq o‘tiga uradi. Olovga o‘zini otish – bu devonalik belgisi. Devonada esa na dastor va na uning pechi qoladi.

Keyingi to‘rt baytda o‘tkinchi dunyoga tasavvuf ahlining munosabati aks etgan.

Bildimki, vafosi yo‘q ekan ushbu jahonni,
Mardona bo‘lib, balki, etak siltalab o‘ttum.

Olamning vafosi yo‘q, buni anglab undan etak siltay olgan odamgina haqiqiy mard(ona) – Ollohning do‘sti bo‘ladi.

Dunyo yasanib, jilva qilib oldimga keldi,
“Borg‘il nariga!” – deb ketig‘a shattalab o‘ttum.

Mardonalargina yasanib, jilva qilib kelgan dunyoning ketiga shattalab urib, o‘zidan nari haydaydi. Nafs bandalari esa dunyo ketidan quvadi, uning uchun butun umrini sarf etadi. Ushbu baytda she‘riy san‘atlardan jonlantirishning *tashxis* ko‘rinishi (ya’ni shaxsga xos xususiyatlarning jonivorlar va narsalarga ko‘chirilishi) qo‘llangan: dunyo odam kabi yasanib, jilva qilib mardona so‘fiy oldiga keladi.

Bildimki, oni dushmani makkorai ayyor,
 “Lo!” – tirnog‘i birla yuzini tirmalab o‘ttum.

Yasanib, jilva qilib Haq oshig‘ini o‘ziga qarata olmagan dunyo endi ayyor, makkor dushman qiyofasida gavdalanadi. U o‘z domiga ilintirish uchun turli makr, ayyorliklar qila boshlaydi. “Lo” arabcha so‘z bo‘lib, “yo‘q” degani. Ya‘ni uning bu hiylalariga ham oshiq yo‘q deb javob beradi. “Lo” so‘zi arab yozuvidagi *lom* hamda *alif* harflaridan iborat. Bu ikki harf uchli bo‘lib, uchidan o‘ng tomonga biroz tirnoq chiqarib yoziladi. Yozuvdagi shu ko‘rinishdan foydalanib, shoir kitobat (harfiy) san‘atini yuzaga keltirgan.

Mardoni Xudo dediki: “Dunyo mayi achchig‘“,
 Achchig‘lig‘ini bilmak uchun bir yalab o‘ttum.

Dunyo mayi – tiriklik, istiqomat tarzi, uning achchigliqi esa murakkab va qiyinligida namoyon bo‘ladi. Uni bir yalash – insonning bitta umrni yashab o‘tishi. Xudoning mardlari (do‘stlari) dunyo mayi achchiq, ya‘ni hayot yo‘li murakkab, unda to‘g‘ri yo‘lni topish yanada qiyin deyishadi. Aslida bularning bari inson uchun bir sinov. Sinovdan o‘tish uchun odam bir yashab (bir yalab) o‘tishi lozim.

Navbatdagi ikki baytda tasavvufdagi bosh masala – nafsni yengish, uni bo‘ysundirish yo‘llari ko‘rsatiladi:

Nafs kofiri birla tun-u kun qildim urushni,
 Tanho qilichi birla urub, qiymalab o‘ttum.

Xomush pichog‘in har dam oning bo‘g‘ziga qo‘ydim,
 Cho‘g‘ naysasi birla ko‘zini nayzalab o‘ttum.

Tashbeh yo‘li bilan nafsni kofirga, tanholikni qilichga, xomushlikni pichoqqa o‘xshatadi shoir. Kofir deb Yaratganning yo‘liga yurmagan, amriga zid amallar qilganlarga aytiladi. Nopok nafs Xudoning amridan bo‘yin tovlaydi, insonni kufirga boshlaydi. Shu bois tasavvufda eng katta jihad insonning o‘z nafsni bilan jangidir deyiladi. Bu jangda g‘olib bo‘lish uchun nima qilish kerak degan savolga shoir shunday javob beradi:

nafs bilan tinimsiz urush holatida bo‘lib, uni tanholik qilichi bilan qiymalash, xomushlik pichog‘i bilan bo‘g‘izlash va cho‘g‘dan nayza qilib, ko‘zini nishonga olish kerak.

Devonai Mashrab, bu so‘zung dardga davodur,
Oshiq elining ko‘nglig‘a bir o‘t qalab o‘ttum.

Devona so‘zi oshiq ma‘nosida kelgan. Mashrabda oshiqlik aql-u hushni ishg‘ol qilgani uchun devonalik darajasiga ko‘tarilgan. Bunday oshiqning so‘zi ishqsizlik, g‘aflat, dunyoparastlik kabi dardlarga davo bo‘lishi muqarrar. Bu so‘zlar ishq ahli ko‘ngliga doimo o‘t qalab o‘tadi. Baytda *o‘t* so‘zi ko‘chma ma‘noda qo‘llangan. Ifoda to‘liq shaklda *o‘t kabi ishqni yoqdim* ma‘nosini ko‘zda tutadi. Demak, bu o‘rinda istiora san‘ati qo‘llangan.

* * *

Agar oshiqlik‘im aytsam, kuyub jon-u jahon o‘rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi¹ ul xonumon o‘rtar.

Kishig‘a ishq o‘tidin zarraye yetsa, bo‘lur giryon,
Bo‘lub besabr-u betoqat, yurak-bag‘ri chunon o‘rtar.

Nechuk toqat qilay, do‘stlar, bu dard ila bo‘lub hayron,
G‘amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig‘on o‘rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,
“Nigoro!” deb oting aytsamki, shavqingdin zabon o‘rtar.

Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko‘zum giryon, so‘ngaklarni nihon o‘rtar.

Na qattig‘ kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo‘lmoq,
Mening ohim o‘tig‘a bul zamin-u osmon o‘rtar.

Yurakda dard-u g‘am qat-qatki, menda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishq bayon o‘rtar.

¹ Taqi – tag‘in, yana.

Bu dard ila xarob o‘ldum, kelib holimni so‘rmassan,
Unum chiqsa yurakdin, bu tan-u jon, ustixon o‘rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig‘a solma,
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o‘rtar.

“O‘rtar” g‘azalining tahlili

“O‘rtar” radifli g‘azali shoirning xalqimiz orasidagi eng mashhur ijod namunasidir. Siz bu qo‘shiqni radio, televideniye, kino (“O‘tkan kunlar”) orqali yoki konsert dasturlarida eshitgansiz, albatta. Undagi xazin ohang, mungli tuyg‘u hamda ijrodagi mahorat dilingizni rom etgan bo‘lsa ajab emas. Bunday mumtoz qo‘shiqlar yoshidan qat’i nazar har bir kishi qalbining tub-tublarigacha yetib boradi, uning ma’naviy olamidan muqim joy oladi. Shu bois umrining qaysi davrida bo‘lsa ham o‘zbek kishisi mashhur bu qo‘shiqni eshitgan sari eshitgisi kelaveradi. Lekin, bilingki, mashhurligi g‘azal faqat go‘zal bir qo‘shiq bo‘lgani uchungina emas, ayni paytda, ilohiy ishqning sodda tilda bayon etilgan g‘oyat ehtirosli va mukammal ifodasi bo‘lganligi uchun ham suyuqlidir. Qalbingizga quloq soling-a, dilbar bir qo‘shiq va ilohiy ishqning ifodasi bo‘lgan bu g‘azalning ma’nosini bilgingiz kelyaptimi? Unda, keling, birgalashib g‘azal tahliliga tutinamiz.

Agar oshiqlig‘im aytsam, kuyub jon-u jahon o‘rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o‘rtar.

Birinchi misrada “jon-u jahon” so‘zlarining yonma-yon joylashishida tadrij ko‘zga tashlanadi. Agar oshiqlik sinoati aytilsa, jon — kishining o‘zi kuymoqqa do‘nadi, bir jon nima bo‘libdi, balki butun borliq — jahon o‘rtanadi. O‘rtanish darajasi jondan jahonga ko‘tarildi. Bilmoq kerakki, “jon-u jahon”ga juft so‘z sifatida (xuddi qo‘y-u qo‘zi, gul-u lola kabi) qaramaslik kerak. Aks holda, radifdan oldingi ifodani jon va jahon (o‘rtanadi) tarzida xato tushunishga olib keladi. Aslida bu yerda, yuqorida aytilganidek, avval jon kuyib va yana jahon ham o‘rtanib ketadi ma’nosi ifodalangan. Ikkinchi misrada esa bu ko‘lam yanada kengayadi. Jon-u jahonning o‘rtanishiga sabab bo‘layotgan oshiqlik asosi bo‘lmish ishq sirining bayoni xonumonni o‘rtab yuboradi. Xonumon — bor-yo‘q, turmush, uy-joy kabi ma’nolarni

anglatadi. Ko‘pincha she‘riyatda oshiqning turmushi, bor-yo‘g‘i, ro‘zgor asboblari jamini anglatadi. Shu ma‘noda tushunsak, birinchi misrada jondan jahonga ko‘tarilgan miqyosdan tadrijga zid ravishda kishi turmushi, uning bor-yo‘g‘i darajasiga qaytish bo‘ladi va bu g‘azalning badiiy mantiq‘iga putur yetkazib, Mashrabning badiiy mahoratiga soya solgan bo‘lardi. Ammo bu yerdagi “xonumon” so‘zi oshiq borlig‘i emas, balki Xoliq – Olloh yaratgan borliq: yer, osmon, sayyoralar, arsh, kursi va boshqa ilohiy xilqatlar ma‘nosida kelgan. “Taqi”, “ul” so‘zlari ham shu ma‘noga ishora qilmoqda. Shu taxlit tushunsak, o‘rtanish jondan jahonga, jahondan Ollohning butun yaratilari miqyosiga tadrijan yuksaladi va biz muallifning xayolot va mushohada dunyosiga qoyil qolamiz. Keyingi baytdan bu ishq sirri bayon etila boshlaydi.

Kishig‘a ishq o‘tidin zarraye yetsa, bo‘lur giryon,
Bo‘lub besabr-u betoqat, yurak-bag‘ri chunon o‘rtar.

Sirlardan biri shuki, ishq – bu o‘t. Baytning birinchi misrasidagi “zarraye” so‘zi birgina zarra ma‘nosini beradi. Shu misradagi “giryon” - yig‘i, giryon bo‘lmoq – yig‘lamoq deganidir. Ya‘ni ishqdan kishiga zarra bir uchqun yetar bo‘lsa, giryon – yoshi ko‘zdan tinimsiz oqadi. Keyingi misrada ana shu ishq zarrasi uni besabr, betoqat qilib, yuragini chidab bo‘lmas darajada o‘rtab yuborishi bildiriladi. Baytda ma‘naviy she‘riy san‘atlardan tanosub qo‘llangan. Ishq o‘ti – giryon – besabr-u betoqat – yurak-bag‘ir – o‘rtar so‘zlari tanosub “ipi” bilan o‘zaro mazmunan bog‘langandir. Ayni paytda yig‘lash (bo‘lur giryon), besabr-u betoqat bo‘lish, oshiq yurak-bag‘rining chunon o‘rtanishida ruhiy holatning kuchayib borishi kuzatiladiki, bu yerda ham tadrij san‘atiga guvoh bo‘lamiz.

Nechuk toqat qilay, do‘stlar, bu dard ila bo‘lub hayron,
G‘amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig‘on o‘rtar.

Yana bir ishqning siri oshiqdagi betoqatlik bilan bog‘liq. Ishq dardi ajib holatlarni yuzaga keltiradiki, oshiq o‘zidagi holatlardan o‘zi hayron qoladi. Bu o‘t (ishq) ichida oshiqni g‘am bir tomondan, alam ikkinchi tomondan azoblasa, boshqa tomondan fig‘on yuragini o‘rtaydi. Shu o‘rinda sizda savol tug‘ilishi mumkin: g‘am va alam bir narsa emasmi? Aksar

hollarda bu ikki soʻzga maʼnodosh (sinonim) sifatida qaraladi. Lekin doim ham unday emas, xususan, ushbu baytda. Gʻam intilinayotgan, oldindagi hali erishilmagan maqsad bilan, alam esa ayni paytdagi yoki oldingi holat, voqelik bilan bogʻliq kechinmalardir. Oshiq Yorga yetish gʻami bilan yashaydi (intilinayotgan, hali yetishmagan tilagi), lekin ayni paytda Undan ayriliq tufayli alam chekadi (ayni paytdagi holati). Bu ikki azobli tuygʻudan koʻngilda bir figʻon paydo boʻladiki, yurakni oʻrtay boshlaydi. Baytda bir-biri bilan mazmunan bogʻlangan dard bilan hayron boʻlish, gʻam, alam, figʻon soʻzlari tanosub sanʼatini hosil qilmoqda.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firogʻingda,
“Nigoro!” deb oting aytsamki, shavqingdin zabon oʻrtar.

Bu baytda Mashrab oʻzini bexonumon – xonumoni yoʻq deb ataydi. Xonumon endi, yuqorida aytilganidek, odamning bor-yoʻgʻi, turmush ashjolari, uy-joyi kabi maʼnolarda kelgan. Lirik qahramon Yaratganning ishqida bor-yoʻgʻidan kechgan, Yorning firoqi uni davomli kuydiradi. Ichki bu kuyishdan oshiq betoqat boʻlib, bir joyda turolmaydi. Betoqatlikdan oʻz moddiy borligʻi – xonumoni koʻziga koʻrinmay qoladi va boshqa bir gʻazalida aytganidek, “koʻh-bakoʻh, sahro-basahro” (togʻma-togʻ, sahroma-sahro) kezib yuradi. Ichki kuyish, betoqatlik benihoya zoʻrayganda yuragining tub-tubidan “Nigoro” degan nido qaynab chiqsa, bu nidoning shavqidan shu soʻzni aytayotgan zabon oʻrtanib ketadi.

Qay-u til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u koʻzum giryon, soʻngaklarni nihon oʻrtar.

Oshiqdan uni shu koʻyga solgan maʼshuqa taʼrifini soʻraydilar. Lekin unda yorning vasfini qilgani til qani? Chunki oshiqning butun borligʻini asir etgan Yor (Olloh) taʼrif-u tavsifdan ustun zotdir. Shuning uchun til Uning vasfida lol, bu ilojisizlik tufayli koʻz alamli yoshlar toʻkadi. Dardini tashiga chiqarolmagach, bu azob oshiqning ichki olamini zabt etadi. Xalqimizdagi “Suyagigacha singib ketgan” iborasini bilasiz. Shoir ana shu iboradan ruhiy holat ifodasida unumli foydalangan. Ishq dardi oshiqning suyak-suyagiga singib, uni nihon – yashirincha oʻrtay boshlaydi.

Na qattiq kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo‘lmoq,
Mening ohim o‘tig‘a bul zamin-u osmon o‘rtar.

Bu baytda yuqorida aytilgan alamga sabab voqelik tilga olinadi. U oshiqning Yor visolidan judo bo‘lgan kunidir. Shoir uni “qattiq kun” deydi. “Qattiq” so‘zi bu yerda alamli, hasratli so‘zlarining matniy ma‘nodoshi bo‘lib kelmoqda. Bu alam, hasratdan oshiqning o‘tli ohlari ko‘kka o‘rlaydi va bu ohdan uni qurshab turgan borliq – zamin-u osmon o‘rtanib ketadi. Xolbuki, bu o‘t lirik qahramon ichki olami bilan to‘la dard, g‘am va alamdanda bir zarra edi xolos.

Yurakda dard-u g‘am qat-qatki, menda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishq bayon o‘rtar.

Xo‘sh, zamin-u osmonning o‘rtanishiga sabab bo‘lgan og‘riqli kechinmalarining hajmi yoki miqdori qancha edi? Buni oshiqning o‘zi ham bilmaydi. Bilgani – dard-u g‘am yurakda qat-qat. Yana bir narsa aniqki, ulardan kelayotgan azobdan unda toqat qolmagan. Bu tabiiy, albatta. Olamlarni o‘rtaydigan dard shu borliqning g‘oyat kichik bir bo‘lagi bo‘lmish oshiqni betoqat qiladi. Lekin gap dard-u g‘amning miqdori, hajmida emas, balki harorati va kuchida. Shunchalar haroratli va kuchliki, ularning bir zarrasinigina tiliga chiqara olsa, ishq bayonining o‘zi o‘rtanishga tushardi. Baytda saj – ichki qofiya qo‘llangan, ya‘ni birinchi, ikkinchi va uchinchi ruknlarning yopilishida qat-qat – toqat – bul vaqt so‘zlari qofiyadoshlikni yuzaga keltirib, misralarga o‘zgacha musiqiylik baxsh etgan.

Bu dard ila xarob o‘ldum, kelib holimni so‘rmassan,
Unum chiqsa yurakdin, bu tan-u jon – ustuxon o‘rtar.

Qayd etilgan harorati va kuchi cheksiz, ayni paytda chorasiz darddan oxir-oqibat oshiq xarob bo‘ladi. Jismoniy zaiflik yoki ruhiy tushkunlikda chetdan dalda, mehr yoki e‘tibor kutish insonga xos xususiyat. G‘azaldagi lirik qahramon boshqalardan emas, o‘zini xarob etgan dard sababchisi bo‘lmish Yordan e‘tibor kutadi. Shu umidda Yorga murojaat qilib yurakdan bir un chiqarsa, bu ovoz tan-u jon uyg‘unligidagi ustuxon (qoq suyak) ko‘rinishga kelib qolgan oshiqning borlg‘ini o‘rtaydi.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig‘a solma,
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o‘rtar.

Islomiy aqidaga ko‘ra zamon oxir bo‘lgach, bironta ham tirik jon qolmaydi – barchasining joni olinadi. Keyin Allohning irodasi ila hamma jonzotlar bu dunyodagi amallarining hisob-kitobi uchun qayta tiriltiriladi va yaxlit tekis maydonga aylantirilgan yer yuziga to‘planadi. Ana shu qayta tiriltiriladigan kun Mahshar kuni, to‘planiladigan yer Mahshar maydoni deyiladi. Hisob-kitob qilingach, natijaga ko‘ra kimdir bihisht (jannat)ga, kimdir do‘zaxga yuboriladi. Mashrab ana shu haqiqatni nazarda tutib, Yorga murojaat qiladi: menga bergan bu dardni yana boshqa birovning boshiga solma. Shu dard tufayli o‘lgan edim, yana shu dard bilan qayta tirilaman. So‘ngaklardan sening ishqing ketmaydi, chunki ishq dardi, yuqorida aytili, mening suyak-suyagimga singib ketgan. Mahshar kuni Mahshargohda xuddi bu dunyoda nola qilganday bir oh ursam, hatto bihishti jovidon (abadiy jannat) ham o‘rtanib ketadi.

Endi o‘ylab ko‘ring: birgina oshiqning ohidan bihishti jovidon larzaga kelsa, bunday oshiqlar soni birdan ortsa, nimalar bo‘lishi mumkin? Albatta, buni tasavvur qilish qiyin. Yaxshisi, uning soni birdan ortmagani ma‘qul.

Mana, tahlil bilan tanishdingiz. Unda talqin qilingan dard – ishq dardi, lirik qahramon bo‘lmish oshiq Haq vaslini istab, izlab, unga yetishmaguncha bir nafas ham yonishdan, o‘rtanishdan to‘xtamaydigan o‘tli yurak sohibi. G‘azal esa o‘zini butkul unutib, butun borlig‘ini Haq vasliga badal qilgan oshiqlar qo‘shig‘idir.



Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun oshiqlik bayoni jonni kuydirib, jahonni o‘rtaydi?
2. Ishq o‘tidan yetgan bir zarra odamni qay holga tushirishiga diqqat qiling. Sababini izohlang.
3. **“Nechuk toqat qilay, do‘stlar, bu dard ila bo‘lub hayron, G‘amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig‘on o‘rtar”** baytini tahlil qiling. Oshiqni o‘rtayotgan tuyg‘ularni sanang.
4. Yorning nomi zikr etilganda zabonni o‘rtaydigan shavqni qanday anglaysiz?
5. **“Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay, Tilim lol-u ko‘zum giryon, so‘ngaklarni nihon o‘rtar”** baytidagi

sharhi hol usulini izohlang. Bu bayt g‘azalning ikkinchi va uchinchi baytlari bilan qaysi jihatdan uyg‘un?

6. G‘azalning qaysi baytlarida saj’ ichki qofiya qo‘llanganini aniqlang va ularning she‘r badiiyatida tutgan o‘rnini izohlang.

7. G‘azalning oxirgi ikki baytini tahlil qiling. Ularda ifodalangan mazmuni sharhlang.

8. G‘azalni yod oling.

Nazariy ma’lumotlar

TASAVVUF VA TASAVVUF ATAMALARI

Tasavvuf ta’limotining maqsadi komil insonni tarbiyalash ekanligini Siz yaxshi bilasiz. Bu ta’limot bo‘yicha inson komillikning shariat, tariqat, haqiqat deb ataladigan bosqichlaridan o‘tishi kerak. Shariat barcha musulmonlar uchun xos va majburiy bo‘lib, u islomiy hukmlar, yo‘riqlar majmuidir. Shariatni qabul qilmagan kishi musulmon bo‘lmaydi, binobarin, komillik yo‘liga birinchi qadamni ham qo‘ymagan hisoblanadi. Shariatni haq deb bilgan odam o‘zi xohlab poklanish, komillik yo‘li bo‘lmish tariqatga kirishi mumkin. (Tariqat so‘zining “yo‘l” degan ma‘noni anglatishi eslatildi.)

Tariqatga kirgan odamni so‘fiy, solik, murid, darvesh deb ataydilar. So‘fiy tariqatda **pir (murshid)**ga qo‘l beradi (qo‘l berish — bu poklanish uchun ahd) va unga (pirga) inon-ixtiyorini topshiradi, uning ko‘rsatmalariga so‘zsiz bo‘ysunib, poklanish amallarini bajaradi. Tasavvufdagi holat, poklanish vositalari, tushunchalarini ifodalash uchun maxsus istiloh (atama)lar qo‘llanadi. Yuqorida kelgan tariqat, pir, so‘fiy kabi so‘zlar ham tasavvufiy istilohlardir. Tasavvuf adabiyotini, xususan, she‘riyatini tushunish uchun istilohlar ma‘nosini bilish zarur bo‘ladi. Yo‘qsa, asarlar tushunilmaydi yoki yanglish, hatto, ko‘zda tutilganiga zid, teskari ma‘no uqilishi mumkin.

Tasavvuf adabiyotida **ishq** markaziy tushunchadir. (Ishqqa oldin berilgan ta’rifni eslang.) Boshqa tushunchalar, obrazlar, vositalarning hammasi undan kelib chiqadi yoki unga bog‘lanadi. Ishq ikki turli bo‘ladi: majoziy ishq — Olloh tomonidan yaratilgan barcha narsaga: insonga va butun

borliqqa nisbatan muhabbat, mehr, ardoq, anglashlik tuyg‘usi; haqiqiy ishq — boshqa hech narsaga qiyos qilinmaydigan Yaratganni tuyish, anglash va U bilan birlik tuyg‘usi. Ishq qo‘yilgan ma‘shuq tasavvuf adabiyotidagi **Yor** (mahbub(a), ma‘shuq(a), jonon, do‘st, rafiq) obrazidir.

Majoziy ishqdagi yor inson bo‘lib, payg‘ambar Muhammad alayhissalom yoki tariqat peshvosi piri komil nazarda tutiladi. Shuningdek, ota-ona, farzand, ayniqsa, go‘zal ayol yoki ko‘rkam yigit ham yor obrazi orqali beriladi. Haqiqiy ishq nuqtayi nazaridan esa u Oллоhdir. Ishq ko‘pincha may, sharob istilohlari orqali ifodalanadi. May (ishq) quyiladigan kosa, jom, qadah kabi idishlar ko‘ngil (so‘fiy qalbi) ramzlaridir. Ko‘nglida (idishda) ishq (mayi) to‘la oshiq (mast, xumori)lar to‘planadigan joy esa pir (murshid) dargohi bo‘ladi.

Bu yerda ular muridlarini tarbiyalaydi, nafs qutqularidan xalos bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatish hamda ilohiy haqiqatlardan ogoh qilish bilan so‘fiylar qalbida ilohiy ishq uchqunlarini yolqinlatadilar. Bunday pirlar dargohi tasavvufda mayxona (butxona, xarobot) istilohlari bilan yuritiladi. Ishq may ekan, ishq borlar to‘planadigan joyning mayxona atalishi tabiiy. Mayxonada odatda may tarqatuvchi, mayni quyib ulashuvchi shaxs bo‘ladi.

Tasavvuf mayxonasi (dargohi)da ma‘rifat ulashuvchi, ishq sirlarini talqin etuvchi piri komilga soqiy istilohi qo‘llangan. Ishq ahli (oshiq) deganda asosan so‘fiylar tushunilsa, vasl ahli deganda komillikka yetishgan, avliyolik siyratini kasb etgan zotlar nazarda tutiladi. Lab — (haqiqiy yoki majoziy) yorning kalami, ko‘rsatmalari, purma‘no so‘zlari; bo‘sa — oshiqning (haqiqiy yoki majoziy) yor visolidan bahramandligidir.

Nasroniy diniga mansub kishi ma‘nosini bildiruvchi tarso istilohi tasavvufda o‘zini Oллоh ishqiga yetishmoqqa baxshida etgan inson ma‘nosida qo‘llanadi. Xaloyiq (xalq, mardum, el) esa haqiqiy ishqdan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko‘ngil bergan nafs bandalari. **Dunyo** esa so‘fiylar nazdida nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqelik.

Ta‘kidlash joizki, tasavvufiy ruhda yozilmagan mumtoz asarlarda ushbu so‘zlar yuqoridagidek istilohiy mazmunda emas, o‘z lug‘aviy ma‘nolarida tushunilishi kerak.

MUHAMMAD RIZO OGAHİY

(1809—1874)



Shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy xalqimiz tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan serqirra iste’dod sohibidir. Ayni paytda xalqimiz o‘tmishini haqqoniy aks ettirgan bir necha nodir asarlari bilan tarix ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan olim sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, uning juda ko‘plab tarixiy va badiiy asarlarni fors tilidan ona tilimizga o‘girib, ularni xalqimizning ma’naviy merosiga aylantirishdagi xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Ogahiy 1809- yili 17- dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu yerda boshlang‘ich ma’lumotni oladi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siymosi bo‘lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo‘ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o‘rgandi. 1829- yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o‘rniga Ogahiyning mirob (suv ishlari boshqaruvchisi) etib tayinlaydi. Suv tanqis bo‘lgan Xorazmda miroblik nihoyatda mas’uliyatli vazifa bo‘lib, uni ishonchli va halol odam boshqarishi lozim edi. Shu davrdan Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati boshlanadi. U davlat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to‘xtatmadi. Saroy tarixchisi vazifasini ham olib borayotgan Ogahiy 1839- yilda Munis boshlab qo‘ygan “Firdavs ul-iqbol” (Iqbol bog‘i) asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825- yilgacha bo‘lgan tarixini yozib tugatdi. 1844- yilda xonlik tarixining shu yilgacha bo‘lgan voqealarini o‘z ichiga olgan “Riyozi ud-davla” (Saodat bog‘lari) kitobini tamomladi.

1845- yildan Ogahiy hayotidagi og‘ir va musibatli davr boshlanadi. Shu yili miroblik ishlari bilan safarda yurganda, tasodif tufayli oyog‘i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidayoq to‘shakka bog‘lanib qoladi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo‘ldoshidan ham ajraladi. 1857- yilda miroblikdan iste‘fo berishga majbur bo‘ladi. Lekin bu musibatlar oldida u chekinmadi. Kuchli iroda, hayotni sevishi Ogahiyning ijodga, izlanishga undadi. 1846- yilda “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”), 1847—1855- yillarda esa “Jome ul-voqeoti sultoniy” (“Sultonlik voqealarining yig‘indisi”) tarixiy asarlarini yozdi. Tarjimalar bilan shug‘ullanib, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, Badriddin Hiloliyning “Shoh va gado”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” va boshqa qator asarlarni o‘zbekchalashtirdi. XIX asrning oltmishinchi yillarida “Gulshani davlat” va “Shohidi iqbol” (“Baxt shohidi”) tarixiy asarlarini yozdi. Ogahiy 1874- yili vafot etdi.

Ogahiyning asosiy she‘riy merosi ona tilida yozilgan bo‘lib, “Ta‘viz ul-oshiqin” devonida to‘plangan. “Ta‘viz ul-oshiqin” — “Oshiqlar tumori” degani. Devon ma‘rifatparvar shoh va shoir Feruz — Muhammad Rahimxon Soniy (ikkinchi)ning taklifi va talabi bilan tuzilgan. Bu devon XIX asr o‘zbek she‘riyatining benazir namunasi hisoblanadi. “Ta‘viz ul-oshiqin”da shoirning yigirmadan ortiq janrdagi salkam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ularning 1300 misradan ortig‘i fors tilida bitilgan bo‘lib, bu Ogahiy zullisonaynlik an‘anasini munosib davom ettirganligining yorqin dalilidir.

Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she‘rlar joy olgan. Lekin ularning aksariyati ishqiyl mavzudadir.

Shoir ijodida tabiat tasviriga bag‘ishlangan bir qator g‘azallar bor. Qish va bahor tasviri chizilgan bu she‘rlarda Ogahiyning peyzaj ustasi, o‘tkir nigoh egasi ekanligi namoyon bo‘ladi. Fasl tarovati, go‘zalligini berishda shoir tashbih, tashhis (jonlantirish), sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qo‘llaydi. “O‘yla yetkurdi jahong‘a ziynat-u oro bahor” g‘azalida o‘qiymiz: ***“Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon, Qildi sahrog‘a tarovat o‘zgacha paydo bahor”.***

Suvni “obi hayvon” — tiriklik suviga o‘xshatish qadimdan

bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi. Tashxis (jonlantirish) san'atini mohirona qo'llagan shoir tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatadi. Bahor ana shu suzuk suvi bilan sahroga o'zgacha tarovat bag'ishlagan. Keyingi misralarda bahoriy yel rayhonlarga Masihdek "toza jon" ato qilgani, gul yuzi ochilib, qumri-yu bulbullarning unga vola-yu shaydo bo'lganlari, lola soqiysi qo'lidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar orqali bahor ko'tarinki zavq, hayajonli shavq bilan vasf qilinadi. Bu go'zalliklarni madh etgan shoir uni g'animat bilib, qadrlashga chorlaydi: ***"Gulshan ichra bazm etib jomi tarab no'sh aylali Kim, g'animatdur necha kun, ey qadi ra'no, bahor"***. Shuningdek, "Baland aylab quyoshg'a poya navro'z", "Bahor ayyomi bo'lmish o'ylakim bog'i Eram sahro" g'azallarida ham bu ko'rkam faslning beqiyos nazokatlari kuylanadi. "Ilohi, har kuning navro'z bo'lsin" g'azalida bu she'r yaratilgandan buyon barchaning diliga jo bo'lgan ohorli yangi yil tilaklari izhor etilgan:

Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun,
Hamisha tole'ing feruz bo'lsun.

Bo'lub ayyomi navro'zing muborak,
Zamiring inbisot anduz bo'lsun.

"Ta'viz ul-oshiqin"dagi ishqiy g'azallar nafaqat Ogahiy ijodining, balki butun o'zbek mumtoz adabiyotining sara namunalari hisoblanadi. "Yuzung ochkim, quyosh sadqang bo'lub boshingdin aylansun", "Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina", "Ey sho'x, ko'zi qoshinga olam gado, man ham gado" g'azallari Ogahiyning yuksak badiiy mahoratini, chinakam san'atkor shoir ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, "Ustuna" radifli g'azali o'zining jozibasi, badiiy kashfiyotlarga boyligi bilan ajralib turadi: ***"Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustuna, Qatlim uchun nas keltirur, "nun" eltibon "sod" ustuna"***.

Arab alifbosida "nun" qoshga, "sod" ko'zga o'xshashligidan foydalanib, shoir yor go'zalligining o'ziga xos tasvirini yaratadi. "Nun"ni "sod"ning ustiga qo'yilsa (ya'ni avval "nun", keyin unga qo'shib "sod" yozilsa), "nas", ya'ni "hukm" so'zi hosil bo'ladi. Bu hukm (nas)ga ko'ra oshiq qatl etilishi kerak.

Chunki “nun”ga o‘xshash mushk rangli qora qosh bilan “sod”ga o‘xshash ko‘z o‘zlarining yor yuzidagi ko‘rinishi (hay’ati) bilan bu hukmni chiqarganlar.

Ogahiygacha ko‘z-u qoshni mazkur harflarga tashbeh qilish, chashm (ko‘z)ni jallod deyish an’anaviy tasvir edi. Lekin harflardan so‘z yasab va uni mazmunga, tasvirga tadbiq etish — bu yangilik edi. Shoirning ko‘p g‘azallarida mana shunday yuksak badiiyatga yo‘g‘rilgan baytlar uchraydi. E’tiborli jihati shundaki, asosan ishqiy mavzudagi bunday g‘azallar bag‘riga falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy mazmun ham ustalik bilan singdirib yuboriladi. Ba’zan g‘azallarda yor timsoli orqali, xususan, lirik qahramonning unga murojaatida shohga xos xususiyatlar aks etadi. Masalan: ***“Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini, Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina”*** yoki “Aylansun” radifli g‘azalidagi

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig‘a bergil,
Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun.

kabi baytlarda buni kuzatish mumkin. Shuningdek, shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari devondagi muxammas, musaddas, ruboiy, tarji‘band va qasidalarida ham u yoki bu darajada o‘z aksini topgan. Xususan, “Dahr uyi bunyodikim, suv uzradur, mahkam emas” tarji‘bandi tasavvufiy mazmunga yo‘g‘rilgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi asardir. Tarji‘bandda dunyo omonat binoga, bo‘yi, vafosi yo‘q gulshanga, jafokor tuban ayyoraga o‘xshatiladi va insonni unga ko‘ngil berib, aldanib qolmaslikka chaqiradi.

“Qasidai nasihat” esa Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlarini va burch-vazifalari borasidagi mulohazalari bayon etilgan pandnomadir. Odatda, qasidalarda biron-bir voqea yoki shaxs ulug‘lanadi, har tomonlama vasf qilinib, benuqson, ideal qiyofada tasvirlanadi. Ogahiyning qasidasi esa odatdagi maqtovlar tizmasidan iborat bo‘lib qolmadi. U mazkur asarni yozishda o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygan edi. Shunga ko‘ra adib qasida vositasida ko‘pni ko‘rgan donishmand, umr mazmunini anglagan faylasuf sifatida yosh xonga nasihatlar qiladi, davlatni boshqarish san’atidan saboq beradi. “Qasidai nasihat” adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo‘lib qoldi.

Ogahiyning kichik she'riy janrlar: ruboiy, tuyuq, ta'rix, fard kabi shakllarda ham benazir ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, musoviyattarafayn (ikki tomonlama teng, bir xil) shaklida yozilgan she'ri adabiyotimiz tarixida juda kam uch-raydigan hodisalardan deyish mumkin. She'rni ikki xil – odatdagi yon tarafga hamda yuqoridan pastga tomon o'qisangiz, bir xil matn hosil bo'laveradi. Bu she'r bilan tanishing.

Ul sho'xki	ochildi	xat-u	ruxsori
Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori
Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man man
Ruxsori	gulnori	man man	zori

Ogahiy salaflari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi mumtoz adabiyotimiz yorqin siymolari an'analarini davom ettirdi, rivojlantirdi, yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitdi. Uning ijodi shoirlarimizning bir necha avlodi uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.



Savol va topshiriqlar

1. Ogahiyning yetuk inson va iste'dodli adib bo'lib yetishuvida u voyaga yetgan muhitning ahamiyati to'g'risida mulohaza yuriting.
2. Shoirning devoni nima uchun "Ta'viz ul-oshiqin" – "Oshiqlar tumori" deb atalishini izohlang.
3. Ogahiyning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rnini qanday baholaysiz?

LIRIKA

G'AZALLAR

Baland aylab quyoshga poya¹ navro'z,
Ko'tardi yer yuzidini soya navro'z.

¹ Poya – qadr, daraja, bosqich.

Kelib fayz-u nishot-u¹ aysh birla,
Muhayyo qildi elga voya² navro‘z.

Tarab tiflin³ tug‘urdi dahr zoli⁴,
Ango bo‘ldi magarkim doya navro‘z.

Qilibdur mahliqolarning yuzini
Latofat mus’hafig‘a oya navro‘z.

Kiyib ahli g‘in⁵ yuz rang xil‘at,
To‘lo boshdin ayoq peroya⁶ navro‘z.

Hama o‘ynab olib qo‘lg‘a yumurta⁷,
Mening ilgimda yoqtur xoya⁸ navro‘z.

Diramdur⁹ moyasi ishrat ulusg‘a¹⁰,
Vale men bo‘lmisham bemoya navro‘z.

Janobi shahg‘a keldim bu jihatdin,
Ko‘zim yoshig‘a toya-toya navro‘z.

Ki shoyad o‘zgalardek Ogahiyni
Tarabnok¹¹ ayladi beg‘oya navro‘z.

Mana, shoirning “navro‘z” radifli g‘azali matni bilan tanishdik. Bu she‘r tabiat lirikasining go‘zal namunasi sanaladi. Unda tashxis san‘atidan foydalangan holda shoir bu bahoriy ayyomni madh etadi. Oldingi mavzularni o‘rganish, lirik asarlarni tahlil qilish asnosida tashxis haqida yetarli tushunchaga ega bo‘ldingiz.

Dastlabki ikki baytda navro‘z ayyomi jonlantirilib, u quyoshni baland qadr va martabaga yuksaltirdi va bu bilan yer yuzidan soyani ko‘tardi, deb tasvirlanadi. U yurtga uch narsa: fayz, shodlik (nishot) va aysh bilan kirib keldi-da, bu uch xushbaxtlikni muhayyo qilib, ular bilan elni bahramand qildi. Mazkur baytlarda navro‘z o‘zidagi bor yaxshi narsalarni boshqalarga chin ko‘ngildan ulashayotgan va bundan o‘zi ham g‘oyat zavqlanayotgan tanti va saxiy kishiga qiyoslangan. Keyingi baytdagi tashxis ham yanada o‘ziga xosdir:

¹ Nishot — shodlik. ² Voya — 1) Muqaddima; 2) bahra; 3) kutilgan vaqt. ³

Tifl — go‘dak, chaqaloq. ⁴ Zol — kampir. ⁵ G‘ino — boylik. ⁶ Peroya — ziynat, bezak. ⁷ Yumurta — tuxum. ⁸ Xoya — tuxum. ⁹ Diram — dirham. ¹⁰ Ulus — xalq.

¹¹ Tarabnok — xursandlik.

Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ma'nosi aniqlab olinadi: tarab – shodlik; tiftl – bola, go'dak; tug'urdi – tug'di, dunyoga keltirdi; dahr – dunyo; zol – kampir. Demak, ushbu misralardan quyidagicha ma'noni uqish mumkin: Dahr (dunyo) kampiri shodlik chaqalog'ini tug'arkan (dunyoga keltirar ekan), navro'z unga doyalik qildi. Tashxis uchun tabiatdagi o'zgarishlar asos qilib olingan: dunyo otliq kampirning tug'ishi va unga navro'zning doyaligi. Shuningdek, tashbih bu san'at bilan baqamti qo'llangan. Shodlik – chaqaloq, chunki u boshlanayotgan bahor tufayli kishilar ko'nglida tug'ilib kelayotibdi. Dunyo – kampir, chunki u yaratilish jihatdan eng qadimiy. Navbatdagi baytda ko'klam go'zalligi islomiy tushunchalar vositasida ochiladi:

Qilibdur mahliqolarning yuzini
Latofat mus'hafig'a oya navro'z.

“Mus'haf” Qur'onga ishora bo'lib, bu muqaddas kitob shu nom bilan ham ulug'lanadi. Ikkinchi satrdagi “oya” esa oyat (Qur'on oyati) ning talaffuzdagi shaklidir. Shoir navro'ziy latofatni Mus'hafga tenglashtiradi. Bu – tashbih, lekin uni mubolag'a deb qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Ularning har ikkisi birday go'zal va muqaddas. Keyingi baytlarda peyzaj (tabiat tasviri) ijtimoiy mavzuga almashadi. Ularda badavlat odamlar (ahli g'ino)ning bu ko'ngilli ayyomda “yuz rang xil'at” (turli xil kiyimlar) kiyishi, boshdan oyoq ziynatlanishlari, turli ko'ngilocharliklar bilan zavqlanishlari bayon etiladi. O'tinch bilan shoh huzuriga kelishi mubolag'a bilan tasvirlanadi.

Janobi shahg'a keldim bu jihatdin,
Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z.

Moddiy yordam so'rab shoh huzuriga kelayotgan lirik qahramon o'z zabun ahvoliga shunchalar yig'laydiki, hatto o'zining ko'z yoshlariga toyib-toyib ketadi. Shu o'rinda **lirik qahramon** tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Ba'zan lirik qahramon shoirning o'zi bo'ladi. Masalan, Boburning hasbi hol karakteridagi she'rlarida bo'lgani kabi. Lekin ko'p hollarda lirik qahramon shoirning o'zi bo'lmay, balki kechinmalari, ruhiy

holati tasavvur qilinib, shoirning “men”i orqali tasvirlanayotgan ijodkor fantaziyasidagi qahramon bo‘ladi. Ushbu she‘rdagi nochor ahvoldagi lirik qahramon ham Ogahiyning o‘zi bo‘lmay, jamiyatdagi kambag‘alligi tufayli hamdardlikka loyiq bo‘lgan odamlardir. Bunday tasvirdan shoir ikki maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin. Birinchisi, mubolag‘a bilan o‘z holini bayon etib, xondan yordam olish bo‘lsa, ikkinchisi, xonning e‘tiborini jamiyatdagi nochor qatlamga qaratish, ularga ko‘mak berishni uyushtirish. Shoyad o‘zgalardek Ogahiy va Ogahiydek o‘zgalar tarabnok (xursand) bo‘lsa. Shu o‘rinda ham shoirning ijoddagi o‘ziga xosligi, betakrorligi ko‘rinib turibdi.

* * *

Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun “nas” kelturur “nun” eltibon “sod” ustina.

Qilg‘il tamosho qomati zebosi birla orazin,
Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvand shamshod ustina.

Noz-u adou g‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo‘lur bir odamizod ustina.

Man xastag‘a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko‘zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko‘ngul shom-u sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav‘i faryod ustina.

Boshimg‘a yoqqan g‘am toshin mingdin birich bo‘lmag‘ay,
Gardun¹ agar ming Besutun² yog‘dursa Farhod ustina.

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod³ ustina.

Ne jur‘at ila Ogahiy ochg‘ay og‘iz so‘z dergakim,
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina.

¹ Gardun — falak, taqdir. ² Besutun — 1) osmon; 2) Erondagi tog‘ nomi. ³ Bod — shamol.

“Ustina” radifli g‘azal tahlili

Ushbu g‘azal o‘zbek mumtoz adabiyotidagi eng mashhur asarlardan biridir. Unda yorning cheksiz go‘zalligi ta’riflanadi, lirik qahramonning ishqdagi o‘rtanishlari tasvirlanadi. G‘azalning birinchi baytidayoq Ogahiyning an’ana zaminida o‘ziga xos yangilik, badiiy kashfiyotga erishish iste’dodi namoyon bo‘ladi:

Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun “nas” keltirur “nun” eltibon “sod” ustina.

Maqta’da ma’shuqaning qoshi va ko‘zi ta’rif etilmoqda. “Mushkin” so‘zi ham qoralik, ham xushbo‘ylikni ifodalaydi. “Mushkin (qora va xushbo‘y) qosh” tuklari, “chashmi jallod” – jallod ko‘zlar ustida hay’at a’zolaridek saf tortishgan. Ko‘zning qatl etuvchi, jon oluvchi jallod sifatida tasvirlanishi an’anaviy holat. “Mushkin qosh” iborasi ham an’anaviy. Biroq mushkin qosh tuklarining hay’at sifatida jonlantirilishi va jallod ko‘zlar bilan ittifoq tuzdirilishi Ogahiyning ijodiy kashfiyotidir. Kashfiyotning qiyomiga yetgan hosilasi shundaki, qoshlar ko‘zlar bilan ittifoq tuzib, oshiqni qatl etish uchun hukm chiqaradilar. Buning badiiy ifodasi ham juda maroqli. Bunda shoir harfiy o‘yinlar san’atidan foydalanadi. Qoshning “nun” harfiga qiyoslanishi, ko‘zning esa “sod” harfiga taqqoslanishi ham adabiy an’ana. Lekin kamdankam san’atkor ushbu an’anani uddalab amalga oshirolgan. Boz ustiga, Ogahiy qosh va ko‘zning ittifoqini ifodalash uchun ularni (“nun” eltibon “sod” ustina) ostin-ustin joylashtiradi. Aslida ham qosh bilan ko‘z shunday joylashgan, hamjihat birikuvidan “nas” so‘zi vujudga keladi. Arabcha bu so‘z “hukm” degan ma’noni anglatadi. Baytning g‘azalxon uchun sirli va sehrli jihati ham shunda. Demak, qoshlar hay’ati jallod ko‘zga oshiqni qatl etish to‘g‘risida shafqatsiz hukm chiqarib beradi.

Qilg‘il tamosho qomati zebosi birla orazin,
Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvand shamshod ustina.

Ikkinchi baytning birinchi misrasida an’anaviy tasvir va ifodalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lekin shoir an’anaviy sifatlashlar bilan cheklanib qolmaydi. U o‘xshatish uchun seviklining bo‘yi bilan yuzidek yaxlit go‘zallikni tabiatdan topolmaydi. Shuning uchun bog’dorchilikdagi “payvand” usulini g‘azalga olib kiradi. Gul – yorning yuzidek yoniq va

chiroyli, lekin unda shamshod daraxtidagidek ko'rkam qomat yo'q. Shamshod – qishin-yozin, umrbod yam-yashil yashnab turadigan xushqomat daraxt. Biroq yorning gulgun chehrasidek unda gul ochilmaydi. Tabiatda gulni shamshodga payvand etib ham bo'lmaydi. Yorning qaddi shamshod va yuzining gul kabi ekanligi va ular bir vujudda mujassamligini o'quvchi ko'zi oldida gavalantirish kerak. Shunda shoir tasavvur qudratidan foydalanadi va g'azalxonga: “Agar shamshodning ustiga gul payvand bo'lganini ko'rmagan bo'lsang, bunday mo'jizani tabiatdan izlamay ham qo'yaqolgin-da, yorning zebo qomatiga yarashiq gulgun yuzini tomosha qil!” deya murojaat etadi.

Yuqoridagi baytlar, asosan, yor go'zalligini vasf etishga qaratilgan bo'lsa, 3-, 4-, 5- va 6- baytlar izhor uslubida bitilgan. Ularda lirik qahramon kechinmalari ifodalangan. Ushbu baytlarning bari mubolag'a san'ati bilan sug'orilgan.

Oshiqning faryod-u fig'on chekishicha, ma'shuqning noz-u adov-u g'amzasi odamzodning bardosh va saboti yetmaydigan darajada qasd etib, uning ustiga dam-badam ofat yog'diradi. Birinchi baytdagi qatlgar farmon olgan qotil ko'z yana jonlanadi, oshiqning xasta joniga tahlika solib, bedod ustiga bedod etadi. Boyagi gul yuz o'zining shavqi bilan shaydo ko'ngulni o'rtaydi va u kecha-yu kunduz bulbul kabi yuz navo, ming faryod chekadi. Mubolag'a misrama-misra kuchayib, oliy darajaga ko'tariladi. Ogahiy lirik qahramoni chekkan g'am yuklari shu qadar og'irki, agar falak Farhodning ustiga yana ming Besutun yog'dirsa ham, oshiq chekayotgan g'am yukining mingdan biricha bo'lmaydi. Besutun – Farhod qazigan afsonaviy tog'.

G'azalning 7-, 8- baytlarida oshiqona kechinmalar izhoridan chekiniladi. Falsafiy umumlashma ruhidagi baytlar bitiladi. Ular birinchi baytdan kam bo'lmagan shohbayt darajasida vujudga kelgan:

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Bu o'rindagi shohga murojaat Ogahiyning davr hukmdoriga qarata qo'llangan. Ogahiyning yuqoridagi satrlarda tasvirlangan ma'shuqadan chekkan sitamlari, muayyan darajada, davrdan tortgan sitamlari timsoli ham edi. Demak, tushunish mumkinki,

shoir izhori dard vositasida ko'nglini bo'shatib olgach, shohni adolatga chorlab, unga purhikmat pand aytadi. Marhamat va muruvvat ko'rsatganingda, yomon-u yaxshiga teng munosabatda bo'lg'in, degan fikrni chiroyli she'riy asoslash uchun oftob o'z nurini vayrona va obod yerlarga teng sochishini misol qilib keltiradi. Quyoshdek yuksak martabada o'tirgan amaldorni Sulaymonshohdek taxtini shamol ustiga qo'ndirib, bu olamdan yeldek sayr etib o'tsa ham oxir-oqibatda tanasi tuproqqa aylanishi va yelga sovurilishidan ogohlantiradi. Shoir g'azalni yana ichki kechinmalari izhori bilan tugallaydi:

Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zoru noshod ustina.

Bu misralar g'amning yuz lashkari hujum qilib turganida, "zor-u noshod" shoir g'azalxonlikni davom ettirishga jur'at topolmay, so'zni muxtasar qilib qo'ya qolganidan dalolat beradi.

* * *

Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lub, boshingdin
aylansun,
Yangi oy yuz tavozu' ko'rguzub, qoshingdin aylansun.

Agarchi la'l-u yoqut el zamirig'a¹ mufarrihdur²,
Hayotafz³ iki la'li guharposhingdin⁴ aylansun.

Tan-u jonim hadaf⁵ aylab, o'q-u tosh otsang, ey chobuk⁶,
Biri o'qingdin evrulsun, biri toshingdin aylansun.

Raqibing gar erur xasmim⁷, ani yo'ldosh etub kelsang,
Sanga jon sadqa bo'lsun, jism yo'ldoshingdin aylansun.

Chu o'n sakkizga yetti yoshing, ol burqa⁸ jamolingdin
Ki, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdin
aylansun.

Boqib ko'z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar⁹,
Yo'q-u borim hamul¹⁰ pinhon ila foshingdin aylansun.

¹Zamir—ich, ko'ngil. ²Mufarrih—shodlik keltiruvchi. ³Hayotafzo—hayotni yashnatuvchi. ⁴Guharposh—gavhar sochuvchi. ⁵Hadaf—nishon. ⁶Chobuk — sho'x, o'ynoqi go'zal. ⁷Xasm — dushman. ⁸Burqa' — yuz pardasi, hijob. ⁹Tag'ofil — beparvolik. ¹⁰Hamul — o'sha, shunday, xuddi o'zi.

Necha qallosh esam ham, agʻniy¹ ollida bosh egmon,
Gʻaniylar himmat ichra ushbu qalloshingdin aylansun.

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahligʻa bergil,
Riyo-vu kizb ahli² noning-u oshingdin aylansun.

Ul oy koʻngligʻa qildi, Ogahiy, oh-u yoshing taʻsir,
Bori jon-u jahonim oh ila yoshingdin aylansun.



Savol va topshiriqlar

1. Yor yuziga quyoshning sadqa boʻlishi, qoshiga yangi oyning tavozuʻ koʻrsatishidagi hayotiy hamda badiiy mantiqni asoslang.

2. **“Tan-u jonim hadaf aylab, oʻq-u tosh otsang, ey chobuk, Biri oʻqingdin evrulsun, biri toshingdin aylansun”** baytida yorning oʻqidan evrulgan nima edi-yu, toshidan aylangan biri nima?

3. Uchinchi baytda oshiqning yorga sadoqati qay tarzda namoyon boʻlayotganligiga diqqat qiling.

4. Qaysi baytda maʼshuqaning olamlarga tatigulik goʻzalligi mubolagʻali yoʻsinda tasvirlangan?

5. **“Boqib koʻz uchidin pinhon fosh etding tagʻofillar, Yoʻq-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun”** baytidagi tazod sanʼatini va bu sanʼatga yuklangan badiiy-ifodaviy salmoqni sharhlang.

6. Oshiqona tuygʻular ijtimoiy kayfiyat bilan uygʻunlashgan satrlarni izohlang.

TARJIBAND

I

Dahr³ uyi bunyodkim, su uzradir, mahkam emas,
Onda kirgan el xavotirdin amon bir dam emas.

Doimo vayronligʻ osori⁴ oning arkonidin⁵,

Borcha olam ahligʻa maʼlum erur, mubham emas.

¹ Agʻniyo, gʻaniy – boy, badavlat. ² Riyo-vu kizb ahli – riyokor va yolgʻonchilar.

³ Dahr – dunyo ⁴ Osori – belgisi. ⁵ Arkoni – qiladigan ishi maʼnosida.

Kecha-yu kunduz yog‘ar idbor gardi saqfidin,
Yoqmoqi har dam fuzun oning zamoni kam emas.
Bu sifatlig‘ uy aro har kimki maskan ayladi,
Xotiri oning xavotirdin dami beg‘am emas.

Ushbu mehnatxonada gar shoh bo‘lsun, gar gado,
Bir nafas aysh-u farog‘at jomidin xurram emas.
Onda har kim boshig‘a yuz dardu g‘am aylab hujum,
Bir kishi yo‘q ashki hasratdin ko‘zi purnam emas.

Ko‘bdur onda ishrat ummidi bila tutg‘on makon,
Shohidi maqsudig‘a lekin biri hamdam emas.
Borcha zindoni baliyatg‘a bo‘lubdur muftalo,
Umri ichra bir nafas osuda bir odam emas.

Dahr bir vayrona edurkim, xarob obod erur,
Chiqsa ondin har kishi — g‘am bandidin ozod erur.

II

Dahri dun ayyorasikim, yo‘q ango mehr-u vafo,
Peshasi kin-u nifoq-u odati — javr-u jafu.
Yo‘qturur aslo hamul makkora qotil zotida,
Zarracha rahm-u muruvvat, qatracha sharm-u hayo.

Hiyla domig‘a xaloyiqni giriftor etgusi,
Ko‘rguzub g‘anj-u dalol-u g‘amza-yu noz-u ado.
Ishvalar zohir qilur har lahza yuz nayrang ila,
Toki el jon-u dilig‘a solg‘ay oshub-u balo.

Qaddi shavqi ichradur tanlarga yuz zahmi sinon,
Kirpiki fikridadur jonlarg‘a ming nishi izo.
Zulfining savdosi domida qilib zor-u asir,
Aylagay jumla xaloyiq ro‘zg‘orini qaro.

Hajr zahri birla aylab elni doim talxkom¹.
Vasl no‘shi birla bir dam aylamas komin² ravo.
Qatl etar oxir tuman nokomlig‘ tig‘i bila,
Kimsaki, bo‘lmish oning qaydi g‘amig‘a muftalo.

¹ Talxkom — achchiq turmush. ² Komin — maqsadini.

Dahr bir vayrona edurkim, xarob obod erur,
Chiqa ondin har kishi – g'am bandidin ozod erur.



Savol va topshiriqlar

1. She'ning avvalida shoir dunyoni nima uchun suv ustiga qurilgan o'ta omonat binoga o'xshatmoqda? Dunyo ahli qanday xavotirdan xoli emasligi to'g'risida fikr yuriting.
2. Barcha olam ahliga ma'lum bo'lgan dunyoning "doimo vayronalig' osori" borasidagi mulohazalaringizni bildiring.
3. Tarji'bandning birinchi bandida dunyo uyga o'xshatilgan. Bandidagi "uy" so'ziga ma'no jihatidan bog'lanadigan uyadosh so'zlarni topib, ko'chiring.
4. Dunyoning mehr-u vafosi yo'q, jafokor makkora ayolga o'xshatilishini izohlang.
5. Qismlar so'ngida takrorlanuvchi naqoratga diqqat qiling. Uning har bir bandida tutgan badiiy-g'oyaviy ahamiyatini sharhlang.

TUYUQLAR

G'am yuki to qomatim yo qilmadi,
Ohim o'tig'a falak yoqilmadi,
Qilmadi rahmi mango, xud o'zgaga
Bilmadimkim, qildimu yo qilmadi.

* * *

Do'stlar, hamrohlig' aylab boringiz,
Tund xo' yorim qoshig'a boringiz,
Bir kecha bazmimg'a kelturmak uchun,
Bosh ayoqig'a qo'yub yoboringiz.



Savol va topshiriqlar

1. Tuyuqlardagi so'z o'yinini sharhlash orqali, Ogahiyning badiiy mahoratini kuzating.
2. Shoirning o'zingizga yoqqan kichik janrdagi she'rlaridan yod oling.

OGOHNOMA

(Qasida)

Shahanshahliq o'lsun muborak sango,
Madadkor Tangri taborak sango.

Zamiringni¹ sabr aylabon shod tut,
Bori kulfat-u g'amdin ozod tut.

Ato so'gidin² bo'lma angduhgin³,
Ko'ngulni bu g'am birla qilma hazin.

Agarchi bu g'am asru dushvordur,
Vale chekkali banda nochordur.

Eshit bu hazin bandadin ma'rifat
Ki, degum necha manfaatlik nukat.

Ki, to qildi mavjud olamni haq⁴,
Yaratdi bari xayli odamni haq.

Alarg'a qilib yer yuzini makon,
Necha nav' ne'matlar etdi ayon.

Jahon ichra xalq ayladi shohlar,
Qavi qudrat-u sohibi johlar.

Qilib ba'zi lutf-u karam oshkor,
Vale ba'zi zulm-u sitam ixtiyor.

Yetib ba'zidin elga rohat base,
Vale ba'zidin ranj-u mehnat base.

Bo'lub ba'zi tahsini rahmatg'a to'sh⁵,
Vale ba'zi nafrin-u⁶ la'natg'a to'sh.

Qilib saltanat barcha o'z komicha,
Surub hukmini ko'ngli oromicha.

Agar yaxshi erdi va gar xud yamon,
Yer ostida bo'ldi borisi nihon⁷.

¹ Zamiringni — borlig'ingni. ² So'gidin — salomatligidan. ³ Angduhgin' — g'amli, hafa. ⁴ Haq — Alloh. ⁵ To'sh — ko'krak qismi. ⁶ Nafrin — achchiq kulgu. ⁷ Nihon — yashirin.

Na qoldi alarning baridin asar,
 Na bo'ldi birining ishidin xabar.
 Barisi ko'rub charxi dundin¹ sitam,
 Adam sori nochor qo'ydi qadam.
 Budur, doyim o charxi zolim ishi
 Ki, zulmidin aslo qutulmas kishi.
 Qani ul salotini² oliymakon
 Ki, yer yuziga erdilar hukmron?
 ...Qani ka'bayi qiblagohing sanin
 Ki, erdi shafiq-u panohing saning?
 Olur chog'i ilkiga tiyg'-u tabar,
 Edi ojiz o'trusida sheri nar.
 Ani ham qilib ojiz-u notavon,
 Adam kishvari sori qildi ravon.
 Kishi shoh bo'lsun va yoxud gado,
 Qutulmoq falak zulmidin yo'q ango.
 Yuzida yo'q aslo hayodin asar,
 Ko'zida yo'q aslo vafodin xabar.
 Hayosizdin aslo vaf o istama,
 Vafosizdin aslo hayo istama.
 ...Bugun, podshoho, sanga saltanat
 Beribdur Xudo ko'rguzub marhamat.
 Agarchi bu ish bas og'ir yukdurur,
 G'amu mehnati necha turlukdurur.
 O'zungni bu yuk chekkali chog'lag'il,
 Kamar belga himmat bila bog'lag'il.
 Bu ishda o'zing solma, mardona bo'l,
 Jalodatshior-u dalerona bo'l.
 Bu ishning kamolig'a tolib esang,
 Aning boisi ne ekandur, desang.

¹ Din – dunyo. ² Salotin – sulton, hukmdor.

Degay bir-bir oni oshuftahol,
Topar saltanat necha ishdin kamol.

Ki, himmat biridur, shijoat biri,
Adolat biridur, siyosat biri.

Jalodat biri, biri g'ayratdudur,
Saxovat biri, biri iffatdudur.

Biri hilm keldi, birisi hayo,
Biri va'dag'a aylamaklik vafo.

Futuvvat biri, sof niyat biri,
Muruvvat biriy-u hamiyat biri.

Biri shar' hukmiga bermak rivoj,
Biri kufr dardiga qilmoq iloj.

Biridur vuquf¹ o'g'rilar holidin,
Alar ilkin kesmak el molidin.

Biri keldi bo'lmoq raiyatnavoz,
Masokin-u² mazlung'a chorasoz.

Biri tarbiyat birla qilmoq azim
Alarniki, dur nekhohi qadim.

Birisi sipah ko'nglin olmoqdurur,
Karam domi bo'ynig'a solmoqdurur.

Bulardin yetar saltanatg'a nizom,
Bularsiz ul ish topmas aslo tamom.

...Bu so'zlarnikim, man bayon ayladim,
Necha bayt birla ayon ayladim.

Bularga qayu shahki qilsa amal,
Aning mulkiga yetmas aslo xalal.

...Shaho, olam ichra bugun shohsen,
Burundin bu so'zlarga ogohsen.

¹ Vuquf – voqif, xabardor. ² Masokin – miskinlar, kambag'allar.

Umidim budurkim, amal qilg'asen,
Amal aylamakda jadal qilg'asen.

Ko'rub bazli lutfing havosi avom
Hama bo'lsun osudayu shodkom.

Alar ichra ushbu faqir Ogahing,
Demay Ogahingkim, g'ubori rahing.



Savol va topshiriqlar

1. Qasida avvalidagi xonning vasfi va qutlovi berilgan baytlarni tahlil qiling. Undagi an'anaviylikka diqqat qiling.
2. **“Ato so'gidan bo'lma anduhgin, Ko'ngulni bu g'am birla qilma hazin”** taskini nima munosabati bilan aytilayotgani to'grisida o'ylab ko'ring.
3. Adib hukmdorlarni qaysi jihatlariga ko'ra farqlaydi? Ularning qiyosida qo'llangan badiiy tasvir vositasini aniqlang.
4. **“Hayosizdan aslo vafu istama, Vafosizdan aslo hayo istama”** hikmatini tushuntiring. Sharh qilishda hayotdan misollar keltiring.
5. She'rda saltanatni yuksaltiradigan yigirma ikki fazilatni izohlang.
6. **“Umidim budurkim, amal qilg'asen, Amal aylamakda jadal qilg'asen”** misralarida Ogahiyning qanday orzu-umidlari aks etganligi haqida fikr bildiring.

Nazariy ma'lumot

TASHXIS

Mumtoz she'riyatimizda keng qo'llangan badiiy tasvir vositalaridan biri tashxisdir. “Tashxis” arabcha so'z bo'lib, “shaxs” o'zagidan hosil bo'lgan (ta — old qo'shimcha). O'zbek tiliga tarjima qilsak, “shaxslantirish” degan ma'noni anglatadi. Anglashiladiki, tashxis faqat insongagina xos bo'lgan jismoniy va ruhiy holatlarni tabiat manzaralari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hayotdagi tushunchalarga ko'chirish san'atidir. Tashxis orqali shoir tasvirlanayotgan manzara

yoki tushunchani o'quvchi tasavvurida qayta jonlantirib, she'rdagi timsollar jozibasini oshiradi, ularning hissiy ta'sirni kuchaytiradi.

Ogahiy she'riyatini tahlillash davomida Siz shoirning tashxis san'atidan unumli foydalanib, o'ziga xos timsol va tasvirlar yaratganligiga guvoh bo'ldingiz. Quyidagi baytda tabiatdagi o'zgarishlarni insonlar hayotidagi voqeliklar orqali tasvirlaydi: ***“Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli, Ango bo'ldi magarkim doya navro'z”.***

Ma'nosi: dunyo kampiri shodlik chaqalog'ini tug'arkan, navro'z unga doyalik qildi. Biz yashayotgan dunyo juda qadim bo'lganligi uchun kampirga o'xshatilyapti. Ko'klamning keli-shi barchaga shodlik, quvonch keltiradi. Ana shu shodlik chaqalog'ini navro'z doyaligida dunyo kampiri tug'moqda. Shu baytning o'zida uchta tashxis bor: shodlik (tushuncha) tug'ilmoqda; dahr (borliq) zoli tug'moqda; navro'z (tabiat) doyalik qilmoqda: ***“Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam, Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina!?”*** Ma'nosi: Ma'shuqaning nozi, adosi (so'zlari) va g'amzasi navbatma-navbat menga qasd qiladilarki, bir odamning ustiga shunchalar ham ofat bo'ladimi?

Baytdan ko'rinadiki, insonning o'zidagi holat, xislat va fazilatlar ham tashxis uchun asos bo'lishi mumkin ekan.



**ZOKIRJON XOLMUHAMMAD
O'G'LI FURQAT**
(1859—1909)



Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'zining lirik she'riyati bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan, ma'rifatchilik adabiyotining darg'alaridan biri bo'lgan hamda o'zbek publitsistikasiga tamal toshlarini qo'ygan zabardast ijodkordir. Shoir 1859- yilda Qo'qonda savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi Mulla Xolmuhammad she'riyatga oshno, badiiy ijodga moyil kishi edi. Bo'lajak shoir dastlabki ta'limni mahallasidagi maktabda oladi. Bir yilga yetmay "Haftiyak" va "Chor kitob"ni o'qib tugatadi. Sakkiz yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod oladi, sal o'tib, Navoiy mutolaasiga tutinadi. Kichik yoshidan qalam tutib, she'r mashq qila boshlaydi. Keyinchalik o'zining eslashicha, husnixat ta'limini bolaligidanoq puxta egallagan Zokirjon quyidagi baytni to'qqiz yoshida yozgan ekan: ***"Mening maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim"***.

Favqulodda iste'dod egasi, tabiatan tirishqoq va izlanuvchan Zokirjon o'n to'rt yoshida madrasa talabasi bo'ladi. Ruslar istilosi tufayli Qo'qon xonligi tugatilib, madrasalar yopiladi. O'qishi nihoyasiga yetmay qolgan bo'lajak shoir 1879-yilda Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona)ga do'kondor tog'asi huzuriga boradi. Uning qo'lida bir muddat ishlab, so'ng o'zining mustaqil do'konini ochadi. Shu bilan birga shaxsiy muallimdan dars olib, bilimni takomilga yetkazadi va tez orada o'zi ham boshqalarga dars bera boshlaydi. Husnixat sohibi bo'lganligi uchun mirzalik, xattotlik ham qiladi. Lekin eng sevimli mashg'uloti badiiy ijod edi. Mutaxassislar fikricha, Yangi Marg'ilonda ekanligidayoq yozgan she'rlarida u "Furqat" taxallusini qo'ygan.

1880- yilda otasining qistovi bilan Qo‘qonga qaytadi va butun iste‘dodi, bor kuchini ijodga yo‘naltiradi. She‘rlari adabiyot ixlosmandlari orasida shuhrat qozonadi. Muqimiydek zabardast shoir uning g‘azallariga muxammas bog‘lagani Furqatning ijod ahli orasida ham e‘tirof topganligidan darak beradi. Furqat shu davrda “Hammomi xayol” nomli risola yozadi, “Chor darvesh”, “Nuh manzar” asarlarini fors tilidan o‘zbek tiliga o‘giradi. She‘rlarini to‘plab, devon tuzadi. Furqat kabi ijodining dastlabki davrida — 21- 22 yoshida devon tartib bergan shoirni o‘zbek kitobxonlari ko‘rgan emas edi.

Furqat 1890—1891- yillarda Toshkentda yashaydi. Bu yerda u Toshkent erlar gimnaziyasi direktori, “Turkiston viloyatining gazetasi” muharriri Nikolay Ostroumov bilan tanishadi. Bu tanishuvdan so‘ng Furqat shu gazetaga tarjimon bo‘lib ishga kiradi va shundan uning jurnalistlik, publitsistik faoliyati ham boshlanadi, deyish mumkin.

1891- yilning sentabrida Furqat Samarqandga yo‘l oladi. Xat orqali tanishgan do‘sti savdogar va etnograf olim Mirzo Buxoriy huzurida bo‘ladi. Iyul oyida Buxoroga borib, Kogondan poyezdga o‘tirib, Marv, Ashxobod, Boku, Botum orqali Istanbulga keladi. Bu yerda bir muddat yashagan shoir butun vujudi bilan ijodga berilgandi. 1892- yilda Iskandariya, Misr, Shom, Makka va Madina bo‘ylab sayohatda bo‘lgan Furqat sentabr oyida Hindistonning Bombay shahrida edi. 1893- yilning bahorida Kashmir, Tibet va Xo‘tan orqali Yorkentga keladi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Furqat Qashqardagi Rusiya musulmon idorasida kotib bo‘lib ishlaydi. Ilmi nujum, tabobat bilan shug‘ullanadi. Ra‘no ismli ayolga uylanib, farzandlar ko‘radi. U to 1906- yilgacha Turkiston bilan, “Turkiston viloyatining gazetasi” bilan aloqani uzmaydi.

Furqat 1909- yilning kuzida vatandan yiroqda vafot etadi.

Furqatning merosiga nazar tashlasak, adibning serqirra ijod sohibi ekanligiga amin bo‘lamiz. Uning ijodi quyidagi asarlarni o‘z ichiga oladi: 1) lirikasi; 2) publitsistikasi, nasriy asari; 3) tarjimalari; 4) ilmiy asarlari.

Furqat tarjimon sifatida Sharq adabiyotining mashhur namunalarini bo‘lmish “Hammomi xayol”, “Chor darvesh”, “Nuh manzar” asarlarini tarjima qilgan. Ammo bu tarjimalar bizgacha yetib kelmagan.

Adibning turli yillarda “Turkiston viloyati gazetisi”ga yozgan qator xabarlarini, maqolalarini uning publitsistikasini tashkil etadi. 1891- yili “Turkiston viloyatining gazetisi”da bosilgan “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoluti. O‘zi yozg‘oni” deb nomlagan tarjimai holi uni bizga jurnalist va nosir sifatida tanitadi. Adabiyotshunoslikda bu esdaliklar shartli ravishda “Furqatnoma”, ba‘zan “Sarguzashtnoma” nomlari bilan yuritiladi. Mazkur asar shoir hayot yo‘li, dunyoqarashini aniqlash borasida katta ahamiyatga ega.

Furqat ijodiy merosida to‘rt ilmiy asar uchraydi. Ularning uchitasi etnografik xarakterda bo‘lib, “To‘y tavsifi”, “Gap ta‘rifida”, “Aza tavsifi” deb ataladi. To‘rtinchisi “Ilmi ash‘orning qoidai avzoni” (She‘r ilmining o‘lchov qoidalari) atalib, adabiyot havaskorlari uchun qo‘llanma sifatida tuzilgan, unda aruz vaznining qoidalari bayon etilgan.

Furqatning mana shunday keng ko‘lamli ijodi bo‘lishiga qaramay, xalq uni asosan lirik shoir sifatida e‘tirof etadi. Lirikasi g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod kabi janrlardan iborat. She‘rlarining salmoqli qismi g‘azallar bo‘lib, ularning soni 200 atrofida. Shoirning yuksak badiiy mahorati, she‘riyatining nafosati ham aynan g‘azallarida namoyon bo‘ladi.

Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,
G‘alatdur, qomating oldida guldani pirahani nozik.

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor?
Fasohatda, sabohatda, hama to‘g‘rida san nozik.

Oshiqqa chamanzorda sarv daraxti bilan yosuman gulini nozik va ko‘rkam deyishlari g‘alati tuyuladi, chunki yorning qomati sarvdan, ko‘ylagi (pirahani) guldani nozik, ya‘ni go‘zaldir. Ma‘shuqasining husnini bashariyat tarixidagi eng go‘zal inson bo‘lmish misrlik Yusuf (a.s.)dan ustun qo‘yadi. Bunga uning asosi bor: mahubasi fasohatda, sabohatda (xushro‘ylikda), bir-bir sanashning hojati yo‘qki, har to‘g‘rida nozik — go‘zaldir!

Kalomingdin halovat topmog‘i jonlarni ondinkim,
Dahon nozik, zabon nozik ki lab nozik, suxan nozik.

Baytdagi yor go‘zalligi belgilarining sanog‘i mazmunni bo‘rttiradi, ifodaga musiqiylik bag‘ishlaydi. Bunday mubo-

lagʻaviy tasvir ostida shoirning har tomonlama mukammal — ham jismonan, ham maʼnan goʻzal insonni targʻib etish maqsadi yotadi. Shuning uchun ham Fuzuliy gʻazaliga nazira sifatida yaratilgan “Surmadin koʻzlar qaro” gʻazali yoki “Muncha zolim boʻlmish ul xunrez qaro koʻzlaring” kabi koʻplab gʻazallarida yor goʻzalligi, oshiqning unga sadoqati, cheksiz muhabbati avj pardalarda zavq bilan kuylanadi.

Furqat lirikasida gʻurbat va hasrat ohanglari salmoqli oʻrin egallaydi. Bu uning hayot yoʻli bilan bevosita bogʻliq. 1892- yilda Vatandan chiqib ketgan shoir umrining oxirigacha yurtga qayta olmadi. Shuning uchun vatan ishtiyoqi va gʻurbat iztiroblari uning sheʼrlarida dardli va taʼsirchan ifoda etilgan. Shoirning “Figʻonkim, ul buti siymin zaqandan ayrilib qoldim”, “Hasrato, kel-kel beri, ul shoʻxi jonondin gapur” radifli gʻazallarining maqtaʼsida yuqorida eslatilgan “Bir qamar siymoni” gʻazalida boʻlgani kabi taqdirning unga bergan sinovi — yurt judoligi bayon qilinadi:

Oʻz diyoridin adashgan, Furqatiy devonaman,
Chugʻzi har vayronadurmen, baytul ehzondin gapur.

Shoirning Istambulda yozgan “Sabogʻa xitob” sheʼrida vatanni qoʻmsash, doʻstlar sogʻinchi Navoiydagi kabi maktub shaklida ifoda etiladi. U Istambuldagi “nasimi fayzi rab” boʻlgan Milliy bogʻda sayr qilar ekan, undagi xurram “mardum” (odamlar) chehrasini koʻrib, olis Toshkentdagi yor-u doʻstlarini esga oladi:

Alar chun aylagach sayr-u safolar,
Esimgʻa tushti yor-u oshnolar...
Ayo bodi sabo, Oloho uchun tur,
Oʻzingni Toshkand shahriga yetkur.

Furqatning gʻurbat ruhidagi sheʼrlari sinchiklab oʻrganilsa, undagi ayriliq va judolikning maʼnosi ancha kengligiga amin boʻlamiz. “Manam shoʻrida bulbul” muxammasida birinchi bandidan shoir oʻzini boʻstonidan adashgan shoʻrida bulbulga oʻxshatadi. Keyingi bandlarda “Nihoni kuydirib hajr oʻti poʻst-u ustuxon aylar”, “Boshimda hushim yoʻq”, “Yetim qoʻzi kabi nolonligʻim”, “Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida” kabi misralar orqali holini sharh etgach, maqtaʼda bu bayonlarni umumlashtirib, taxallusiga ham izoh berib oʻtadi.

Zamon g'avg'osidan adashish — bu dunyodan qo'l yuvish, tariqat yo'liga kirish, o'zini Ollohga bag'ishlash demakdir. Bu yo'lga kirganlar biladiki, inson bu dunyoda o'zining haqiqiy vatani — ilohiy dargohdan uzoqda, haqiqiy Yor — Ollohdan ayriliqda. Demak, hayotning o'zi furqat, ya'ni ayriliqdir. Vatanga, Yorga yetishish uchun esa riyozat chekish, poklanish zarur. Buning yo'li, aytilganidek, zamon oshubidan yiroq bo'lishdir. Oldin ko'rilgan g'azallarda furqat, g'urbat tushunchasi yurtdan judolik mazmunida qo'llangan bo'lsa, shoir bu she'rida o'zining taxallusini tasavvufiy ma'noda izohlamoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Furqatning umr yo'lidagi qaysi jihatlar ijodida aks etganligini so'zlang.
2. Shoirning ma'rifatchilik yo'nalishidagi asarlari vujudga kelishi omillarini ayting.
3. Furqat she'riyatidagi g'urbat tushunchasi qanday ma'nolarni anglatishi to'g'risida fikrlaringizni bildiring.

G'AZALLAR

* * *

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar¹.

Nastaron² yuvib yuzni, yosuman³ tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar⁴.

¹ Abri nayson — ko'klam buluti. ² Nastaron — gul turi. ³ Yosuman (jasmin) — gul turi. ⁴ Biyobon — dasht, cho'l.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar¹.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan²,
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Furqatning *Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar*“ g'azali — tabiat lirikasining namunasi. Unda ko'klam kelishi bilan tabiatda ro'y berayotgan go'zal o'zgarishlarni g'oyat sinchiklab kuzatgan shoirning qalb kechinmalari aks etgan.

Birinchi baytda shoir bahor kelib, zimistonlar ketgan ekan, do'stlarini g'animat bu damlarda gulistonlarda sayr etishga chaqiradi.

Mumtoz adabiyotda uzoq intiq kutib, orzuga yetgan damlardan oldingi intizorlik davrini qorong'ulik sifatida tasvirlash o'ziga xos an'ana. Masalan, Navoiy Farhodning tug'ilishini “Shabistonda tug'di bir yangi oy” deb tasvirlaydi. Misrada “shabiston” so'zi xoqonning o'g'il ko'rguncha bo'lgan davrdagi farzandsizlik hasratida o'tkazgan yillarni ifodalaydi. Ogahiy bahor kelgunga qadar hukm surgan azobli qish kunlarini soyaga mengzaydi: “Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z”. Shuning uchun ham shoir o'tkinchi umrni go'zallik qo'ynida ezgulik bilan o'tkazishni istaydi. Chunki bahorgina emas, umr ham o'tkinchi — g'animat”. Matla'dan so'ng shoir o'zini muvozanatdan chiqargan, hayajonga solgan ko'klam manzarasini chizishga tutinadi... O'zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan shoir shunchaki axborot berib qolmay, g'azalxonda kuchli his-tuyg'u uyg'otishga erishadi:

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar.

Furqat ko'klam manzarasini o'z holicha tasvirlamaydi,

¹ Giribon — yoqa. ² Savsan — gulsafsar, qo'g'agul.

uni jonlantiradi. U atrofda har bir unurni — masalan, nastarin, yosuman va nargis gullarini dilga yaqin kishiga munosabati nuqtayi nazaridan tasvirlaydi. Ularda yoronlar, ya'ni yor-jo'ralarga intizorlik, intiqlik ko'radi. Kishi ko'zini quvontirayotgan bahoriy ko'katlar shunchaki go'zal emas, balki yaqinlarni kutib olishga hozirlik ko'rayotganligi sabab go'zaldir:

Nastarin yuvib yuzni, yosuman tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Ko'klamning eng sara chechaklari sara odamlar — yoronlarni kutib olishga hozirlik ko'rishadi. Furqat tabiatni tinimsiz harakatda ko'rsatadi. Ko'klam manzarasi, undagi o'zgarishlarni, almashinishlarni jonli tasvirlaydi:

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutashdi olamga,
Tog'lar chekibon larza, titradi biyobonlar.

Tabiat go'zalligiga oshufta lirik qahramon uygo'q bir saharda chaqmoq chaqdi — butun olamga o't tutashganday bo'ldi. Ketidan momaqaldiroq gumburlab, tog'lar larzaga keldi, biyobonlarni titratib yubordi. Shoir jonlantirish orqali g'oyat go'zal lavha yaratgan.

She'ning beshinchi baytida qo'llangan taqlidiy so'zlar g'azal musiqiyiligini oshirgan, oldingi misralarni kuchaytirishga, yangi tafsilotlar bilan mustahkamlashga xizmat qilgan. Unda jonli narsalar holati tilga olinadi. Furqatdan oldin o'rganilgan siymo — Ogahiyning ishqiy g'azallari tahlilida ko'rildiki, maqta'dan oldingi ikki bayt ijtimoiy, falsafiy mazmun kasb etardi. Sakkiz baytli mazkur she'rda ham oltinchi baytdan g'azalga ijtimoiy ma'no kirib kela boshlaydi:

Bulbul o'qug'och yig'lab, subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Baytda g'unchanning gul bo'lib ochilishi jarayonini husni ta'lil san'ati vositasida o'ziga xos tarzda tasvirlagan. Husni ta'lil biror tasvir yoki holatni unga umuman aloqasi yo'q boshqa narsa bilan dalillash, yolg'on bo'lsa-da, chiroyli sabab keltirish. Ko'klamning shundoq farahli ertasida bulbul xazon faslini eslab nola qilgach, u qo'ngan gulning g'unchasi ham qon yutib, yoqasini yuz joyidan yirtib yuboradi. Yoqasi yirtilgan g'uncha

yoziqib ketadi, ya'ni ochiladi (Aslida g'unchaning yoziqilishi bulbulning nolasiga aloqasi yo'q edi). Nima uchun bulbul subhidamda xazon faslini eslaydi? Buning sababi yettinchi baytda ochiladi. Chunki dunyodan vafo ahli kechganlar. Xalqimizdagi azadorlarning ko'k kiyish udumidan shoir bu baytda unumli foydalangan. G'azalning maqta'sida shoirning vafo ahlining nohaq ranjtilishiga, qadr topmaganligiga kuyunchak munosabati aks etadi:

Kuymasun bu savdodan ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Albatta, adolatparvar shoir donolarning g'ussa chekib, nodonlarning shod yashashidan ozorlanadi va buni murakkab ramzlar vositasida jozibali ifodalaydi. Shoir o'z davri uchun g'oyat dolzarb bo'lgan adolat va ma'rifat muammolarini faqat faslning go'zalligini kuylashga bag'ishlanganday tuyuluvchi she'rning zamiriga ustalik bilan singdirib yuborgan.



Savol va topshiriqlar

1. Matla'dagi "zimiston" so'zi qaysi ma'noda qo'llangan va mazkur ma'no uchun nega aynan shu so'z ishlatilgan?
2. Ikkinchi va uchinchi baytlarga diqqat qiling. Ifodadagi go'zallik, mayinlik va musiqiylikni yuzaga keltirayotgan vositalarni aniqlang.
3. **"Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a, Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar"** baytini tahlil qiling. Qaysi tabiat hodisasi tasvirlanayapti?
4. Qumri va bulbullarning sayrashini shoir nima bilan bog'laydi? Bu qushlar she'riyatda kimlarning ramzi sifatida keladi?
5. **"Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin, G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar"** misralarini sharhlang.
6. Ularda qaysi tabiiy jarayon ko'rsatilmoqda?
7. G'azal maqta'sida ifodalangan fikrga munosabat bildiring. Fasl go'zalligiga bag'ishlangan she'rning ijtimoiy ruhdagi fikr bilan yakunlanishini qanday izohlaysiz?

* * *

Ul qaro koʻz koʻzlariga surma bejo tortadur,
Balki andin dahr eli ortiqcha gʻavgʻo tortadur.

Qoshlari ostida goʻyo ikki fatton koʻzlari
Ikki hindu bachchadurkim yondashib yo tortadur.

Telbalanmish zulfini savdosidin devonalar,
Qaygʻa borsa oʻlturub yergʻa chalipo tortadur.

Jon ila koʻngul taloshur, ey sanam, dard-u gʻaming,
Birni sol koʻnglimʻaki, jon birni tanho tortadur.

Kokulingdan boʻy olgan bogʻning tuprogʻidur,
Bogʻbon sotmoqqa doim mushki soro tortadur.

Ne bilur Yusufki noz-u husn ila magʻrurdur,
Ul qadarkim ishq dardini Zulayxo tortadur.

Ishqni pinhon tutargʻa boʻlma shaydo, e koʻngul,
Mushk pinhon boʻlsa boʻyi oshkoro tortadur.

Charxi kajraftorning bir shevasidin dogʻman,
Ayshini nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Sorugʻ oltun kasrati koʻngulni aylaydur qaro,
Chunki safro boʻlsa gʻolib, oʻzga savdo tortadur.

Bul havaslar torta olmas nozaninlar nozini,
Furqatiydek bekas-u shoʻrida, rasvo tortadur.



Savol va topshiriqlar

1. Maʼshuqa koʻzlariga surma tortsa, olam ahli gʻavgʻo qilishi sababini izohlang.
2. Koʻzlarning yonboshlab yoy tortayotgan ikki hindu bolasiga oʻxshashligi tasviriga va undagi shoir mahoratiga munosabat bildiring.
3. Bogʻbon toza mushk deb sotadigan bogʻning tuprogʻi qanday qilib yorning sochlaridan boʻy olgan boʻlishi mumkin?
4. **“Ishqni pinhon tutargʻa boʻlma shaydo, e koʻngul, Mushk pinhon boʻlsa boʻyi oshkoro tortadur”** misralari maʼnosini chaqing. Bayt mazmuni qaysi maqolni eslatadi?

* * *

Surmadin koʻzlar qaro, qoʻllar xinodin lolarang,
Gʻozadin¹ yuzlarda tob-u², oʻsmadin qoshlar tarang.

Zaʼfaroniy koʻylak uzra argʻuvoniy³ kamzihur,
Roʻymol ogʻushidin peshonaning ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok⁴,
Qoʻl bilakuzukdin muzayyan⁵, nuqradin ogʻizda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogoʻshinda⁶ band,
Koʻrinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

Gʻamza birla oʻlturur, gah jilvalar birla yurur,
Turfa bir noz, ofarin, purishva tannoz-u satang.

Aql-hush eltar agar tursa, paritek silkinib,
Odamizod ichra ham mundogʻ boʻlurmi shoʻx-u shaʼn⁷.

Yoʻq qutulmoqliq⁸ manga, ul ofati jon dastidin,
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadan⁸.

Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sogʻ,
Chunki bordur oramizda gohi sulh-u gohi jang.

Javrlarkim, Furqat, ul shoʻxi jafujoʻ⁹ ayladi,
Muncha bedod-u sitam¹⁰ qilmas musulmongʻa faran¹¹.



Savol va topshiriqlar

1. Gʻazal matlaʼsini sharhlang. Ayollarning milliy oroyish ashyolariga diqqat qiling va bugungi kosmetikaga taqqoslang.
2. **“Zaʼfaroniy koʻylak uzra argʻuvoniy kamzihur, Roʻymol ogʻushidin peshonaning ahvoli tang”** baytidagi tasvirdan kelinchakning qanday kiyinganligini izohlang.
3. Gʻazal asosida oʻzbek kelinchagining nafosati toʻgʻrisida fikr yuriting.
4. **“Oʻzbek kelinchagi Furqat tasvirida”** deb nomlangan quyidagi jadvalning har bir xonasini gʻazaldagi ularning mazmuniga mos keladigan soʻz va birikmalar bilan toʻldiring.

¹ Gʻoza — qizil rangli elik. ² Tob — nur, jilo. ³ Argʻuvoniy — qizil gulli daraxt. ⁴ Zebnok — yasangan. ⁵ Muzayyan — bezangan. ⁶ Banogoʻsh — quloq teshigi. ⁷ Shang — oʻynoqi. ⁸ Xadang — oʻq. ⁹ Jafujoʻ — jafu qiluvchi. ¹⁰ Sitam — zulm. ¹¹ Farang — yevropali koʻzda tutiladi.

Milliy oroyish ashyolari va zeb-ziyatlar	Tashqi ko‘rinishi va kiyimlari	Ma’naviyati va xarakter xususiyatlari
Surma..., oltun uzuk...	Ko‘zlar qaro..., za’faroniy ko‘ylak...	Nuqradin og‘zida chang..., g‘amza birla o‘lturur...

* * *

Biz istig‘no¹ eli, qichqirmag‘on ma’vog‘a² bormasmiz,
Agar chandiki³ xirman aylasa, dunyog‘a bormasmiz.

Agar labtashna qolsak filmasal⁴ sahroyi olamda,
Malolat zohir etsa mavj uran daryog‘a bormasmiz.

Umid etgonimiz aksar saodat bo‘tayi haqdin,
Agarchi mis erurmiz, qimmatil tillog‘a bormasmiz.

Hamisha lof urarmiz xalq aro Farg‘ona mulkida,
Bag‘oyat tab‘imiz ozoda deb, har jog‘a⁵ bormasmiz.

Hav loyig‘a botg‘an moumanlik do‘sti xudbinkim,
O‘shandog‘ kamzarofat⁶ maskani a‘dog‘a⁷ bormasmiz.

Biz ellar – faqr elimiz, parcha nong‘a sabr aylarmiz,
G‘araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog‘a bormasmiz.

Emasdur oncha ashobi jahong‘a fikrimiz, Furqat,
Vale ketguncha juz andishayi fardog‘a bormasmiz.



Savol va topshiriqlar

1. Matla’ni tahlil qiling. Uning mazmunidan kelib chiqib, “**istig‘no eli**” birikmasining ma’nosini izohlang.
2. “**Umid etgonimiz aksar saodat bo‘tayi haqdin, Agarchi mis erurmiz, qimmatil tillog‘a bormasmiz**” baytidagi Haqning sovg‘asi (bo‘tai haq) deganda nima nazarda tutilgan?
3. Bu sovg‘adan umid etganlar qaysi maslak (ta’limot) asosida yashaydilar?

¹ Istig‘no – noz, tortinish. ² Ma’vo – manzil, maskan. ³ Chandiki – shunchalar. ⁴ Filmasal – masalan. ⁵ Jo – joy. ⁶ Kamzarofat – bu yerda nopok ma’nosida. ⁷ A‘dog‘a – tuban, past.

MUXAMMAS

Kishi holimni bilmas mehribonidin adashganman,
 Vatan ovaradurmen, do'stonidin adashganman,
 Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,
 G'aribi ko'yi g'urbat xonumonidin adashganman,
 Vayo bir murg'i¹ vahshiy oshiyonidin adashganman.

Bo'lubman oshiqi sho'ridai bir nozanin dilbar,
 Firoqida dilim g'amnok, bag'rim chok, chashmim tar,
 Tanam xoshokidin shu'la urar ishq otashi yaksar,
 Muhabbat o'tidin kuyg'och, bo'lub bir to'da xokistar,
 Fano bodi tegib nom-u nishonidin adashganman.

Kezib dashtu biyobon bahr-u barlar yig'lasam, tong yo'q,
 To'kub yosh o'rnig'a ko'zdin guharlar yig'lasam, tong yo'q,
 Malolat zohir etmang, hamsafarlar, yig'lasam, tong yo'q,
 Chekib bulbul kabi afg'on saharlar yig'lasam, tong yo'q
 Ki, keldi fasli gul, men gulistonidin adashganman.

Laqab har kimsaga mardum² ba qadri odatiy derlar,
 O'shal kim anjumanda o'tsa umri Suhbatiy derlar,
 Fano kuyida kimki mu'takifdur Xilvatiy derlar,
 Zamon ahli bu boisdin taxallus Furqatiy derlar,
 Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman.



Savol va topshiriqlar

1. Birinchi bandni o'qing. Undagi adashganlik, g'ariblikning ma'nosini izohlang.
2. Qaysi bandlarda shoir o'zining majnunona ishqini izhor etayotganligini aniqlang.
3. Oxirgi banddan shoirning o'z taxallusiga bergan izohini sharh qiling.

MUSADDAS

Sayding qo'yaber sayyod, sayyora ekan mendek,
 Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,

¹ Murg'i – qush. ² Mardum – xalq.

O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek,

Kes rishtanikim: qilsun chappaklab otub jasta,
Hajrida alam tortib, bo‘ldi jigari xasta.
Tog‘larg‘a chiqib bo‘lsun yori bilan payvasta,
Kel, qo‘yma balo domi birla oni pobasta,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom¹ etsun,
Ohular ila o‘ynab, ayshini mudom etsun,
Yomg‘ur suvi to‘lganda, tog‘ lolani jom etsun,
Haqqing‘a duo aylab, umrini tamom etsun,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek.

Sargashta bu vodiya bir boshig‘a rahm etgil,
Yo‘q toqati bandingga, bardoshiga rahm etgil,
Rahm etmasang o‘ziga, yo‘ldoshiga rahm etgil,
Yig‘lab senga termulur, ko‘z yoshig‘a rahm etgil,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo‘l, bo‘ynini bog‘labsan,
Har sori chekib-sudrab, o‘ldurgali chog‘labsan,
Ko‘ksini jafo birla lola kabi dog‘labsan,
Sot menga, agar qasding olg‘uvchi so‘rog‘labsan,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek.

Yo‘q hushi, pari tekkan devonaga o‘xshaydur,
Ko‘z yoshi yana to‘lgan paymonag‘a o‘xshaydur,
G‘am seli bilan ko‘ngli vayronag‘a o‘xshaydur,
Furqatda bu Sa‘dull hayronag‘a o‘xshaydur,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mendek.

¹ Xirom – raqs, yurish.



Savol va topshiriqlar

1. Musaddasning matnini o'qib, unda ifodalangan voqea mazmunini so'zlab bering. Unda qanday ruh, kayfiyat yetakchilik qiladi?
2. She'rda ishtirok etayotgan obrazlarga ta'rif bering.
3. Nima uchun shoir sayd – ohuni o'ziga o'xshatayпти?
4. Sayyod obraziga munosabat bildiring. U kimlarning timsolini gavdalantiradi?

Nazariy ma'lumot

G'AZAL

G'azal arabcha so'z bo'lib, oshiqona so'z, ayollarga xushomad kabi ma'nolarni anglatadi. Bu janr Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan hamda eng ko'p qo'llangan she'r shakli bo'lib, o'tmishda g'azal yozmagan ijodkor bo'lmagan. G'azal dastlab arab she'riyatida paydo bo'lgan. Islom dini tarqalishi bilan bog'liq holda boshqa hududlar, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari adabiyotiga o'tgan. Turkiy adabiyotdagi ilk g'azal “Qisas ar-Rabg'uziy” asarida uchraydi. Rabg'uziy bilan deyarli bir vaqtda yashagan Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida ham g'azalning g'oyat go'zal va nafis namunalari bor. Mana, yetti asr o'tdiki, g'azal adabiyotimizdan mustahkam joy olib, xalqimiz uchun qadrlil va suyuqli she'r shakli bo'lib kelmoqda.

Ishqiy kechinmalar ifodasi sifatida vujudga kelgan g'azalning mavzu doirasi asrlar o'tishi bilan kengayib bordi. Shoirilar o'zlarining ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, didaktik va boshqa qarashlarini, tabiatga munosabatini bu ko'hna janrda ifodaladilar.

G'azal baytlardan tashkil topadi. Bayt arabcha “uy” deganidir. Bayt ikki misradan iborat bo'ladi. G'azalning birinchi bayti matla' (arabcha “boshlanma”), oxirgi bayt maqta' (arabcha “tugallanma”) deyiladi. G'azal o'ziga xos qofiyalanish tartibiga ega. Birinchi bayt – matla'dagi misralar bir-biri bilan o'zaro qofiyalangan bo'ladi (shartli ravishda a-a deb belgilanadi). Qolgan baytlarning toq misralari ochiq qolib, juft misralari matla'ga qofiyadosh bo'lib keladi (v-a, d-a, e-a...). An'anaga ko'ra, maqta'da shoirning taxallusi keltirilgan. G'azalning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha bo'lishi kuzatiladi.

YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI

ABDULLA QODIRIY

(1894—1938)



...men turli bo‘hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ikkinchi oqlanmaydurg‘on bo‘lib qoralandim. Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmag‘on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir.

1926- yil 15- iyun Samarqand
(Abdulla Qodiriyning suddagi nutqidan).

Hayot va ijod yo‘li. 1894- yil 10- aprelida Toshkent shahrida bog‘bon oilasida dunyoga kelgan Abdulla Qodiriy o‘z davrining maktab va madrasalarida o‘qiganligi, ilmga chanqoqligi, tirishqoqligi va ulkan iste‘dodi tufayli zamonasining eng bilimdon kishilaridan biriga aylandi.

Oiladagi yo‘qchilik tufayli mahalladagi maktabga kechikibroq borgan Abdulla ikki-uch yil ichida tuzukkina savodxon bo‘ldi. Lekin muhtojlik o‘z ishini qildi: o‘n ikki yashar o‘smirni bir boyga yugurdaklikka berishga majbur bo‘ldilar. Tijoratchilik tufayli ruslar bilan ham savdo aloqalari qiladigan bu boy rus tilini biladigan, shu tilda ish yurita oladigan xizmatchiga muhtoj edi. Shu sabab zehnlil va tirishqoq Abdullani u rus-tuzem maktabiga berdi.

1912- yilda muvaffaqiyatli tugallangan rus-tuzem maktabi bo‘lajak adib estetik qarashlari va ijodiy qiyofasi shakllanishida

muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Negaki, Abdulla bu yerda rus tili orqali rus va dunyo adabiyotini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgandi.

Ikki yildan oshiqroq vaqt mobaynida oilaga yordam berish uchun tirikchilik yo'lida urinib yurgan bo'lajak yozuvchi 1914-yilda Abulqosim madrasasiga o'qishga kirdi. Madrasada u shariat ilmi, islom falsafasi, arab va fors tillarini o'rgandi. Bu hol ko'p o'qiydigan, Kunchiqish adabiyoti bilan chuqur tanish bo'lgan Abdullaga islomiy-turkiy estetikaning nazariy asoslarini ham egallash imkonini berdi. Xullas, Abdulla Qodiriy 1917- yillarda ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni puxta egallagan, olam hodisalarini teran idrok etadigan ziyoli sifatida shakllangan edi.

Bo'lajak yozuvchi rus-tuzem maktabini tugatib, tirikchilik ko'yida yurgan kezlarida Rasulmuhammad otliq savdogar boy qo'lida ishboshqaruvchilik qildi. Savdogar insofli, ochiq fikrli, oydin kishilarni hurmatlaydigan boylardan edi. Abdulla uning do'konlarida ishlab yurib, zamonasining bir qator ilg'or fikrli kishilari bilan tanishdi, suhbatlar qurdi. 1914- yilda boyning Rahbaroy ismli qiziga uylanib, Nafiza, Habibulla, Adiba, Anisa, Ma'sud kabi farzandlar ko'rdi.

Qodiriyning ijodiy faoliyati ham shu yillarda boshlandi. "1913- yilda o'zbekcha "Sadoyi Turkiston", "Samarqand", "Oina" gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi", — deb yozadi adib keyinchalik. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914- yil 1- aprel sonida Abdulla Qodiriy deb imzo chekilgan "Yangi masjid va maktab" sarlavhali xabar bosilgan. Qodiriy yozuvchilik faoliyatiga birinchi qadamni shu tarzda qo'yan. Oradan ko'p o'tmay, "Millatimga", "Ahvolimiz" she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz" hikoyasi chiqdi. Jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilib, jamiyat a'zolarini ma'rifatli, o'qimishli va ilg'or fikrli qilishga qaratilgan bu asarlar badiiy jihatdan puxta bo'lmasa-da, zamoni uchun dolzarb edi.

Yosh yozuvchi bu asarlarida davrning muhim masalalarini ko'taradi, millatning ahvolini yaxshilashni astoydil istashini ko'rsatadi. Lekin niyat bilan badiiy ifodaning orasida hali ancha masofa bor edi. Qodiriy ilk asarlarida fikrlarini ochiq aytish, g'oyani yalang'och ifodalash yo'lidan bordi.

Millat baxti uchun kuyib-yongan Qodiriy Oktabr

o'zgarishlaridan keyin qator sho'ro idoralarida xizmat qildi. Jumladan, 1918- yilda Eski shahar oziq komiteti sarkotibi etib tayinlandi. Jurnalistlika bilan faol shug'ullandi. Bu hol unga yangi hayotni ichdan bilish, uning og'riqli, sog'lom aqlga to'g'ri kelmaydigan, xalqimiz manfaatlariga zid keladigan jihatlarini bevosita ko'rish imkonini berdi.

Har qanday ishda bo'lgani singari asarlarini yozishga ham g'oyat puxta tayyorgarlik ko'radigan yozuvchi 1917—1918-yillardan boshlab asosiy asari bo'lmish "O'tkan kunlar" romani uchun material yig'ishga kirishdi. Yozuvchi xalqning hayoti, ahvoli-ruhiyasini yirik badiiy asarda tasvirlash zaruriyatini his etardi. O'zbekning qanday xalq ekanligini ko'rsatib beradigan katta hajmli asarga ulkan ehtiyoj borligini sezardi. Adib romanni 1919- yildan yoza boshladi. 1922- yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etildi. 1925- yilda romanning bo'limlari alohida-alohida uch kitob tarzida, 1926- yilda esa "O'tkan kunlar" yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi.

1928- yilda adibning ikkinchi romani "Mehrobdan chayon" nashr etildi. 1934- yilda kolxozlashtirish tufayli o'zbeklar hayotida ro'y bergan o'zgarishlarni aks ettiradigan "Obid ketmon" qissasini yozdi. Bulardan tashqari, adib necha o'nlab publitsistik maqolalar, badiiy saviyasi baland hikoyalar ham yaratdi. Qodiriy "Amir Umarxonning kanizagi", "Namoz o'g'ri", "Dahshat" singari romanlar yozmoqchi bo'lib, materiallar to'plagani haqida ma'lumotlar bor. Ammo qonsiragan sho'rolar tuzumi adibning bu rejaları amalga oshuviga qo'ymadi.

Haq gapni hayiqmay aytadigan, millatiga o'z-o'zini tanitishga astoydil intilayotgan, uning g'ururini uyg'otayotgan yozuvchi o'lkamizni egallab olgan bosqinchilar va ularning mahalliy yugurdaklariga yoqmasligi tayin edi. Shu bois qisqagina umri mobaynida A. Qodiriyga bir necha bor chovut solishdi.

1926- yildayoq "Mushtum" jurnalining uchinchi sonida bosilgan "**Yig'indi gaplar**" maqolasi uchun adib "**...aksi-linqilobiy maqsadda sho'ro rahbarlarini matbuot orqali obro'-sizlantirdi**" degan ayb bilan qamoqqa olindi. Qodiriy o'ziga qo'yilayotgan ayblar asossiz va uydirma ekanligini, maqolasida xolis tanqid va samimiy hazil qilganligini kuchli mantiq bilan

isbotladi. Qamoqdagi adolatsizlikka qarshi ochlik eʼlon qildi. Uzoq choʻzilgan tergovda ham, sud jarayonida ham pastkash soxta guvohlarni, hukmron siyosatga til tekkizganligi bilan choʻchitmoqchi boʻlgan yuzsiz kimsalarni ayamay fosh etdi. Oʻz qarashlaridan qaytmay, ijodkorlik va insonlik shaʼnini mardona himoya qildi. Uning: **“Men toʻgʻrilik orqasida bosh ketsa, “ih” deydirgan yigit emasman”**, — degan gapi adib shaxsiyatiga xos xususiyatlarni toʻliq aks ettiradi. Respublika Oliy sudi yetarli asos boʻlmasa ham Abdulla Qodiriyning ikki yil ozodlikdan mahrum etish haqida hukm chiqardi. Lekin dalillarning uydirmaligi koʻrinib turgani uchun ham oʻzbekning eng mashhur adibini qamoqqa tiqib qoʻyishga hozircha jurʼat qila olishmadi. Afsuski, oʻz asarlari bilan nafaqat Oʻzbekiston, balki butun turkiy xalqlar maʼnaviyati ravnaqiga ulkan hissa qoʻshgan adibni 1937- yilning 31- dekabrda yangi yil kechasi ikkinchi bor olib ketishdi. Bu davrda Stalin boshqarib turgan qatagʻon mashinasi shitob bilan ishlar va uning yaxshi yurmogʻi uchun yangidan-yangi qurbonlar zarur edi. Adolatning koʻchasidan ham oʻtmagan hukumatning uchlik sudi 1938- yilning 5- oktabrida XX asr oʻzbek nasrining eng yirik vakilini, oʻzbeklarning eng fidoyilaridan birini oʻlimga hukm qildi. Dahshatli jihati shundaki, bu hukm 4- oktabrda, chiqishidan bir kun oldin ijro etilgan edi. Qotillar oʻzbekning chin isteʼodlarini yoʻqotishga shoshilishgandi.

OʻTKAN KUNLAR

(romandan boblar)

KIROYI KUYAVING SHUNDOQ BOʻLSA

...Havlining kun chiqarida kun botishga qaratib solingʻan, uncha maxtarliq boʻlmasa ham ammo zamonasining oldingʻi binolaridan hisoblangʻan bir ayvon bilan bir uyga koʻz tushadir. Sahn va binolar kishi zotidan boʻsh, shuning uchun bu havli oilaning tashqarigʻi qismi — mehmonxona ekanligi onglashilur.

Endi biz tashqari havlini qoʻyib, mehmonxonaning yonidan ichkariga kiramiz. Ichkari havlining yoʻlagi ham narigisidek usti va bagʻri yopiq — qorongʻu, yoʻlakning nihoyatiga borib oʻngga yurilsa axlatxonaga, chapka yurilsa, birinchi martaba

kirganimizdek ulug' bir havliga chiqarmiz. Havlining to'rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan va to'rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o'ralgan bo'lib, shu ikki uyning orasiga o'lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu havlining birinchi martaba ko'zga chalinadigan ortiqliqlaridandir. Shu chorxari ayvonning o'rta bir yerida, ustiga atlas ko'rpalar yopilgan tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po'stin kiyib bir kishi o'lturadir. Bu kishi... — Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan xon atlas guppi kiygan, boshiga oq dakanani xom tashlagan, o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turgan bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim, ikkinchisi yetmishlardan o'tkan bir kampir, Oftob oyimning onasi — Oysha bibi. O'choq boshida qo'polgina, qirq besh yoshlar chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir. Bu xotin ersa oilaning cho'risi — To'ybeka.

Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib, ayvonning chap tarafidagi daricha orqaliq uyga kiramiz, ham uying to'riga solingan atlas ko'rpa, par yostiqliq quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg'oq yotgan bir qizni ko'ramiz. Uning zulfi par yostiqliqning turlik tomoniga tartibsiz suratda to'zga, quyug' jinggila kiprik ostidagi timqora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi biroz qizilliqga aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi... Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqliqdan olib o'lturdi. Sariqlik rupoh atlas ko'ynakning ustidan uning o'rtacha ko'kragi biroz ko'tarilib turmoqda edi. Turib o'lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirganib qo'ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zga soch tolalari o'rab olib jonsoz¹ bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko'ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi.

Kumushbibi bir necha kundan beri sovuq havo tegdirib,

¹ Jonsoz — jon o'rtovchi, azob beruvchi.

bosh og‘rig‘i va ko‘z tinishka o‘xshash og‘riqlardan shikoyat qilib yurar, shuning uchun onasi “tinch uxlasin, ortiq urinmasin” deb bu kun namozga ham uyg‘otdirmagan edi...

* * *

Qish kunlari bir tutam, “ha deguncha” kech bo‘ladir. Bu kun ham “ha deguncha”ga ham qolmay kech bo‘lg‘an, mehmonlarning kelishkaniga yarim soatlab vaqt o‘tkan edi. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to‘la-to‘kis davom etar edi. To‘ybeka ichkari bilan tashqarig‘a¹ yugurib dasturxon yangilar, choy tashir edi. Xizmat tugala yozg‘andan keyin To‘ybeka o‘zining sovub qolg‘an oshini yemak uchun Oftob oyimlar yonig‘a o‘lturdi. So‘zdan so‘z chiqib Oftob oyim To‘ybekadan so‘radi:

— Mehmonlar qanaqa kishilar ekan, tanidingmi?

— Nax siz yosh mehmonni ko‘rmabsiz, dunyog‘a kel-mabsiz, — dedi To‘ybeka o‘ng-u ters osh chaynab, — bir chiroylik, bir aqllik, tag‘in o‘zi hammadan yuqorida o‘lturadir; hali yigirmaga ham bormag‘andir, mo‘ylabi ham endigina chiqa boshlag‘an... Nax bizga kuyav bo‘ladirg‘an yigit ekan, — dedi va Kumushka qarab kulib qo‘ydi. Bu so‘zdan Oftob oyim ham kulimsirab qizig‘a qaradi:

— Ana Kumush, sen eshitdingmi, opangning so‘zini. To‘ybeka senga er topqan, sen bo‘lsang boshim og‘riydir, deb yotasan.

Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek irinlari ostidag‘i sadafdek oq tishlari ko‘rinib ketdi ersada, biroq uning bu holi tezlik bilan tundliqqa alishindi.

— Qolg‘an xizmatlaringizning bittasi endi menga er topish edi.

To‘ybeka Kumushning tundlanishini elamadi²:

— Ey... singlim, hali sen bilmaysan, — dedi, — u yigitni bir ko‘rgin-da, hu, deb ketabergin... sen tugil, shu yoshim bilan menim ham unga tekkim keldi, — dedi va xaxolab yubordi.

Kumushbibi chirt etib yuzini To‘ybekadan o‘girdi.

— Tezroq tegib qoling.

— Koshki edi tegalsam, — dedi To‘ybeka, — men uning

¹ Cho‘ri xotirlarda kishidan qochish rasmi yo‘q edi (mual.) ² Elamadi — e‘tibor qilmadi.

bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo'lsang uning bilan tenglashar eding. “Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan” xa-xa-xa!..

To'ybekaning shuningdek hangamalari boshqa vaqtlarda Kumushni yaxshigina kuldirsa ham hozir unga yotishib kelmadi shekillik, achchig'langan ko'yi yotish uchun uyiga kirib ketdi. Oftob oyim “bachcha-machchadir” deb o'ylag'an edi. Shuning uchun bu to'g'rida so'z ochmadi.

* * *

Qutidor mehmonlarni jo'natib yotish uchun yeshinar ekan, Oftob oyim so'radi:

— Chiroylik yigit, aqllik yigit, deb maxtiy-maxtiy To'ybekaning ichagi uzildi, u kim edi?

— Mehmonimiz o'sha edi, — dedi qutidor, — toshkandlik Yusufbek hoji otlig' yaqin oshnamning o'g'li.

— To'ybekaning maxtag'anicha bormi, o'zi?

— Bor, — dedi qutidor va g'italandi¹, — xudo kishiga o'g'il bersa shundayini bersin-da.

Oftob oyim kula-kula To'ybekaning Otabek to'g'risida so'zlagan gaplarini va Kumush bilan bo'lg'an mojarosini so'zlab chiqdi. Qutidor ham kulgidan o'zini to'xtatolmas ekan:

— Tentagingning aqli balo, kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa, — dedi.



Savol va topshiriqlar

1. Mirzakarim qutidorning uyi tasviriga e'tibor qiling va bu hol uy egasi tabiatiga qanchalik bog'liq ekanini tushuntiring.
2. Qutidorning portreti tasvirlangan o'rinlarga tayanib, uning tabiatini izohlang.
3. Matndan Oftob oyim fe'lini aks ettiradigan tasvirlarni topib, sharhlang.
4. Kumushbibi portreti tasvirini qayta o'qing. Tasvirdagi sanamni ko'z oldingizga keltiring.
5. Otabekning maqtarli jihatlari yozuvchi tomonidan emas, balki boshqa personajlar tomonidan aytilayotgani sababini izohlang.

¹ G'italanmoq — jonlanmoq.

KUTILMAGAN BAXT

Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo'ldi. Domlaning: “Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, nafsingizni toshkandlik musulmon Otabek Yusufbek hoji o'g'lig'a bag'ishlamoqning... “Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, nafsingizni topshirdingizmi?” degan so'rog'i olti, yetti qaytarilg'andan keyin, shunda ham yangalar qistog'i ostida arang uning rizolig'i olindi.

Kechki soat beshlarda qutidorning havlisi to'rt ko'z bilan kuyav kelishini kutadir. Kuyav uchun palovlar, quyuq-suyuq oshlar, necha turlik ne'matlar hozirlanib, bular ham kuyavning intizorlarida turardilar. Nahoyat soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o'ttiz chog'liq yosh yigitlar orasida Otabek — kuyav ko'rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qala poyafzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'... Yuzlar qizil, og'iz irpaygan¹, ko'zlar o'ynab allakimni qidiradir. Domla xutba boshlaydir. Forsiycha o'qulg'an hamd, salovat va boshqalardan so'ng hutba eng nozik bir o'ring'a kelib to'xtaydir: “Sizkim, Otabek Yusufbek xoji o'g'li, Kumushbibi Mirzakarim qizini o'zingizga shar'iy xotinliqqa qabul qilasizmi?” — fors tilida so'ralg'an bu savol Otabekning kulgusini qistatib ko'nglidan kechiradir:

— Qabul qilasizmi-ya?

Ul birinchi so'roqdayoq: “Uchib, qo'nib qabul qilamiz”, — deb javob bermakchi bo'lsa ham biroq xalqning: “O'lib turg'an ekan”, — deb qiladig'an ta'nasidan cho'chib, javob bermaydir. Yana bir qayta yuqoridag'i: “Sizkim falonchi...” jumlasini domla tarafidan takrorlanadir. Kuyavlarga uchinchi so'roqda javob berish odat hukmida bo'lsa ham, Otabek bu takallufka chidamaydir. Go'yo uchinchi so'roq o'rnig'a “Endi olmas ekansiz Kumushbibini...”, — deb majlis buziladig'andek sezilarda, hamma tovushni qo'yib, barchag'a eshittirib: “Qabul qildi!” — deb yuboradir.

Domla alhamdulillah, alhamdulillah... bilan nikohni tugatib, majlis tomonidan kelin bilan kuyavning haqlarig'a

¹ Irpaygan — kulgisini yashirolmay, ochilgan.

duo boshlanadir, hamma duogʻa qoʻl koʻtarib, hatto, tomdagʻi tomoshachi xotirlargʻacha “omin”ga koʻmaklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir. Yigitlar kuyavni mehmonxonagʻa olib kiradirlar, ziyofat boshlanadir.

Bizningcha, bir yarim soat, Otabekcha, allaqancha yil hisoblangʻan bir fursat oʻtib, nihoyat yangalar kuyav soʻradilar. Ikki yoshgʻa muhabbatlik umr soʻrab fотиha oʻqilgʻandan soʻng Otabek ichkariga uzatildi.

Hasanali mehmonxona ayvonida bekni kutib turar edi:

— Endi kuyavlik muborak boʻlsin, begim!

— Qutlugʻ boʻlsin.

Hasanali boshdan-oyoq bekni kuzatdi, otaliq muhabbati bilan bekning orqasini siladi va yoshlik koʻzlari bilan duo qilib unga ruxsat berdi. Otabek yangalar kutib turgʻan tarafka yurdi. Ul hozir qiziq holatda edi, bu nima gap: tushimi, oʻngimi, nima gaplar oʻtib, nimalar boʻlmoqda, boʻlib turgʻan ish haqiqatmi?

Biz ichkariga kiramiz: havlining ikki tomoni to Kumushbibining uyigacha qator kuyav kutgan xotinlar, bolachaqalar bilan toʻlgʻan. Baʼzan kutkuvchi xotirlarning qoʻlida yonib turgʻan shamʻ. Kuyav tushadigan uy toʻy mollari bilan juda ham bejalgan. Burchakda oq kiyimlar bilan Kumushbibi turadir... Uning husni bejalgan uyning oqlari, koʻklari, sariqlari va qizillari bilan tovlanib xayoliy bir siymoda... Koʻz yoshlarini oquzib yangasining soʻziga quloq osmaydir. Tashqaridan eshitilgan: “Kuyav! Kuyav!” — soʻzi bilan tagʻin ham uning koʻzyoshisi koʻpayib, tusi ham oʻzgardi. Yangasi Kumushni shu holda qoldirib oʻzi yugirganicha eshikka chiqdi. Kuyav kelar edi: ikki tomonni sirib olgʻan xotin-qizlar oʻrtasidan Otabek kelar edi. Uning ketidan Oftob oyimning egachisi isiriq tutatar edi. Xotinlar qoʻllarida sham bilan unga qarar va uzatib qolur edilar. Kuyav uyning yonigʻa yetdi. Uning yuzi uyatdan juda qizargʻan, qochqali joy topolmas edi. Shu kezda uyning eshigi ochildi-da, yanga tomonidan qarshilandi.

— Kiringiz, bek.

Otabekning yurak urishi ehtimol yangasiga ham eshitalardi. Otabek uyga kirgandan keyin yangasi tashqari chiqib, eshikni oʻzi koʻrarlik qiya qilib yopdi...

Uyning toʻrida yonini Otabekka berib roʻymolining uchini tugibmi, yirtibmi Kumushbibi turadir va kim keldi, deb yonigʻa

qaramaydir. Ro‘ymol tugish bilan mashg‘ul qo‘llarni chet qo‘l kelib siqdi:

— Jonim.

Kumushbibi begona qo‘ldan seskandi va qo‘llarini qutqazmoqqa tirishib:

— Ushlamangiz, — dedi ham siquvchi qo‘ldan qutulish uchun orqag‘a tislandi.

Titrag‘an va qovjirag‘an bir tovushda:

— Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? — dedi bek.

Kumushbibi shu choqq‘acha qaramag‘an va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda bir muncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlang‘an bir tovush bilan so‘radi:

— Siz o‘shami?

— Men o‘sha, — dedi bek.

Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar.

Kumushbibi og‘ir tin olib:

— Ko‘zlarimga ishonmayman, — dedi.

Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab:

— Men ham, — dedi.

Shu vaqt ikki lab o‘z-o‘zidan bir-birisiga qovushdi... Kichkina nozik qo‘llar yelka ustiga, kuchlik qo‘llar qo‘ltiq ostig‘a yopishdilar.

Kumushbibi Otabekning yuziga uzoq tikilib turdi-da:

— Kutilmagan bir baxt, — dedi va o‘zining otidek bir narsaning tovushi kabi qilib kulib yubordi. Bu kulish havlilargacha eshitildi. Qiya ochilib turg‘an uy eshigi ham qattiqqina beklendi. Kumushbibi Otabekning qo‘lidan ushlab, quyida yozib qo‘yilg‘an dasturxon yonig‘a boshladi:

— Siz bo‘lg‘onlig‘ingizni ilgaridan bilganimda boshqacha qarshilar edim, — dedi.

— Boshqa deb o‘yladingizmi?

— O‘ylash qayerda, siz bo‘lursiz, deb ko‘nglimga ham kelmagan edi, — dedi-da, tag‘in kulib yubordi.

Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solur ekan, ul yerga qarag‘an holda edi.

— Men sizga hech narsa ham hozirlamag‘an edim...

— Hozirlamag‘aningiz uchun o‘kinasizmi?

...

— O‘kinmangiz, — dedi bek, — sizdan bir narsani so‘rasam ayamassiz?

— Ayamayman.

Otabek Kumushbibining lablari ustidagi qora xolig‘a ishorat qilib:

— Shu yerdan bir o‘pish bersangiz siz ham katta estalik hozirlag‘an bo‘lur edingiz, — dedi.

Kumushbibi qizarindi.

* * *

Otabek Marg‘ilon kelganning ikkinchi kuni poyabzal bozorida bo‘lg‘an edi. Asr nomozning vaqti o‘tib borg‘anliqdan ul shundagi do‘kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so‘radi. Ko‘chadagi suv ariqning tegidan oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do‘kondor unga suvning qulay o‘rnini ko‘rsatdi: “Mana shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib tahorat olursiz”, — dedi. Otabek do‘kondorning ko‘rsatishicha qutidorning tashqarisig‘a kirdi. Shu vaqt tasodufan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib kelguvchi farishtaga ko‘zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasig‘a kelib to‘xtag‘an chingilin¹ yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayriixtiyoriy, ikkisi ham bir-birisidan bir muncha vaqt ko‘z ololmadilar. Oxirida Kumush nimadandir cho‘chig‘andek bo‘ldi, yengilgina bir harakat bilan o‘zini ichkari yo‘lak tomong‘a burdi. Bu burilishdan uning orqa-o‘ngini tutib yotqan qirq kokillari to‘lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo‘l ustidan ariq bo‘yida qotib turg‘an yigitga yana bir qarab qo‘ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirida ko‘zini katta ochib o‘tgan daqiqada uchrashkani xayoliy go‘zalni istab xayollandi. Biroq haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo‘yig‘a o‘ltirdi. Ammo ko‘zi xayol yashiring‘an yo‘lakda edi. Tahoratlanib bo‘ldi, yana ko‘zini o‘sha tarafdin uzolmadi. Artinib olg‘ondan keyin yana oyog‘ ustida to‘xtab qoldi. Yashiring‘an go‘zal ikkinchi qayta ko‘rinmadi, ehtimolki,

¹ Chingilin — kelishgan, bejirim.

Otabekni ipsiz bog‘lab, o‘zi qaysi burchakdan bo‘lsa ham asirini tamosho qilarg edi.

Ko‘b kutdi, asr namozini qazo qilib, kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mojarosi tug‘ilgan edikim, bu yog‘i o‘qug‘uchimizga ma‘lumdir. Kumushbibining yuqorida: “Siz o‘shami?” — deb so‘rashi shunga binoan bo‘lib, ammo unga masalaning onglashilmay qolishi va chin baxtni bil‘aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari qovushish bilan natijalandi.



Savol va topshiriqlar

1. Kumushbibining Otabekka turmushga chiqishga darhol rozilik bermaganligi sababini tushuntiring. Bu uyatchanlikmi yoki norozilik?
2. **“Yuzlar qizil, og‘iz irpaygan, ko‘zlar o‘ynab allakimni qidiradir”** tasviriga asoslanib Otabekning holatiga baho bering.
3. **“Bizningcha, bir yarim soat, Otabekcha, allaqancha yil hisoblangan bir fursat o‘tib...”** jumlasini izohlang.
4. **“Kumushbibi begona qo‘ldan seskandi va qo‘llarini qutqazmoqqa tirishdi”** jumlasiga asoslangan holda kelinchak shaxsiga baho bering.
5. Kumushbibining: **“Siz o‘shami?”** so‘rog‘i zamiriga qanday tuyg‘u yashiringan?
6. Kumushbibining **“...o‘zining otidek bir narsaning tovushi kabi...”** kulib yuborishi tasvirini tushuntiring.

OTA-ONA ORZUSI

O‘zbek oyim ellik besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlik bir xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi. Uning o‘tkirligi yolg‘iz erigagina emas, Toshkand xotinlariga ham om¹ edi. O‘zga xotinlar uning soyasiga salom berib, to‘ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan yig‘inlaridagi uylarining to‘rini O‘zbek oyimg‘a atagan edilar.

O‘zbek oyim uncha-muncha to‘y-u azalarga: “Kavshim

¹ Om — umumiy, tegishli.

ko'chada qolg'an emas", – deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o'z to'ylarini O'zbek oyim ishtiroki bilan o'tkazib olsalar, o'zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab, "maning to'yimni bek oyim o'z qo'llari bilan o'tkazdilar", – degan jumlani majlislarda iftixor o'rnida so'zlab yurar edilar. O'zbek oyimning obro'si yolg'iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o'rda xonimlari ham ehtirom qilib o'zlarining "onaxonlari" deb bilar edilar. Shunga ko'ra qaysi bir vaqtlarda o'rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko'ndalang qilib, "o'rda begi oyim buyurdilar" deb O'zbek oyimning yasanib chiqishini kutar edilar. Bu tomon bilan qaysi bir majlislarda O'zbek oyim xotinlarning eslarini ham chiqarib yuborar edi: "Kecha o'rda bekoyimdan menga arava kelgan ekan, fe'lim aynab turg'an edi bormay aravani bo'sh qaytardim... Bo xudo, o'rda bekachi bo'lsa o'ziga, dedim", – der edi. Ikkinchi vaqtda: "O'tkan kun o'rdaga borg'an edim; xonimlar yotib qolasiz deb qo'ymadilar, noiloj bir kecha yotib keldim", – deb so'z orasiga qistirib ketar edi. Bu so'zlarni eshitkuchi xotinlar o'zlarining qandog' bir xotinning suhbatiga noil bo'lg'anlarini o'ylab, O'zbek oyimning ehtiromini tag'in ham kuchaytirar edilar.

Ul o'z uyida o'lturg'anida ham ustidagi atlas ko'ynak bilan adras mursakni oq shohi dakana bilan kahrabo tasbihni qo'ymay, qish kunlari tanchada par yostiqqa suyalib, yoz kunlari ayvonning to'riga yoslanib Hasanalining xotini bo'lg'an Oybodoqqa, cho'ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmasliqni tanbihlabkina o'lturar edi.

Otabekning Marg'ilondan uylanib qo'yishi otasi uchun uncha rizosizlik mujrib¹ bo'lmasa ham, ammo uning o'g'ul to'yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost-ust qilib, "Buning qizi yaxshi bo'lsa ham, uy-joylari yaramas ekan, buning uy-joylari tuzik bo'lsa ham, qizi ko'rksiz ekan; buning qizi-da uy joylari-da tuzik, biroq zoti pas ekan" deb qiz, quda, uy, joy, nasl va nasab tekshirib yurg'uchi O'zbek oyimning Otabekni uylandirib, buning orqasidan ko'raturgan orzu-havas, to'y-u tomoshalarini shartta kesib qo'yg'an bu uylanishka nima deyishi va qanday qarashi, albatta, ma'lum edi.

Bu xabarni Hasanalidan eshitkan kunlari ul bul ishka

¹ Mujrib – sabab.

chidab turolmadi: “Endi menga mundog‘ o‘g‘il kerak emas... Oq sutimni oqqa, ko‘k sutimni ko‘kka sog‘dim... Endi Toshkandga kelmasin ul o‘zboshimcha betiyiq!” – deb baqirib-chaqirib, yig‘lab-sixtab, dard-u hasratni boshiga kiyib oldi. Oradan o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas Marg‘ilondan Otabek keldi. Uch oylab ko‘rmagan o‘g‘lini quchog‘iga olib ko‘rishmak o‘rniga undan yuzini o‘gurib, san kimsan, keldingmi, deb so‘ramadi va salomiga alik ham olmadi. Go‘yo uxlamochi bo‘lgan tovuqdek hurpayib oldi. Otabek onasining araziga allaqachon tushungan, ham shu holni Marg‘ilondayoq kutkan edi. Bir-ikki qayta uzr aytib ko‘rgandan so‘ng O‘zbek oyimning epaqag‘a kelishiga ishonmay qoldi va shuning uchun ul ham go‘yo bilmagan, tushunmagan kishidek yuriy berdi.

Turg‘an gap, Otabekning Marg‘ilong‘a uzoq bormay turishi mumkin emas edi. O‘rtadan ikki hafta o‘tar-o‘tmas otasig‘a allaqanday bahona ko‘rsatib, Marg‘ilon jo‘naydir. O‘zbek oyim o‘g‘lining “o‘lganning ustiga chiqib tepish” qabilida bo‘lg‘an bu harakatidan tutuni ko‘kka chiqib, borliq qahr-u g‘azabini eri ustiga to‘kadir: “Siz qarib esingizni yeb qolibsiz, o‘g‘lingizni marg‘ilonliqqa topshirib qo‘yib, yana el ichida boshingizni ko‘tarib yurmakchi bo‘lasizmi?” – deydir.

Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotin bilangina emas, umuman, uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo‘lsa-bo‘lsin uzoq so‘zlashib o‘lturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so‘zlari va yo kengashlari bo‘lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so‘zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so‘ng sekingina ko‘tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so‘zlag‘uchini o‘z og‘zig‘a tikiltirib o‘lturg‘andan so‘ng, agar ma‘qul tushsa “xo‘b” deydir, gapka tushunmagan bo‘lsa “xo‘sh” deydir, noma‘qul bo‘lsa “durust emas” deydir va juda ham o‘ziga noma‘qul gap bo‘lsa bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe‘liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko‘pincha bir og‘iz javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabek bilan birar to‘g‘rida so‘zlashmakchi bo‘lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir.

O‘zbek oyim yuqoridag‘i o‘zining itob¹ va xitobiga eridan

¹ Itob – ta‘na.

bir iljayib qo'yish javobini olib dami ichiga tushadir va chor-nochor o'ttuz kunlab bir zamoni o'zicha marg'ilonliqni qarg'ash bilan kechiradir. Otabek Toshkandga qaytib kelib, "endi araz bitkandir" degan o'yda onasig'a salom beradir. Araz bitish qayerda, O'zbek oyimning o'g'lig'a qarshi kinasi tag'in bir necha qat ortqan, ammo bu gal salom berguchiga bir qaraydir-da, "O'g'lim, menga salom berib nima qilasan, marg'ilonliq onangning duosini ol!" – deb yuzini chetka o'guradir. Ul onasining bu kinoyasini kulgulik bilan kechirib, yana eskicha arazda qolaberadirlar. Otabek yana o'n besh kunni o'tkazib, tag'in bir nozik sababni o'rtag'a tashlab onasining ruksatisiz Marg'ilong'a jo'nab soladir. Tag'in O'zbek oyimning rangi o'chkan, qoni qochqan: tovoqni kosaga, cho'michni piyolaga urib dod-u faryod: "Siz otamisiz, nimasiz axir, o'g'lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi? O'g'lingizning bu ishi bechiz emas: marg'ilonliq sehr qildimi, jodu qildimi, haytovur siz shu yo'sunda yuriy bersangiz, erta-indin o'g'uldan ajralasiz. Bu kalvak¹ o'g'lingiz marg'ilonliqning eshigida qul bo'lib yotib oladir..." Ammo Yusufbek hoji xotining so'zini bu gal ham elamaydir, faqat: "Qo'yaber, xotin, o'zi sog' bo'lsa, bir kun esini topar", – deb qo'yadir. Bir yarim oylar vaqtni Marg'ilonda o'tkazib, tag'in Otabek Toshkandga keladir. Tag'in ona-bola oralarida kinakudurat... Tag'in araz... O'n besh kun o'tmasdan yana Andijon safari, yana O'zbek oyimning fig'oni falakka...

...Bir oylab kechikkandan so'ng Otabek qaytib keldi va bu kelishining vijdon azobi va tilamagan bir taklifni eshitish uchungina emas, balki qabul qilish uchun bo'lg'anlig'ini payqadi. Ul bu gapni onasining ilgarigi achimsiq so'zlarini va arazlarini tugalganidan va o'rniga chuchuk so'zlar, silliq muomalalar bitib "eson-sog' keldingmi, bolam"laridanoq sezgan edi. Bunday bo'lmag'ur taklifni eshitmas uchun o'zini chetka olib, otasi, ayniqsa, onasig'a yo'liqishdan qochib yurishka majbur bo'ldi. Ikki oradagi bu qochish-quvish ishi uzoqqa cho'zilmay, bir kech mehmonxonada ota-o'g'ul so'zlashib o'lturganning ustiga O'zbek oyim kelib kiradi va o'lturmasdanoq hojiga imlab qo'ydi. Bu imqo'qni Otabek payqamag'an bo'lsa ham, lekin anuv gapni aniq shu majlisda ochilishig'a ko'zi yetib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi. O'zbek oyim kelib kirgandan so'ng Yusufbek

¹ Kalvak – dovdur, bo'shang.

hoji bir necha vaqt o‘ylab qoldi. O‘zbek oyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi. Anchagina so‘zsiz o‘lturg‘andan so‘ng hoji muloyimona so‘z ochdi.

— O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek, ma‘lumki, ularning “qilib qo‘yg‘an yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini”, albatta, bilar edi. Shundoq ham bo‘lsa bilmaganga solindi:

— Aqlilik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari, albatta, noma‘qul bo‘lmas, — dedi.

Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotinig‘a qarab oldi. Yana orag‘a jimjitlik kirdi. Bu so‘zsizlik ma‘nosig‘a O‘zbek oyim tushuna olmag‘an edi. Bir oz qarab o‘lturg‘ach, yuragi qaynab ketkandek bo‘ldi:

— Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig‘a unashib qo‘ydiq... Endi san bilan to‘y maslahatini qilishmoqchi edik...

Otabek onasig‘a bir og‘iz so‘z demay, ma‘nolik qilib otasig‘a qarab oldi. Hoji uyatliksumon “shundog‘” deb qo‘ydi.

— Sizlarni ranjitib bo‘lsa ham bir martaba uylangan edim-ku? Endi...

— San uylansang biz ranjirmidik? — dedi kulib hoji.

— Ranjimasalaringiz...

Hoji tuzuklanib o‘lturib oldi:

— Bu ranjishdan emas, hojatdan, o‘g‘lim.

— Nima hojat?

— Hasanalining so‘ziga qarag‘anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan. O‘g‘il o‘sdirib katta qilg‘an onangning bo‘lsa oldig‘a kelin qayg‘usi keladir...

Otabek onasig‘a qaradi:

— Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo‘lardi-ku, — dedi.

O‘zbek oyim marg‘ilonliq tomonidan sihrlangan o‘g‘lig‘a qarshi qizishib ketdi. Bir yillardan beri ichiga yig‘ib kelgan kinasini to‘kib berdi:

— Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag‘an edim. San bizning naslimizni ko‘tarish o‘rniga, yerga urib bulg‘ading. Biz sani Marg‘ilon andisiga bunchalik mukkadandan ketishingni o‘ylamag‘an edik, adabsiz... o‘zingga qolsa shu marg‘ilonliqni xoting‘a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!..

Otabek ham qizishdi:

- Xotin bo‘lmasa nima, axir?!
- Qoshliq, ko‘zlik bir andi!
- Andi deganingiz nima o‘zi?

Yusufbek hoji o‘g‘lini bosish o‘rniga javob ber, degandek qilib iljaygan holda xotiniga qaradi. O‘zbek oyim “andi” ma’nosini bildirib, andilarning sihrini rad qilish uchun biroz tutiliqib qiynaldi:

— Andi... andi... o‘zi xitoymi, nima balo... o‘zi qalmoqdan tarqag‘an bo‘ladir. Tushunmagan bo‘lsang, lo‘lilarning bir toyifasi...

Bu javobga Yusufbek hoji o‘zini xaxolab kulishdan to‘xtata olmag‘anidek, Otabek ham kulib yubordi. Xotining tirqoq ostidan kir izlab va da’vosining isboti uchun g‘o‘ldirashidan ortiqcha kulib kayflangan Yusufbek hoji ko‘ziga chiqq‘an yoshlarni artar ekan, jiddiyat bilan o‘g‘lig‘a dedi:

— O‘g‘lim, san onangning gapiga achchig‘lanma. Ul har narsa desa faqat Marg‘ilondan uylanganingga qarshilig‘idan aytadir. Ammo mendan so‘rasang, Marg‘ilondag‘i na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajah bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo‘lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o‘g‘lim, deyman. Ammo bizning hozirgi ba’zi bir ra’ylarimiz sanga yotishib kelmas ekan, bunga haqqing ham bor, lekin ikkinchi tarafdin bizni ham haqsiz tashlab qo‘yma. O‘g‘lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo‘q. Dunyoda ko‘rib o‘taturg‘an barcha orzumiz, havasimiz faqat sangagina qarab qolg‘an. Biz xudoi taolog‘a minglab shukur aytamizkim, san boshqalarning farzandidek eslik-hushlik bo‘lding; kishilardek sen bilan iftixor qilolmasaq-da, san orqalik xijolat chekmasimizga ishondik. Ayniqsa, onangning saning tufayli kechiraturgan umidlari tobora ortib bordi. Bu kun onang saning olding‘a tiz cho‘kib va onang ko‘ngli uchun men ham orag‘a tushib sandan so‘raymiz: san o‘z xohishing yo‘lida uylangan ekansan, rafiqang sanga muborak bo‘lsin. Eslilik da’vosida yurgan ota-onang tilagi, albatta, shundan boshqa bo‘lmas. Shu bilan birga saning sababi vujuding bo‘lg‘an bir kishi o‘z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakchi... Uning bu orzusig‘a haq berasanmi, yo‘qmi yana ixtiyor o‘zingda...

Hojining bu so‘zi O‘zbek oyimg‘a nechog‘liq yoqqan bo‘lsa,

Otabekni shu qadar yerga qaratqan edi. Hoji o‘zidan oshirib so‘zlag‘an bu so‘zlarini shu gap bilan tamomladi:

— Bilgan topib so‘zlar, bilmagan qopib, deganlaridek, onangning aytmakchi bo‘lg‘an so‘zi faqat shu edi. Boyag‘i gaplari bo‘lsa o‘z haqqini himoya yo‘lida uning po‘pisalarigina bo‘lib, mendan ham ko‘ra onangning fe‘lini o‘zing yaxshi bilasan...

Otabek hamon sukutda, O‘zbek oyim bo‘lsa boshi bilan “shundog‘” ishorasini berar edi. Ota-ona orzusini ifo etishdan¹ bir soniya ham o‘zining ko‘z o‘ngidan xayoli ketmagan anuv ilohiy muhabbat uchun hech bir turlik kamchilik kelmasiga ishonsa ham hozir uning yuragini boshqa bir haqiqat tirnay boshlag‘an va vijdonini faqat shu masalagina o‘rab olg‘an edi. Otabekcha, eng nozik sanalg‘an bu masala qarshidag‘i javob kutib o‘lturg‘uchilarni nihoyat zeriktirdi.

— Bizni kutdirma, o‘g‘lim.

Otabek mag‘lub bir boqish bilan bu so‘zni aytkuchi otasig‘a qaradi va yalinchoq bir ohangda javob berdi:

— Men sizlarning orzularingizni bajarishka — agar xur-sandchilig‘ingiz shu bilan bo‘lsa — har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko‘ra-bila turib jabr ham xiyonat...

Hoji o‘g‘lining maqsadig‘a darrov tushuna olmadi va so‘radi:

— Kimga, xotiningg‘ami?

— Yo‘q, sizning oladirg‘an kelingizga. O‘g‘lingizning vujudi bilan orzuvingizni qondirish oson bo‘lsa ham kelingiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o‘rnida tasavvur qilingiz.

Yusufbek hoji yalt etib xotinig‘a qaradi. O‘zbek oyimning bo‘lsa oladirg‘an keliniga e‘timodi yuqorilig‘idan o‘ylab-netib turmadi:

— Mayli, bolam, buyoqni hozir san o‘ylamay qo‘y, — dedi.

Otabek bir og‘iz so‘z aytmay sukut qildi. Yusufbek hojining esa o‘g‘lining so‘zini to‘g‘rilig‘ig‘a, keyindan yuz ko‘rsataturg‘an ko‘ngilsiz ishlarga aqli yetsa ham, ammo bir mulohaza yuzasidan istiqbolning qorong‘i ishlarini hozir uncha mulohaza qilib ko‘rmadi:

— Juda to‘g‘ri aytasan, o‘g‘lim, biroq onangning bir mulohazasizligiga boshdayoq men labimni tishlab qolg‘an

¹ Ifo etish — ado etish, bajarish.

edim. Hozirda ham shu holda qolmoqqa majburman, — dedi va: — Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang biravni ishonirib qo‘yg‘an, bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma‘qul ko‘rinmaydir.

Otabek ota-ona orzusig‘a o‘z ta‘biricha jonsiz haykal bo‘lib rizoliq berdi. Ammo o‘z rizolig‘ining sharti qilib to‘ydan ilgari Marg‘ilon borib kelishni va bir daraja ularga aytib o‘tishni, shundan so‘ng to‘y boshlashni ahd qildi. Ishning yengil ko‘chishiga so‘yingan ona Otabekning bu shartiga lom demasdan ko‘ndi va orzuliq to‘yni tez boshlash uchun o‘g‘lini Marg‘ilon ketmakka qistay boshladi...

Ona orzusiga ko‘ra Toshkentdan ham uylanishga majbur bo‘lgan Otabek Kumushni qo‘lga kiritishga astoydil ahd qilgan yovuz Homidning hiylalari tufayli suyuklisining uyidagilar tomonidan nohaq quviladi. Ammo aybi nimada ekanini bilolmaydi. Nihoyat, tortgan barcha azoblarining sababchisi Homid va uning yugurdaklari ekanini bilgach, yolg‘iz o‘zi dushmanlariga qarshi omonsiz kurashga kirishadi va uch nafar jinoyatchini ham o‘ldiradi.

DUSHANBA KUN KECHASI

Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamot masalalarini o‘zining qora quchog‘iga olg‘an qorong‘i bir tun edi va bulardan qaysi birlarining so‘ng soatlari yetkanligi shu qorong‘i tun kabi qorong‘i edi. Otabek bu ikki holdan tabiiy birisini bu soat o‘zining ko‘z o‘ngida ko‘rar va shunga hozirlanar edi esa-da, ammo Homidning xayoli faqat gulgina iskar, gul sayriga oshiqinar edi...

Olti qarich kenglikda uzundan-uzoq tor ko‘cha, tor ko‘cha boshida kichkinagina bir eshikcha bor edi. Shom bilan xuftan o‘rtasida bu ko‘cha boshig‘a bir yigit kelib to‘xtadi-da, tevaragiga kishi bilmas qilib razm soldi. Kichkina eshikcha yonig‘a yetkanda tag‘in haligidek orqasig‘a qarab qo‘ydi. Bir oz o‘ylab to‘xtag‘ach, eshikning o‘ng tomonidag‘i devorning buzuq yeridan sekingina ko‘tarilib maydonga mo‘raladi. Eshikning qulf va zanjiri bo‘lmay yuziga yopiq holda turg‘an bo‘lsa ham ul eshikka taqilmadi, mashaqqatlanib devorga mindi. Oy shom yeb yaxshig‘ina qorong‘i tushkan bo‘lsa ham maydon

ichining daraxtsizligi uchun tikkaygan cho‘b ham ajraturlig edi. Maydonni kishidan holi bilgach, sekingina devordan o‘zini maydonga oldi.

Maydon ikki tanob kenglikda bo‘lib, janubi qutidor va qo‘shnisining imoratlari orqasidan va boshqa uch jihati ham shunga o‘xshash binolardan iborat edi. Maydonga yozda nimadir ekilgan, chuqur-chuqur jo‘yaklar tortilgan va yer yomg‘ur bilan ivib, bo‘kib oyoq ko‘tarib bosishga imkon bermas, har bir oyoq uzg‘anda uch chorak loy barobar ko‘tarilur edi. Qiynala-qiynala maydonning janubiga o‘tdi. Uning chap qo‘li tomonida bir uyning orqa devori bir bo‘yra eni kesib tushirilgan bo‘lib qorayib ko‘rinar edi. Ul bu kesilgan o‘rinni o‘tkan kun kechasi kelib ko‘rib ketkani uchun qaytadan qarab turmadi esa-da, lekin uning bu binog‘a iltifotsiz qarashi mumkin emas edi. Bu tegi kesilgan bino Kumushning o‘z uyi bo‘lib, bu uy ichida Otabekning saodatlik kunlarining shirin xotiralari saqlanar va shu daqiqada ham uning hayot tiragi bo‘lg‘an Kumushbibi o‘lturar edi. Otabek ko‘zini to‘ldirib binog‘a qaradi, go‘yo bu qarashda ul dunyo malaki bilan vidolashar edi. Uzoqqina binog‘a qarab olg‘ach, qo‘ynig‘a qo‘l solib bir qog‘oz oldi, xayol ichida qog‘ozning taxlarini tuzikladi-da, qaytarib yana qo‘ynig‘a tiqdi. Shundan so‘ng binog‘a yana bir ko‘z tashlag‘ach, maydonning kunbotarig‘a yurib, o‘n besh adimlab haligi joydan yiroqlashdi. Tom shuvog‘ig‘a loy olingan zovur shekillik o‘rinni kechagi kelishida biqinish uchun belgulab ketkan edi, kelib shunga tushdi-da, qo‘lini chakkasiga qo‘yib yoni bilan yotib oldi. Garchi osti kesilgan bino bilan Otabek tushib yotqan loyxonada bir-birisiga ro‘baro‘ edi, ammo imoratlarning ko‘lagasi va kechani o‘tacha qorong‘ilig‘i orqasida loyxonada kishi bo‘lg‘anlig‘ini payqash qiyin edi.

* * *

Tun yarim bo‘lib, olding‘i uxlag‘anlar endi bir uyquni olg‘an edilar. Maydon eshigi ochildi. Biri orqasidan biri yurib ikki ko‘laga maydonga kirdi. Buni payqag‘an Otabek xanjarini qinidan chiqarib qo‘lig‘a ushlag‘ach, yuz tuban yerga uzandi... Ikki ko‘laga so‘zsizgina osti kesilgan bino yonig‘a kelib to‘xtadilar.

Kelguchilarning biri Sodiq va ikkinchisi Mutal edi.

Tumshug'ini yerga tirab yotqan mushukdek bo'lib Otabek ularni kuzatar edi.

To'xtag'ach, shivirlab Sodiq so'radi:

— Teshilayozg'anmikin?

— Ozg'ina qolg'andir, deb o'ylayman, negaki, paxsaning enidan bir gaz chamasi joy ochilg'an!

Mutal tovshini baralla qo'yib so'zlar edi, shuning uchun Sodiq dedi:

— Tovshingni sekinroq chiqarsang-chi!

Mutal belidan teshasini olar ekan, unga javob berdi:

— Hali shundan ham qo'rqasanmi, balki hali ashulamni ham aytib yuborarman!

— Jinnilig'ingni qo'y, Mutal aka! Men ham yoningda turaymi?

— Turasanmi, yo'qmi ixtiyor o'zingda!

Mutal kovakka kirib kovlashka tutindi.

— Teshani qattig' solma, — dedi Sodiq.

— Menga o'rgatma, o'zim bilaman.

Sodiq Mutalning ehtiyotsizligidan qo'rqdi, shekillik, biroz Mutalning ishiga qarab turg'ach dedi:

— Bo'lmasa, men eshik yonig'a borib turay, teshildi deguncha hushtak ber.

— Tuzik, hali Homid kuyaving qayog'da qoldi?

— Ko'chaning boshida poylab o'lturgandir. Hushtagingni eshitkach, uni ham chaqiraymi?

— Chaqir, — dedi Mutal va shitir-shitir kesak tushira berdi.

Sodiq eshikdan chiqg'an ham edi, Otabek sekingina boshini ko'tardi-da, Mutal sari shuviy¹ boshladi. Mutal esa yemirilib tushkan kesaklarni tashqarig'a surish bilan ovora edi... Shu vaqt uning qo'ltug'i ostidan uzatilg'an qo'l hiqildog'idan ombir kabi siqib oldi... Mutal kuchlik edi, ammo Otabek undan ham kuchlik edi. Sapchib hiqildog'ini ajratish uchun bo'lg'an Mutalning birinchi harakati bo'shka ketdi-da, chap biqinig'a o'tkir xanjar g'archcha botirildi... Ammo ul hamon bo'shalishg'a kuchlanar edi va kuchlik qo'l battarroq uni siqar edi. Uch daqiqaliq kurashdan so'ng Mutal bo'shshadi, ilgarigi kuchlanishlardan qoldi va bir-ikki daf'a to'lg'anib jimgina jon

¹ Shuviy — siljiy.

berdi. Otabek eshik tomondan ko'zini uzmag'ani holda Mutalni sudrab o'zi biqing'an loyxonag'a olib bordi va qo'rqibqina hiqildoqdan qo'lini oldi. Mutalning boshi shilq etib loyxonag'a tushdi-da, mangulik uyqug'a ketkanligi ma'lum bo'ldi... Otabek bitta-bitta teshilgan bino yonig'a kelib eshik tomong'a hushtak berdi, javob hushtagi eshitilgach, teshuk ichiga kirib o'lturdi. Teshukning yuqorisidan biroz tuynuk ochilgan bo'lg'ani uchun ichkaridan quloqqa yengilcha pishillash eshitar edi... Sodiq yaqin yetkan edi, kesmadan uzoqroqda turib shivirladi:

— Teshdingmi, Mutal?

— Teshdim, beri kel.

Sodiq kesma yonig'a kelib engashdi. Engashgani hamono qo'l hiqildoqqa to'g'ri kelgan edi va xanjar qornig'a botirilgan edi... Sodiq qo'lidag'i xanjarini bir-ikki qayta solib ko'rsa ham tegdirish uchun kesmaning tubanlig'i halal berdi, lekin o'zi tetuk edi. Otabek sapchib kesmadan chiqdi va bor kuchi bilan Sodiqni bosib tushdi... Bosib tushishi hamono allaqaysi yeri achishkandek sezildi... So'l qo'li Sodiqning hiqildog'ida, xanjarlik qo'li Sodiqning xanjarlik qo'lida edi... Bir oz kuchini yig'ib olg'ach, hiqildoqni bor kuchi bilan siqa boshladi. Sodiq xirillar, shunday bo'lsa ham qo'lidag'i xanjarni bo'shatmas edi. Eshik tomondan Homid ham ko'rinib qoldi... Vaqt tang kelgan edi... Sodiqdan ko'kragini qochirib xanjarlik qo'lini bo'shatdi va Sodiqning xanjari bir-ikki qayta uning orqasig'a kuchsiz-kuchsiz kelib tekkan edi. Xanjarini ikkinchi urishda Sodiq bo'shshdi va qo'lidan xanjari tushdi.

— Homid akangga juda ham mehribon ekansan, Sodiq!
— dedi bosib yotqan joyidan Otabek. — Joningni ham unga qurbon qilding!

Sodiq ingranib qo'ydi.

— Kim xirillaydir? — dedi yaqinlashib kelgan Homid.

— Tezroq keling, Homid aka, Otabekni o'ldirdik! — dedi shoshib Otabek.

— Ah! — deb yurib keldi Homid.

Otabek Sodiqni qoldirib, Homidning xanjarlik qo'lini ushlab oldi.

— Mutal o'ldi. Sodiq ham o'lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldiq!

Homid qo'lini bo'shatishqa tirishar ekan, Otabek salmoqqina qilib dedi:

— Ortiqcha oshiqmangiz, Homidboy, men sizning xanjarlik qo‘lingizni bo‘shataman hozir, ammo shungacha ikki og‘iz so‘zim bor!

Homid hanuz qo‘lini bo‘shatishg‘a kuchanar edi.

— Kuchanmangiz, Homidboy!

— Mard yigit bo‘lsang, qo‘limni qo‘y!

— Oshiqma, qo‘yaman, — dedi Otabek. Shu choqda oyoq ostida yotgan Sodiq ko‘tarilib-ko‘tarilib o‘zini otmoqda edi. Otabek Sodiqdan nariroqqa Homidni boshladi. Homid tig‘izlik bilan surildi. Xanjarlik qo‘li bilan tuynukka ishorat qilib, Otabek so‘z boshladi:

— Siz mendan ham yaxshi bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarg‘a solg‘an, cheksiz jonivorliqlar ishlatkan va hisobsiz tillalar to‘kdirgan, nihoyat shu daqiqag‘a keltirib to‘xtatqan birav uxlaydir. Agarda sizning manim tilimdan yozib bergan taloq xatingiz durust hisoblanmasa, bu uxlag‘uchi manim halol rafiqam bo‘lib, ikki yildan beri man ham uning ko‘yida sargardonman. Demak, siz bilan manim oramizda shu birav uchun kurash boradir. Lekin siz shu choqqacha manim ustimdan muvaffaqiyat qozonib keldingiz: qora choponchi, deb dor ostilarig‘acha olib bordingiz, Musulmonqul qo‘lig‘a topshirdingiz, bu ishlaringiz foydasiz chiqg‘ach, ismimdan taloqnoma yozib, ikki yillab rafiqamdan ayirib turishka muvaffaq bo‘ldingiz, bu orada gunohsiz bir yigitni ham o‘ldirdingiz. Nihoyat o‘g‘riliq yo‘lig‘a tushib, ikki yigitingizni manim qo‘limda halok qildingiz... Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliqlaringizda haqlimi edingiz?

— Haqli edim! — dedi Homid va siltab xanjarlik qo‘lini bo‘shatib, chalqancha yiqildi. Ul qo‘lini bo‘shatqan choqdayoq Otabek ishini to‘g‘rilag‘an, ya‘ni Homidning qornini shir etdirib, yorib yuborg‘an edi. Homid holsizlanib yotar ekan, uni besh qadam naridan kuzatib tek turg‘uchi Otabek zaharxanda ichida: “Haqlimi eding?” — deb so‘radi. Kuchanib: “Haqli edim!” — dedi Homid va qo‘lidag‘i xanjarni Otabekka otdi, xanjar Otabekning yonig‘a kelib tushdi...

Otabek kushxona o‘rnidan eshikka qarab qo‘zg‘alg‘an edi, Homiddan besh-olti qadam narida yotqan Sodiqning “hmmm” degan tovshi eshitildi. Otabekning ko‘ngli allanuchuklangani holda maydondan chiqdi...



Savol va topshiriqlar

1. O‘zbek oyimning tabiatiga xos jihatlarga e‘tibor qiling.
2. Asar matnidan uning “dumbul”ligini anglatuvchi o‘rinlarni aniqlab, sharhlang.
3. O‘zbek oyimning Otabek bilan munosabati tasviriga tayanib, uning shaxsiyati haqida to‘xtaling.
4. Romandagi: **“Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilgan ishlari, albatta, noma‘qul bo‘lmas, — dedi. Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi”** tasviridagi ota holati sababini izohlang.
5. Ikkinchi marta uylanish haqidagi talabga ko‘nishga majbur bo‘lgan Otabekning ruhiy holatini izohlashga urinig.
6. Yusufbek hojining: **“Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang biravni ishondirib qo‘yg‘an: bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma‘qul ko‘rinmaydir”**, — degan mulohazasini sharhlang.
7. Asarda qonli voqea ro‘y beradigan kecha qanday tasvirlanganiga asoslanib, yozuvchi mahoratiga to‘xtaling.
8. Asardagi: **“...uning bu binog‘a iltifotsiz qarashi mumkin emas edi”** tasvirini izohlang.
9. **“Otabek ko‘zini to‘ldirib binog‘a qaradi, go‘yo bu qarashda ul dunyo malaki bilan vidolashar edi”** so‘zlari qahramonning qanday holatini ifodalayotir?
10. Mutal bilan Sodiqning suhbatini tasviriga asoslanib, ularning shaxsiyatini tavsiflang.
11. Roman matniga tayanib, Homidning fe‘liga xos xususiyatlarni izohlang.

* * *

Shaxsiy hayoti yo‘lga tushmagan Otabek yurtning notinchligi, elning abgorligini ko‘rib, yana azob chekadi. Shunday kunlarning birida Toshkentda qipchoqlar ayovsiz qirg‘in qilganini ko‘radi va bu ishga o‘rdaga yaqin kishilardan bo‘lmish otasi Yusufbek hoji ham qatnashgan deb o‘ylab otasidan ranjiydi. Buni sezgan donishmand ota mamlakatning ayanchli buguni va tahlikali ertasi to‘g‘risida o‘g‘li bilan fikrlashadi...

... Yusufbek hoji ertalab choyni Otabek bilan birga ichish uchun mehmonxonag'a chiqdi. Otabek tersaygancha kelib choyg'a o'lturdi, otasig'a salom bermadi. Chunki ul o'z otasini qipchoq qirg'inining bosh omillaridan deb qaror qo'yg'an edi. Choy yarimlay yozdi. Oradan churq etkan so'z chiqmadi.

Nihoyat, o'g'lig'a yengillik berish niyatida hoji tilga keldi:

— Xafa bo'lma, o'g'lim.

— Sizlarga o'xshab, — dedi istehzolanib, — quvonaymi?

Hoji o'g'lining qandog' fikrda va nima uchun tersayganini bildi.

— Yanglishasan, o'g'lim.

— Rajabbeknikidagi majlisda, — dedi zaharxanda bilan, — bu yirtqichlarning rejachisi kim edi?

Hoji entikdi va:

— Rajabbeknikida bo'lg'an majlisni sen bilasanmi?.. — deb so'radi.

— Bilaman.

— Bilsang, — dedi hoji, — manim ustimga mundog' tuhmat orttirishdan uyal, bola!

— Rajabbeknikida bu kengash bo'lmag'anmidi?

— Bo'lg'an edi.

— Bo'lg'an bo'lsa, tag'in nega o'zingizni quruqqa olasiz?

Yusufbek hoji boladan kulgandek qilib iljaydi.

— Ba'zi yengil muhokamalaring onangnikidan qolishmaydir, Otabek! — dedi. — Majlisdan xabaring bo'lg'an bo'lsa, kim qaysi fikrda qolg'anini ham bilarsan?

— Yo'q.

— Majlisda nimadan bahs qiling'anini-chi?

— Majlisda nima muzokarasi bo'lg'anini ham bilmayman va lekin o'sha majlis faqat qipchoqlarga qatli om uchun yig'ilgan ekan, deb kecha ishondim. Majlisingiz a'zolarining sizdan boshqasi nega yigit to'plab, Qo'qong'a ketdilar va ular Qo'qong'a yetmaslaridanoq nega bu vahshat boshlandi?

— Bu muhokamang to'g'ri, ammo otangni ham shu jonivorlar orasig'a qo'shib o'ltirishing qisqalig'ingdir, — dedi. Ko'ziga yosh oldi. — O'zing o'ylab ko'r o'g'lim, o'z qo'limiz bilan o'zimiznikini kesishimizdan mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka ishtirok qilg'an bo'lsam, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo'shilishqan bo'laman? Agarda manim yurt o'ramoqqa va shu vosita bilan

boyluk orttirmoqqa orzum bo'lsa, boshqalardan ham ko'ra o'z o'g'limg'a — senga ma'lum bo'lmasmidi? Nega har bir narsaga yetkan aqling shunga qolg'anda oqsaydir. Nega yong'an yurakimga yana sen ham zahar sochasan?!

Titralib va to'lqunlanib aytilgan bu so'zlar Otabekni o'kintirdi, o'lganning ustiga chiqib tepish qabilidan bo'lg'an o'z hujumining haqsiz ekaniga tushundi.

Yusufbek hoji bitta-bitta yotig'i bilan majlis haqida bayon qilib, o'zining qarshi tushkanini va ularga uqdira olmagan keyin, majlisni tashlab chiqib ketkanini so'zladı...

...Otabek o'zining o'rinsiz gapidan uyalg'annamo yerga qaradi va bir muncha vaqt fikrga ketib o'lturg'andan so'ng so'radi:

— Yirtqichlarning bu qirg'indan qanday muddaolari hosil bo'larkin?

— Maqsadlari juda ochiq, — dedi hoji, — bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammad o'rnig'a minmakchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Xon ersa Musulmonqulg'a bo'lg'an adovatini qipchoqni qirib alamdanda chiqmoqchi. Menga qolsa o'rtada shundan boshqa hech gap yo'q, o'g'lim, — dedi va biroz to'xtab davom etdi: — Men ko'b umrimni shu yurtning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni, ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb-ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizg'a aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg'an bo'lsaq, yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsaq o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'ynig'a o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz.

ОУ ЕТАК БИЛАН УОПІЛМАС

Choy tugalgan edi. Otabek fotiha o'qub, o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi.

— Turma!

Yusufbek hoji tarafidan berilgan amirona bu buyruq Otabekni qaytadan o'lturub qolishg'a majbur etdi va otasig'a "nima xizmatingiz bor?" degandek qilib qaradi. Yusufbek hoji bir so'z demasdan sallasini olib tizzasiga qo'ydi, bosh qashinib yana sallasini kiydi. Dadasining salla olib, bosh qashinishi keyinidan ko'pincha o'zini bir tergov ostida ko'rar edi. Shuning uchun yana bir martaba dadasiga qarab qo'ydi.

Chini bilan ham hojining tusidagi boyag'i hasrat va qayg'u alomatlari yo'qolib, ularning joyini sharq otalig'i vaziyati oldi.

— Marg'ilonda nima ishlar qilding?

Kutilmagan bu savolga Otabek nima deb aytishni bilmay qoldi. Javob o'rnig'a havli tomong'a qarandi.

— Sendan so'rayapman, Otabek.

— Sizga xabar berguvchi nima ishlar qilg'animni ham aytkandir...

— Jo'n odamlar qatorida odam o'ldirib yurdim, degin?

Otabekning yuzida kulimsirash bilindi.

— Jo'n odamlar qatorida emas, — dedi, — majburlar qatorida, zo'rlang'anlar qatorida...

Hoji davom etdi:

— Kishining boshig'a bir ish tushkanda, darrav biravdan kengash va yordam so'raydir. Hatto, ota-onasidan ham sir saqlag'an bir yigitni o'z o'g'lim bo'lib chiqq'ani menga qiziq ko'rinadir. Qayin otang menga bir xat yozibdir, o'qib-o'qib mazmunig'a tushunolmay hayron bo'laman. Oy sayin Marg'ilon borib turar edi-ku, deb o'ylayman. Xatni ikki-uch qayta o'qib chiqq'andan keyin, bilsam haqiqat shul emish... Mirzakarimning yozg'anig'a qarag'anda bir muncha yang'lishliq undan ham o'tkan ko'rinadir va lekin sening bolalig'ing oldida uniki holvadir... Yaxshiki, bu aqlsizlig'ing boshqalarning boshig'a ko'ringan... O'zing ayt, agar menga shu kasalingni bir og'iz bildirsang, men qayin otangg'a xat yozmasmi edim, Hasanalini yuborib, haqiqatni ochmasmidim va bu taqdirda odam o'ldirib yurishlarga qanday hojat qolar edi?

Otabekning boshig'a bu gaplarning bir harfi bo'lsin o'rnashmas va o'zi kutkan natijaga borib yetish uchungina qiynalar edi.

— Shuncha ishlarni qilib, nega oxirida qayin otangg'a yo'liqmay kelding?

— Shunga majbur edim.

— Marg‘ilong‘a endi qachon borasan?

Otabek o‘ylanib qoldi. Chunki bu “qachon borish” masalasini yaxshilab yeshmak kerak edi va uni yeshmak ham qiyin edi. Uzoq o‘ylag‘andan keyin:

— Ma‘lum emas, — dedi.

Garchi, bekning yuragi hozir bo‘lsa ham Marg‘ilonga qarab uchishka tayyor edi. Biroq uning yuragidan ham kuchlik bo‘lg‘an yana bir narsa bu “borish” masalasini chuvaltirib “ma‘lum emas” bir holg‘a qo‘yg‘an edi.

— Qayin otang kelin bolani olib shu hafta ichi yo‘lg‘a chiqmoqchi ekan, — dedi hoji, — tarixiga qaraganda xatning yozilg‘anig‘a o‘n kunlab bor, ehtimolki, erta-indin kelib qolsalar. To‘rdagi uyni bo‘shatdirib, polos yozish kerak edi...

Ul bu gapni eshitar ekan, borliq-yo‘qliq — ishqilib, allaqandog‘ qiziq bir holat kechirdi. Issig‘ bir narsa badaniga tegib ketgandek, hurkinib qo‘ydi va “nihoyat endimi?” degandek entikdi. Ko‘z o‘ngidan biravning surati o‘tib sarxushlandi va til bilan onglatib bo‘lmasliq bir sog‘inish chidamsizligi ichida bu ivir-jivir holatdan gangib ko‘z ochdi.

Ko‘z ochdi, biroq o‘ziga “nima deysan” deb qarab turg‘uchi otasig‘a muvofiq bir javob berishni bilmadi. Yusufbek hoji esa o‘g‘lining bu sustlikka o‘xshab ko‘ringan holini yomong‘a yo‘ydi. Marg‘ilon degan shahardan katta o‘zini kichik olib qizi ila kelayotg‘an Mirzakarim akaga o‘g‘lining xo‘rliq keltirishidan cho‘chidi. Shunga binoan Otabekni epaqag‘a olish uchun unga kulki tuyulgan bir qancha nasihatlarini chizdi:

— O‘g‘lim, — dedi, — siylag‘anni siylash kerak, endi senga qadrsizlang‘an bo‘lsalar, ammo bizning qoshimizda ularning qadr-qiymatlari yuqori, qutidor bo‘lsa ko‘z ochib ko‘rgan qudamiz, xotining bo‘lsa bosh kelinimiz. Agar sen meni otam deydirgan bo‘lsang, shularning ko‘nglini olmoqqa tirish. Qayin otangdan meni quvladi, deb ko‘ngling olinmasin, chunki u bechora ham bir shaytonning vasvasasi bilan bu xatoga tushgan. Har holda hurmatlarini bajo keltir, Marg‘ilon degan shahardan sening yuzingni, deb keladirlar.

Otasining bu so‘zlari uning istiqboli uchun yaxshi ta‘minotlar berar, go‘yo majburiyat ostida ota nasihatini quloqg‘a oladirg‘andek bo‘yin egib o‘lturar edi.

— Agar ularning kelish kunlarini aniq bilsak, — dedi hoji, — sen yo‘ldan qarshilab kirar eding.

Otabek javob bermadi.

— Har holda o‘ttasi¹ kun mo‘ljal, sen chiqmasang ham Hasanali chiqsin yo‘lg‘a.

— Mayli, chiqsin, — dedi Otabek

MAKTUB

Hoji shu javobdan keyin o‘g‘lidan bir daraja qanoatlandi va choyga fotiha o‘qub, o‘rnidan turar chog‘ida yonidan bir xat chiqarib uzatdi:

— Xatning ichidan chiqdi. Kelindan senga bo‘lsa kerak, — dedi.

Otabek maktubni olib otasining ketishini kutib qoldi. Xat sakkiz buklanib, qizil ipak bilan bir-ikki yeridan chatilg‘an va Otabekka atalg‘an edi. Otasining uzoqlashishini kutar ekan, yuragi yomonlag‘an o‘dek tipirchilar edi. Tikilgan ipaklarni so‘kdi va maktubni ochib och ko‘zini ishka qo‘ydi:

“Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidin, Majnun ishqida yig‘lag‘an Layli otidan sizga boshimdag‘i sochlarimning tuklaricha behad salom. Mendan haddu hisobsiz gunoh, sizdan-kechirish. O‘tgan ishga salovot. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni eska olish manim uchun o‘sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo Men unutdim. Shuning uchun so‘zimni o‘zimning oxirgi, ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.

Siz — qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo‘lib qochqansiz, ikki yil bo‘yi Marg‘ilon kelib yurishlaringizni Men o‘zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz —dushmanlaringizdan o‘ch olish uchun bo‘lg‘onini ongladim. Yo‘qsa, meni ko‘rar edingiz, ko‘rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko‘rar edilar, to‘yar edilar... Men kabi baxtsiz, Men kabi g‘ovg‘asi ko‘b sizni zeriktirib, jondan to‘ydirg‘an bo‘lsa, ajab emaski, qocha boshlag‘ansiz... Qochsangiz qochib ko‘ringiz, ammo Men bu

¹ O‘ttasi — indin, ertadan keyin.

kundan boshlab birovlarini quvishqa bel bog‘ladim: otam bilan onam rafoqatlarida¹ xizmatizingizga — cho‘rilig‘ingizga erta-indin yuraman, suyganingiz kundashim oldida qadru-qiymatining nima bo‘lishini ham bilaman... Siz olijanobsiz: eski qadrdonliq xurmatiga ko‘ngil uchun kulib boqarsiz... Loqaq shugina bilan ham baxtsizni mas‘uda qilarsiz, ammo... suyganingiz — kenjangizning jekirishlaridan, qarg‘anishlaridan behad qo‘rqaman, o‘zimda yo‘q qo‘rqaman. Shu yaqin oradagi uning bilan bo‘ladirgan mas‘ud daqiqalaringizda xudo yo‘liga va‘da olingiz — meni og‘ritmasin, raqibam keldi deb o‘ylamasin. Nihoyati maqsadim ikki do‘stka bir cho‘rilik va shu munosabat bilan birovlarini ko‘rib yurish...

Xatim oxirida shuni ham aytib qo‘yay: o‘ch qaytib, Men ham ko‘chadan haydalmasam edi, degan havf hamisha ko‘nglimda. Agar xudo yarlaqab eshikingizda o‘rinlashib olsam, uyog‘ini o‘zim bilar edim...

*Erta-indin ko‘zimga yo‘l ko‘rinur,
Yo‘l bosishliq ko‘ngilga bir umr ko‘rinur...*

3-nchi hamal, Marg‘ilon Kumushingiz yozdim”

Otabek Kumush aytgandek kundash, ya‘ni Zaynabdan uncha qo‘rqmasa ham, ammo dardning eng da‘vosizi bo‘lg‘an onasi to‘g‘risida yuragi titrardi. Umrining eng qiymatlik kunlarini og‘ulagan, ikki yil bo‘yi da‘vosiz dardga muhtalo qilgan, yaramas va ishonchsiz yo‘llarda sanqishiga sabab bo‘lg‘an o‘z onasi emasmi? Va raqiblarga, dushmanlarga yo‘l ochib bergan shu onaning orzusi emasmi?

Butun shaharni alg‘oq-dalg‘oq qilib ko‘hlik qiz qidirgan, nihoyat chiroylilikda tanho, aqllilikda yakto topib, to‘ylar, tomoshalar, orzu va havaslar bilan o‘g‘lig‘a: “Xotin bu bo‘libdir!” — degan iftixor va mag‘ruriyat ila taqdim qilgan suyukli kelini ustiga go‘yo o‘chakishgandek keladirgan Marg‘ilon parisiga nima va qanday muomala qilar edi.

Kumush kundashining jekirishidagina cho‘chig‘an bo‘lsa, Otabek bu cho‘chishni o‘zining ko‘lagasida qoldiraturgan onasi to‘g‘risida tamom aqlini yo‘qotib qo‘ydi.

¹ Rafoqat - hamrohlik, yo‘ldoshlik, eshlik.



Savol va topshiriqlar

1. Otabekning otasiga sovuq muomalasi sababini izohlang.
2. Yusufbek hoji aytgan gaplarga tayanib, uning shaxsiga tavsif bering.
3. Romanda Turkistonning ayanchli ahvoli qanday aks ettirilganini izohlang.
4. Yurtimizdan o'tgan daholarga Yusufbek hoji munosabati ifodasida to'xtaling.
5. Otabekning: **“men bu jonivorliqni xoh-noxoh ishlashka majbur bo'ldim”** tarzidagi iqrorini tushuntiring.
6. Ota-bolaning savol-javobiga asoslanib, ularning shaxslarini tavsiflang.
7. Otabekning: “...natijani tezroq eshitib olish uchun yuragi qaynagan oshdek shopirilar edi” holati sababini toping.
8. Kumushning maktubiga tayanib, uning shaxsiyatiga xos xususiyatlarga to'xtaling.



“O‘TKAN KUNLAR” ROMANI TO‘G‘RISIDA

“O‘tkan kunlar” Abdulla Qodiriyning bosh asaridir. Yozuvchi asar mavzusini bekorga o‘tgan kunlardan olmagan. Chunki buguni mustahkam, ertasi poydor bo‘lishini istagan har bir xalq o‘tmishini yaxshi bilishi kerak. Adib millat tarixining “eng kirlik, qora kunlari”ni tasvirlash asnosida xalqning asl ma’naviy qiyofasini ko‘rsatib berishga harakat qiladi.

Yozuvchi asarda tarixning eng chirkin paytlarida ham millat hayotida yuksak ma’naviyatli yorqin shaxslar va yorug‘ jihatlar bo‘lganligini aks ettiradi. Lekin u romanda xalq va uning o‘tmishini quruq ulug‘lash yo‘lidan bormaydi. Balki millat tabiatidagi qoloqlik va tanazzulga sabab bo‘lgan illatlarni ham shafqatsiz xolislik bilan ko‘rsatib beradi. Millat o‘zining yuksak va tuban jihatlari bilan to‘la aks ettirilgani uchun ham asar xalq orasida keng tarqalib ketdi.

O‘z davrida “O‘tkan kunlar” romanini o‘qish uchun navbat kutib turganlarning sanog‘iga yetib bo‘lmas, asarni to‘la yodlab olgan kitobxonlar ham bor edi.

Asarda xalqning baxtsizligi, millat rahnamolarining kaltabinligi, hukmdorlarning ma’rifatsizligi, ommaning johilligi, yurt mustaqilligining omonatligi va deyarli hech kimni qiziqtirmasligi singari holatlar bot-bot tilga olingan. Romanning bosh qahramonlari novdaligidayoq xazon etilgan, asar ulkan fojia bilan tugagan bo‘lsa-da, asarda qandaydir bir yorug‘ ruh hukmronlik qiladi.

Kitobxon g‘am botqog‘iga botib ketmaydi. Chunki adib odamlarimiz, xalqimiz tiynatidagi nurli jihatlarni sezgirlik bilan ilg‘ab olib, tasvirlay biladi. Shu bois barcha umidlari kesilgan taqdirlar tasviri bilan tanishgan kishida ham umidsizlik kayfiyati paydo bo‘lmaydi.

Chinakam iste’dod xususiy holat misolida hodisaga tegishli umumiy belgilarni ko‘ra olish qudratiga ega bo‘ladi. “O‘tkan kunlar”da Qodiriy iste’dodining shu jihatlari namoyon bo‘lgan.

O‘zbek xalqining go‘zal odobi, cheksiz andishasi, katta-kichik, uzoq-yaqin kishilarning o‘zaro muomalamunosabatlaridagi yuksak madaniyat, millat turmush yo‘sinidagi o‘xshashi yo‘q tartiblar yozuvchining san’atkorligi

tufayli shu qadar mahorat bilan jonli badiiy lavhalarda ko'rsatilganki, o'quvchi bu xildagi tirikchilik yo'rig'iga ega xalq va uning yetuk vakillarini yaxshi ko'rib qoladi.

Qizig'i shundaki, yozuvchi biror o'rinda bo'lsin xalqni maqtamaydi, atay uning fazilatlarini ko'rsatishga urinmaydi, tashviq qilmaydi. Lekin qahramonlar tutumini shunday tasvirlaydi, odamlarning o'zaro munosabatlarini shunday ko'rsatadiki, o'zbeklar haqida ijobiy fikrga o'z-o'zidan kelinaveradi.

Bu jihatdan, ayniqsa, Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Alim, Hasanali, Mirzakarim qutidor, Oftob oyim, Normuhammad singari personajlar tasviri xarakterlidir. Asarda bu timsollarning taqdir sinovlaridan o'tishdagi sifatlarini tasvirlash asnosida xalqning fazilatleri namoyon qilingan.



Nazariy ma'lumot

BADIIY ASARDA MILLIY RUH IFODASI

Bu dunyoda odamlar millatlarga bo'linib yashashadi. Har bir millat o'z makonida o'ziga xos tartibga amal qilib yashagani uchun boshqa millatlardan qaysidir bir jihatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, har bir odam, katta-kichikligidan qat'i nazar, bolaligidan o'zining biror millatga tegishli ekanligini bilib o'sadi. Oila va maktabdagi tarbiya tufayli odamda: “Men — o'zbekman” yoki “Men — qozoqman” va hokazo degan tuyg'u bo'ladi. Xuddi shu tuyg'u milliy ruhdur. Millatning o'ziga xosligini tayin etadigan eng katta va asosiy belgi esa tildir. Tilini unutgan odamda millat tuyg'usi bo'lmaydi.

Milliylik — tashqi belgi emas. U ichki holatdir. Biror millatning vakili o'zining qaysi millatga mansubligini bilsa va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg'usi shakllangan bo'ladi. Kimki bunga befarq qarasa, uning tashqi ko'rinishi, kiyimi, qosh-u ko'zi, hujjatiga nima deb yozilganidan qat'i nazar milliy tuyg'udan mahrum kishidir. Millatini tanimaslik va u bilan faxrlanmaslik ulkan baxtsizlikdir. Bu ota-onadan yuz o'girishga o'xshagan nuqsondir.

Ota-onani tanlab bo'lmaganidek, millatni ham tanlamaydilar. Uni boricha qabul qilish, avaylash, uning har jihatdan yuksalishiga hissa qo'shish lozim. Ayni bir millatga xos ruhiy-ma'naviy xususiyatlarning badiiy adabiyotda aks etishi badiiy asarning milliyliigi bo'ladi. Adabiyotda milliylik bu — asarda xalq, millat turmushi manzaralarini, milliy urf-odatlarini, millat vakillariga xos xususiyatlarni ko'rsatishdangina iborat emas. Biror asl badiiy asar, avvalo, o'zbek tilida yaratilganining o'zi bilan milliydir. Agar unda faqat til emas, balki qahramonlarning tabiatini tasvirlash yo'sini ham betakror o'zbekcha bo'lsa, u chinakam eskirmas milliy asar hisoblanadi.

“O'tkan kunlar” romani milliy ruh juda bo'rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. Otabekning ota-onasi bilan, qutidor va Oftob oyimlarning qudalari hamda kuyovlari bilan munosabatlari tasvirlangan o'rinlarda faqat o'zbekkagina

xos fikrlash, soʻzlash va harakat qilish yoʻsini juda goʻzal koʻrsatilgan.

Romanda milliy ruhning ifodasi milliy urf-odatlar aks etgan manzaralar tasviridagina emas, balki qahramonlarning sezimlari, oʻy-xayollari aks ettirilgan oʻrinlarda ham bor boʻyi bilan namoyon boʻlgan. Otabek oʻziga mutlaqo yoqmaydigan qaror qabul qilgan onasiga qoʻpollik qilmaydi, yuziga tik qaramaydi. Shuningdek, oʻgʻil biror oʻrinda oʻzining Kumushni yaxshi koʻrishini ota-onasiga ochiq aytmaydi. Zaynabni sevmasligini ham ochiq aytib, ayol koʻnglini yaralagisi kelmaydi. Otabek bunday harakatlardan andisha qiladi, oʻziga nomunosib hisoblaydi.

Romanning Kumush Otabekni nikoh kechasida koʻrib: “Siz oʻshami?” — deb entikkanida, er-xotin uzoq judolikdan keyin diydor koʻrishgach, Kumush “Siz qochoqsiz” deb Otabekning yuziga sekingina shappatilab, erkalaganida, ikki sevishgan odam, munosabatlarini oʻzgalarga koʻz-koʻz qilmagani singari lavhalar tasvirida milliy ruh yorqin namoyon boʻladi.

Asarning milliyliги odamdagi ayni shunday nozik, koʻzga tashlanavermaydigan jihatlarni topib tasvirlashda namoyon boʻladi. Milliy ruh yaqqol aks etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatlari, oʻylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiliga mansub ekanligi oʻz-oʻzidan anglashilib turadi.



MUNDARIJA

Ruhiy kamolot vositasi.....	3
-----------------------------	---

XALQ OG‘ZAKI IJODI

“Alpomish” dostoni	8
Xalq dostonlari va ularning turlari	43

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy	45
Rasul alayhissalom vafoti so‘zlari	49
“Qissai Rabg‘uziy” dan olingan parcha haqida	55
Alisher Navoiy	59
“Farhod va Shirin” dostoni	65
“Farhod va Shirin” dostoni haqida.....	88
Komil inson.....	93
Zahiriddin Muhammad Bobur	95
Lirik asarlari	99
“Boburnoma”	107
Memuar asar	111
Boborahim Mashrab.....	113
Mashrab she‘riyatidan.....	118
“O‘ttum” radifli g‘azali tahlili.....	119
“O‘rtar” g‘azalining tahlili	123
Tasavvuf va tasavvuf atamalari.....	128
Muhammad Rizo Ogahiy.....	130
“Ustina” radifli g‘azali tahlili.....	138
Lirika.....	134
Ogohnoma.....	144
Tashxis.....	147
Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat.....	149
She‘rlar.....	153
G‘azal.....	162

YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI

Abdulla Qodiriy.....	163
O‘tkan kunlar.....	166
“O‘tkan kunlar” romani to‘g‘risida.....	194
Badiiy asarda milliy ruh ifodasi.....	196

QOZOQBOY YO‘LDOSHEV, VALIJON QODIROV,
JALOLBEK YO‘LDOSHBEKOV

ADABIYOT

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik

I qism

(O‘zbek tilida)

Ijodiy guruh rahbari — Akbar Mirzo

<i>Muharrir</i>	Rauf Subhon
<i>Rassom</i>	Shamsiddin Ahmedov
<i>Texnik muharrir</i>	Ulyana Kim
<i>Musahhiha</i>	Nigora Kabirova
<i>Sahifalovchi</i>	Halima Xo‘jayeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 185. Bosishga ruxsat etildi 17. 04. 2014.

Bichimi 60 x 90 $\frac{1}{16}$ Kegli 11. “Tayms” garniturasida.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 14,60. Nashr b.t. 12,5.

Nusxasi 426 540 dona.

Buyurtma

Darslikning qayta ishlangan va to‘ldirilgan original-maketi
“Mitti Yulduz” MCHJ ga tegishli bo‘lib, uning kompyuter bazasida
nashrga tayyorlandi. Navoiy ko‘chasi, 30.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.